



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

MAHORATLI O'QITUVCHI-MALAKALI MILLAT: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

3-to'plam: Yangi bilim va kompetensiyalar davrida ijtimoiy fanlarning
rivojlanish ahamiyati.



TOSHKENT – 2024

www.trm.uz

UO'K: 37.011.31-051:316.42(575.1)(08)

КБК: 74.244.9

“Mahoratli o’qituvchi – malakali millat: uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.

Toshkent 2024-yil 9-avgust, 296 bet.

Tahrir hay’ati:

Pardayeva Mexriniso Doniyorovna
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich
Maxmudov Anvarjon Zokirovich
Sangirova Zamira Bozorboyevna
Xalmonov Umid Ochilovich
Abdiraimov Shohruh Samad o‘g’li
Elmurodov Alimardon Nuriddinovich
Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna
Berdiyeva Gulbahor Raimqulovna
Samadov Jahongir Rustamqul o‘g’li
Rayimkulov Akmal Akbaraliyevich
Akmalov Abbas Akramovich
Qushnazarov Rasul Atabekovich
Suyarov Kusharbay Tashbayevich
Hojiyeva Mayram Toshpo‘latovna
Sarimova Dildora Soatalievna
Alovddinova Nilufar Mansurovna
Abralova Munojat Djurayevna
Toxirov O‘ktamjon Otaqo‘ziyevich

Maqolalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma, statistik ma’lumotlar, ilmiy-nazariy fikrlar va ma’lumotlar aniqligi hamda stilistikasiga mualliflar javobgardir.

© Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

MUNDARIJA

3-to‘plam: Yangi bilim va kompetensiyalar davrida ijtimoiy fanlarning rivojlanish ahamiyati.

1.	Abdumannopov M.M. Talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	6
2.	Abdurahimova M.M. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning uzuksiz o‘qitilishi: tajriba va yangicha yondashuvlar	9
3.	Alimova G.K. Inklyuziv ta’limda pedagoglar mahoratini rivojlantirish	11
4.	Allambergenov A.J. Mahoratlari o‘qituvchi – malakali tyutor: uzuksiz individual rivojlanishni funksional boshqarishdagi muammo va yechimlari	17
5.	Amanova D.K. Ta’limning funksiyalari va zamonaviy paradigmalari	20
6.	Azimova U.L. Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol usullarning ahamiyati	25
7.	Bekchonova Sh.B. Kiberpedagogikada amaliy fanlar o‘qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishning samarali usullari	29
8.	Djurayeva P.S. Malaka oshirish tizimida ijtimoiy-emotsional ta’lim olishga oid mashg’ulot: ijtimoiy xabardorlik, inklyuzivlikni tashkil etish samaradorligi	32
9.	Elmurodova I.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish faoliyatini fanlararo integratsiyalash mexanizmi	37
10.	Fayzullayeva D.R. Yangi bilim va kompensatsiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati	41
11.	Gapparova M. Bo‘lajak mutaxassislarda boshqaruvin madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish omillari	45
12.	Gulamova D.M. O‘zbekiston respublikasida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda kreativ yondashuv	50
13.	Gulyamov Dj.R., Mansurova S.R., Abdusalomova M.Sh. Ta’limni gender yondashuv asosida tashkil etishning bolalarni bilish jarayoniga ta’siri	53
14.	Ibragimova R. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishda tarbiyachi-pedagog obrazi	58
15.	Ibrohimova S.A. Yangi bilim va kompetensiyalar davrida tarix fanini o‘qitilishi	61
16.	Jabbarov Z.R. Muhandislik qo‘sishlari harbiy xizmatchilarining ta’lim sifatini takomillashtirishda pedagogning o‘rni	63
17.	Jo‘rayev U.T. “Mahoratlari o‘qituvchi – malakali millat, malakali millat esa qudratli davlat deganidir”.	67
18.	Kabilov D., Sadikov H. Zamonaviy o‘qituvchi-pedagoglar uchun zarur bo‘lgan hayotiy va kasbiy ko‘nikmalar	72
19.	Kenjaboyev Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarda individual kasbiy rivojlanishni baholashning mazmuni	78
21.	Mansurov F.N. Inson kapitalini rivojlantirishning nazariy asoslari va ta’limdagi o‘zgarishlarni boshqarish	82
22.	Mo‘minova N.S. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kasbiy kompitentligini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvi. O‘zbekistonda masofaviy ta’limning rivojlanish istiqbollari va tendensiyalari	85

23.	Mo'minov S.A., Nazarova M.E. Mahoratli maxsus pedagogni inklyuziv jamiyatni qurishdagi o'rni va ahamiyati	89
22.	Muradov I.T. Uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi muammo va yechimlarni aniqlashda umumta'lim maktablari o'qituvchilarining bir kunlik hayoti solishtirmasi	95
23.	Murodova S.U. Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomi, ta'larning yangi bosqichidagi muammo va yechimlar	98
24.	Nazarov E.S., Boboyev M.M. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq qaror va buyruqlarni zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda soddalashtirish	101
25.	Nurmanova D.J. Sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorlik ishlari (bo'lajak boshlang'ich ta'lil o'qituvchilar uchun)	106
26.	Omonov F. Davlat boshqaruvi tizimini samaradorligini oshirishda xorijiy tajriba	113
27.	Pulatova M.K. O'quv jarayonini strategik yondashuvlar asosida tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va didaktik imkoniyatlari	116
28.	Qahhorov R.S. Yangi bilimlar taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni	119
29.	Qahhorov S.Q., Ilxomov X.I. Oliy ta'lil tizimida talabalarda mustaqil ta'lil texnologiyasini shakllantirish omillari	123
30.	Qayumov Sh.A. Pedagogik strategiyalar orqali talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirish	128
31.	Qayumova M.K. Pedagogika oliy ta'lil muassasalarida steam va integratsiya	132
32.	Rasulov S.A. Ixtisoslashtirilgan umumta'lil maktablari faoliyatini monitoring qilish tamoyillari, bosqichlari va usullari	134
33.	Raximov A.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'rni	139
34.	Raxmanova M.Q. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	147
35.	Rayimkulov A.A. Professional ta'lil mutaxassislarini kasbga yo'naltirish, shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	152
36.	Rizayeva M.M. Maktabgacha ta'lil tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi va zamonaviy yondashuvlar	155
37.	Ruzikulov R.R. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanish	159
38.	Ruziyev D.A. Ijtimoiy fanlarni o'qitilishida o'qituvchiga qo'yiladigan talab va kompetensiyalar	163
39.	Sadikova F.M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalar mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish	167
40.	Sakibayeva T.I. PISA xalqaro tadqiqotlariga o'quvchilar savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari	172
41.	Sharopova M.S. O'qitish vositalarining ta'lil-tarbiya jarayonidagi ahamiyati	180
42.	Shoyqulov B.B., Ravshanov S.M. Texnikumlarda kredit-modul tizimini joriy etish	183
43.	Suyunov G.N. Innovatsion yondashuv asosida geografiya darslari samaradorligini oshirish metodlari	189
44.	Taylakova D.N. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lil jarayonida pedagogik kompetensiyalarni yangi metodikalar orqali qo'llash mahorati	194
45.	To'rayeva N.N., Abduraxmonov D.D. Zamonaviy pedagogning kasbiy kompitentligini rivojlantirishning metodlari	198
46.	To'rayev A.B. Mukammal yo'lga qo'yilgan boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar ahamiyati	201

47.	Umarova N.X. Ta'lif sifatini oshirishda maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalari pedagogik muammo sifatida	206
48.	Usmonova G. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati	210
49.	Uzakov K.P. Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kometentligini rivojlanishida trening mashg'ulotlarining roli	213
50.	Xabibulloev D.S. Ta'lifni rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalari	221
51.	Xalimov M.R. Ta'lif tizimida inson resurslarini boshqarish tizimiga zamonaviy yondashuvlar	224
52.	Xalmonov. U. O. Ta'lif sifatini ta'minlashda pedagogik boshqaruv tizimini demokratlash-tirish	227
53.	Xo'jaqulov B.A. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida strategik boshqaruvni takomillashtirish jarayonlariga yondashuvlarni tatbiq etish	231
54.	Xoshimova M.N. Pedagoglarni ta'lif-tarbiya jarayonidagi kreativ-pedagogik yondashuvlar – muammolar, izlanishlar va yechimlar	235
55.	Холмуродова Ш.М. Кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимида масофадан ўқитишнинг сифат бошқаруви	239
56.	Xudaykulov X.Dj. Pedagogning o'z kasbining yetuk mutaxassisasi sifatida kreativ yondashish mahorati	242
57.	Xujaaxmedova S.X. Mamlakatimizda nodavlat va notijorat tashkilotlar erkinligi va faoliyati	248
58.	Xurramov A.V. Ta'lif muassasalarida rahbarlarning mas'uliyatini rivojlantirish mexanizmlari	252
59.	Xusenova Z. Barkamol avlod tarbiyasida ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati	257
60.	Khushiyeva G.M. The quality and quality of preparing students for school increase efficiencyimportant tasks	259
61.	Xoshimov S.N. Talabalarning tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashda raqamli vositalar va platformalarning tutgan o'rni	263
62.	Yodgarov S. va boshqalar. Maktabgacha ta'lif tashkilotida ta'lif jarayoniga innovatsion ta'lif metodlarini qo'llash	266
63.	Yusupova G.Z. Yangi avlod darsliklari - hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish omili	271
64.	Абдуллаева Н.М. Совершенствование системы подготовки высококвалифицированных специалистов, соответствующих мировым стандартам	276
65.	Джураев Р.Х. Инновационная деятельность и творческое саморазвитие педагога	282
66.	Дусмурадов Қ.Э. Виды развивающих игр и инновационные методы технологии	285
67.	Ибраимов Х.И. Проблемы и решения подготовки высококвалифицированного педагога в системе непрерывного профессионального образования как фундамент развитой нации	288
68.	Медетова Р.М., Исмаилов Д.Т. Роль квалифицированного педагога в совершенствовании коммуникативной культуры курсантов высших военных образовательных учреждений на основе интегративного подхода	292

TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li
*Farg'onan davlat universiteti talabalar registrator bo'limi boshlig'i,
matematika kafedrasи katta o'qituvchisi
sohibjon0910@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta'lif tushunchalarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, mustaqil ta'lif, talaba, tyutorlik, o'qituvchi, mustaqil ta'lif olish kompetensiyasi.

Аннотация: В данной статье раскрыто содержание и сущность понятия самостоятельного образования. Обосновано также, что развитие самостоятельной учебной компетентности студентов является актуальной проблемой.

Ключевые слова: самостоятельная работа, самостоятельное обучение, студент, репетиторство, преподаватель, компетентность самостоятельного обучения.

Annotation: This article describes the content and essence of the concepts of independent education. It is also justified that the development of independent learning competence of students is an urgent issue.

Key words: independent work, independent education, student, tutoring, teacher, competence of independent education.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarni raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa xizmatlar sifatini oshirish, foydalanuvchilarning vaqt va mablag'ini tejash imkonini bermoqda. Ayniqsa, oliy ta'lif tizimida o'quv jarayonini raqamlashtirish ishlarining jadal sur'atlarda o'sib borayotganligi talabalar, ularning ota-onalariga qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda. Binobarin, mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasiga hamohang tarzda Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan "Raqamli universitet" loyihasi bu boradagi eng muhim yutuqlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida talabalarning mustaqil ishlari amaliy ta'lif jarayonini tashkil etishning asosiy shakli sifatida e'tirof etilmoqda, shuning uchun uning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu dolzarb masala amaliy ta'lif tarkibiga mustaqil ta'lif strategiyasini kiritish taqozosi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'lif muhim o'rinni tutadi. R.X.Djurayevning fikricha, "Mustaqil ta'lif – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, hiss tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi" [1; 43-47-b].

B.R.Muqimov tadqiqotlarida mustaqil ishlarni aynan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish, mashg'ulotlarni loyihalash, AKTlardan va internet tarmog'idan ta'lifiy maqsadlarda foydalanish, rolli o'yinlar, amaliy o'yinlar, kompyuter o'yinlari, mustaqil bilim olish va boshqa interfaol metod va usullar talabalarda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini oshiradi [2; 137-b.].

N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'lifning auditoriyadagi (hamkorlikdagi mustaqil ta'lif) va auditoriyadan tashqari (individual mustaqil) tashkil etuvchilari haqida fikr yuritgan. "Mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Mustaqil bilim olishda didaktika tamoyillari hamda nazariya va pedagogik texnologiyalar asosiy rol o'ynaydi" [3; 147-b.].

N.A.Muslimovning fikricha, "Mustaqil ta'lif – bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir" [4; 85-b.].

MUHOKAMA

Mustaqil ta'lifning maqsadi – bo'lg'usi mutaxassislarda yangi bilimlarni qidirish uchun axborotlardan foydalanish, uning asosida esa yangi axborotlarni yaratish ehtiyoji va qobiliyatini rivojlantirish. Shundan kelib chiqib "mustaqil ta'lif" va "mustaqil ish" masalalari ilmiy-nazariy tomondan hamda mustaqil ta'limga bo'lgan muhim didaktik talablar asosida ochib berildi. Unda dastlabki manba sifatida o'rganilayotgan voqeа-hodisaga nisbatan didaktik yondashuvlar aniqlanadi, o'rganilayotgan masalani mustaqil ravishda hal qila olishga, bilimning qat'iy ishonchga o'tishidagi muhim shartlardan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarkibiga kiruvchi modul texnologiyasi asosida masofaviy ta'lif platformasi talabalarning mustaqil ravishda bilimlarni egallashlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini rivojlantirishda "tyutorlik" tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish zarur. Tyutorlik tizimida talabaga o'quv fani bo'yicha nomuayyan davrda bilim, tushuncha va ko'nikmalar beriladi. Tyutorlik individual yoki jamoaviy shakllarda tashkil etilishi mumkin.

Talabalarning mustaqil ishi Davlat ta'lif standarti, malaka talablari, fanning ishchi dasturi hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va o'quv-uslubiy majmua, uslubiy ko'rsatmalarining mazmuni bo'yicha aniqlanadi.

Mustaqil ish bir tomondan faollikni, mustaqil ish tutishni, idrok etish, bilish, qiziqishlarni rag'batlantiruvchi, jadallashtiruvchi faoliyat turi, ya'ni mustaqil ta'lifning asosi, kelgusida malaka oshirishga turki sifatida, boshqa tomondan esa talabalarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilishni ta'minlab beruvchi tadbirlar yoki pedagogik shart-sharoitlar tizimi sifatida qaraladi.

Zamonaviy mustaqil ta'lifni masofaviy ta'lif xizmatlari, platformalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Matematika o'qitish metodikasi", "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi", "Matematika kursini takrorlash" va "Matematika" fanlaridan o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda ham vebinar, onlayn, "Blended learning", "Flipped classroom" texnologiyalarini tizimli qo'llash asosiy planga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Vebinar, onlayn texnologiyalar - bu internet orqali ta'lif faoliyati (kurslar, treninglar, mahorat darslari).

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'qitishning bunday usuli juda sodda va qulaydir. "blended learning" – (aralash ta'lif) texnologiyasi an'anaviy ta'lif va masofaviy ta'lifning unsurlari, xususan, mustaqil ta'lifning uyg'unlashuvi demakdir. "flipped classroom" - (almashadirilgan sinf) texnologiyasida odatda auditoriyada va auditoriyadan tashqarida bajariladigan faoliyatlar o'rni almashtiriladi.

NATIJA

Farg'ona davlat universiteti tomonidan 2023-yil 30-avgustda tasdiqlangan 60110500 – "Boshlang'ich ta'lif" ta'lif yo'nalishining 1-2-3-4-kurslari o'quv rejasi tahlil qilindi. Unga ko'ra barcha ta'lif yo'nalishlaridagi bakalavr tayyorlash o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54-60 soatgacha qilib belgilangan. Shundan auditoriya o'quv ishlari hajmi haftasiga 24-32 soat, qolgan qismi, ya'ni 22-36 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lif (shundan 12-20 soati mustaqil ish) olishga qaratilgan. Jami auditoriya o'quv yuklamasi 2880-4352 soat, talaba mustaqil ta'limga 2992-3240 soat ajratilgan bo'lib, umumiy o'quv yuklamaning 41-52% ini tashkil qiladi. Agar "Matematika o'qitish metodikasi" o'quv fanini oladigan bo'lsak, kurslar kesimi bo'yicha 288-330 soat auditoriya o'quv yuklamasi, mustaqil ta'limga esa 192-360 soat ajratilgan, ya'ni umumiy soatlarning 40-52% ini tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchidan talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish bo'yicha Davlat ta'lif standarti talablarini bajarish uchun talabalarda mustaqil ta'lif olish ko'nikmalarini shakllantirish, talabalar mustaqil ishlarning bajarilishini nazorat qilish uchun o'qituvchi va talabaning auditoriya hamda auditoriyadan tashqari ishlari me'yorlarini ishlab chiqish, mustaqil ta'lifni tashkil etish bo'yicha yangi avlod o'quv-uslubiy adabiyotlar ishlanmalarini yaratish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования. Автореф. дис. док. пед. наук. Санкт-Петербург 1995. 43-47 ст
2. Muqimov B.R. Mustaqil ish jarayonida talabalarning didaktik kompetensiyasini interfaol ta'lif metodlari asosida takomillashtirish. 13.00.05 – Kasb-hunar ta'lifi nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., - 2020. -137-b.
3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta'lif texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2016. – 147-b.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'lifi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis. ... pedagogika fan. doktori - Toshkent, 2007. – 349- b.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ O'QITILISHI: TAJRIBA VA YANGICHA YONDASHUVLAR

Abdurahimova Mashrabxon Mahmudovna

*Farg'ona shahri Prezident maktabi ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining muhimligini va uning ta'lif sifati hamda milliy rivojlanishga ta'sirini ko'rib chiqadi. Tadqiqotda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi asosiy muammolar, jumladan, motivatsiya yetishmasligi, resurslar tanqisligi va qo'llab-quvvatlash tizimining sustligi tahlil qilinadi. Muammolarni hal qilish uchun taklif etilgan yechimlar, jumladan, maosh va mehnat sharoitlarini yaxshilash, uzluksiz ta'lif tizimini rivojlanish, resurslarni oshirish va qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish kabilar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, Ta'lif sifati, motivatsiya, resurslar yetishmasligi, qo'llab-quvvatlash tizimi, uzluksiz ta'lif, mifik va ta'lif muassasalari, milliy rivojlanish.

Kirish

Ta'lif sifati bevosita o'qituvchilarning malakasi va kasbiy rivojlanishiga bog'liqdir. Mahoratlari o'qituvchilar millatning umumiyligi rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalari zamonaviy ta'lif tizimining asosi bo'lib, talabalarning muvaffaqiyati va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz ta'lif va amaliy tajribaga asoslanadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun turli bosqichlar va metodlarni qo'llash zarur. Avvalo, o'qituvchilarni tayyorlash bosqichida ularga yuqori sifatli ta'lif berilishi kerak. Bu bosqichda kelajakdagi o'qituvchilar nazariy bilimlarni egallashlari va amaliy tajribani

o'zlashtirishlari zarur. Ikkinchidan, o'qituvchilar ish joyiga kelgach, ularga doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlari yaratilishi kerak. Bu jarayon uzlusiz bo'lishi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari va uslublarini o'z ichiga olishi lozim.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi nafaqat ularning o'zlariga, balki butun ta'lim tizimiga va jamiyatga katta foyda keltiradi. Malakali o'qituvchilar talabalarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularga sifatli va zamonaviy ta'lim beradi. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodning bilimli, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu tariqa, milliy rivojlanish uchun zarur bo'lgan intellektual salohiyat shakllanadi.

Biroq, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi jarayonida ko'plab muammolar mavjud. Ular dan biri - motivatsiya yetishmasligi. Ko'pgina o'qituvchilar kasbiy rivojlanishga yetarli darajada qiziqish bildirmaydilar. Bu holat ko'pincha past maosh va qoniqarsiz mehnat sharoitlari bilan bog'liqdir. O'qituvchilar yuqori maosh va yaxshi mehnat sharoitlariga ega bo'lgan taqdirdagina o'z kasbiy rivojlanishlariga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Resurslar yetishmasligi ham o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida katta muammo hisoblanadi. Ko'pgina maktablar va ta'lim muassasalarini o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari va treninglar bilan ta'minlanmagan. Bu holat o'qituvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, ta'lim tizimidagi qo'llab-quvvatlash tizimining sustligi ham muhim muammolardan biridir. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun samarali qo'llab-quvvatlash tizimlari kerak, lekin ko'pgina maktablar va ta'lim muassasalarida bunday tizimlar mavjud emas yoki samarali ishlamaydi.

Yuqorida hal qilish uchun bir qancha yechimlar taklif etiladi. Avvalo, o'qituvchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va maoshlarini oshirish orqali ularning motivatsiyasini oshirish mumkin. Shuningdek, o'qituvchilar uchun uzlusiz kasbiy rivojlanish dasturlarini tashkil etish va kengaytirish lozim. Bu dasturlar orqali o'qituvchilar zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv materiallari va treninglar uchun ajratiladigan resurslarni ko'paytirish ham muhimdir. Bu orqali o'qituvchilar kerakli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Nihoyat, maktablar va ta'lim muassasalarida samarali qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarur. Bu tizimlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi va ularning ish faoliyatini samarali tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili (materiallar va metodlar)

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, bu jarayon ko'p bosqichli va murakkabdир. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'limi, ish joyidagi tajriba va malaka oshirish kurslari bu jarayonning muhim qismlaridir. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali kasbiy rivojlanish uchun tizimli va muntazam metodlar kerak bo'ladi.

Muhokama

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi asosiy muammolar quyidagilardir:

- **Motivatsiya yetishmasligi:** ko'pgina o'qituvchilar kasbiy rivojlanishga yetarli darajada qiziqish bildirmaydilar. Bu holat ko'pincha past maosh va mehnat sharoitlari bilan bog'liqdir.
- **Resurslar yetishmasligi:** o'qituvchilarning rivojlanishi uchun kerakli resurslar, masalan, o'quv materiallari va treninglar yetarli emas.
- **Qo'llab-quvvatlash tizimining sustligi:** maktablar va ta'lim muassasalaridagi qo'llab-quvvatlash tizimlari ko'pincha samarali emas.

Bu muammolarni hal qilish uchun bir qancha yechimlar taklif etiladi:

- **Maosh va sharoitlarni yaxshilash:** o'qituvchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va maoshlarini oshirish motivatsiyani oshiradi.
- **Uzluksiz ta'lif tizimini rivojlanirish:** o'qituvchilar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini tashkil etish va kengaytirish lozim.
- **Resurslarni oshirish:** o'quv materiallari va treninglar uchun ajratiladigan resurslarni ko'paytirish kerak.
- **Qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish:** maktablarda va ta'lif muassasalarida samarali qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarur.

Natija

Yuqoridagi yechimlarni amalga oshirish orqali o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ta'lif sifati va millatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi mamlakat ta'lif tizimining muvaffaqiyati uchun muhimdir. Motivatsiyani oshirish, resurslarni ko'paytirish va samarali qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Shu tariqa, mahoratl o'qituvchi – malakali millat tamoyilini amalga oshirishga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva, S. (2015). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. Ismoilov, M. (2017). Ta'lifda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Karimov, I. (2014). Ta'lif-tarbiya tizimini isloh qilishda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
4. Nazarova, G. (2016). Pedagogik mahorat va kasbiy rivojlanish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Rahimov, Z. (2018). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOGLAR MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Alimova Gulmira Kabuljanovna
*O'zbekiston Respublikasi Ta'lifni rivojlanirish respublika
ilmiy-metodik markazi bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali inklyuziv ta'limda faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning pedagogik mahoratini rivojlanirish uslublari yoritilgan. Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan va boshqa (sog'lom) bolalarni ta'lif olishida o'qitish usullarini sezilarli darajada

oshirish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagoglarning o‘z ustida qanday ishlashi va qay tartibda psixologik yordam olishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, inklyuziv ta’lim konsepsiysi, differensial yondashuv, maxsus texnologiyalar, interaktiv materiallar, vizual va audial materiallar, emotsiyal holat, korreksiya.

Аннотация: В данной статье описаны методы развития педагогического мастерства педагогов, работающих в сфере инклюзивного образования. Показаны значительное совершенствование методов обучения, использование новых педагогических технологий, способы работы педагогов над собой и способы получения психологической помощи в обучении детей с особыми образовательными потребностями и других (здоровых) детей.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, концепция инклюзивного образования, дифференцированный подход, специальные технологии, интерактивные материалы, визуальные и аудиоматериалы, эмоциональное состояние, коррекция.

Annotation: This article describes the methods of developing the pedagogical skills of pedagogues working in inclusive education. Significant improvement of teaching methods, use of new pedagogical technologies, how pedagogues work on themselves and how to receive psychological help in the education of children with special educational needs and other (healthy) children are shown.

Key words: Inclusive education, concept of inclusive education, differential approach, special technologies, interactive materials, visual and audio materials, emotional state, correction.

Inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalg etgan holda to‘sizsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minalashdan iborat.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi esa — ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minalash va barcha bolalarning individual xususiyatlardan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta’lim tizimi barcha o‘quvchilarga, shu jumladan inklyuziv ta’lim sinfga qabul qilingan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagoglarning bilim va ko‘nikmalariga bog‘liq. Quyida inklyuziv ta’limda pedagoglar mahoratini rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar va uslublar berib o‘tiladi.

Inklyuziv ta’lim konsepsiysi va asoslari:

Inklyuziv ta’lim nima? Inklyuziv ta’lim-barcha bolalarga, ularning ehtiyojlari, imkoniyatlari va farqlaridan qat’iy nazar, birgalikda ta’lim olish imkoniyatini yaratishdir. Bu jarayonda pedagoglarning mahorati va ularga qo‘yiladigan talablar alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’limda pedagoglar quyidagi asosiy mahoratlarini rivojlantirishlari lozim:

1. Maxsus ehtiyojlarni aniqlash va baholash: Pedagoglar o‘quvchilarning maxsus ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlash va ularga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish qobiliyatiga

ega bo'lishlari kerak.

2. Ta'lif jarayonini moslashtirish: O'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan dars rejalarini tuzish va amalga oshirish qobiliyati mavjud bo'lishi.

3. Differensial yondashuv: Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitish metodikalarini qo'llay olishi.

Pedagogik trening, seminar va kurslar:

O'qituvchilarni tayyorlash: Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlash maxsus treninglar va kurslar orqali amalga oshiriladi. Bunda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1. Nazariy bilimlarni oshirish: Inklyuziv ta'limming nazariy asoslarini o'rganish, maxsus ehtiyojlar va ularning turlari haqida ma'lumot olish.

2. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: Darslar va amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga individual yondashish uslublarini o'rganish.

3. Kasbiy malakalarni oshirish: Doimiy ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish.

Maxsus ta'lif texnologiyalari va vositalari:

Maxsus texnologiyalardan foydalanish: Inklyuziv ta'limda o'qituvchilarning texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yordamchi texnologiyalar: Alovida ta'lif ehtiyojları bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot va qurilmalardan foydalanish.

2. Interaktiv materiallar: Ta'lif jarayonida interaktiv doskalar, tabletlar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanish.

3. Vizual va audio materiallar: Darslarni qiziqarli va tushunarli qilish uchun rasmlar, videolar va audial materiallardan foydalanish.

Hamkorlik va o'zaro tajriba almashish.

Hamkorlikning ahamiyati: Inklyuziv ta'limda pedagoglar o'zaro tajriba almashish va hamkorlik qilish orqali o'z mahoratlarini rivojlantirishlari mumkin. Bu jarayonda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Mentorlik dasturlari: Tajribali o'qituvchilar yangi boshlovchi pedagoglarga maslahat berish va amaliy yordam ko'rsatish.

2. Seminar va konferensiylar: Inklyuziv ta'lif bo'yicha o'quv seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish.

3. O'zaro dars tahlili: Dars jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish orqali o'zaro tajriba almashish. Yuqori fan o'qituvchilarining boshlang'ich inklyuziv ta'lif sinfiga dars tahliliga kirishi, bunda asosan pedagogning bolaga yondashuvi va baholashini kuzatish.

Emotsional va psixologik qo'llab-quvvatlash:

Pedagoglarning psixologik holati: Inklyuziv ta'limda pedagoglarning emotsiyonal va psixologik holati ham muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar quyidagi usullar yordamida o'zlarining ruhiy holatini yaxshilashlari mumkin:

1. Stressni boshqarish: Stressni boshqarish texnikalarini o'rganish va amalda qo'llash.

2. Psixologik treninglar: Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash bo'yicha treninglarda ishtirok etish.

3. O'z-o'zini rivojlantirish: Shaxsiy rivojlanish va motivatsiya bo'yicha kitoblar o'qish va treninglarda qatnashish.

Undan tashqari o'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida ishtirokini ta'minlash hamda ularning individual (moslashtirilgan) ta'lif dasturlarini o'zlashtirishda tyutorlar yaqindan yordamlashadi.

Tyutor:

ta'lif jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi;

ta'lif jarayonining individuallashuvi (individual ta'lif dasturlarini tuzish va sh.k.) uchun sharoitlar yaratadi;

o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lif standartlari talablariga muvofiq darajada o'zlashtirishiga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi;

ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lif oluvchilarning ta'limiylarini qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi;

Maktab psixologi har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash, maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

o'quvchini individual rivojlantirish (oilada va inklyuziv ta'lif sharoitida ta'lif berish) dasturlarini tuzish;

o'quvchilar bilan guruhlarda mashg'ulotlar olib borish;

o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Maktabdagi **jismoniy tarbiya o'qituvchisi** o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

o'quvchilarning jismoniy va psixik xususiyatlardan kelib chiqib ular bilan yakka va guruqli tarzda mashg'ulotlar olib borish;

o'quvchilar bilan birgalikda sport tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish;

ota-onalarga o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish sohasida maslahatlar berish;

tibbiyot xodimlari bilan birgalikda har bir o'quvchining jismoniy yuklamasini tartibga solish.

Maktabda **tibbiyot xodimi** tomonidan o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Tibbiyot xodimi:

o'quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi;

korreksion-pedagogik ta'lif jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi;

o'quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ularni sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi.

Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lif oladigan mактабгача va umumta'lif maktablarida faoliyat yuritadigan maxsus va boshlang'ich, fan o'qituvchilari pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bir qancha **talablarni e'tiborga olishlari zarur:**

- o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta'lif jarayonining ta'lif-tarbiyaviy, korreksion va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilay olishi;

- ko'zlangan maqsadga muvofiq natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik rivojlantiruvchi texnologiyalarni tanlash;

- pedagogik jarayonda foydalilanidigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;

- o'quvchilarning mustaqil ta'lif jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- o'quvchilarning shaxsiy qiziqish hamda imkoniyatlarini inobatga olib, individual yondashuvni tashkil eta olishi;

- maktab, oila va mahallaning o'zaro aloqasini ta'minlash;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni ko'ra olish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko'ra istiqbolli rejalar tuzib borish;

- darsda usul va vositalarni tizimli qo'llash rejasini tuza olishi;

- ta'lif jarayonini texnik vositalardan unumli foydalanib o'quvchining bilim darajasini boyitib borishi;

- ta'lifni ruhiy jarayonlarni rivojlantirish bilan birgalikda olib borishi;

- pedagog kasbiy mahoratiga ega bo'lgan holda o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni kashf qila olish;

- o'quvchilarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O'qituvchining didaktik vositalarni darsda samarali qo'llay olishi uning kasbiy malakasini belgilab beradi. Yetarli darajada didaktik vositalar bilan quollangan va ulardan samarali, o'z o'rнida mahorat bilan foydalana oлган pedagog har doim malakali, ilg'or ustoz hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar-da quyidagi shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

- o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib berilgan topshiriqlar ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi;

- o'zidagi muammolardan uyalmay, fikrlarini erkin bayon etishga o'rganadilar;

- jamoada ishlash malakasini egallaydi;
- guruhdagilar yordamini qabul qilish va ularga yordamga shay turish malakasi shakllanadi;
- jarayonning oddiydan murakkabga tomon borishiga ko'ra turli topshiriplarni mustaqil bajarishga o'rganadi;
- o'z-o'zini va o'rtoqlarini to'g'ri baholashga odatlanadilar.
- ta'lism oluvchilarining xatti-harakatlarining natijalarini hamda o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini oldindan his eta oladi;
- ta'lism-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchilarda ijobjiy o'quv motivlarini shakllantirish va vaziyatlarga ko'ra o'qituvchilik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi hosil bo'ladi;
- o'quvchilar bilan o'zaro til topishish, ya'ni muloqotga oson kirishish ko'nikmasi hosil bo'ladi;
- o'quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undash ko'nikmasi rivojlanadi;
- axborotlar toplash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishslash va axborotlar almashinish ko'nikmasi shakllanadi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishni boshlaydi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- ta'lism muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va boshqarishni boshlaydi;
- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'ladi;
- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishga harakati uyg'onadi;
- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmasi uyg'onadi, o'zgalar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni tushuna boshlaydi.

Xulosa

Inklyuziv ta'limga pedagoglar mahoratini rivojlantirish zamonaviy ta'limga tizimining muhim yo'naliishlaridan biridir. Pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish orqali inklyuziv ta'limga muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va barcha o'quvchilarining rivojlanishi ta'minlanadi. Bu jarayonda nazariy va amaliy bilimlarni oshirish, maxsus texnologiyalaridan foydalanish, o'zaro hamkorlik va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shu kabilalar orqali alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishiga barcha bilan birdek ta'limga tarbiya olishishiga sezilarli hissa qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohidagi ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limga tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabr "Alohidagi ta'limga

ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli Qarori.

3. Inklyuziv ta'lifning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish nomli metodik tavsija, S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova. Toshkent 2022-yil.
4. "Inklyuziv ta'lifning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami: Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Inklyuziv ta'lif sharoitida maxsus pedagoglar faoliyatini modellashtirishning korreksion metodik aspektlari, 373-bet. 2024-yil 21-may Qo'qon.

MAHORATLI O'QITUVCHI – MALAKALI TYUTOR: UZLUKSIZ INDIVIDUAL RIVOJLANISHNI FUNKSIONAL BOSHQARISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLARI

Allambergenov Abat Janabergenovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lif oluvchilarning uzluksiz individual rivojlanish trayektoriyasini jahondagi ta'lifning rivojlanish tendensiyasi natijasi sifatida o'qituvchilik faoliyatining zamonaviy ko'rinishining biri sifatida tyutorlik faoliyati yordamida funksional boshqarish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Mahoratli o'qituvchi, malakali tyutor, individual ta'lif trayektoriyasi, tyutorlik faoliyati, funksional boshqarish, strategik boshqaruv.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы функционального управления непрерывной индивидуальной траекторией развития обучающихся с помощью тьюторской деятельности как одного из современных видов педагогической деятельности, являющегося результатом тенденции развития мирового образования.

Ключевые слова. Мастерский преподаватель, квалифицированный тьютор, индивидуальная образовательная траектория, тьюторская деятельность, функциональное управление, стратегическое управление.

Annotation. This article highlights the issues of functional management of students' continuous individual development trajectory through tyutoring activities as one of the modern forms of teaching activities, resulting from the trend of global education development.

Keywords. Masterful teacher, qualified tyutor, individual educational trajectory, tyutoring activities, functional management, strategic management.

Kirish. Jahonda ta'lifni raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, ta'lif oluvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini rivojlantirish keng joriy etilmoqda. Bu jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan 2030 yilgacha xalqaro ta'lif konsepsiyasidagi "butun hayot davomida sifatli ta'lif olishga imkoniyat yaratish" [1] vazifasini ro'yobga

chiqarish uchun ta'limga individuallashtirish va uni funksional boshqarishda o'qituvchilik kasbi bilan bir qatorda tyutorlik faoliyatidan foydalanishga qaratilgan texnologiyalarni tatbiq etishga mo'ljallangan ilg'or texnologiyalardan amaliyotda foydalanish bo'yicha samarali ishlarni olib borishga imkon beradi.

Bugungi kunda jahonda va respublikamizda ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etishda nafaqat bilim va ko'nikmalarini ta'limga oluvchilarga o'rgatish, balki har bir ta'limga oluvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga ham ko'proq e'tibor berilmoqda. Bunda ta'limga oluvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini funksional boshqarishda yuqori bilim va ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyyotlar tahlili. Mamlakatimizda ta'limga olish jarayonini individuallashtirish, o'quv jarayonini tyutorlik faoliyati asosida funksional boshqarishga oid masalalar bo'yicha A.Asqarov, A.Ibragimov, A.Ibragimov, D.Sayfurov, D.Yeldasheva va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ta'limga olishini individual ta'limga trayektoriyasi asosida amalga oshirish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha Ye.Andreyeva, Ye.Belitskaya, L.Bendova, O.Britskaya, L.Gedgafova, Ye.Gnatishina, N.Gorodetskaya, M.Yefimenko, Ye.Komrakov, A.Nikolayeva, N.Nikulicheva, V.Silitskiy va boshqalar tadqiqot olib borgan. Xorijiy davlatlarda mustaqil ta'limga olish jarayonini individual ta'limga trayektoriyasi asosida amalga oshirish va boshqa yo'nalishlar A.Bates, Z.Berge, S.Mrozowski, C.David, T.Fortunate, A.Gaba va boshqalar tadqiqot ishlarni olib borgan.

Mazkur tadqiqotchilardan ayrimlari tyutorlik faoliyatining tezkor rivojlanishi natijasida XXI asrga kelib, tyutor yangi kasb sifatida o'qituvchi funksiyasini o'zgartirish, kengaytirish zarurligi va yangi lavozim majburiyatini belgilash lozimligini ko'rsatmoqda [2].

S.Shennikov tyutorni – "o'qituvchi-konsultant sifatida – ta'limga individual ta'limga olishni tashkil etuvchi mutaxassis" [7] sifatida ko'rsatgan.

T.Konyanina tyutor – "individual ta'limga olish jarayoniga, yakka tartibdagi ta'limga oid izlanishga ko'maklashuvchi, qo'llab-quvvatlovchi, individual ta'limga loyihalari va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi" [3] deb ta'kidlagan.

P.Shedrovitskiy tyutorni – "o'quvchiga individual ta'limga dasturini ishlab chiqishda, unga ta'limga jarayoni va uning alohida elementlariga moslashishida yordam bera oladigan konsultant ...» [6] sifatida ifodalagan.

Muhokama. Tyutorlik faoliyati ta'limga jarayonida ta'limga oluvchilarni qo'llab-quvvatlash va maqsadga yo'naltirishning samarali vositasi bo'lib, uning nazariy asoslari ta'limga jarayonining muhim komponenti hisoblanadi. Tyutorlik faoliyatining tarixi an'anaviy tarzda o'qituvchi-ta'limga oluvchilar munosabatlariiga asoslanadi va bu munosabatlar orqali ta'limga oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi ta'minlanadi. Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadi – ta'limga oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatishdir

Bu borada bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va tyutorlik faoliyati funksiyalariga oid tajribalar mavjudligini ko'rish mumkin, xususan mavjud tajribalarda, ta'limga oluvchilarni, bo'lg'usi o'qituvchilik faoliyatida tyutorlik funksiyalarini bajarishga tayyorlash masalalari tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda kasbiy ta'limga o'qituvchisining tyutor sifatidagi faoliyati mazmuni va mohiyati, uning roli (maslahatchi, tarbiyachi, tashkilotchi) va funksiyalari

(diagnostik, tahliliy, loyihalash, amalga oshirish, qayta aloqa, axborot, uslubiy, motivatsion va kommunikativ) ochib berilgan, shuningdek bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tyutorlik funksiyalarini amalga oshirishga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlari aniqlangan va ilmiy asoslangan [2].

Tyutorlar ta'lim oluvchilarning ta'lim va kasbiy maqsadlariga erishish yo'lida uni qo'llab-quvvatlaydigan va yo'naltiruvchi maslahatchilardir. Ular ta'lim oluvchilarga bilimlarni yetkazish bilan birga, mustaqil ravishda rejalashtirish, tanqidiy fikrlash va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu yo'nalishda tyutorlar bir qator asosiy vazifalarni bajaradi. Xususan, individual rejalashtirish uchun ta'lim oluvchilarning unikal ehtiyojlari va maqsadlariga asoslangan individual o'quv rejasini yaratish va moslashtirishga yordam berish, motivatsiya va qo'llab-quvvatlash uchun o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar davrida ta'lim oluvchilarni maqsadga yo'naltirish, motivatsiya va emotsiyal qo'llab-quvvatlash, shuningdek baholash va fikr-mulohazalar yuritish uchun yutuqlarni muntazam baholash va o'quv jarayonini doimiy takomillashtirish uchun konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish.

Tadqiqotlar natijasida mahoratl o'qituvchi – malakali tyutor: uzlusiz individual rivojlanishdagi muammolarning yechimlari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

hujjatlarni yuritish sifatida dars jadvalini tuzish va yangilash, ta'lim oluvchilarning davomat va o'quv natijalarini ro'yxatga olish, o'quv jarayoniga oid hisobotlar va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish;

o'quv jarayonini tashkil etish maqsadida darslarni o'tkazish vaqtini va joyini muvofiqlashtirish, kerakli o'quv materiallari va resurslarni ta'minlash, o'quv rejasi va dasturlarini bajarilishini ta'minlash;

ta'lim muassasasi rahbariyati va o'qituvchilar bilan muloqot qilish uchun o'quv jarayoni tashkil etish masalalari bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyati bilan hamkorlik qilish, jadval va o'quv dasturlaridagi o'zgarishlarni muvofiqlashtirish, uslubiy va tashkiliy yig'ilishlarda qatnashish;

ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim oluvchilarni boshqaruvi masalalar bo'yicha maslahat berish, kurslarga ro'yxatdan o'tish, hujjatlarni rasmiylashtirish, ta'lim oluvchilarga tashkiliy muammolarni hal qilishda yordam berish;

monitoring va hisobot berish uchun ta'lim oluvchilarning davomat va o'quv natijalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, o'quv jarayoni natijalari bo'yicha rahbariyat va boshqa manfaatdor tomonlar uchun hisobotlarni tayyorlash;

tadbirlarda ishtirok etishida ta'lim va o'quv jarayonidan tashqari tadbirlarni tashkil etish va qatnashish (konferensiyalar, seminarlar, uchrashuvlar), o'qituvchilarning malakasini oshirish va o'quv jarayonini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashish;

qidalar va normalarga rioya etilishini ta'minlash uchun ichki tartib-qoidalar va akademik intizomga rioya etilishini nazorat qilish, o'quv jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablarini bajarilishini ta'minlash.

Bu funksional boshqaruvgaga oid fikrlar tyutorga o'quv jarayonini samarali tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, bu bilan ta'lim oluvchilarning o'quv va rivojlanish sharoitlarini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta'lrim oluvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini strategik shakllantirish va tyutorlik faoliyati asosida funksional boshqarish ta'lrim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish, ta'lrim oluvchilarning individual ravishda shaxsiy va bo'lgusi kasbiy kompetentlik darajasining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Inncheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. Ефименко С.М. Подготовка будущих педагогов профессионального обучения к реализации функций тьютора: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: – Чебоксары, 2011. – 21 с.
3. Канянина Т.И. Роль тьютора в повышении ИКТ — компетентности педагогов: URL: <http://msk.ito.edu.ru/section/61/2974> (дата обращения: 08.06.2013).
4. Ковалева Т.М., Кобыща Е.И., Попова С.Ю., Теров А.А., Чередилина М.Ю. Профессия «тьютор». М.-2012. Тверь: «СФК-офис». –246 с
5. Лях А.Ю. Развивающий потенциал тьюторских технологий в системе обучения старших школьников // Образование и наука. 2013. № 10 (109). ст. 37–51
6. Шедровицкий П.Г. Проблема индивидуальности: сборник научных трудов по материалам IV Всероссийской научной тьюторской конференции. Томск, 2000. С. 13–25.
7. Щенников С.А Открытое дистанционное образование. — М.: Наука, 2002.— 527.

TA'LIMNING FUNKSIYALARI VA ZAMONAVIY PARADIGMALARI

Amanova Durdona Kaxramonovna

*Maktabgacha ta'lrim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
“Maktabgacha va musiqiy ta'lrim”kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: ta'lrim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Tizim esa mustaqil tushuncha sifatida o'zaro bog'langan ko'plab elementlarning tarkibiy qismlari o'rta-sidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir.

Kalit so'zlari: funksiya, ta'lrim vazifalari, didaktika, yaxlitligi, majmuaviyiligi, pedagogik paradigma.

Аннотация: образование важнейший и надежный способ приобретения систематических знаний. А система – это прочное единство и взаимная целостность между составляющими множества взаимосвязанных элементов как самостоятельного понятия.

Ключевые слова: функция, образовательные задачи, дидактика, целостность,

сложность, педагогическая парадигма,

Abstract: education is the most important and reliable way to acquire systematic knowledge. And the system is a strong unity and mutual integrity between the components of many interconnected elements as an independent concept.

Key words: function, educational tasks, didactics, integrity, complexity, pedagogical paradigm.

Ta'lism, shuningdek, shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayoni hamdir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi rolining ahamiyati o'quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rindi. Ta'lism jarayonining "yaxlitligi", "tizimliligi" va "majmuaviyligi"ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, ta'lism jarayonining yaxlitligi uning tizimliligi bilan uzbek bog'liqdir. Ta'limga asosan ikki tomonlama aloqa, ya'ni ta'lism olish va ta'lism berish xususiyatlari xosdir.

Ta'lism - o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanalib, bunda o'qituvchi o'quvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntiradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi va bu orqali o'quvchilarning bilim-ko'nikmalari yanada mustahkamlanadi. Har qanday ta'lism o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyatini, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'rganishga yo'naltirilgan faoliyatini, bosh-qacha qilib aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy bo'lgan o'zaro munosabatlarini aks ettiradi.

Yuqorida ta'llimning qisqacha mohiyati xususida so'z borgan bo'lsa, maqola davomida uning funksiyalari va zamonaviy paradigmalarini haqidagi ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin. Kalit so'zlar: ta'llimning mohiyati, ta'lism funksiyalarining o'ziga xosligi, zamonaviy-pedagogik paradigma va uning turlari mazmuni. Ta'lism jarayonining negizini o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limi faoliyatları tashkil etadi.

"Funksiya" tushunchasi - "ta'lism vazifalari" tushunchasiga yaqindir. Ta'lism funksiyasi ta'lism jarayoni mohiyatini ifoda etsa, vazifasi esa ta'llimning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Didaktika - ta'lism jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lism berish, rivojlantirish va tarbiyalash. Ta'lism jarayonining ta'lism berish funksiyasi - o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta'llimning natijasi sifatida egallangan bilimlarning to'laligi, tizimliligi, chuqurligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhim hisoblanadi. Bu kabi holatlar ta'lism jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalab beradi. Ta'lism jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga egadir.

Umumiyo ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallari dan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishslash, referat yozish, mustaqil ishni tashkil etish kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta'llimning rivojlantiruvchi funksiyasi - ta'lism jarayonida o'quvchiga berilgan bilimlarni o'zlashtirish mobaynida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini, ya'ni bilim darajasi oshishini

ifodalaydi. Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutq, fikrlash, sensorli-harakatli va hissiy-irodaviy sohalarning rivojlanishi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim - shaxsni har doim rivojlantiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchini har tomonlama rivojlanirish, birinchi navbatda, aqliy rivojlanirish, masalan, vaziyatni yoki predmetni analiz qildirish, taqqoslashga o'rgatish, turlarga ajratish, xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish, obyektlarning muhim belgilarni ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni o'rgatish, natijalarni tekshirish malakasini rivojlanirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ta'lim jarayoni tarbiyalov-chi xususiyatga ham ega.

Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik obyektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq, shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillarning ta'siri sababli qiyin kechadi.

Ta'limning tarbiyalash funksiyasi - turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o'rinda turadi. Qolaversa, ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori shakllantiriladi va dunyoqarashi kengayadi.

Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, u eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. Biroq, barcha o'quv fanlari ham birdek tarbiyalovchilik imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqoriligi barchamizga ayon. Ta'lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili - o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

Kengroq aytadigan bo'lsak, ta'lim muassasasida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechishi - ta'lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili sifatida nazarda tutilmoxda. O'qituvchi faoliyatining vazifasi -o'quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Pedagogik paradigma (yunoncha "paradeigma" so'zdan olingan bo'lib, "misol, namuna" degan ma'noni anglatadi) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida e'tirof etilgan nazariy va metodologik ko'rsatmalar to'plami hisoblanib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

-
1. An'anaviy-konservativ paradigma (bilim paradigmasi);
 2. Ratsionalistik (bixevoiristik) paradigma;
 3. Gumanistik (fenomenologik) paradigma;
 4. Texnokratik paradigma;
 5. Ezoterik paradigma;
 6. Noinstitutsional paradigma.

1. An'anaviy-konservativ paradigma (bilim paradigmasi)ga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi - "qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish". Ya'ni yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish, ularni yoshlarga yetkazish zarur, - degan g'oya ilgari suriladi. Shu bois ham ushbu paradigma (model) bilim paradigmasi ham deb ataladi.

2. Ratsionalistik (bixevoiristik) paradigma negizida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'lim muassasalarining vazifasi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablar va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga ko'ra esa ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlari ega. Ta'limning fenomenologik ("fenomen" yunoncha "phainomenon" – hisoblangan, ya'ni mashhur, alohida nodir odam ma'nosiga ega) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, erkin shaxs sifatida qaralgan o'rganuvchi erkin ijodkorona rivojlanar ekan.

4. Ezoterik paradigma (yunonchada "esoterikos" - ichki, sirli, yashirin ma'nolarga ega) mohiyati - haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlab keladigan model hisoblanadi. Bu paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmasligiga ishonishadi va unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

5. Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmanning asosiy maqsadi - amaliyotni takomillashirish asosida ta'lim oluvchilarga "aniq" ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim – katta kuchdir, shu bois har qanday shaxs qiymati uning o'rganish koeffitsiyenti, bilim olishi, shaxsiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan bilim yoki xulq-atvor egasi bo'lsagina qadriyat sifatida e'tirof etiladi degan g'oya ushbu paradigmanning mazmunini qamrab oladi.

6. Noinstitutional paradigma - ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy ta'lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim internet va kompyuterlar vositasida ta'lim dasturlariga muvofiq o'qitishni samarali deya hisoblaydi. Umuman olganda masofadan o'qitish ushbu paradigmanning bosh mazmunidir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e'tiborning boisi shundaki, faqat shaxsnинг kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo'la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagina uyg'onishi, taraqqiy etishi va shaxs kamolotini ta'minlashi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo'lini izlab topishi lozim. Bu borada uning ta'lim funksiyalarining o'ziga xos jihatlarini va zamonaviy ta'lim paradigma (model)lari mazmunini chuqur anglagan holda jarayonga tatbiq etishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-yanvar 2019-yildagi "Ta'lim sifatini nazorat

qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4119-soni Qarori.

2. Belova S.N., Shamova T.I., Ilyina I.V. Maktab ta'lifi natijalarini baholashning zamonaviy vositalari. - M.: Rossiya pedagogika jamiyati, 2007.
3. Kalnei V.A., Shishov S.E. "O'qituvchi-shogird" tizimida ta'lif sifatini monitoring qilish texnologiyasi. O'qituvchi uchun uslubiy qo'llanma. Rossiya pedagogika jamiyati. M.: - 1999-yil.
4. Farberman B., Musina R., Jumaboyeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishing zamonaviy usullari. -T., 2002.
5. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. -T.: "Fan" 1997 .
6. .. <http://m-eng.ru>
7. <http://fayllar.org>

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNING AHAMIYATI

Azimova Umida Latipovna

Buxoro shahar 20-sonli umumiy o'rta ta'lif
maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
umida9600045@gmail.com

Annotatsiya: maqolada ta'lif texnologiyalari va interfaol metodlarning o'quvchilar bilimini rivojlantirishdagi ahamiyati, darsda o'quvchilar faolligini oshirib ular orasida do'stona muhitni yuzaga keltiruvchi omil ekanligi, ularning komil inson bo'lib yetishishlarida hayotiy ko'nikma va axloqiy sifatlarning shakllantirishdagi o'rni va mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: indigo bolalari, innovatsion metodlar, interfaol metodlar, kreativlik, 4K modeli.

Аннотация: В статье освещается значение образовательных технологий и интерактивных методов в развитии знаний учащихся, повышение активности учащихся на уроке как фактор формирования у них дружеской атмосферы, роль и сущность в формировании жизненных навыков и нравственных качеств в их становлении совершенным человеком.

Ключевые слова: дети индиго, инновационные методы, креативность, модели 4K.

Annotation: the article highlights the importance of educational technologies and interactive methods in the development of students ' knowledge, the fact that increasing the activity of students in the lesson is a factor that creates a friendly environment among them, the role and essence of life skills and moral qualities in their development as a perfect person.

Keywords: indigo children, innovative methods, interactive methods, creativity, 4K model, creative.

Hozirgi kun ta'liming asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Ta'lif jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirish va o'quvchilarning puxta bilim egallashlarining garovidir.

Ona tili darslarida ta'lifning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o'rgatadi, ko'pchilik oldida o'z fikrini bayon etish, o'z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi.

Ta'lif-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni esda tutishi kerakki, dars o'quv-tajriba jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga o'rgatishi lozim. Darsda uch maqsad ko'zda tutiladi: ta'lif, tarbiya va rivojlantirish. Bu uch maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interfaol usullardan

foydalanib dars o'tish yaqindan ko'mak beradi. O'zlashtirilayotgan tajribani to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarga o'zaro ta'sir harakati orqali yo'naltirish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tishning asosi bo'lib, bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o'quvchilarni mustaqil ishlashga chorlaydi.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda o'rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishi, interfaol metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyat yaratishdir.

Darsda qo'yiladigan asosiy talablardan biri ta'lif metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir.

Interfaol usullardan foydalanishda o'qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- interfaol usullar, uning mazmun mohiyati;
- ta'lif maqsadlarini amalga oshirishda interfaol usullarning o'rni va roli;
- fanlar bo'yicha interfaol usullarni qo'llash tamoyillari;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlari;
- muammoli, rivojlantiruvchi ta'lif metodlari;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llari;
- o'quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
- ko'rsatmali o'qitish usullari;
- ta'lif-tarbiyani faollashtiruvchi omillar.

Interfaol usullarning ahamiyati

1. O'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.
2. O'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi. Umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birligida ko'mak beradilar.
3. Natijada o'quvchilar, o'qishga, ta'lif olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar.

Quyida interfaol usullarning ayrimlari bilan tanishib o'tamiz:

- | | |
|------------------------------|---|
| 1. Aqliy hujum | 2. Suhbat |
| 3. Juftlikda ishlash | 4. Kichik ma'ruza |
| 5. Rolli o'yinlar | 6. Bahs-munozara |
| 7. Sinkveyn | 8. Tushunchalar tahlili |
| 9. Idrok xaritasi | 10. FSMU (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) |
| 11. Tanqidiy fikrlash va h.k | |

Suhbat metodi- ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biridir. Bu ko'pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metoddha dars jarayoni savol-javob vositasi asosida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga savol berib ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni eslariga tushirish yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosalar chiqarishni taklif etish yo'li bilan bilim, ko'nikma va malakalar berish nazarda tutiladi. Suhbat metodi o'quvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini yuzaga keltiradi.

Kichik ma’ruza - o’tiladigan mavzuning mazmuni haqida kichik ma’lumot beriladi. So’ng mavzu bo'yicha guruhlarda ishlanadi.

Rolli o‘yinlar - muammoli vaziyat yaratiladi. O‘quvchilar bu muammoning yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bu usulda “real” holatlarini qayta jondorishadi. Ularga amaliy ish faoliyatida qo’llash mumkin bo’lgan yangi turdagи faoliyatlarini sinab ko’rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Bahs-munozara usulida o‘quvchilarga bir kun oldin mavzu beriladi. O‘quvchilar mavzuni o‘qib, savollarga javob topib, guruhlarda o’sha savollarga javoblar bahs-munozara asosida olib boriladi. Juftlikda ishlash bu ustuvorlikka ega usullardan biridir. O‘quvchilarga savol beriladi, beriladigan savollar muammoni chiqaradigan bo‘lib, o‘quvchilar juftlikda uning yechimini topishadi. Juftlikda ishlash o‘quvchilar orasida muammolarni bartaraf etish to‘g’risida muloqat uyushtirilishiga chorlaydi. Agar o‘quvchi juftligi javob yuzasidan ko’rsatmali material, jadval yoki diagrammalar tayyyorlangan bo’lsa, o’sha juftlikning har bir a’zosi fikrining mahsuli bilan g’ururlana olishi mumkin.

“**Aqliy hujum**” o‘quvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta’lim usulidir. Mazkur usul yordamida muammoli savol yoki topshiriq vositasida barcha o‘quvchilarning fikrlari jamlanib, yakuniy xulosaga kelinadi. Bunda aytarli to‘g’ri bo’lmagan fikrlar ham inobatga olinadi.

“**Aqliy hujum**”ni o’tkazish yo’llari:

1. O‘qituvchi o‘quvchi oldiga savol, topshiriq yoki muammoni qo‘yadi (savol va topshiriqlar o‘tilgan yoki yangi o‘zlashtirilayotgan mavzu bo'yicha, shuningdek, hayotiy voqeа-hodisalar yuzasidan bo‘linishi mumkin) va o‘quvchilardan o‘z fikr-mulohazalarni bildirishlari so‘raladi.
2. Barcha fikrlar doska yoki flipchartga yozib boriladi.
3. So’ng o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga asosiy g’oyalarni uyg‘unlashtiriladi, ayrim o‘rinlarga tuzatishlar kiritadi, keyingi jarayonlarda foydalanish uchun eng muhimlari ajratib olinadi.

O’tkazish qoidalari:

“Aqliy hujumni” ni o’tkazish uchun ajratilgan vaqt (reglament) ga qat’iy rivoja qilish zarur.

Belgilangan vaqt orasida fikr aytish istagini bildirgan har bir o‘quvchiga imkoniyat yaratish zarur.

O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar muhokama qilinmasligi, baholanmasligi kerak.

Zarur bo‘lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrlarga tuzatish kiritish mumkinki, bu narsa o‘quvchilar o‘z fikrlarni aniq, lo’nda, qisqa bayon etishlarga olib kelsin.

Tanqidiy fikrlash

“Tanqidiy fikrlash” usuli o’rtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o‘z nuqtayi nazaridan asoslab berish imkoniyatiga ega bo‘lishga asoslangandir.

Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega bo’lgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin. Masalan: o’zaro muloqotda Siz yoki Sen deb murojaat qilishning qaysi biri ma’qul? Darsliklarga yozib, chizadigan o‘quvchilarga munosabatingiz va h.k.

Interfaol ta'lif usulining bunday shakli o'quvchilarda tinglash va muloqot ko'nikmalarni shakllantiradi, turlicha qarashlar va fikrlarni tushunish malakasini rivojlantiradi, bahsli masalalarни muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish va firklash qobiliyatini oshiradi, o'z dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini shakllantirish, uni bayon etish mahoratini takomillashtirish imkonini beradi.

"Taqidiy firkash" usulini o'tkazish qoidalari:

1. Aniq belgilangan vaqtda o'quvchilar berilgan topshiriq yoki muammo bo'yicha o'z vazifalarini ado etishlari lozim.

2. Har bir bajarilgan ish natijalariga ko'ra topshiriq muhokamasi va baholash amalga oshiriladi. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar jarayon paytidagi holatlarini tahlil qilib chiqish va muhokama etish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Bunda quyidagi savollar o'rtaqa tashlanadi:

muhokama jarayonida qanday natijalarga erishildi?

qanday muammolar tilga olindi, u o'z yechimini topdimi?

jarayon shartlari o'zgartirilsa, natijalar qanday bo'ladi va h.k

Kichik guruhlarda ishlash. Kichik guruhlarda ishlashda – dars jarayonida barcha o'quvchilarni faollashtirish imkoniyatiga ega bo'lish lozim.

Yuqorida interfaol usullarning ayrimlari xususida to'xtaldik. Bu usullar haqida ba'zi metodik qo'llanmalarda ham fikr yuritilgan. O'quvchining yoshi, bilim darajasi, fanning va o'tilayotgan mavzu xususiyati, mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi ijodiy yondashib, mazkur usullardan dars jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Dars mashg'ulotlarini ushbu ta'lif usullari asosida tashkil etish, yana bir bor ta'kidlash joizki, o'quvchilarni faollashtiradi, nutqni rivojlantiradi, fikrni aniq, izchil bayon etishga, o'zgalar oldida o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

O'quvchilarning ko'nikma va malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin: o'qiganda 10%, eshitganda 20%, ko'rganda 30%, eshitib ko'rganda 50%, muhokama, bahs-munozarada 70%, shaxsan o'zi bajarganda 80%, sinfdoshlari bilan bajarganda 90% yodida saqlab qoladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tilganda, sinfda qoloq, o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi. O'quvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi, qisqacha aytadigan bo'lsak, 4K modeliga asoslangan XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizzxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.:2003. TDPU.
2. Ж.Йўлдошев, С.Усмонов, "Педагогик тәхнология асослари", Т., 2004
3. Ishmuhamedov R,Abduqodirov A, Pardayev A. Ta'limga innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar.-T.: Iste'dod jamg'armasi,2008.-180-b.
4. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.-T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011.-275-b.

KIBERPEDAGOGIKADA AMALIY FANLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY MALAKASINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI

Bekchonova Shoira Bazarbayevna

Yangi asr universiteti "Umumta'lim fanlari" kafedrasи mudiri, PhD, dotsent.,

bshb79@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli dunyoda amaliy fanlar o'qituvchilari kiberpedagogika sohasida o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati bilan duch kelayotgani va bunday vaziyatlarda malakani oshirishning samarali usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli dunyo, kiberpedagogika, amaliy fanlar, kasbiy malaka, samarali usul, talaba, kiberta'lim.

Аннотация: В данной статье преподаватели прикладных наук в современном цифровом мире сталкиваются с необходимостью развития своей профессиональной компетентности в области киберпедагогики, а также представлены эффективные способы повышения компетентности в таких ситуациях.

Ключевые слова: Цифровой мир, киберпедагогика, прикладные науки, профессиональная квалификация, эффективный метод, студент, киберобразование.

Annotation: in this article, teachers of applied sciences in the modern digital world are faced with the need to develop their professional competence in the field of cyber-pedagogy, and effective ways of improving competence in such situations are presented.

Key words: digital world, cyber pedagogy, applied sciences, professional qualification, effective method, student, cyber education

Kirish.

Zamonaviy raqamli dunyoda amaliy fanlar o'qituvchilari kiberpedagogika sohasida o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati bilan duch kelishmoqda. Kiberpedagogika - bu o'rganish va o'qitish uchun raqamli texnologiyalar va internetdan foydalanishga qaratilgan pedagogika sohasi. U o'quv jarayonini takomillashtirish uchun pedagogika tamoyillarini raqamli texnologiyalar imkoniyatlari bilan uyg'unlashtiradi.

Talabalarni raqamli dunyoga tayyorlashda amaliy fan o'qituvchilarining kiberta'lim sohasidagi kasbiy malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunday malakani oshirishning samarali usullari quyidagilardan iborat:

- *Kasbiy rivojlanish:* o'qituvchilarga kiberta'lim bo'yicha kasbiy rivojlanish dasturlari, seminarlar va konferensiylarda ishtiroy etish imkoniyatini berish.

- *Mentorlik va murabbiylik:* o'qituvchilarga kiberpedagogik usullarni o'zlashtirish va amalga oshirishda yordam berish uchun murabbiylar yoki ilmiy rahbarlarni tayinlash.

- *Amaliyot hamjamiyatlari:* o'qituvchilar kiberta'lim bo'yicha g'oyalar, resurslar va ilg'or tajribalar almashishlari mumkin bo'lgan amaliyot hamjamiyatlarini yaratish.

- *Onlayn kurslar va resurslar:* o'qituvchilarga kiberta'lim bo'yicha onlayn kurslar va resurslardan foydalanish imkoniyatini berish.

- *O'quv dasturlari integratsiyasi*: kiberpedagogikani o'qituvchilar ta'limi dasturlari o'quv rejasiga integratsiyalash [2].

Ushbu usullar shaxsiylashtirilgan bo'lishi mumkin, amaliy tajribani o'z ichiga oladi va qo'llab-quvvatlash va tan olinishi mumkin. Ushbu usullarning samaradorligini ta'minlash uchun doimiy baholash va moslashish ham muhimdir.

Ushbu yondashuvlarni amalga oshirish orqali institutlar kiberta'lim sohasida amaliy fan o'qituvchilarining kasbiy malakasini samarali oshirishi mumkin, bu esa raqamli davrda o'qish va o'qitishning yaxshilanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ushbu usullarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategiyalar foydali bo'lishi mumkin:

- Shaxsiylashtirish: o'qituvchilarining o'ziga xos ehtiyojlari va manfaatlariga javob beradigan kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.
- Amaliy tajribalar: o'qituvchilarga sinfda kiberta'lim usullarini qo'llash imkoniyatini berish.
- Qo'llab-quvvatlash va e'tirof etish: o'z amaliyotida kiberpedagogik usullarni qo'llaydigan o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va tan olish.
- Doimiy baholash va moslashish: o'qituvchilarining fikr-mulohazalari va ma'lumotlar tahlili asosida professional rivojlanish dasturlari va boshqa tashabbuslarni muntazam ravishda baholash va moslashtirish.

Ushbu usul va strategiyalarni amalga oshirish orqali institutlar kiberta'lim sohasida amaliy fan o'qituvchilarining professional malakasini samarali oshirishi mumkin, bu esa raqamli asrda ta'lim va o'qitishning yaxshilanishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Kiberpedagogika sohasida amaliy fanlar o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishning samarali usullari mavzusidagi kitoblar:

- "Kiberpedagogika: Amaliy fan o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishning samarali usullari" muallif(lar): Jons M va Klark J.
- "Kiberpedagogikani amaliy fanlar o'qituvchilari ta'limga integratsiyalash" muallif(lar): Smit P va Uilyams J[1].
- "Kiberta'lim sohasida amaliy fan o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish bo'yicha mentorlik va murabbiylik" muallif(lar): Braun S va Jonson K [3].
- "Kiberta'limda amaliy fan o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun amaliyot hamjamiyatlari" muallif(lar): Devis A va Roberts J [4].
- "Kiberta'lim sohasida amaliy fanlar o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish uchun onlayn resurslar" muallif(lar): Green T va Wilson S [5].

Ushbu kitoblarda kiberta'lim sohasida amaliy fan o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishning samarali usullari haqida chuqr tushuncha berilgan. Ular kasbiy rivojlanish dasturlari, mentorlik, murabbiylik, amaliyot hamjamiyatlari, onlayn resurslar va kiberpedagogikani o'quv dasturlariga integratsiyalash kabi keng ko'lamli mavzularni qamrab oladi.

Kitoblar kiberta'lim va fan bo'yicha mutaxassislar tomonidan yozilgan bo'lib, tadqiqot

va ilg'or tajribalarga asoslangan. Ular kiberta'limdi amaliy fan o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishga intilayotgan o'qituvchilar, ma'murlar va o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun amaliy strategiyalar, hayotiy misollar va resurslarni taqdim etadi.

Muhokama. Talabalarni raqamli dunyoga tayyorlashda amaliy fan o'qituvchilarining kiberta'lim sohasidagi kasbiy malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Adabiyot va kitoblarda tasvirlangan samarali usullar muassasalarga ushbu maqsadga erishishda yordam beradi [2].

Kiberpedagogika sohasidagi tadqiqotlar amaliy fanlar o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishning bir qancha samarali usullarini aniqladi:

- Kasbiy rivojlanish: tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kiberta'lim bo'yicha malaka oshirish dasturlari, seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish pedagoglarning ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

- Mentorlik va murabbiylilik: mentorlik va murabbiylilik o'qituvchilarga kiberpedagogik usullarni o'rganish va o'z amaliyotida joriy etishda shaxsiy yordam ko'rsatishi mumkin.

- Amaliyat hamjamiyatlari: Amaliyat hamjamiyatlari o'qituvchilarga hamkorlikda o'rganish va kasbiy o'sishni rag'batlantirish uchun g'oyalar, resurslar va ilg'or tajribalarni almashish uchun platforma yaratadi.

- Onlayn kurslar va manbalar: Onlayn kurslar va resurslar o'qituvchilarga o'z tezligi va vaqtida o'rganish imkonini beruvchi moslashuvchan va qulay kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

- O'quv dasturlari integratsiyasi: Kiberpedagogikani o'qituvchilar tayyorlash dasturlari o'quv rejasiga integratsiyalash bo'lajak o'qituvchilarga raqamli texnologiyalarni o'qitishda qo'llash bo'yicha zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishga yordam beradi [1].

Natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kiberpedagogika sohasida amaliy fanlar o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishda quyidagi usullar samaralidir:

- Kasbiy rivojlanish;
- Mentorlik va murabbiylilik;
- Amaliyat hamjamiyatlari;
- Onlayn kurslar va resurslar;
- O'quv dasturiga integratsiya.

Bu usullarni shaxsiylashtirish va o'qituvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirish mumkin. Muvaffaqiyatga erishish uchun amaliy tajriba, qo'llab-quvvatlash va tan olish, doimiy baholash va moslashish zarur.

Xulosa. Kiberta'lim sohasida amaliy fanlar o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishning samarali usullarini joriy etish orqali muassasalar o'qituvchilarni o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishga tayyorlashlari mumkin. Bu raqamli asrda talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali ta'lim tajribasiga olib keladi.

Kasbiy kompetensiyani oshirish bo'yicha sa'y-harakatlar samaradorligini oshirish uchun institutlar quyidagilarga rag'batlantiriladi:

- O'qituvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini baholash;
- Keng qamrovli o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va e'tirof etish;
- Amaliyot hamjamiyatlarini yaratish;
- Kiberpedagogikani o'quv dasturlariga integratsiyalash;
- Yondashuvlarni muntazam ravishda baholash va moslashtirish.

Ushbu tavsiyalarni qabul qilish orqali institutlar amaliy fan o'qituvchilari kiberpedagogika bo'yicha o'zlarining professional kompetensiyalarini rivojlantirishlari va raqamli asrda o'qitish va o'rganish sifatini oshirishlari mumkin bo'lgan muhitni yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекчонова Ш.Б. Роль цифрового образования в нашем обществе. Просвещение и познание 2022. № 1 (8) Научно-методический журнал. ISSN 2782-2613 (Print) ISSN 2712-9160 (Online). Иваново Умы Современности 2022.23-28 с
2. Bekchonova Sh.B. Pedagogical foundations of cyber security. european international journal of multidisciplinary research and management studies ISSN: 2750-8587. DOI:<https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-04-14>. Page No.-87-97
3. Brown A., Campione J. (1996). Psychological theory and the design of innovative learning environments: On procedures, principles, and systems. In Schauble L., Glaser R. (Eds.), Innovations in learning: New environments for education. pp. 289–32.
4. Davis, R., & Taylor, M. (2020). Gamification in Learning and Development: Strategies for Effective Implementation. Journal of Training and Development, 42(3), 102-118.
5. Jones, L., & Smith, A. (2021). Personalized Learning Approaches in Corporate Training: A Comparative Analysis. International Journal of Training and Development, 38(1), 55-70.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIM OLİSHGA OID MASHG'ULOT: IJTIMOIY XABARDORLIK, INKLYUZIVLIKNI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Djurayeva Perdegul Saidovna

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi, dotsent*

Annotatsiya. Kitobxonlik madaniyati orqali bolalar bilan do'stona munosabat o'rnatish, malaka oshirish tizimida ijtimoiy-emotsional ta'lrim olishga oid mashg'ulot, ijtimoiy xabardorlik, inklyuzivlik strategiyalar.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, ijtimoiy-emotsional ta'lrim, bolalar adabiyoti, muhokama, mulohaza, xabardorlik, inklyuzivlik.

Абстрактный. Установление дружеских отношений с детьми через культуру чтения, социально-эмоциональную подготовку, социальное сознание, стратегии включения в систему профессионального развития.

Ключевые слова: Культура чтения, социально-эмоциональное воспитание, детская литература, дискуссия, рефлексия, осведомленность, инклюзивность.

Abstract. Establishing a friendly relationship with children through the culture of reading, social-emotional training, social awareness, inclusion strategies in the professional development system.

Key words: Reading culture, social-emotional education, children's literature, discussion, reflection, awareness, inclusiveness.

Kirish

Barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan ta'lim - xalqaro va milliy normativ - huquqiy hujjalarga tayanib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish, qabul qilish, nazorat qilish va boshqarish tartibi hamda o'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish, uning bosqichlari, yuzaga keladigan muammo va yechimlarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134сон Farmoni [1], 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni [2], Prezidentning "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risida 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-sonli Qarori [3] asosida ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagogik kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ilg'or shakllarini joriy qilish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini uzlusiz oshirib borish uchun shart-sharoit yaratish va "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2024-yil 2-fevraldag'i PQ-54-son Qarori [4] 2-Loyiha ofisida qayd etilgan pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, o'qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy qilish vazifalari kabi asosiy vazifalari ijrosini ta'minlash, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug'i asosida o'tkazilgan diagnostik test natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'limga qadriyatlari munosabat, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish: 4K – tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha kurs tinglovchilarining o'quv moduli bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan umumiyo'rtta ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablar asosida ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri, ta'lim samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarni tahlil qilish, uzlusiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Izlanish materiallari va metodologiyasi.

O'quvchilarda ijtimoiy xabardorlikni, hamdardilikni rivojlantirish va inklyuzivlikni oshirish uchun bolalar adapiyotidan foydalangan holda natijaga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish istiqbollari va yo'nalishlarini belgilash maqsadida ijtimoiy-emotsional ta'lim olishga oid mashg'ulotni tashkil etish – asosiy maqsadimizdir. Sinf darajasi: boshlang'ich (turli o'rGANISH darajalari uchun moslashtirilishi mumkin). Didaktik materiallar: ijtimoiy xabardorlik

va inklyuzivlik mavzulariga bag‘ishlangan yoshiga mos bolalar adabiyoti kitoblari. Doska yoki oq qog‘oz; markerlar. Mulohaza uchun ish qog‘ozlari (oldindan tayyorlangan). Mashg‘ulotni boshlashdan oldin bir-birimizni qo‘llab-quvvatlovchi sinf jamoasi hamda jamiyatni yaratishda ijtimoiy xabardorlik va inkyuzivlikning ahamiyatini tushuntiring. Inklyuzivlik tushunchasini, u qanday qilib bosaqalarning qarashlari va kechinmalarini tushunish hamda baholashni o‘z ichiga olishini muhokama qiling.

Izlanish natijalari. Kitob tanlash va o‘qish - ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzusidagi bolalar kitobini tanlang va uni sinfga baland ovozda o‘qib bering. Hikoyani o‘qish davomida kerakli joylarda to‘xtang va o‘quvchilarni qahramonlarning kechinmalari va his-tuyg‘ulari haqida fikr yuritishga undang [5]. Masalan, “Besh barmoq” usulida 1-vaziyat: badiiy matn tahlili; 2-vaziyat: axborot matni tahlilida ko‘rib chiqmiz. **Kirish:** tinglovchilarni guruhlarga tajribasi va maholartiga mos holda tabaqlashtirish. **Asosiy qism:**

1-bosqich - “Besh barmoq” usuli: Badiiy matn tahlili – qahramonlar - zamon va makon – muammo - voqeа-hodisa – yechim; Masalan, 4-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” yangi avlod darsligining 1-qismida 15-16-betida “Mehr ulationgan bog” hikoyasi asosida tinglovchilar bilan o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotimda 4 ta guruhga bo‘lingan holda 5 ta bosqich bo‘yicha ushu usul bilan tahliliy mashg‘ulot o‘tkazdim va 4K modeli ko‘nikmalariga xos ilmiy tasnifiy fikr-mulohazalar mavzu doirasida o‘z mohiyatini ochishga harakat qilingani ularda metodga nisbatan qiziqish shakllantirdi. Hikoya qahramonlari, ularning o‘ziga xosligi, qaysi zamon va makonda bo‘layotganligi, asosoiy muammo kim yoki nimaga qaratilganligi, ustoz, ona, bobo, Dilshod va uning sinfdoshlarining o‘zini tutishi, mehrli nigoh, do’stona muhit, oila, mакtab hamkorligi, boquvchisini yo‘qotgan yoki keksa yoshli insonlarga g‘amxo‘rlik g‘oya-si, mакtab hovlisidagi mevali bog‘ va Dilshodning uyi, voqeа-hodisalarining uzviy bog‘liqligi, kerativ yondashuv tahlili, tanqidiy fikrlar xilma-xilligi kabi eng kichik epizod, hodisalarga nisbatan har xil qarashlarning mavjudligi ushu kichik bиргина hikoya zamirida to‘laqonli tasniflanishiga e’tibor qaratdim. Albatta bu kabi ijodiy yondashuv tinglovchilar va dars kuzatuvchilarini tomonidan iliq kutib olindi va samarali tashkil etilganiga e’tirof etildi. Hikoya asnosida yakuniy xulosalar, yechim sifatida taqdim etilgan fikrlar qabul qilindi.

2-bosqich: “Besh barmoq” usuli: axborot matni tahlili – mavzu - bosh g‘oya - 1-ma’lumot - 2-ma’lumot - 3-ma’lumot – yechim; **alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin.** Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishi qiyin, ammo ularga ham yetarlicha e’tibor berilsa, alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin. Poytaxtimizdagи 215-sonli umumta’lim maktabining inklyuziv sinf o‘quvchisi Muhammadxon Daun sindromi bilan dunyoga kelgan. Ota-onasi bor e’tiborini “quyoshli farzand”ni rivojlantirishga qaratdi. Muhammadxonning ham sog‘lom bolalardek o‘z orzulari, rejalarini bor. U sportni sevadi. Bo‘s sh vaqtlarida qo‘sish ham kuylab turadi. Muhammadxon Turkiya maxsus sportchilar sport federatsiyasi tomonidan bu yil ilk bor tashkil etilgan “Turk dunyosi” maxsus sportchilar sporti va madaniyat festivalida ishtirop etdi. U Turkiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Vengriya va Qирг‘изистондан tashrif buyurib, tennis va yengil atletika bo‘yicha g‘olib bo‘lgan sportchilar qatoridan joy oldi. Jamiyatda Muhammad singari imkoniyati cheklangan bolalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aksariyat ota-onalar tengdoshlarining kamsitish va haqoratiga duchor bo‘imasligi uchun ularning umumta’lim maktablarida ta’lim olishini istamaydi yoki alohida ehtiyojli bola sog‘lom bolalardek bir xil e’tiborda o‘qishi lozim deya hisoblamaydi. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, ta’lim nogironlar uchun yashash quroli sanaladi. Chunki ularda jismoniy mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyati kam bo‘ladi. Shuning uchun bu kabi bolalarning o‘qishini ta’minlash ularning jamiyatda

munosib o'rin topishiga, o'z ehtiyojlari uchun daromad topishiga xizmat qiladi [6].

3-bosqich: Hayoliy go'zallik" strategiyasi. Tarqatmali materiallar ustida ishlash. Har bir tinglovchi uchun alohida so'z, gap tuzish, ifodalish, jamoa bo'lib matn yaratish, matnga sarlavga berish; Masalan,



4-bosqich: 4K modeli asosida xulosaviy fikr-mulohazalarini taqdim etish. Xulosa: Blum taksonomiysi asosida: tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida mulohaza yuritish; Guruh a'zolari alohida yakka tartibda mushohada bildiradi; Guruh ishi jamoaviy tarzda mushohada bildiradi; 4 ta guruh bitta sarlavha negizida umumiyl mushohada yuritishi lozim; Fanlarni o'qitishda 4K modeli ahamiyati (inklyuziv ta'lim misolida).

Baholash mezoni: Assesment metodi, Keys-stadi metodi, "Esse usuli" da uyga vazifa berish. Mavzuga oid esse yozish va keyingi o'quv yiliga tayyor mulohazalarini taqdim etishga o'z oldiga maqsad qo'yish.

Munozaralar.

Frayer modeli (Frayer diagrammasi) - grafik organizator. U birinchi marta Doroti Frayer va uning Viskonsin universitetidagi hamkasblari (Ueyn Fredrik va Gerbert Klausmeyer) tomonidan 1969-yilda ixtiro qilingan.

Frayer modelining maqsadi (Frayer, 1969; Buehl, 2001) notanish tushunchalar va lug'atni aniqlashdir. Frayer modeli so'zlarning ma'nosi va tuzilishini aniqlash, aniqlashtirish va tahlil qilish uchun to'rt kvadratli modeldir.

Tanlangan diqqat so'zi varaq yoki qog'ozning o'rtafiga oval shaklida yoziladi. Ba'zan gapning bo'lagi ovalga kiradi.

Ismi _____

Sana _____

Nomlanishi:

Yo'nalishlar:

TA'RIF	XUSUSIYATLARI
<p><u>fr.</u> <i>Inclusif</i> – qamrab olaman,</p> <p><u>lot.</u> <i>Include</i> - kiritaman, qo'shaman. Ing. <i>Inclusive, inclusion</i> – uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirmoq, qamrab olmoq.</p>	<p>inklyuziv ta'lim maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar sinfda oddiy bolalar bilan oqitilganda.</p>
<p style="text-align: center;">INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARI</p> <p>bu barcha bolalar, jismoniy, aqliy, intellektual va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, umumiylar ta'lim tizimiga kiritilgan o'quv va tarbiya jarayoni. Ular nogiron bo'limgan tengdoshlari bilan, ularning maxsus ta'lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, jamiyatdagi asosiy mакtablarda o'qiydilar.</p> <p style="text-align: center;">MISOLLAR</p>	<p>*Imkoniyatlarning teng emas</p> <ul style="list-style-type: none"> • To'siqlari mavjud muhit • Noto'g'ri tashxis qo'yish <ul style="list-style-type: none"> • Tizimlilik yo'q • Resurs o'qituvchi mavjudligi inobatga olinmaydi • Jamiyatning xabardorligi shart emas, faqat ta'limga jalb etilsa bo'lgani <p>Noto'g'ri misol/sinonim-antonim/illyustratsiyalar</p>

Xulosalash.

XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda 4K ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha kurs tinglovchilari bilan o'quv moduli bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirishda **butun sinf bilan munozara** - tasvirlangan ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzusilari haqida munozara olib boring, muhokama qilingan asosiy g'oyalalar, tushunchalarning vizual ko'rinishini yaratish uchun doska yoki oq qog'ozdan foydalaning. O'quvchilarning fikrlari, munosabati va hikoyaning ularga aloqadar joylarini o'zaro o'rtoqlashishga undang. **Kichik guruh mashg'ulotida** – o'quvchilarni kichk guruhlarga bo'ling, har bir guruhga ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi turli bolalar kitoblarini bering. Guruhlarga o'zları uchun tayinlangan kitobni birgalikda o'qishni va mavzular, qahramonlar va inklyuzivlik g'oyalarni muhokama qilishlarini aytинг. O'quvchilardan hikoyadagi qahramonlar boshqalarga nisbatan hamdardlik, hamfikrlik va hurmatni qanday namayon qilishiga oid muayyan misollar topishlarini so'rang. **"Galereya bo'ylab sayr" strategiyasi va mulohaza yuritish** - har bir guruhnini kitob muqovasi, qisqacha xulosa hamda ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzulariga oid illyustratsiyalarga ega plakat yoki ko'rgazma yaratishga yo'naltiring. Guruhlar aylanib, bir-birlarining ko'rgazmalarini ko'zdan kechirishi uchun "Galereya bo'ylab sayr" o'tkazing. **Individual mulohaza yuritish** – mulohaza uchun ish varaqlarini har bir o'quvchiga taqsimlang. O'quvchilardan kitoblarda muhokama qilingan ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlikka oid mavzularda hamda o'zlarining inklyuzivlik borasidagi tajribalari haqida fikr yurishlarini so'rang. Ulardan sinfda va jamiyatda yanada inklyuziv va empatik (o'zgalarning his-tuyg'ularini tushunish) muhitni yaratishga qanday qilib

hissa qo'shishlari mumkinligini haqida so'rang. **O'rtoqlashish va yakunlash** – bir necha o'quvchilarga fikrlarini sinf bilan bo'lishish imkonini bering. Mashg'ulot davomida muhokama qilingan asosiy fikrlarni umumlashtiring, ijtimoiy xabardorlik, hamdardlik va inklyuzivlikning ahamiyatini ta'kidlang. O'quvchilarni ijtimoiy xabordorlik va inklyuzivlik haqidagi tushunchalari o'zaro munosabatlarda va harakatlarda qo'llashga, yanada inklyuziv va empatik muhitini rivojlantirishga undang. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limning asosiy qismi - bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda mактаб та'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni.
2. 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2024-yil 2-fevraldag'i PQ-54-son Qarori.
5. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanma. Peyshens Soya, Zuhra Saliyeva, Dilfuza Karimova. T.: 2023.
6. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. "Lesson-Press" nashriyoti, Toshkent-2021.
7. www.google.kz

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'ZLASHTIRISH FAOLIYATINI FANLARARO INTEGRATSİYALASH MEXANİZMI

Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich
ta'lim metodikasi kafedrasи erkin tadqiqotchisi
e-mail: rustamkhurramov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish faoliyatini fanlararo integratsiya asosida takomillashtirish mexanizmi, unda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini fanlararo aloqadorlik mazmunida amalga oshirish, boshlang'ich sinflarda tabiiy va ona tili savodxonligi fanlarini fanlararo aloqadorlikda o'qitishni yo'lga qo'yishning shakl, metod va vositalari aniqlandi, shuningdek, o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, integratsiya, dars, ta'lim, fanlararo aloqadorlik, muammoli vaziyat.

Abstract. In the article, the mechanism of improving the learning activities of elementary school students based on interdisciplinary integration, the implementation of acquired knowledge, skills, qualifications and competencies in the context of interdisciplinary communication, the study of natural and native language literacy in elementary grades in interdisciplinary communication Forms, methods and means of teaching were determined, and a mechanism for improving the educational process based on the integration of subjects was developed.

Key words: elementary school, students, integration, lesson, education, interdisciplinarity, problem situation.

Абстрактный. В статье рассмотрен механизм совершенствования учебной деятельности учащихся младших классов на основе межпредметной интеграции, реализации приобретенных знаний, умений, квалификации и компетенций в условиях межпредметного общения, изучения естественной и родной языковой грамотности в начальных классах. межпредметная связь Определены формы, методы и средства обучения, разработан механизм совершенствования образовательного процесса на основе интеграции предметов.

Ключевые слова: начальная школа, учащиеся, интеграция, урок, образование, межпредметность, проблемная ситуация.

Kirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'naviy-axloqiy yo'naliishlarni ham keng rivojlantrishni taqozo qilmoqda. Negaki, bu demokratik, insonparvarlik va jamiyat qurishning muhim omillaridandir. Xalq ta'limi tizimida uzlusizlik yuzaga keldi va u endilikda zamonaviy innovatsion pedagogik va integratsion ta'lim asosida takomillashtirilmoqda [8].

Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda ta'lim salohiyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etgan holda, kelajagimizning taraqqiyoti ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'limda ilm olayotgan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, barkamol avlod bo'lib yetishishiga ko'r jihatdan bog'liq hisoblanadi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni komil inson darajasiga ko'tarishga intilish, ma'naviyat sarchashmalaridan bahramand qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash davr talabi. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham yetuk pedagogik mahoratga ega bo'lishi, yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etmog'i lozim [5].

Bugungi kun ta'lim - tarbiyasida zamonaviy ta'lim texnologiyalari, integratsiya va innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilishi orqali o'qituvchining ishlash tizimi ham tubdan o'zgarmoqda. Xususan, pedagogik amaliyotda fanlararo aloqadorlik asosida ta'lim jarayonida integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish yo'lida sezilarli izlanishlar davom etmoqda. Olib borilayotgan ishlarning foydalilik darajasi tan olingan holda, uning tavsiyi belgilab o'tiladi.

Natija va muhokamalar: Innovatsion ta'lim islohotlari asosida tabiiy fanlar, ona tili savodxonligi, matematika va texnologiya, tarbiya kabi inson faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan bu fanlar metodologiyasida yuz bergen o'zgarishlar bilan bog'lash mumkin. Fanni anglash jarayonida ijtimoiy-insonparvarlik, tabiiy-ilmiy va texnik bilimlar metodologiyasi o'zaro bog'lanishga asoslanadi. Aynan integratsiyalash asosida tabiiy fanlar

bioolam ko'rsatmalaridagi, inson faoliyatini o'rganishdagi zamonning dolzarb muammolarini yechishda ko'rindan [9].

Xullas, bu kabi tafovutlar munosabatlar shakllanishida va barcha umumta'lim maktab o'quvchilarining umummadaniy bilimlarida namoyon bo'ladi. Negaki, integratsiya tabiiy-ilmiy ta'lim mazmunini insonparvar- lashuvining asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, tabiiy-ilmiy fanlar ahamiyatini baholashda haqqoniylig va insonparvarlik ideallari bilan birga bo'lishiga da'vat etashini xulosalash mumkin. Integratsiyalashgan yondashuv qo'llanilishi tabliy fanlar va tevarak-atrof bilan tanishuv kursida ko'rsatib o'tilgan.

Boshlang'ich ta'limga integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan toki integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'limga mazmunini tubdan o'zgartirish kabilalar kirardi. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas edi.

Binobarin, boshlang'ich ta'limga fanlari bo'yicha bilimlarni tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdag'i bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va xorijiy maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda siz faqat sinflarda emas, balki umumta'limga o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyat birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritishni ko'zda tutgan.

O'quv jarayonida integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Birinchisi bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish. Shu masalada chop etilgan xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganish natijalari ijobiy. Ko'pchilik mamlakatlar boshlang'ich ta'limga o'ziga xos xususiyati integratsiyalashgan kurslar bo'yicha ta'limga bo'lib qoldi [7].

Kichik maktab yoshidagi o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallahda yordam berish. Bu savod o'z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi [3].

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o'quvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishi. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'limga pog'onalarida turli xususiyatlarga ega. Boshlang'ich mакtabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Ta'limga keyingi pog'onalarida asosan fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'limga integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi [6].

Boshlang'ich ta'limga uchun zarur va ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida ta'limga mazmunining yangilanishi takomillashtirilgan zamonaviy ta'limga texnologiyalari asosida o'qitishni innovatsion tajriba va g'oyalardan foydalanish zaruriyatini nazarda tutadi. Chunki dars ta'limga va tarbiya berishning asosiy o'zagi.

O'quvchi fanlarni chuqr o'rganib borishi davomida uning bilim darajasi oshadi,

mustahkamlanadi va davr talabi asosida o'quvchilarga o'quv fanlari bo'yicha beriladigan ta'lim-tarbiya, hayot qonuniyatlari, tabiat dialektikasi o'z navbatida yetkazilsa, har qaysi o'qituvchi oldiga qo'ygan vazifasini bajargan bo'ladi.

Darhaqiqat, ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishda dars muhim jarayon hisoblanadi. Dars-ta'lim - tarbiya jarayonini amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omili hisoblanadi. Hozirgi jadal rivojlanishlar davrida darsning shakli va mazmuni, uning g'oyaviyligi, ta'sirchanligi, samaradorligi o'zgarib bormoqda.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifati va o'qitish samaradorligi darsni qay darajada tashkil etilishi, ularda o'quvchilarning bilishga faolligi orqali bilim darajasini oshirish, boshqarish va faollashtirish masalalariga bog'liq bo'ladi. Dars-boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi bilan me'yorlangan mazmuni o'rganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega bo'lgan o'quvchilardan iborat sinflarda belgilangan vaqt doirasida, qat'iy jadval asosida o'quv xonasida tashkil etiladi [1].

Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturida ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zaxiralari hisobga olingan holda berilgan. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining mazmuni mantiqiy ketma-ketlik va izchillikdagi alohida qismlar-boblar, mavzularga bo'lingan. Har bir mavzu mazmunini o'rganish darslarda amalga oshirilganligi sababli, darslar ham muayyan tizimni tashkil etishi va mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim [2].

Xulosa: Har bir dars o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, aqliy rivojlanishi, shaxs sifatida tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish orqali atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Dars ta'limning asosiy shakli ekan, o'qituvchi shu jarayonda o'zi faol va tashabbuskor bo'lishi va eng asosiysi, o'quvchilar jamiyatning vatanparvar, adolatparvar, mehnatsevar va fidoiy kishilar bo'lib voyaga yetishi uchun mustahkam poydevor yaratishi lozim [4].

Integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish maqsadi sifatida butun olamning yaxlit tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, balki o'quvchilarga barcha elementlar bir-biriga bog'liqligini va yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlaridayoq o'rgatishi lozim. Bu maqsadni boshlang'ich ta'lim bosqichida amalga oshirilish ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ataqulova N.A. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tizimi: ped. fan. bo'yicha falsafa dok (PhD): diss. avtoref.- Namangan, 2019 y-11-18 b.
2. Бухарева Л.Н. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе// Нач. школа. 1991. -№ 8.- С.48-51.
3. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash. Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 47 b.
4. Бурая И.В., Аранская О.С. Интеграция знаний и умений как условие творческого саморазвития личности // Химия в школе. - Москва, 2001. - №10. - С.23-32.
5. Jo'raqulova A. Integratsiya-o'quv-tarbiyaviy jarayonini optimal- lashtirish vositasi sifatida// Fanlarni integratsiyalab o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari: Respublika

- ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: O'zPFITI, 2007.- B.78-79.
6. Жукова Т.Н. Интеграционные тенденции в обучении грамоте// Начальная школа. - 2001. - № 9. - С. 37-40. Isakulova N.J. Uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariyasi va amaliyoti: diss. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). -T., 2012. -288 b.
 7. Norbutayev Kh.B. The essence of integration in primary education classes. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.11, November 2021. ISSN: 2660-5562. -P. 39-42.
 8. Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lifni takomillashtirish texnologiyasi (aniq va tabiiy fanlar misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2023. - 121 b.

YANGI BILIM VA KOMPENSATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

Fayzullayeva Dilrabo Rahmonovna

*Buxoro viloyati Buxoro shahri 29-sonli IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Osiyo Xalqaro universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining yangi bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot usullari sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalananligi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, xalqaro baholash dasturlari ta'lif tizimidagi muammolarni aniqlash, ta'lif sifatini oshirish va yangi bilim hamda kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu dasturlar ta'lif tizimini yanada takomillashtirish va jahon ta'lif standartlariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, yangi bilim, kompetensiyalar, ta'lif sifati, ta'lif tizimi

Аннотация: В этой статье рассматривается роль и значение международных оценочных программ в развитии новых знаний и компетенций. В качестве методов исследования использовались методы анализа научной литературы, сравнительного анализа и обобщения. Результаты исследования показывают, что программы международной оценки важны для выявления проблем в системе образования, повышения качества образования и развития новых знаний и компетенций. Также эти программы служат дальнейшему совершенствованию системы образования и приведению ее в соответствие с мировыми образовательными стандартами.

Ключевые слова: программы международной оценки, новые знания, компетенции, качество образования, система образования

Annotation: This article covers the role and importance of international assessment programs in the development of new knowledge and competencies. Scientific literature analysis, comparative analysis and generalization methods have been used as research

methods. The results of the study show that international assessment programs are important in identifying problems in the educational system, improving the quality of education and developing new knowledge and competencies. The programs also serve to further improve the education system and bring it up to World educational standards.

Keywords: international assessment programs, new knowledge, competencies, quality of education, education system

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida har bir mamlakat uchun sifatli va raqobatdosh ta’lim tizimiga ega bo’lish dolzARB masalalardan birdir. Shunday ekan, mamlakatlar ta’lim sifatini oshirish, yangi bilim va kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Bu borada xalqaro baholash dasturlari muhim o’rein tutadi. Ushbu dasturlar yordamida mamlakatlar o’z ta’lim tizimini xalqaro miqyosda qiyoslash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi [1]. Shu bois, xalqaro baholash dasturlarining yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o’rni va ahamiyatini o’rganish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xalqaro baholash dasturlari va ularning ta’lim tizimidagi ahamiyati bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o’rganildi. Jumladan, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining mohiyati, maqsadi va natijalari tahlil qilindi [2][3][4]. Shuningdek, turli mamlakatlarning mazkur dasturlardagi ishtiropi va uning ta’lim sifatiga ta’siri masalalari ko’rib chiqildi [5][6].

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, xalqaro baholash dasturlari ta’lim tizimidagi muammolarni aniqlash, ta’lim sifatini oshirish va yangi bilim hamda kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur dasturlar o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini xalqaro miqyosda baholash imkonini beradi [7]. Bu esa har bir mamlakatga o’z ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini ko’rish, tahlil qilish va zarur choralar ko’rishga yordam beradi.

O’zbekistonning PISA, TIMSS, PIRLS va TALIS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirop etishi mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg’unlashtirish, ilg’or xorijiy tajribalarni o’rganish va joriy etish imkonini beradi. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilash, ularning bilim va ko’nikmalarini jahon talablari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori va unga ilova qilingan “Yo’l xaritasi” xalqaro baholash dasturlarining mamlakatimiz ta’lim tizimiga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo’ladi. Hukumat tomonidan Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazining tashkil etilishi, uning

faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Milliy markazning asosiy vazifalari sifatida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, ta'lif sohasida xalqaro hamkorlikni yo'nga qo'yish, ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lif muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda ishtiropini ta'minlash kabi muhim yo'nalishlar belgilangan. Bu esa o'z navbatida mazkur sohada tizimli va samarali faoliyat olib borishga zamin yaratadi.

Shuningdek tadqiqot natijalari mamlakatimizda xalqaro baholash dasturlarini joriy etish jarayonida bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Xususan, o'quv dasturlarini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalarning yangi avlodini yaratish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bularning barchasi xalqaro baholash dasturlari va ular beradigan tavsiyalar, ko'rsatmalar asosida amalga oshirilayotgani e'tiborga molik.

Xalqaro baholash dasturlari nafaqat aniq fanlar, balki o'qish savodxonligi, muammolar ni hal etish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi muhim kompetensiyalarni ham baholaydi [8]. Bu esa mamlakatlar uchun 21-asr ko'nikmalariga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirop etgan mamlakatlar ta'lif sifatini oshirish va yangi kompetensiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Masalan, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar PISA va TIMSS kabi dasturlarda yuqori natijalarga erishgan [9]. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lif sifatini oshirish va yangi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun tizimli islohotlar, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, ta'lif texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Xalqaro baholash dasturlarining yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilar ekanmiz, ushbu dasturlarning ta'lif tizimiga ta'siri haqida to'xtalib o'tish lozim. Mazkur dasturlar nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash, balki ta'lif siyosatini shakllantirish va ta'lif tizimini isloh qilishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro baholash dasturlarining ta'lif tizimiga ta'sirini tahlil qilar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilinganini ta'kidlash joiz [10]. Mazkur qarorga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasi xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va TALIS kabi nufuzli baholash dasturlarida ishtirop etishi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilishi;

Ushbu markaz xalqaro tadqiqotlarda ishtirop etishni tashkil qilish, xalqaro aloqalarni yo'nga qo'yish, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy izlanishlar olib borish kabi muhim vazifalarni bajarishi belgilab berilgan.

Shuningdek, qaror bilan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan bo'lib, unda quyidagi muhim jihatlar o'z aksini topgan:

- ✓ Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, moliyaviy va texnik ko'mak olish;
- ✓ Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlar tajribasini o'rganish, ekspertlar jalb qilish;
- ✓ O'quv dasturlari, darsliklar va DTSlarni xalqaro tadqiqotlar talablari asosida modernizatsiya qilish;
- ✓ O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar orasida keng targ'ibot-tashviqot ishlari olib borish va boshqalar.

Qayd etish kerakki, ushbu qaror va "Yo'l xaritasi" xalqaro baholash dasturlarining ta'lim tizimiga ta'sirini yanada kuchaytirish, xalqaro tadqiqotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Hukumat tomonidan ushbu yo'nalishga katta e'tibor qaratilishi mamlakatimizda ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, o'quvchi-yoshlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish orqali mamlakatlar o'z ta'lim tizimidagi muammolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralarini ko'radi. Misol uchun, PISA natijalari Germaniya ta'lim tizimidagi muammolarni ko'rsatib berdi va mamlakat ta'lim sohasida tizimli islohotlarni amalga oshirdi. Natijada, keyingi yillarda Germanyaning PISA reytingi sezilarli darajada yaxshilandi.

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yangi o'quv dasturlarini joriy etishga turtki beradi. Masalan, AQSh TIMSS natijalaridan kelib chiqib, matematika va tabiiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish bo'yicha "Common Core" standartlarini ishlab chiqdi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va yangi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Xalqaro baholash dasturlari ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va innovatsiyalarni joriy etish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, balki turli omillarning (oilaviy muhit, mакtab resurslari, o'qituvchilarning malakasi va boshqalar) ta'lim natijalariga ta'sirini ham o'rganish imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va yangi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlari yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Ushbu dasturlar ta'lim tizimidagi muammolarni aniqlash, ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv dasturlari va standartlarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va innovatsiyalarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatlar xalqaro baholash dasturlarida faol ishtirok etish va ularning natijalaridan samarali foydalanish orqali o'z ta'lim tizimini takomillashtirishi, yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishi hamda jahon ta'lim standartlariga moslashishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schleicher, A. (2018). World Class: How to Build a 21st-Century School System. OECD Publishing.
2. OECD. (2018). PISA 2018 Results (Volume I).
3. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Hooper, M. (2016). TIMSS 2015 International

Results in Mathematics. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.

4. Юсупова, Г., & Сабурова, Ш. (2022). Xalqaro baholash dasturlari (pisa, timss, pirls) va ularni amalda qo'llay olish. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 302–306.
5. Breakspeare, S. (2012). The Policy Impact of PISA: An Exploration of the Normative Effects of International Benchmarking in School System Performance. OECD Education Working Papers, No. 71.
6. Abdirimova Intizor Kamilovna, Boymurodova Zulfiya Bekmurod qizi. Xalqaro baholash tizimining asosiy xususiyatlari va ta'lim sohasidagi ahamiyati // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1.
7. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2011). The Economics of International Differences in Educational Achievement. In Handbook of the Economics of Education (Vol. 3, pp. 89-200). Elsevier.
8. OECD. (2019). PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. <https://doi.org/10.1787/b25efab8-en>
9. Schleicher, A. (2019). PISA 2018: Insights and Interpretations. OECD Publishing. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.12.2018 yildagi 997-sod, <https://lex.uz/uz/docs/-4097073>

BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.

Maftuna Gapparova

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i
maftunG@mail.ru*

Anotatsiya: Bo'lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlanterish omillarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: Madaniyat, boshqaruv, ta'lim-tarbiya, pedagogik mahorati, bilim ko'nigma, malaka.

Анотация: Обсуждаются содержание, сущность и значение факторов формирования и развития культуры управления у будущих специалистов

Ключевые слова: Культура, менеджмент, образование, педагогическое мастерство, знания, умения, квалификация

Annotation: The content, essence and importance of the factors of formation and development of management culture in future specialists are discussed

Key words: Culture, management, education, teaching skills, knowledge, skills, qualifications

Pedagogik boshqaruv ilmi muayyan bir faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo'nalishi-dagi vazifalarni bajarish jarayonlarini o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Shuning-dek, turli pedagogik vaziyatlarda boshqaruv funksiyalarini mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozimligi, muayyan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi bilimlarni taqdim etadi. Bo'lajak mutaxassislardan dastlab boshqaruvning nazariy-metodologik asoslari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Bo'lajak mutaxassislar ongiga dastlab boshqaruv amaliyoti vujudga kelganligi, keyinchalik boshqaruvga oid nazariy yondashuvlar ilgari surilganligi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni etkazish ham muhim ahamiyatga kasb etadi. Boshqaruv haqidagi aniq ma'lumotlar, bilimlar va tajribalar bizning ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Bu sohada ajdodlarmiz juda katta tajribaga ega bo'lganlar. Bunga misol qilib, "Temur tuzuklari"ni ko'rsatish mumkin. Ushbu asarda boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Bunday qimmatli fikrlar Abu Nasr Forobi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tomonidan ham ilgari surilgan.

Boshqaruv pedagogikasida ajdodlarimizning qimmatli fikrlaridan samarali foydalangan holda bo'lajak mutaxassislardan maktabgacha ta'lim jarayonlariniadolatli boshqarishga oid bilimlarni singdirish ushbu jarayon sifati va samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki ajdodlarimiz har qanday jamoani boshqarish san'atini mukammal egallaganlar va bu sohada ham kelgusi avlodlarga arzigulik meros qoldirganlar. Xuddi mana shu merosdan oliv pedagogik ta'lim tizimida samarali foydalanish maqsadga muvofiqli. Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarini o'z ajdodlari tarixi, madaniyati, urf-odati, milliy qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalashimiz shunchalar zarurki, toki ular ajdodlarini xotirlaganda, qalbida g'urur va iftixon hissini tuysinlar. Shu o'rinda, Sharqning buyuk mutaffakkiri qomusiy olimi Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: "Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliv fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallah va imkoniyat boricha mavjud salbiy sifatlardan, nopoliklillardan tozalanishdir degan fikrni ilgari suradi. Kimda shunday sifatlar topilsa, xulquning foydasiga va kimda bular etishmasa, xulq uning zarariga bo'ladi" [3].

Haqiqatda ham, ma'naviy-axloqiy komillik, vijdoniylilik, or-nomuslilik, o'zlik, Vatanga sadoqat, yaqinlariga g'amxo'r bo'lish va boshqa insoniy tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lib kolmaydi. Ularning asosida milliy tarbiya va katta mehnat yotadi. Bu borada oila, uzlusiz ta'limning ilk bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim, mahalla hamkorligida tarbiyalanuvchilarini buyuk siymolar bilan tanishtirish vositasida milliy g'urur, faxr, iftixon hislarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek pedagogikasiga hissa qo'shgan taniqli ma'rifatparvar adiblar Behbudir, Abdulla Qodiriy, sheksper, Gompirenskiy, Abdulla Avloniy kabi olimlar pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, boshqaruv madaniyati,adolat, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog va olimdir.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda aytish o'rinlikni ta'limdagil tub o'zgarishlar, yangi islohatlarni kirib kelishi, innovatsion ta'limni joriy qilinishi yangi boshqaruv paradigma-siga o'tishni taqozo etmoqda. Mavjud adabiyotlarda boshqaruvga bir qator ta'riflar berilgan.

Bir guruh olimlar jumladan, Ye.A.Klimov V.S.Lazarev, N.Nkomb[4]lar boshqaruvni bir

tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga “ta’sir etishi” tarzida talqin etganlar. Bu yo’nalish tarafдорлari boshqaruvni maqsadga yo’naltirilgan ta’sir etish, sub’ektning ob’ektga ta’siri natijasida ob’ektning o’zgarishidan iborat jarayon, deb hisoblaydilar.

M.Sharifxo’jaev, Yo.Abdullaevlarning “Menejment” darsligida boshqaruv so’zining ma’nosи faoliyat tarzida taqdim etilgan. Shuningdek, mutaxassislar boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Boshqa bir guruh olimlar boshqaruv sub’ektlar o’rtasidagi o’zaro ta’sir, ya’ni to’g’ri va teskari ta’sirlarning uzluksizligi, bir-biriga ta’sir etuvchi sub’ektlarning o’zgarishini uyg’un tarzda bog’liqligi degan qarashlarni ilgari suradilar.

Aksariyat izlanishlarda boshqaruv jamoa a’zolarining insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog’liq bo’lgan faoliyat sifatida izohlanadi.

M.M.Potashnik V.S.Lazarevlarning ta’biricha, boshqaruv faoliyat turi hisoblanadi. Bunday yondashuv doirasida bo’lajak tarbiyachilarni alohida o’ziga xos faoliyat turiga o’rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. [4],

L.B.Itelson, A.A.Orlovlar nuqtai-nazariga ko’ra boshqaruv bir tizimning ikkinchisiga ko’rsatgan ta’sirini aks ettiradi. Bunda boshqaruv sub’ektning boshqaruv ob’ektiga ko’rsatadigan maqsadga yo’naltirilgan va ob’ektning o’zgarishiga olib keladigan ta’siri sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv doirasida faollik boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqariluvchilar esa jarayonning passiv ishtirokchilari sifatida namoyon bo’ladilar.

U.I.Inoyatov, R.Sh.Ahliddinov T.I.Shamovalar [2], boshqaruvni sub’ektlarning o’zaro bir-biriga ta’sir etuvchi faoliyati sifatida e’tirof etadilar. Bu jarayonda o’zaro ta’sir jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyati jadallahadi. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, bir-biriga ta’sir etuvchi sub’ektlardagi o’zgarishlarning mutanosibligi va sub’ektlararo o’zaro to’g’ri va teskari aloqalarning uzviy bog’liqligining ta’minlanishini nazarda tutadi.

Boshqaruv nazariyasida boshqaruv tushunchasining mohiyati bilan bog’liq bo’lgan bir qancha metodologik yondashuvlar ilgari surilgan. Ular:

- a) tizimli yondashuv, bunda boshqariluvchi tizimning tarkibiga kiruvchi ob’ekt va sub’ektlarning o’zaro bog’liqligi va bir butunligini ta’minlash;
- b) vaziyatli yondashuv, bu jarayonda ta’lim tashkiloti oldiga qo’ylgan maqsadlarga erishishni nazarda tutuvchi muayyan usullarning uyg’unlashuvini ta’minlash;
- v) jarayonli yondashuv, ushbu yondashuv doirasida boshqaruv funksiyalari o’zaro yagona, tadrijiy tarzda bog’langan zanjirni tashkil etishiga erishish kabilar.

Djuraev R.X, [3], S.T.Turg’unov [3], R.Sh.Ahliddinov [2], V.S.Lazarev [4], M.M.Potashnik [5], N.A.Sharay [6], N.V. Kuzminalarning[7], izlanishlarida ta’lim jarayonini boshqarishga pedagogikaning alohida sohasi sifatida qaralgan. Mazkur olimlarning ta’biricha, pedagogik menejment fanining nazariy-metodologik asosini sinergetik yondashuv, faoliyatli yondashuv, tizimli yondashuv, funksional yondashuv, vaziyatli yondashuv, refleksiv yondashuv, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mutaxassislar tomonidan ta’lim tashkilotlari hamda pedagogik jarayonlarni boshqarish modellarini ishlab chiqishda ushbu yondashuvlarning bar-chasiga tayanish lozim. Mazkur yondashuvlarning birortasi asosiy o’rin egallagan taqdirda

qolganlarining muayyan elementlari unga uyg'unlashtiriladi. Chunki ushbu yondashuvlarning har biri pedagogik boshqaruv uchun muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarda o'z ajdodlari tarixi, madaniyati, urf-odati, milliy qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalashimiz shunchalar zarurki, toki ular ajdodlarini xotirlaganda, qalbida g'urur va iftixon hissini tuyzinlar. Shu o'rinda, Sharqning buyuk mutaffakkiri qomusiy olimi Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: "Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopliliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, xulq uning foydasiga va kimda bular etishmasa, xulq uning zarariga bo'ladi" [8]. Haqiqatda ham, ma'naviy-axloqiy komillik, vijdoniylik, or-nomuslilik, o'zlik, Vatanga sadoqat, yaqinlariga g'amxo'r bo'lish va boshqa insoniy tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ularning asosida milliy tarbiya, madaniyat va ma'naviyat hamda katta mehnat yotadi. Bu borada oila, uzlusiz ta'limning ilk bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim, mahalla hamkorligida tarbiyalanuvchilarni buyuk siymolar bilan tanishtirish vositasida milliy g'urur, faxr, iftixon hislarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'li muassasalari bo'lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda dastlab ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish amaliyoti, uning vujudga kelish tarixi, kasbiy kompetensiyaga oid nazariy-metodologik yondashuvlarga yo'naltirilgan tarixiy ma'lumotlarni o'rganish va ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish zarur. Oliy ta'li muassasalari bo'lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid aniq ma'lumotlar, bilimlar va tajribalar sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan. Bu sohada ajdodlarimiz juda katta tajribaga ega bo'lgan. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebafo merosi, engilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlari ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"ligi haqidagi fikrlari buning yorqin isbotidir. O'zbek pedagogikasiga hissa qo'shgan taniqli ma'rifatparvar adiblar Behbudiy, Abdulla Qodiriy, sheksper, Gompirenskiy, Abdulla Avloniy kabi olimlar pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog va olimdir.

Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Boshqaruvchi madaniyatli bo'lishi shart, chunki har bir muassasaning har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak.

Boshqaruv madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, boshqaruvchi madaniyatini, boshqaruv jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Boshqaruv madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman me'yordarga. Jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me'yordarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab jarayon sanaladi. Sababi mazkur jarayonning bevosita insonni boshqarish bilan bog'liqligida ko'rindi. Shu bois hamma davrlarda ham rahbarlik faoliyatiga maxsus tayyorgarlikka ega malakali shaxslar tayinlanishgan. Ayniqsa, jamiyatning transformatsiyalashuvi davrida

zamonaviy boshqaruv muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Muayyan siyosiy tizimdan yangi siyosiy tizimga o'tish davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida rahbar kadrlar zimmasiga qator strategik vazifalarni yuklaydi.

Ayniqsa, boshqaruvning ijtimoiy pedagogika fani nuqtai nazaridan o'rganilishi muhim sanaladi. Pedagogika bevosita insonni tarbiyalashni nazarda tutganligi uchun ham unda boshqaruvuni ilmiy jihatdan o'rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Endi bo'lajak pedagoglarda boshqaruv madaniyatining shakllantirilishiga kelsak u quyidagi maqsadlar bilan bog'liq:

- birinchidan, boshqaruv madaniyatini yaxshi o'zlashtirgan talaba yoshlar jamiyat va davlat boshqaruvida ham faol ishtirot etadi;

- ikkinchidan, bo'lajak pedagoglar har qanday jamiyatning ziyoli qatlami sanaladi va u o'z o'rnila jamiyat va davlat boshqaruvi uchun ertangi jamiyat a'zosini tarbiyalab etishtiruvchi mutaxassis sanaladi;

- uchinchidan, pedagogik sohada boshqaruv madaniyati qanchalik yuqori darajada o'zlashtirilib, ommalashsa talabalar shunchalik uni o'zlashtirib o'z hayoti davomida undan real hayotda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladi va sohada ham samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Ahlidinov R.Sh. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). – Toshkent: O'zPFITI, 1997. – 25-26-b.
3. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'llim menejmenti: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
4. Lazarev V. S., Potashnik M. M. Upravlenie razvitiem shkoly. – M., 1995. – 441 s.
5. Potashnik M.M. Pedagogicheskoe tvorchestvo: problemy razvitiya i opyt. – Kiev, 1988. – S. 65.
6. Sharay N.A. Teoreticheskie osnovy upravleniya razvitiem gimnazicheskogo obrazovaniya: Diss... d-ra ped. nauk. – M., 2001. – 454 s.
7. Kuzmina N.V., Kuxarev N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. - M.: Vysshaya shkola, 1980. - 119 s
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., – 95 b. Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 446 b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREATIV YONDASHUV

Gulamova Dilrabo Mirmannonovna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 48-sonli umumiy
o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lif sifatini oshirishda kreativ yondashuv va sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, qobiliyat, ijodkorlik, ko'nikma, boshlang'ich sinf, o'quvchi, fikrlash, tafakkur.

O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqr bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lif va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa, ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtayi nazardan chuqr o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, umumta'lif maktablarida o'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Kreativlik - bu shaxsning individual xususiyati bo'lib, madaniy vositalarni shaxsiy tushunchalaridan kelib chiqqan holda qo'llashi va rivojlantirishidir.

Darhaqiqat, har qanday jamiyatda yosh avlodning ta'lif-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining uzlusiz ta'lif tizimining ajralmas va eng asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'lif ekanligini e'tiborga olgan holda aynan kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga shu bosqichda alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlar hamda kreativ fikrlash ko'nikmalari bilan birga milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hurmat qilishi, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lom va barkamol, fuqarolik burch va mas'uliyatini shakllangan bo'lib voyaga yetishlari kerak.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lif sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lif mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'lifni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rinda ta'lif jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham yosh avlodni rivojlangan huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash pedagog kadrlar-

dan yangicha yondashuv hamda ijodkorlik, kreativlikni talab etadi.

Avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda tanlanadigan zamonaviy ta'limgan texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqadorligini ta'minlanishi va yana, albatta, o'zida inson-parvarlik va demokratik xususiyatlarni aks ettirishiga alohida ahamiyat berish zarur. Ta'limgan tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o'qitishning kreativ texnologiyasi bo'lib, uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy imkoniyat (potensial)ni rivojlantirishdir. O'qitishning kreativ texnologiyasi bajarilganda shaxs ijodkorlik obyekti darajasidan ijodkor subyektga o'tkaziladi, o'quv materiali o'zlashtirish fanidan biror ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanadi. Kreativ texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. *creatio* – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqe'a, holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalarni taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalarni bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar D.Gilford tomonidan amalgalashirilgan. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Kreativ salohiyatga ega o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zlarini tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga kreativ va mustaqil yondashadilar. Shuning uchun ham kreativ ta'limgan texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari faoliya-

ti davomida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda tarbiyachi yo'naltiruvchi, o'quvchi ijodiy loyihalovchi sifatida ishtirok etadi.

O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarни o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

-Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni darsda "bir xillik"dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jalb etish va qiziqtirish;

-O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish uchun tavsiyalar:

- Yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlappingizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'llo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasi o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. O'quvchi faqat sinfda o'tirishi kerak emas, vaqt bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

- Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniga qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning.

- O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi. O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqeа-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, prezentsiya qilib ko'rsatish. Darsda o'quvchida oxirgi taassurotni qoldirish bu juda muhim.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruuhlar bilan ishslash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Toqatli bo'lish kerak. Bu o'quvchiga darrov baho berib qo'yishdan saqlaydi. Yana kechirimlilik, mehribonlik, mas'uliyat va o'quvchini eshitish olish-bu o'quvchini fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishiga yordam beruvchi omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z

o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan. Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi: 1) avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo'lishi. O'qituvchi o'quvchilarga erkinlikni, albatta, me'yorida ta'minlab berishi lozim; 2) boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlardan biri bu-bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarни shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni o'qituvchilar mas'uliyatli va e'tiborli bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norbosheva, M. О технике начала разговора с клиентом в психологическом консультировании. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456> (2022).
2. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. Профессиональное самоопределение и выбор профессии учащимися в психологическом знании. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от (2023).
3. Eshmurodov, O. Оила мустаҳкамлигини таъминлашнинг ижтимоий-психологик омиллари (2022).
4. Norbosheva, M. Мулоқот жараёнида мактабгача ёшдаги бола шахсининг ижтимоий-психологик ривожланиш хусусиятлари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459> (2022).

TA'LIMNI GENDER YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING BOLALARНИ BILISH JARAYONIGA TA'SIRI

Gulyamov Djaxangir Raxmatullayevich
*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Mansurova Surayyo Ravshanovna
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchi.

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna
*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo'limi tayanch doktoranti*
abdusalomovamaftuna34@mail.com

Annotatsiya: Bolalarni barchasida tafakkur strategiyasi, diqqati va xotirasining turi hamda ma'lumotlarni o'zlashtirish mexanizmlari gender farqlari bilan bog'liq. O'quv mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida o'quvchilarning gender jihatlarini hisobga olib didaktik topshiriqlarni tayyorlash, ya'ni dars jarayonining gender yo'nalganligini ta'minlanishi pedagog-tarbiyachi va bolalarning individual lateratsiya profillarining o'zaro muvofiq kelishini va bolalar o'quv ma'lumotlarini tushunib o'zlashtirishlariga yordam beradi. Buning uchun tarbiyachi-pedagoglar bolalarning bilish jarayonlarini tashkil etilishining o'ziga xosliklarini diagnostika qilib, uning natijalari asosida ta'lim jarayonini olib borishlari kerak.

Kalit so'zlar: bolalar, individuallik, gender xususiyat, bilish jarayoni, yetakchi yarimshar, tafakkur strategiyasi, reprezentativ tizim.

Аннотация: У всех детей стратегия мышления, тип внимания и памяти, механизмы усвоения информации связаны с половыми различиями. Составление дидактических заданий с учетом гендерных аспектов детей в процессе подготовки к учебным занятиям, то есть обеспечение гендерной направленности процесса урока, способствует эффективному освоению ими учебную информацию. Для этого педагогам следует диагностировать особенности организации познавательных процессов детей и вести образовательный процесс на основе его результатов.

Ключевые слова: дети, индивидуальность, гендерные особенности, когнитивный процесс, ведущее полушарие, стратегия мышления, презентативная система.

Abstract: In all children, the strategy of thinking, the type of attention and memory, and the mechanisms of information assimilation are associated with gender differences. The preparation of didactic tasks taking into account the gender aspects of children in the process of preparing for educational activities, that is, ensuring the gender orientation of the lesson process, contributes to the effective development of educational information by them. To do this, teachers should diagnose the peculiarities of the organization of children's cognitive processes and conduct the educational process based on its results.

Key words: children, personality, gender characteristics, cognitive process, leading hemisphere, thinking strategy, representative system.

Kirish. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining tashkil etish orqali shaxsnı rivojlantirish, ijtimoiylashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarni tarbiyalashga yo'naltirish talab qilinmoqda. So'ngi yillarda O'zbekistonda mактабгача ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda ular asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur hujjatlarda ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini sog'lom va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish hamda ularni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratish kabi maqsad va vazifalar qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Makтabgача ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-sон qarorlarida bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib shakllantirish, ularga ta'lim-tarbiya berishda sohaga yangidan innovatsion usul va metodlarni qo'llash, tizimga zamonaviy o'quv-metodik materiallar va adabiyotlar bilan ta'minlash, ta'lim jarayoniga innovatsion g'oya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'lim tashkilotlarida bilish jarayonini gender yondashuv asosida - qiz va o'g'il

bolalarni o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tashkil etishni ushbu masalalarning yechim yo'llaridan biri sifatida qabul qilish mumkin. Gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lilda, bolalarning shaxsiy va individual imkoniyatlari va ehtiyojlardan kelib chiqib ta'lim jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Bu turdag'i ta'lim bolalarni mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar bilan birga mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim jarayonida bilim olish va o'zlashtirish muammosi markaziy muammolaridan biridir. Bolalar bilim olish jarayonida yuqori bilim faolligiga erishsa, natijada o'zlashtirilgan bilimlar yanada sifatli bo'ladi. Bolalar ta'lim jarayonida ta'lim mazmu-ni, vositalari, metodlari va shakllari yordamida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi.

N.Yunusova va V.J.Anvarova maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi va pedagog-psixologlari bola shaxsini har tomonlama va chuqr bilishlari, uning psixofiziologik xususiyatlari, ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda gender o'ziga xosliklari hisobga olish zarurligini o'z ilmiy tadqiqotlarida tavsiya qilganlar.[5]

S.P.Elshansky va E.B.Puchkova ta'lim jarayonini yuqori darajada va qisqa fursatda o'zlashtirishning takomillashtirilgan varianti bu bilish jarayonlardan foydalanishdir. Bola idrok va e'tibor jarayonlaridan foydalangan holda yangi bilimlarni egallaydi, fikrlash jarayonida ma'lumotlarni tushunadi va xotirada saqlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, bilish faoliyatning o'zi ham samarali va samarasiz natijali bo'lishi mumkin. O'rganishda bilish jarayonlardan foydalanish samarali bo'lishi va o'rganishga yordam berishi mumkin. Bilish jarayoni samara bermaganda bolalar bilimlarni o'z vaqtida xotirada saqlamaydilar yoki umuman, taklif qilingan fikrlash modellarini ishlab chiqmaydilar degan fikrlarni ilgari surgan. [3]

D.B.Xakimova 5-7 yoshli bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishining yosh va jins xususiyatlarini tadqiq etib, 5 yoshdagi o'g'il bolalar va qiz bolalarda psixologik belgilar kuchli namoyon bo'lishini aniqlagan. Bu yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishi yosh va jins xususiyatlariga bog'liqligi to'g'risida psixologik jihatdan o'g'il va qiz bolalarni individual xususiyatlarini turlicha namoyon bo'lishini o'z tadqiqotida bayon etgan. Tadqiqotchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda guruhdagi barcha bolalarning qobiliyat, imkoniyat va ehtiyojlari o'rtasida farq kuzatilishini aniqlagan [4].

Erik R.Kendel bolalarga ta'lim berish jarayonini sun'iy ravishda tezlashtirish bolalarning rivojlanish sur'atini jadallashtirsa-da, biroq ularning shaxs sifatidagi kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlagan. Bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini sun'iy ravishda jadallashtirish "ijtimoiy adaptatsiya" jarayonini tezlashtirganday ko'rinsa-da, qat'iy belgilangan o'quv dasturiga muvofiq, yoshiga nisbatan psixik shakllanishi yakunlanmagan bolalar bilan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlari davomida belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini talab qilinishi normal psixik rivojlanish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Buning sababi sifatida, bolalarda o'quv motivatsiyasining erta "so'nishi" va himoyaviy nevrotik reaksiyalar yuzaga kelishi mumkin. [2]

V.D.Eremeeva va T.P.Xrizman o'qitish jarayoni bola bosh miyasining tarkibiy qismlari va tizimlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun tarbiyachi-pedagoglar interfaol o'yin metodlariga tayanishlari – bola psixikasining yosh davrlari bo'yicha faol rivojlanishiga konkret ijtimoiy sharoitlar yaratish imkonini aniqlaganlar. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik funksiyalari faol rivojlanishini hisobga olib, kichik guruhlar va individual

shaklda interfaol o'yin metodlaridan foydalanishni tavsiya qilganlar.

Muhokama.

Barcha tadqiqotlarda qiz va o'g'il bolalarning bilish jarayonlarida bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ulardan biri – o'g'il va qiz bolalarda ilk yoshlaridanoq idrok mexanizmlari va psixik jarayonlarning kechishi ham bir-biridan ajralib turishi: o'g'il bolalar borliqni bevosita izomorf, hissiy anglash belgilar tizimiga, qizlar esa hissiy tasavvurlarning mantiqiy tahliliga asoslangan simvolik belgilar tizimiga tayanishlari ta'kidlangan.

Yuqoridaq tadqiqotlar tahliliga asoslanib, mashg'ulotlar jarayonida bolalarning gender farqlaridan kelib chiqib, ularni tafakkur strategiyalarini hisobga olgan holda ma'lumotlarni sintezlab taqdim etish orqali ta'lif jarayonini individuallashtirish tavsiya qilindi. Bunda pedagogik jarayon sub'ekti tomonidan taqdim etayotgan ma'lumotlar va topshiriqlar kamida ikki variantda talqin qilinadi:

birinchi variant – ma'lumotlar analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik tarzda ifodalanib induktiv operatsiyalarni bajarishga qaratiladi. Ma'lumotlarni bunday tarzda taqdim etilishi qiz bolalarning muammolarni tahlil qilish va mantiqiy yo'l bilan yechim yo'llarini izlashga chorlaydi;

ikkinci variant – ma'lumotlar va topshiriqlar emotSIONAL-hissiy, obrazli-intuitiv tafakkur strategiyasiga ega bo'lgan o'g'il bolalarga mo'ljallangan bo'lib, ular obrazlarni bir butunlikda idrok qilishlariga, obrazli fikrlashga yo'naltiradi.

Bolalarning gender farqlaridan kelib chiqib ma'lumotlarni sintezlab taqdim etish uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.

1. Tayyorgarlik bosqichida bajariladigan vazifalar:

- neyropedagogik diagnostika metodlari vositasida guruhning gender tarkibini va bolalarning individual lateratsiya profillarini aniqlash;
- guruhdagi bolalarning gender farqlari bo'yicha nisbatni aniqlash;
- har bir mavzuni ikki xil yo'l bilan tushuntirish uchun o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash (to'plash).

2. Asosiy bosqichda bajariladigan vazifalar:

- mashg'ulot jarayonida bolalarning gender xususiyatlari nuqtai-nazaridan ma'lumotlarni qabul qilishlari va ishlashlari, vazifa va topshiriqlarni bajarishlarini nazorat qilish;
- bir xil laterallikka ega bo'lgan bolalarni juft yoki kichik guruhlarga bo'lib topshiriq berish;
- bolalarga o'tilgan mavzu bo'yicha bajarilgan topshiriqni ularning gender xususiyatlarga zid bo'lgan variantini havola qilish va ma'lumotni qanday qabul qilishlarini kuzatish.

3. Yakuniy bosqich – bolalarning rivojlanish xaritalariga bajarilgan ishlar va sodir bo'lgan o'zgarishlar yuzasidan ma'lumotlarni kiritish.

Natija. Gender tenglik, jinsidan qat'iy nazar, ta'lif olish va kasbiy faoliyatdagi huquqlarining tengligi ta'minlanishini nazarda tutadi.

Ta'limiylarini gender yondashuv asosida tashkil etish:

1) ta'lif jarayonini tarbiyalanuvchilar shaxsiga yo'naltirish, bilish faolligini oshirish va ular shaxsini qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish, psixik va aqliy rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish, ruhiy salomatligini mustahkamlash va individualligini qo'llab-quvvatlash uchun

qulay shart-sharoit yaratadi;

2) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda gender tenglikni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga, tarbiyalanuvchilarda kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, tasavvur va ijod qilish ko'nikmalarini izchil shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Ta'lim jarayonida gender yondashuv asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etishga asoslangan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Gender yondashuv – faoliyat mazmunini shaxsga yo'naltiradi, bilish faolligini oshiradi, shaxsni qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish va gender tenglikni ta'minlash orqali psixik va aqliy rivojlanishini to'g'ri yo'naltiradi, ruhiy salomatligini mustahkamlaydi, individualligini qo'llab-quvvatlaydi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. Gender yondashuv asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etish uchun ta'lim oluvchining individualligi, xususan gender xususiyatlari: fikrlash strategiyasi, ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirish mexanizmlaridagi o'ziga xosliklarini tashxis qilishdan boshlanadi.

3. Gender yondashuv asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etilishi ta'limni tarbiyalanuvchilar shaxsiga va individualligiga yo'naltirishga va, natijada, ularni bilish faolligini oshirish, aqliy rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish, individualligini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalilgan adabiyotlar:

1. Еремеева В.Д., Хризман Т.П. Мальчики и девочки – два разных мира. Нейропсихологи – учителям, воспитателям, родителям, школьным психологам. – Санкт-Петербург, 2001.
2. Eric R. Kandel. In Search Of Memory The Emergence of a New Science of Mind Copyright, 2006.
3. Elshansky S. P., Puchkova E. B. \Cognitive Effectiveness of School Learning\ J: Cross-Cultural Studies: Education and Science\ March 17, 2020\ C-33-43.
4. Хакимова Д.Б. Половозрастные особенности развития познавательной сферы детей 5-4 лет. Авторефер....к.пс.н. Ташкент. 2011.-24c
5. Yunusova N., Gulyamov D.R., Anvarova V. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga doir/Toshkent, "Pedagogika" J., №2, 2016. –B.37-42.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TARBIYACHI-PEDAGOG OBRAZI

Ibragimova Ruxsora

*Yunusobod tumani 53-sonli DMTT direktori,
Maktabgacha ta'lism tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish institutining mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachi-pedagogning o'rni, bolalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, bola faoliyatini tashkil etish borasida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, tarbiya, fasilitator, pedagogik jarayon, pedagogik mahorat, kuzatish, ta'lim sifati.

Аннотация: В статье рассматриваются роль воспитателя-педагога в повышении качества образования в дошкольных образовательных организаций, особенности развития детей, организаций детской деятельности.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание, ведущий, педагогический процесс, педагогическое мастерство, наблюдение, качество образования.

Annotation: the role of the educator-pedagogue in improving the quality of education in preschool educational organizations, the specific features of children's development, and the organization of children's activities are discussed in the article.

Key words: preschool education, education, facilitator, pedagogical process, pedagogical skill, observation, quality of education.

Dunyoda juda ko'p kasblar mavjud va ular orasida bir kasb borki, bu eng murakkab va qiziqarli kasblardan biri - tarbiyachilik kasbidir. Tarbiyachilik nafaqat kasb, balki maxsus mahoratdir. Yaxshi tarbiyachi bo'lish nimani anglatadi? Bu juda murakkab masala bo'lib, u batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi. Pedagogik mahorat insonning shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Bolalarning sevgisi tarbiyachining eng muhim professional xususiyati hisoblanadi bu tarbiyachi bilishi kerak bo'lgan eng muhim sifatdir.

Tarbiyachi-pedagog bolalar va ularning ota-onalari uchun katta ahamiyatga ega shaxs. Maktabgacha ta'lism tashkilotida bola tarbiyachiga himoyachi, yordamchi, har doim qanday harakat qilish yoki qilmaslik haqida yo'naltiradigan kishi sifatida qaraydi. Shuning uchun, tarbiyachi bolalarga bo'lgan muhabbatdan tashqari, bir nechta fazilatlarga ega bo'lishi kerak: intizom, mas'uliyat, mehnatsevarlik, samaradorlik, qat'iyatlilik, o'ziga va bolalarga maqsad qo'yish qobiliyati. Maktabgacha ta'lism va tarbiya bu mas'uliyatlari jarayon. Tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlarida bolaning shaxsiyati rivojlanadi, bu yerda ko'p narsa tarbiyachiga bog'liq. Chunki, maktabgacha ta'lism tashkilotida bolalar hayotining muhim qismini o'tkazadilar. Bolalar bilan ishlashda tarbiyachi ko'plab rollarga ega: masalan, tarbiyachi-maslahatchi, tarbiyachi-yordamchi, tarbiyachi-do'st, tarbiyachi-ikkinchi ona vazifasida bo'lmog'i maqsadga muvofiq. Tarbiyachi har qanday holatda

muammoni bartaraf etishda yordamchi obrazida, mashg'ulot paytida yoki o'yin davomida, sayr davomida bolada muammo bo'lishi mumkin. Misol uchun: bola topa olmaydi yoki tuflisini ipini bog'lay olmaydi, ismni qog'ozga yopishtira olmaydi. Yoki biror bir o'yinchon qayerda ekanligini bilmasa, tarbiyachi bolaning murojaat qiladigan birinchi shaxsidir. Faqat tarbiyachi sabr-toqati va sevgisi bolaga bu kichik mo'jiza uchun juda zarur bo'lgan o'ziga ishonch, xotirjamlik va quvonch keltiradi. Tarbiyachi bolaga do'stdir, u bola bilan bir xil darajada muloqot qiladi, unga ishonch va hurmat bag'ishlaydi, bola bilan do'stlashadi.

Bolalar uch yoshda maktabgacha ta'lif tashkilotiga kelishadi. Bu bola uchun butunlay boshqacha, yangi dunyoda o'zini topishi kerak, u yerda hamma narsa bola uchun noma'lum. Tarbiyachining faqat o'tkir ko'zlari bu vaziyatni tushunishga yordam beradi. Tarbiyachi juda ko'p rollarga ega, shuning uchun har bir bolaning hayotida tarbiyachining roli muhim va bebahodir. Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun har bir bolaning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Tarbiyachi guruhsida fasilitator bo'lishi kerak. Fasilitator so'zi - yo'l boshlovchi degan ma'noni anglatadi. Fasilitator bilimli, iqtidorli psixolog, rassom, aktyor bo'lishi lozim. Boladagi muammolarni o'z vaqtida aniqlab bu muammolarning yechimini topishi lozim. Bolani subyekt o'rnida ko'ra olib bolani fikrini uyg'ota bilishi kerak. Fasilitator bolaning ko'ziga ko'proq qarab turishi kerak shunda bolada ishonch uyg'onadi. Bolaning o'zida bo'lgan bilimini ishtiyocini, qiziqishlarini uyg'ota bilishi kerak ekan. Chunki bola mustaqil ravishda o'z bilimini kashf eta oladi va bu narsaga qodir. Bola o'zini muvaffaqiyatli his eta olishida fasilitatorning roli muhim ahamiyatga ega. Fasilitator mahoratlari, ma'naviyatlari, madaniyatli, nutqi ravon, bolaga to'g'ri savol tuzishni, to'g'ri maqsad qo'yishni bilishi kerak. Bola bilan ko'proq muloqotda bo'lishi kerak. Muammoli savol tashlab bolalarni fikrlash qobiliyatini rivojlantira olishi kerak. Bolani o'z istagiga ko'ra beshta markazga to'g'ri yo'naltira olishi kerak. Masalan: musiqaga qiziqadigan bola matematikaga qiziqmaydi, tarbiyachi ijodkorlik qobiliyatini ishga solib bolani musiqa markazidan matematika markaziga qiziqtira olishi kerak. Yoki matematika markazi orqali, fan va tabiatga qiziqtira olishni bilishi kerak. Tarbiyachi-pedagog bolani kichik yoshidanoq o'zini analiz qilishga o'rgata olishi kerak.

Pedagogik tadqiqotlar tizimida ta'lif sifatini oshirish jarayonida tarbiyachi-pedagogning o'rni nihoyatda muhim. Tarbiyachi-pedagog ta'lif va tarbiya jarayonida samaradorlikni oshirishda bir qancha usullardan foydalanadi:

1) kuzatish usuli-bolaning turli xil faoliyatlarda ta'lif olishi va o'zini tutishi haqida aniq va obyektiv ma'lumot yig'ishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, mazkur jarayon maqsadli yo'naltirilgan, doimiy, obyektiv, integrallashgan, refleksiv, tavsifiy va ishonchli bo'lishi lozim. Bolalarni kuzatishda bola shaxsi noyobligi va yaxlitligini hurmat qilish, uning individual o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, mustaqil harakat qilishga, xatolikka yo'l qo'yish ehtimoli bo'lgan taqdirda ham bolaning bunga haqli ekanligini tan olish muhim ahamiyatga ega. Kuzatish har doim aniq maqsadga ega va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun maxsus reja bo'lishi zarur. Pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatishni tashkil etishda kuzatuvchidan tarkiblilik, ehtiyyotkorlik va aniqlik talab etiladi. Mazkur usul orqali eng kam vaqt sarflagan holda bola haqida katta miqdordagi ma'lumotlarni olish mumkin.

2) maktabgacha ta'lifda ta'lif sifatini baholashda maktabgacha yoshdag'i bola portfoliosi usulidan ham foydalaniadi. Portfolio – bu materiallar yig'indisi bo'lib, u rasmlar, hikoyalari, bajarilgan topshiriq natijalari, fotolavhalar, ibora, so'z birikmalari, fikr, mulohaza yozilgan qaydnomalarni o'z ichiga oladi. Bu yig'ma materiallar bola tomonidan egallangan

bilim, ko'nikma va malakalarning hayotiy sharoitlarda qo'llay olinishi haqida tasavvur beradi. Portfolio bola rivojlanish istiqbolini tahlil qilish va baholash uchun qo'shimcha ma'lumotlar manbasi sifatida qo'llaniladi. Bola portfoliosini yaratishda kuzatuv va qaydnomaga tegishli yozuv va belgilar kiritiladi. Portfolio texnologiyasini qo'llash pedagog uchun oila bilan maktabgacha ta'limga tashkiloti hamkorligini tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Aniq o'yinli mashq ijodiy topshirqlardan foydalanib, bolaning mustaqil faoliyatini kuzatish asosida pedagog har bir bola rivojlanishining individual ta'limga yo'naliishini belgilaydi hamda ota-onalarga ta'limi va tarbiyaviy jarayonning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi mumkinligini yetkazib beradi. Portfolio bo'limlari asta-sekinlik bilan maktabgacha yoshdag'i bolaning imkoniyatlari va erishgan yutuqlariga muvofiq to'ldirib boriladi.

3) pedagogik hodisa to'g'risida ma'lumot olish, ta'limga tarbiya jarayonining dolzARB muammolarini hal qilish usullari to'g'risida xulosalar chiqarishga yordam beradigan vositalardan biri bu ekspert usulidir. Ekspert usuli – bu murakkab pedagogik muammolarni har tomonlama o'rGANISH, tahlil qilishga imkon beradigan yondashuvlardan biri bo'lib, u to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. Mazkur usulda pedagogik jarayon mutaxassislar tomonidan sifat va miqdoriy jihatdan baholash orqali tahlil qilinadi va natijalar qayta ishlanadi. Ekspert baholash usuli asosan murakkab pedagogik jarayonlar, hodisalar yoki vaziyatlarni tahlil qilishga imkon beradi.

O'zbekistonning keljak taraqqiyoti, salohiyati, bolalarga maktabgacha ta'limga yoshidanoq maqsadli ravishda ta'limga tarbiya berish, rivojlantirish va maktabga tayyorlashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy, nazariy va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Xulosa qilib aytsak maktabgacha ta'limga ta'limga va tarbiya sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va olib borish tarbiyachi-pedagog mahoratiga bog'liq. U bolaga samimiy muhitni yaratib bera olishi bilan birga tarbiyachi-pedagogning yuz ifodasi muloyim, samimiy, bolalarga doim tabassum qila olishni bilishi kerak, ovoz ohangi baland bo'lmashligi kerak. Bolalarga soyabon kabi bo'lib, issiq-sovuqdan asray olsa, oltin qoidalarga amal qilib ishlasa, bunday bolalardan kelgusida buyuk allomalar-Alisher Navoiylar, Ibn Sinolar, Zamaxshariylar, Zulfiyaxonimlar yetishib chiqadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Djurayev R.X., Tolipov O'.Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent, Fan, 2008. 198-b.
2. Крулехт М.В., Тельнюк И.В. Экспертные оценки в образовании: / Учебное пособие. – М.: Академия, 2002. – 112 с.
3. Bolotina.L.R., Komarova.T.S., Baranov S.P. Maktabgacha pedagogika. 2001-y.
4. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M.Umumiyl psixologiya. Toshkent, 2002-y.
5. G'oziyev E.G. Psixologiya. Toshkent, 2010-y.

YANGI BILIM VA KOMPETENSIYALAR DAVRIDA TARIX FANINI O'QITILISHI

Ibrohimova Saida Abdurasulovna

Farg'onona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi Metodik xizmat ko'rsatish

bo'limi tarix fani metodisti

e-mail: si8790036@gmail.com

Annotatsiya: Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Fan mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi. Bugungi kunda maktabda tarix o'qituvchisi samarali ta'lif berishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar: Innovatsiya ,metod, usul, o'qitish

Аннотация: С первых дней независимости начался период коренных изменений в социальных и гуманитарных науках. Внедрена новая методология в исследованиях и преподавании истории. Учебно-методический комплекс был обновлен, чтобы донести до студентов суть науки в духе времени. Сегодня учитель истории в школе должен обладать достаточными теоретическими и практическими знаниями и навыками, чтобы обеспечить эффективное образование.

Abstract: From the first days of independence, a period of fundamental changes in social and humanitarian sciences began. A new methodology has been introduced in the research and teaching of history. The teaching-methodical complex has been updated in order to convey the essence of science to students in the spirit of the times. Today, a history teacher in a school should have sufficient theoretical and practical knowledge and skills in order to provide effective education.

Key words: innovation, method, method, teaching

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rinn tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish.
2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyanı amalga tatbiq etish.
3. O'rta va o'rta maxsus ta'lif, professional ta'lif, oliy ta'lif uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiya tayanish. International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada <https://econferencezone.org> 27th Jan. 2023 24
4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.

5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilgan yutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

O'quvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan dunyoda mayjud bo'lgan fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishi bilan o'z faoliyatida yangilikka intilish o'zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O'quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o'zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o'tmisht, kecha va bugungi taraqqiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Tarix ta'limi har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o'quvchini shaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilar o'zbekiston tarixi fanini o'rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Tarix darslari o'quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta'minlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil hamdir. Maktab tarix ta'limining zamonaviy konsepsiysi tarixni tizimli o'rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o'rganiladi. Tarix o'quv fani o'rta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma'lumotlari, tushunchalari, atamalari va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladi, o'z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniлади¹.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhgaga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatları alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi", "Juftini top", "Aql charxpalagi", kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat - e'tibor birligina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi. Didora-Doro I. Qadimgi Fors shohi"). "Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi. O'quvchilar o'rganish jarayonida ilmiy tadqiqotlar tarixini tekshirish va ko'rib chiqilgan faktlar hamda ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi bilan ba'zi ko'rilgan faktlar bilan birga, tarixiy faktlardan umumiyl ishlab chiqarishlar chiqarish, umumiyl ishlab chiqarish jarayonida yangicha faktlarni o'rganish uchun olib borishlari mumkin. Ammo, o'quvchilarning tarixni o'rganishi ilmiy tadqiqotidan butkul farq qiladi. O'quv jarayonida o'quvchilar tarix fanini va uning ba'zi tadqiqot metodlaridan bilib oladilar. Xulosa qilib aytganda, har bir fanning samarali o'qitilishi uchun alohida yondashuv va metodologik ta'minot talab etiladi va ushbu jarayonlarda pedagoglардан innovatsion dunyoqarash va o'ziga xos malaka, talab etiladi. Tarix fani tarix shunday o'qitish metodikasi o'zining alohida obyekti hamda tushunish va tadqiqot metodiga ega. Tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o'rganadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish tarix va zamonni yanada anglab olish, kelajakni oldindan ko'rishga sharoit. energiyali aloqalarni ochib bilan birga o'qitishni kuchaytirishni oshirishni

¹ Umumiyl o'rta ta'lim davlatta'lim standarti va o'quv dasturi.||Ta'lim taraqqiyoti||, 3- maxsus son.-T.: —Sharq||, 1999 y.

oshirish niyatida tarix o'qitish jarayonini tadqiq etish metodi bilan ham qurollantiradi. Metodika fani asoslarini ochib berish tarixiy manbalar www.pedagoglar.uz 44-son 4-to'plam may 2023 sahifa: 86 faktlar va umumiy boshqaruvlardan saqlanadi. O'qitish metodikasi tarix fanining bir tekshrish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshi o'zlashtirishlarini va ularning tarixi bilan fanining ayrim tadqiqot metodlari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi, o'z bilimlarini juda ham mustahkam va ishonchli bo'ladi².

Foydalanimanligan adabiyotlar ro'yxati

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti 3- maxsus son.-T.: —Sharq, 1999-y.
2. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005-yil
3. Abduraxmanova J. N. (2020). Innovatsion tajriba maydoni—maktab— laboratoriylarining ta'lim tizimidagi o'rni. Mug'allim hem o'zliksiz bilimlendir. (Issue 1)
4. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. A.Abdugodirov, R.Ishmuhammedov: 2008
5. J.I.Suyundikovich.(2020). Tarix o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. Fan va ta'lim.

MUHANDISLIK QO'SHINLARI HARBIY XIZMATCHILARINING TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGNING O'RNI

Jabbarov Zarifboy Rustamovich,

O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik,
jabborovzarifboy70@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini oshirishda pedagogning roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, harbiy xizmatchi, muhandislik qo'shinlari, pedagog, oliv harbiy ta'lim muassasasi.

Аннотация. В данной статье раскрыта роль педагога в повышении качества образования военнослужащих инженерных войск.

Ключевые слова: качество образования, военнослужащий, инженерные войска, педагог, высшее военное образовательное учреждение.

Annotation. This article reveals the role of a teacher in improving the quality of education of military personnel of the engineering troops.

Key words: quality of education, soldier, engineering troops, teacher, higher military educational institution.

Joriy asr boshlarida vujudga kelgan global muammolar va sivilizatsiya rivojlanishi tendensiyalari, jahon hamjamiyati hayotining turli jabhalarining integratsiyalashuv jarayonlari, jahon iqtisodiyotining tobora kuchayib borayotgan hukmronligi [1] va uni

² Abduraxmanova J. N. (2020). Innovatsion tajriba maydoni—maktab— laboratoriylarining ta'lim tizimidagi o'rni. Mug'allim hem o'zliksiz bilimlendir. (Issue 1)

keng miqyosda raqamlashtirish bilan bog'liq yangi vazifalar ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishi [2] mehnat bozori ehtiyojlari bizni zamonaviy pedagogik sharoitlarga mos keladigan yangiliklarni izlashga majbur qiladi [3]. Ushbu muammoni hal etish jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda javob beradigan yuqori malakali kadrlar, shu jumladan, jahon ilm-fanining eng yaxshi yutuqlarini maqsadli malakasini oshirishni innovatsion ta'minlashga qaratilgan muhandislik qo'shinchilari harbiy xizmatchilarining ta'lif sifatini oshirish [4] bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori bilan O'zbekistonni rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi doirasidagi 100 ta maqsadni 5 yil davomida joriy etish bo'yicha muhim ishlar belgilangan [5].

Rejalashtirilgan islohotlar samaradorligini rivojlantirish maqsadlariga erishish darajasiga muvofiq "Harakatlar strategiyasidan rivojlanish strategiyasi sari" tamoyili asosidagi islohotlarning uzlusizligi va uzviyilagini ta'minlash uchun oliy harbiy ta'lif muassasasida keng sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati moslashuvchanlik va ochiqlik prinsiplariga, eng asosiysi, qo'shni davlatlar bilan do'stona va amaliy munosabatlarni rivojlantirish, vatanimiz suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlashdek biz uchun ustuvor bo'lgan tamoyillarga tayangan holda, mamlakatimiz Mudofaa doktrinasi sifat jihatidan yangilandi. Mazkur doktrinaning ma'no-mazmuni birinchi marta ochiqlik xususiyatiga ega bo'ldi. Bu esa, bizning mudofaa siyosatimizning ochiqligini namoyish etmoqda.

Doktrinada O'zbekistonning mudofaa sohasidagi siyosati bo'yicha prinsipial yondashuvlar, ularni qo'llash asoslari, Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalar, shuningdek, milliy armiyamiz qurilishi va rivojlanishini davom ettirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilab berilgan va ular bugungi kunda amalga oshirilmoqda. Mudofaa doktrinasidagi belgilangan vazifalar hayotga so'zsiz joriy etishiga katta e'tibor davlat rahbari va tegishli nomenklatura strukturalar tomonidan ta'minlanmoqda. Mudofaa doktrinasi qoidalari va mamlakatimizning geostrategik joylashuvini hisobga olgan holda, harbiy okruglarning tarkibiy tuzilishi va vazifalari tubdan qayta ko'rib chiqilgan. Xususan, Mudofaa vazirligining barcha birlashma va qismlarining tarkibiy tuzilmasi to'liq yangilangan. Biz bo'linmalarga jangovar tayyorgarlik bilan to'laqonli shug'ullanish, harbiy xizmatchilarining kasbiy malakasini oshirish va o'z yo'nalishi bo'yicha vazifalarni aniq bajarish uchun tayyor bo'lismiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, har bir ofitser va serjant: "Men kelgusida xizmatni davom ettirishga munosibmanmi yoki yo'qmi?" degan savolga javob berishi shart, – deb ta'kidlaydi prezident Sh.M.Mirziyoyev. Bundan tashqari, oliy harbiy ta'lifni rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarida muhandislik qo'shinchilari harbiy xizmatchilarining ta'lif sifatini takomillashtirish masalalari [6] hal etilmagan va chuqr izlanishlarni talab qilmoqda. Bu, shuningdek, muhandislik qo'shinchilari harbiy xizmatchilarini tayyorlash ularning ko'proq g'ayrioddiy, xolis va ijodiy fikrlesh qobiliyatini rivojlantirishga, to'g'ri qaror qabul qilishga, kasbiy faoliyat sohasining jadal rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda harbiy ta'lif tizimi davlatimiz harbiy tashkiloti voqeligiga moslashtirilib, oliy harbiy matabning zamonaviy standartiga tenglashtirilmoqda. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilarini tayyorlash, o'qitish mazmunini belgilashda asosiy yondashuvlar va tashkiliy pozitsiyalar o'quv jarayonining barcha manfaatdor ishtirokchilarining ilmiy va uslubiy izlanishlari natijalariga mos keladi. Oxirgi yillarda respublikamizda oliy harbiy ilm-fanni

rivojlantirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirish, muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lif sifatini takomillashtirishga e'tibor qaratish hamda bu jarayonni tashkil etishda pedagogik imkoniyatlarni takomillashtirishning harbiy xizmatchilarning ta'lif sifatini oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 2-yanvar kuni mudofaa qurilishi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan xizmat yig'ilishi bo'lib o'tdi [7]. Mazkur yig'ilishda qo'shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini yanada oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash, mavjud qurol-yarog' namunalarini modernizatsiya qilish, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy himoya qilish masalalari muhokama qilindi. Shu maqsaddan kelib chiqib, Mudofaa vazirligi tomonidan yo'l xaritasi ishlab chiqilgan va bu normativ hujjatda hamma harbiy yo'nalishlar uchun vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar oliy bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil

12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va Harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida bir qancha vazifalar belgilandi. Bular qatorida: harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish, milliy armiyani yanada rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi. Mazkur vazifalarni bajarishda pedagogning o'rni katta. Chunki, globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgan jarayonida pedagoglar bir qancha yangi mexanizmlarini qo'llamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli qarori [8] ijrosi yuzasidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariga hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifikat asosida singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrof va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish [9], ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish chuqr talab etilmoqda.

Oliy harbiy ta'lif muassasalari muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarini tayyorlashda uzuksizlik va uzviylikni ta'minlash, iqtidorli yoshlarga eng sifatli oliy kasbhunar ta'lifi olish imkoniyatini berish; ta'lif jarayonini o'qitishning innovatsion uslublaridan foydalangan holda eng ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uzuksiz ta'lif

uzluksizligini ta'minlash [101]; ularni shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishning keyingi trayektoriyasini belgilash; jahon miqyosida yuqori malakali, raqobatbardosh harbiy kadrlar, rivojlangan kasbiy mahorat va ko'nikmalarga ega istiqbolli mutaxassislarini tayyorlashni maksimal darajada ta'minlaydigan ta'lim standartlari, o'quv rejalarini va dasturlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzARB muammolar sifatida belgilanadi. Ushbu jarayon muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining nazariy va uslubiy salohiyatini yanada oshirish, tadqiq etilayotgan muammoning holatini o'rganish, uni hal qilishning istiqbolli yondashuvlarini aniqlash va tadqiqotning konseptual apparatini tahlil qilish uchun qo'shimcha aniqlashtirishni talab qildi; muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini oshirish modeli tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi va mazmunini ajratib ko'rsatish va aniqlash; muhandislik qo'shinlarining harbiy kadrlarini bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimining samarali ishlashi uchun pedagogik shartlar majmuasini eksperimental sinovdan o'tkazish; muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini oshirish jarayonini uslubiy ta'minlashni ishlab chiqishni talab etadi.

Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini takomillashtirish mexanizmlari bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ta'lim sifati – bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish dinamikaga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va transformatsion muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi, shuningdek, "Muhandislik qo'shinlari taktik-maxsus tayyorgarlik" va "Muhandislik to'siqlari" fanlarining harbiy xizmatchi oldida turgan vazifalarni hal qilish uchun bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanish demakdir. "Muhandislik qo'shinlari taktik-maxsus tayyorgarlik" va "Muhandislik to'siqlari" fanlarini o'qitish jarayonida harbiy xizmatchilarida harbiy sarkardalarimiz misolida harbiy vatanparvarlik sifatlarini oshirishga, harbiy kasbni ongli-asosli tanlashga ko'maklashishga, ularni favqulodli vaziyatlarda harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyati uning ta'lim sifatini belgilovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

2. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda "ta'lim sifati" atamasi juda keng qo'llanilgan. Respublikamizda amalga oshirilgan tadqiqotlarda mazkur tushunchaning qo'llanilishiga guvoh bo'lish mumkin. Adabiyotlarni tahlil etish asosida "ta'lim sifati" tushunchasining mohiyatini tahlil qilish asosida aniqlashtirish mumkin, degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мещеряков Д.В. Идентификация компетенций выпускника военного вуза // Вестник Тамбовского государственного университета. Серия: гуманитарные науки. – Т., 2012. – № 10 (114). – 165 с.
2. Ващенко И.М., Трайнев В.А. Стратегия повышения качества педагогического образования в вузе: общая методология и практика. – М.: Прометей, 2005. – 120 с.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>
4. Вахобов А.А. Бўлажак чақиравга қадар бошланғич тайёргарлик ўқитувчисининг ҳарбий-касбий компетентликни ривожлантириш: Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... Дис. – Т., 2022.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yildagi rivojlantirish strategiyasi" Farmoni // Xalq so'zi. – T., 2022. – 29 yanvar. – B. 1-2.
6. <https://kun.uz/news/2024/01/12/ozbekiston-prezidenti-xavfsizlik-kengashining-kengaytirilgan-yigilishini-otkazdi>.
7. Бонюшко Н.А. Методология стратегического управления качеством образования в научно-исследовательском инновационном университете: Автореф. дис. ... д-ра эконом. наук. – СПб.: СПбГУЭИФ, 2009. – 38 с.
8. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-avgustdagи PQ-3898-son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi: <https://www.yuz.uz>
10. <https://president.uz/uz/lists/view/4424>

“MAHORATLI O‘QITUVCHI – MALAKALI MILLAT, MALAKALI MILLAT ESA QUDRATLI DAVLAT DEGANIDIR”.

Jo‘rayev Usmon Toshpo‘latovich

*Turon FA akademigi,
Toshkent viloyati, Bo‘kat tumani 8-sonli
umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada “Mahoratli o‘qituvchi” tushunchasi nimani anglatishiga izoh beriladi, bunday o‘qituvchiga xos belgilari haqida fikr bildiriladi. Shuningdek, o‘qituvchining mahoratini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Mahoratli o‘qituvchi, pedagogik mahurat, o‘quvchi bilimini baholash.

Аннотация: В статье объясняется, что означает понятие «Умелый учитель», дается мнение о характерных чертах такого учителя. Также анализируются меры, реализуемые по повышению квалификации учителя.

Ключевые слова: Квалифицированный учитель, педагогическое мастерство, оценка знаний учащихся.

Abstract: The article explains what the concept of “Skillful teacher” means, gives an opinion about the characteristic features of such a teacher. Also, the measures implemented to improve the teacher’s skills are analyzed.

Key words: Skilled teacher, pedagogic skill, assessment of student knowledge.

I. Kirish: Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’limni jahon tajribalari asosida tashkil etish muhum vazifaga aylandi. Shuning uchun ham “Najot ta’limda” shiori tashlandi. Zero, bugungi ta’lim oldiga – zamon talabiga mos bo’lajak kadrlarni tayyorlashda poydevor bo’lish vazifasi qo‘yildi. Bu vazifa faqat mahoratli o‘qituvchi tufayligina ro‘yobga chiqishi mumkin, xolos.

Bugungi o'qituvchi kim o'zi? Bugungi o'qituvchi – o'z hayotini kelajak avlodlar ta'limgartarbiyasiga bag'ishlagan, ularning orzulari ushalishiga yordam berayotgan, lekin ko'p hollarda o'zları chinakamiga loyiq bo'lgan e'zozga sazovor bo'lmayotgan bo'lsada, jamiyat kelajagini, millat taqdirini belgilab beradigan shaxsdir.

II. Adabiyotlar tahlili: Biz maqolamizni tayyorlashda A.Shlyaxerning (o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha xalqaro PISA taddiqoti asoschisi) "Jahon miqyosidagi ta'limgartarbiyasiga bag'ishlagan, ularning orzulari ushalishiga yordam berayotgan, lekin ko'p hollarda o'zları chinakamiga loyiq bo'lgan e'zozga sazovor bo'lmayotgan bo'lsada, jamiyat kelajagini, millat taqdirini belgilab beradigan shaxsdir.

T.Uokerning asari "**Maroqli dars o'tishning 33 siri**" deb ham ataladi. Kitobning IV-bo'bi "Mohirlik" deb nomlangan va o'qituvchining mohirligi deyilganda nima tushunilishi yoritib berilgan.

L.Taypalening kitobi esa Finlandyaning dunyo tan olgan 100 ta ijtimoiy innovatsiyasiga bag'ishlangan va eng muhammi unda "Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo'ldi", degan savolga javob berilgan.

M.Pardayevaning maqolasi Xitoyning ta'limgartarbiyasiga bag'ishlangan. Muallif jumladan quyidagilarni qayd etgan: "**Xitoya oliy ta'limga kirishdan ko'ra maktablardagi yuqori ta'limga kirish nufuzliroqdir**". (Xitoya boshlang'ich ta'limgartarbiyasiga bag'ishlangan va eng muhammi unda "Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo'ldi", degan savolga javob berilgan).

O'quvchilar maktabga **7:45** kelib, **17:00** da ketishadi. Bir kunda 8 ta dars bo'ladi. Maktabda tushlik bepul, tushlikdan so'ng o'quvchilar partalarga boshini qo'yib 1 soat uylashadi. "O'quvchiga uy vazifasini ham tayyorlattirib, so'ng uyga javob beriladi. Ularni ota-onalari olib kelib, olib ketishlari shart".

O.Do'stmuhamedovning kitobi mavzuga bevosa taalluqli bo'lmaseda, bugun ta'limgartarbiyasiga bag'ishlangan va eng muhammi unda "Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo'ldi", degan savolga javob berilgan.

Muallif, xususan kreativlikka quyidagicha izoh bergan: "**Kreativlik**" atamasi (lotincha so'z bo'lib Creation-ya'ni yaratish so'zidan olingan) bunyod etish, ijodkorlik ma'nolarini anglatadi. Bu atama 1950-yillarda psixologiya faniga kiritilgan. Hozirgi kunda kreativlik odamga nisbatan ishlatilganda shaxsning o'ziga xos jihatlarini anglatadi.

III. Maqola mavzusining qisqacha mazmuni: T.Uoker fikricha mahorat, mohirlik tushunchalari quyidagilarni anglatadi:

1) Darsda eng muhimini o'qitishni bilish mahorati, ya'ni tayanch bilimlarga urg'u berish va darslik imkoniyatidan unumli foydalanish.

2) Manbalardan foydalanishni bilish, ya'ni a) qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olish, b) metodik qo'llanmalardan foydalana olish.

3) O'qitishning texnik vositalaridan unumli foydalana olish mahorati. Fin mакtablаринг har bir sinfda 25 tadan zamonави kompyuterlar о'rnatilgan. Ular ulangan kamera va ekranli proyektor bilan jihozlangan. Sinfga (to'liq bo'lmasada) "SMART" Board interfaol rusумли doskalar ham mavjud.

4) Musiqa tinglashni bilish va unga oshnolik. Masalan 5-sinflarda haftasiga 3 soat musiqa o'tiladi. Bu hodisa bolaning fanlarni о'rganishiga yordam beradi. Asab tizimiga jiddiy ta'sir etadi va bolalarning o'qish faoliyatini oshiradi. Xotirasini yaxshilaydi, diqqatni jamlashiga yordam beradi.

5) Murabbiy (trener) rolini ijro etib borishni uddalay olish mahorati. Bu amaliyot orqali, ya'ni o'tilganlarni mustahkamlash yuzasidan har bir o'quvchiga alohida topshiriq berishni bilishni anglatadi.

6) Bilimlar tasdig'ini talab qilib borishni tashkil eta olish mahorati. Bu degani – tez-tez nazorat ishi o'tkazib borishi lozimligini va o'qituvchining albatta o'quvchi bilimini izohlab berish usullarini bilishi zarurligini anglatadi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchisini savolga yoki test topshirig'iga bergen javoblariga isbot keltira olishga о'rgata bilishini ham anglatadi.

Oxirgi sinov bitiruv imtihonlari bo'lib, u maxsus **Bitiruv milliy qo'mita** tomonidan o'tkaziladi. Imtihonlar barcha maktablarda bir kunda bo'lib o'tadi.

Imtihon ixtoyoriy tanlangan 3 ta fandan va majburiy 1ta fandan (ona tilidan) o'tkaziladi. Fin imtihonlarining o'zga mamlakatlardagi imtihonlaridan asosiy farqi –bu, testlarda kutilmagan vazifalarning bo'lishidir. Bunday vazifalar kundalik hayotdan olinadi. Ana shu vazifani uddalay olgan o'quvchiga qobiliyat uchun ham baho qo'yiladi.

7) Yakuniy baholarni albatta o'quvchilar bilan muhokama qilishni tashkil eta olish mahorati.

O'qituvchi bu o'rinda o'quvchilarning o'z bilimlarini o'zлari baholab borishi uslubini qo'llaydi. Vaqtı-vaqtı bilan o'qituvchi har bir o'quvchisi bilan yakka tarzada 5-10 minut suhbatlashadi va hamma bir bo'lib suhbatdan o'tgan o'quvchiga yakuniy bahon qo'yishadi. Necha baho qo'yish o'qituvchi tomonidan emas, o'quvchi tomonidan taklif etiladi. Pedagogning bolalarga bo'lgan yuksak hurmati uchun shunday qilinadi. Ayni paytda bu usul o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni mustahkamlashga xizmat ham qiladi.

PISA-tadqiqotining kuchi – jahon hamjamiyatini turli mamlakat pedogoklari tajribalaridan xabardor qilishdir. Zero bu tadqiqot asosida birinchidan **qiyoslash; ikkinchidan esa, fuqorolarni kelajakka ta'lif orqali sarmoya tikib ishchi kuchi sifati uchun kurashish lozimligiga;** uchinchidan, har bir o'quvchini o'qiy olishi mumkinligiga ishontirish yotadi.

PISA – o'quvchilarni saralab o'qitish tarafdori emas. Aksincha, Estoniya, Kanada, Finlandiya, Yaponiya, Xitoyning Shanxay shahri va Singapur kabi davlatlarda ota onalar va o'qituvchilar har bir o'quvchining yuqori andozalarga (standartlarga) mos kelishiga ishonishadi.

Bu davlatlarda boshqalarga o'xshab bolalarni iqtidoriga qarab saralash emas, balki har bir o'quvchida iqtidorni rivojlantirish zarurligi tamoyili asos qilib olingan. Bu tizimda ishlayotgan davlatlarda o'qituvchilar o'z kuchi, vaqtı va mablag'larini o'quvchilarning

o'zlashtirishiga hamda ularning baxt-saodatiga ham sarflamoqdalar.

PISA tizimida – məktəb tə'liminə sifati hech qachon o'qituvchilarnı təyyorlash sifatidan ortiq bo'lmaydi, degan qoidaga amal qilinadi. Shuning uchun ularda o'qituvchilar tarkibi sinchiklab saralanadi va o'qitiladi. Uning ish haqqini kasbiy standartlar asosida belgilaydi. Bundan tashqari o'qituvchiga o'zining eng yaxshi pedagogik tajribasini yaratish ustida ishlashi uchun sharoit yaratib beradi. O'qituvchining kasbiy o'sishini hamda xizmat pillapoyalaridan ko'tarilishini qo'llab quvvatlaydi.

Bu tizim ishlayotdigan mamlakatlar o'z oldilariga o'quvchilarining nimalarga qodir bo'lishi va o'quvchiga nimani o'rgatish kerakligini aniq belgilab beradi. Ularda nazorat va hisobdorlik deyarli yo'q. Bu tizim har bir o'quvchiga sifatli ta'limni kafolatlaydi. Shuning uchun ham eng kuchli direktorlar eng og'ir məktəblarga, eng iste'dodli o'qituvchilar eng og'ir sinflarga jalb qilinadi.

O'qituvchilarga ayni payda quyidagi talablarni qo'yadi:

1. O'qituvchining o'ziga-o'zi savol berishi va ularga javob izlash qobiliyatiga ega bo'lishi.
2. Yetuk ilmiy tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lishi.
3. Qiziquvchan, g'amxo'r, rahmdil, bag'rikeng bo'lishi.
4. Bolalarda javobgarlik hissini tarbiyalash, shunga rag'batlantira olish.

Shuni unutmaslik kerak-ki, bu tizimda o'qituvchining hatto bir nafar o'quvchiga muomilasi ham shu o'qituvchining məktəb jamoasi tomonidan qanday qabul qilinishi masalasini belgilab qo'yadi.

IV. Natija. O'zbekistonda ham o'quvchilar mahoratini oshirish, ularning uzlusiz kasbiy mahoratini ko'tarish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, 2022-yil 11-mayda Prezident farmoni bilan 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur tasdiqlandi.

Unga ko'ra: 3,6,7 va 10 sinflar o'qituvchilari Milliy o'quv dasturi asosida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitildi. **Ikkinchidan**, A.Avlonyi instituti negizida pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot institut tashkil etildi. **Uchinchidan**, Hududiy MO markazlari negizida "Pedagog kadrlarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari" tashkil etildi.

To'rtinchidan, mazkur markazda malakali xodimlardan iborat trenerlar guruhi shakl-lantirildi.

Beshinchidan, 2022-2023o'quv yilidan boshlab Nizomiy nomidagi TDPUsda kunduzgi ta'lim olayotganlar uchun 2-4 kurs talabalariga haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tamoyili asosida tashkil etish belgilab qo'yildi.

Oltinchidan, Vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb etgan holda **pedagoglarning** umumiy ta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda.

Yettinchidan, pedagoglarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimining xalqaro standartlar talabalariga qanchalik javob berishi sertifikatsiyalanadi.

Sertifikatsiya olgan pedagoglarning har oylik ishga haqqiga qo'shimcha ustama to'lash

tartibi joriy etildi.

Sakkizinchidan, Maktab direktorlarini 1 oy muddat o'qitib, ularning bilim va ko'nikmalarini baholash va baholash natijasi bo'yicha **menejerlik sertifikati** berish amaliyoti yo'lga qo'yildi va bundan buyon direktorlar sertifikatga ega shaxslar orasidan tanlanadi.

To'qqizinchidan, xalq ta'limali yuqori natijalarga erishgan pedagoglarni qo'shimcha rag'batlantirish va malakali xodimlar faoliyatini yanada qo'llab quvvatlash maqsadida MMTV huzurida MMTVazirining jamg'armasi tashkil etildi.

V. Xulosa: Agar biz maktablarimizda yuqori malakali o'qituvchi kadrlar ishlashiga erisha olsak "Najot – ta'limdadir" deb asli haqiqatni bundan yuz yil oldin aytib ketgan jadid bobolarimizning maqsadlarini ro'yobga chiqara olgan bo'lamiz. **Taraqqiyotda eng yuqori natijalarga erishayotgan davlatlar yutig'inining asosida ta'limga, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi o'qituvchiga yuksak e'tibor yotibdi.** Bu haqda Singapurning Birinchi Bosh vaziri Li Kiyan Yu bunday deb yozgan edi: "**Men mamlakat rivoji uchun hech nima qilmadim hamma ishni o'qituvchilarga ishondim, ularga yuqori maosh belgiladim, hamma ishni ular amalga oshirdilar**".

VI. Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Sh.Mirziyoyev: "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida "gi farmon (2022-yil 11- may).
2. Sh.Mirziyoyev "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror (2022-yil 11-may).
3. Sh.Mirziyoyev "Ilmiy metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qaror (2024.20.04. PQ-128).
4. Sh.Mirziyoyev: "Ta'lim sohasidagi islohatlarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida"gi qaror (2024-yil 2-fevral, PQ-54 son).
5. T.Uoker: "Finlandiyada ta'lim mo'jizasi". T.:2023.
6. U.Taypale: "Finlandyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi. T.:2019.
7. O.Do'smuhamedov "Kreativ iqtisod". T.:2023.
8. A. Shlyaxer: "Jahon miqyosidagi ta'lim":. T.2022.
9. M.Pardayeva : "Yangi ta'lim falsafasiga asoslangan maktab amalyoti bo'yicha tahlillar". XT. jurnali. 2024. 1-son.

ZAMONAVIY O'QITUVCHI-PEDAGOGLAR UCHUN ZARUR BO'LGAN HAYOTIY VA KASBIY KO'NIKMALAR

Kabilov Davron

fizika-matematika fanlari nomzodi,

Sadikov Hamro

informatik, matematik-pedagog,

"Evristika onlayn kursi" loyihasi asoschilar.

evristikamaktublar@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy dunyo ta'limi o'qituvchining kasbiy faoliyatiga tobora yuqori talablar qo'ymoqda. Texnologiyalarning yuqori sur'atlarda taraqqiy etishi, ta'lim standartlarining tez o'zgarib borishi hamda o'quvchilar dunyoqarashining borgan sari turfalashib ketishi sharotida pedagoglar nafaqat o'z fanlari bo'yicha chuqur bilimga, balki qator hayotiy va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlарini taqozo etmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy mакtabda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *hayotiy ko'nikmalar, kasbiy ko'nikmalar, empatiya, ijodkorlik.*

Kirish

Jamiyatning barcha yo'nalishlarida bo'lgani kabi, ta'limga ham raqamli texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellektning tobora chuqurroq kirib kelishi, sohada jiddiy va murakkab muammolar ko'lamenti yanada kengaytirib yubormoqda. Endilikda, o'qituvchi-pedagoglardan faqatgina o'z faniga oid bilim va ko'nikmalarning yetarli darajada bo'lishi o'quvchini, bolani qoniqtirmayotgani, hammamizga ayon. Holbuki, o'qituvchining bir tomonlamaligi o'quvchilarda unga nisbatan simpatiya uyg'otmayotganligi, uni o'ziga o'rnak, namuna yoki kamida ideal, kumir hisoblay olmasligi ishni yanada chalkashtirib tashlamoqda. Dunyodagi barcha ta'lim muassasalari haqiqiy pedagog, chinakam ustoz, ishonchli yetakchi, shijoatli yo'lboshchi, kelajakka umid bera oladigan sabotli rahbar, bolalarni ergashtira, birlashtira oluvchi layoqatli sardorlik sifatlarini o'zida mujassam etgan o'qituvchilarni tarbiyalash, ta'lim jarayoniga yetkazib berish masalasida tinimsiz ishlab, bosh qotirmoqda. Qaysidir ma'noda mana shu savollarga o'ziga yarasha nisbatda yechimlar topa olgan maktablar, o'quv dargohlari va ta'lim tizimlari sohada mos ravishda yetakchilik qilib kelishmoqda. Xullas, bu borada har bir tashkilot o'ziga, o'z qadriyatlari va me'yorlariga tayanib, izlanish hamda tadqiqotlari natijalariga ko'ra yechimlar taqdim etishga urinmoqda.

Biz shu paytgacha mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy va amaliy ishlarni tadqiq etish orqali, haqiqiy ustozda bo'lishi talab qilinadigan hayotiy va kasbiy ko'nikmalar majmuasini shakllantirishga harakat qildik. Qisqacha aytganda, chinakam ustozlik portretiga umumiyl chizgilar berishga urinib ko'rdik.

Tahlil

Maktabning asosiy vazifasi mavjud bilimlarni o'rgatish va yodlatish emas, balki

ta'limga yo'naltirish, qiziqtirish, o'quvchilarda mustaqil o'rganish malakasini shakllantirishdan iborat [1]. Bugungi kunda ma'lumotlarni izlash va topish kishiga deyarli muammo tug'dirmaydi. Muhimi, ularni saralay bilish, foydalisini ajrata olish, hayotda va amalda qo'llay bilish malakasini shakllantirish o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham eng dolzarb bo'lib qolmoqda.

Koulmanning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning bilim va malaka ko'rsatkichlari mактабдаги шароит hamda o'quv dasturlariga qaraganda, ko'proq o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari, kasbiy ko'nikmalariga bog'liq ekan [2]. Bundan tashqari, mana shu bog'liqlik katta sinflarga o'tgan sari ortib boradi. O'z navbatida, bu o'qituvchilar kompetensiyalarining o'quvchilar yutuqlariga kumulyativ ta'sirini namoyon etadi [2, 3].

"O'qituvchilarning hayotiy va kasbiy ko'nikmalari – o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri" degan xulosa keyingi tadqiqotlar bilan to'liq muvofiq keladi. O'qituvchining yoshi, jinsi, ilmiy darajasi, hatto davlat sertifikatlari ham o'quvchilarning bilim olish samaradorligida unchalik kuchli rol o'ynamaganligi ta'kidlanadi [3].

Dunyo bo'yicha turli mintaqalarda olib borilgan tadqiqot va ilmiy tahlillar natijasini ifodalovchi ko'plab maqolalarda o'qituvchi uchun talaygina zarur ko'nikmalar turli tarzda tasniflab, sanab o'tilgan [4-6]. Pedagogning sifatlarini aniqlashning zamonaviy yondashuvlari uning shaxsiy, axloqiy fazilatlari va kasbiy ko'nikmalarini birlashtirish, jamlashga asoslangan. Biz shu kabi tadqiqotlarni o'rganish natijasida, zamonamiz o'qituvchisida bo'lishi lozim bo'lgan ko'nikmalarni soddalashtirib, biroz noan'anaviy tarzda 3 ta asosiy sinfga ajratdik.



Bular: **fidoiylik, ishonch, ijodkorlik**. Aslida, bularni **shaxsiy fazilatlar, axloqiy fazilatlar** va

kasbiy ko'nikmalar tarzida ham ifodalash mumkin. Bu asosiy sinflarning har biri uchtadan guruhni o'z ichiga oladi. O'z navbatida hosil bo'lgan 9 ta sinfosti guruhning har biri uchta ko'nikmaga taqsimlangan.

Demak, mazkur 3 ta asosiy sinf 27 ta eng dolzarb ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunday tasniflash ko'nikmalarni shakllantirish, baholash, o'rganish, o'rgatish, rivojlantirish, turli dasturlar tuzishda ancha qulaylik tug'diradi,-degan umiddamiz.

Muallimlikning o'ziga yarasha gashti bilan bir qatorda, muayyan mashaqqatlari, qiyinchiliklari hamda talab qilinadigan fidoyiliklari ham mavjud, albatta. Shu bois, o'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan ko'nikmalar sirasiga ilk o'laroq fidoyilikni qo'yganimiz bejiz emas. Zero, o'qituvchilik kasbi shuni taqozo qiladi. Haqiqiy ustoz mukofot, mansab, obro', moddiy boylik kabi masalalarni hech qachon maqsad darajasida ko'rmaydi. O'quvchilarining kamoli, jamiyat uchun har tomonlama o'rnak, namuna, yetuk inson bo'lib ulg'ayishi uning uchun katta baxt. Shunday dunyoqarash bilan yeng shimarib ishga kirishgan o'qituvchi ta'llimda rostakam faoliyat olib borishi va chinakam muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Qaysi sohada bo'lmasin, mashhur insonlarning ustozlari deyarli eslanmaydi. Masalan, Eynshteyn, Pele, Pikassoning ustozlari kimlar ekanini deyarli juda ko'pchilik bilmaydi ham, tanimaydi ham. Maktab muallimligidan chiqqan millioner yoki milliarderlarni ham hayotda deyarli uchratmaymiz. Shu bilan birga, birgina o'qituvchining o'zi minglab buyuklarni tarbiyalashi ham mumkin.

O'quv asnosida har bir masalaga tenglik va adolat tamoyilida yondashish, har bolaning injiqligini ko'tarish, vaqt kelganda kuchli sabr, bag'rikenglik, g'amxo'rlik, muloyimlik va mehr berish, boshqalar tashvishi bilan yashash, shaxsiy ishlardan ham ko'ra o'quvchilari muammolariga ko'proq e'tibor qarata olish pedagog o'qituvchidan ulkan fidoyilik talab qiladi.

Fidoyilik sinfiga kiritilgan ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish lozimligi to'g'risida tushuncha hosil qilish uchun uning birinchi guruhiga oid empatiya misolida ko'rib chiqamiz.

Empatiya misolida

Empatiya – o'zga shaxs his-tuyg'ulari, dard va quvonchlarini inson o'zida his qilishi, hamdard, hamhol bo'lishi (achinish, qayg'urish, kuyinish va sevinishi), ko'maklashish yoki quvonchiga sherik, xayrixohlik istagining paydo bo'lishidir.

Qisqaroq aytganda, quyidagi ikkalasi jamlansa empatiya to'liq bo'ladi:

- boshqaning dard yoki quvonchini o'zida his qilish;
- boshqaga dalda berish yoki xayrixoh, dardiga sherik bo'lish.

"Eng buyuk inson o'zini eng ko'p insonlar o'rniga qo'ya olgan kishidir", - deb ta'kidlaydi Jeyn Adams. Dunyo yaralibdiki, eng kuchli empatiya – onaning bolaga nisbatan empatiyasidir. Sevimli ustoz bo'lishni istagan o'qituvchi, avvalo, o'zi o'quvchilarini astoydil, samimi yaxshi ko'rishi, xuddi o'z farzandidek mehr ko'rsatishi lozim. Odatda, inson begonaga ko'pincha raqib yoki dushman nazari bilan qaraydi. Demak, oldin o'quvchi bilan yaqindan tanishish, uni har tomonlama o'rganish, uning ochilmagan, noma'lum qirralarini kashf eta olish muhim. Bolani tanigan sari o'qituvchining munosabati, mehri ortadi, unga nisbatan empatiyasi yanada kuchayadi. O'quvchisini chin ma'noda sevgan muallim, ayrim yomonliklari uchun unga adovat qilmaydi, balki achinish hissi bilan ko'maklashish, qarashishga harakat qiladi, yordamga intiladi.

Empatiyadan maqsad shunchaki o'quvchiga hamdard bo'lish emas, balki uning salbiy hislarini tindirish, sokinlashtirish, shuningdek, ijobjiy, insoniy tuyg'ularini uyg'otish,

kashf etishdan iborat. Qo'rquv bilan uzoq muddatda kiritilgan bilim, ma'lumot qisqa muddatda esdan chiqib ketishi tabiiy. Lekin mehr bilan qisqa muddatda berilgan ilm uzoq muddatda ham bolaning yodidan aslo ko'tarilmasligi ko'p kuzatilgan. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyada mehr hamda sevdirib o'rgatish eng muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi zarur. O'qituvchisining shafqatini doim his qilib turgan o'quvchi, ustoz uni koyisa ham aslo xafa bo'lmaydi. Ya'ni, u "Ustoz meni yaxshi ko'rganidan, kuyinib urishyapti", - deb qabul qiladi.

Empatiyaning salbiy tomoni, uning ortiqcha bezovtalik keltirib chiqarishi bo'lsa-da, ammo o'qituvchilik kabi insonlar bilan ishlaydigan kasb egalari uchun uni rivojlantirish muhim sanaladi. Empatiya har bir shaxsda qaysidir o'Ichovda mavjud va u irsiy omilga ham bog'liq. Ammo uni rivojlantirish mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda ko'p bora tasdiqlangan. Germaniyaning Maks Plank instituti xodimi T.Zinger va jamoasi o'tkazgan tadqiqoti natijasida muntazam va maqsadli shug'ullanish natijasida irsiy mavjud bo'lgan empatiyani uzoq muddatga oshirish mumkinligini aniqladi. Tajribalarda miyaning empatiya uchun javobgar bo'lgan qismi xayrixohlik amaliyoti natijasida kuchayganligi kuzatilgan [7].

Empatiyani rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Eshitishni o'rganish. O'qituvchi o'quvchini oxirigacha eshitganidan keyin yana bir muddat vaqt berishi kerak. Empatiyaning asosi qarshisidagi insonni oxirigacha va diqqat bilan eshita olishdir. Bolani eshitganda chalg'imang, ko'ziga qarang, nima demoqligini bilsangiz ham so'zini bo'lman, xulosa qilishga shoshilmang. Orada "seni to'g'ri tushundimmi?", - deb, xulosangizni tasdiqlatib oling. Qiziqishingizni bildirish uchun savollar bering. Javob berishga shoshilmang, bir muddat tin oling. Qolib ketgan, unutgan gaplari bo'lsa gapirib olishi mumkin. Mulohaza bilan javob bering [8].

2. Notanish insonlar bilan muloqotga kirishish. Faqat jonli muloqotgina insonning hislariga to'g'ri tashxis qo'yishi mumkin. Kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, millati farqli bo'lgan insonlar bilan muloqot qilish ham empatiyani rivojlantiradi. Bu boshqalar haqida badgumon bo'lish va oldindan salbiy fikrlashning oldini olishga yordam beradi. Suhbatda mavzuga jiddiy qiziqish bildiring [9].

3. Bolaligingizdagи hissiyotlarni eslash. O'quvchining qalbi hali ancha nozik va zaif ekanini unutmang. Uning fikriga qo'shilmagan taqdiringizda ham his-tuyg'ulariga jiddiyat va hurmat bilan qarang. Umringizda boshdan kechirmagan holatni his qilish juda qiyin. Bolalikda unutilgan hissiyotlaringizni xotirangizda tiklash, jonlantirishga urinib ko'ring. Bir muddat bolalikka, o'smirlikka qayting.

4. Muammoga o'quvchi nuqtayi-nazaridan qarash. Sizning nazdingizda kichik va ahamiyatsiz hisoblangan masala o'quvchi nazarida juda ulkan hamda o'ta muhim bo'lishi ham mumkin. Uning dunyosi bilan sizning dunyongiz orasida beqiyos farqlar borligini unutmang. Uning shaxsiy chegaralarini buzmang, hududlariga daxl qilmang. Bolaning ichki dunyosiga kirish, uning tuyg'ularini boshqarish uchun emas, balki uni muhokama qilishdan voz kechib, o'z dunyosini qurishi uchun dalda, yordam berish uchun bo'lish shart. Shu bilan birga, albatta, ijobiy va yaxshi dunyoni. Tashqi muhit buzmasa, aslida, bolalarda yomon, salbiy dunyolar deyarli bo'lmaydi. O'zaro ishonch va o'quvchiga samimiy qiziqish muhiti bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shunda o'quvchidagi ochilmagan qobiliyatlarni ham kashf etish mumkin bo'ladi, osonlashadi.

5. Yuz va ko'z imo-ishoralari (mimika). Ba'zida oddiy samimiy jilmayish, ma'yuslik,

g'amginlik, ajablanish ifodalari ham ta'sirli bo'lishi ko'p kuzatilgan.

6. Badiiy adabiyotlar o'qish. Klassik adabiyot, bolalar adabiyoti, ayniqsa, muhim. Asar qahramonlari o'rniga o'zingizni qo'yib, shu hollarda qanday harakat qilishingizni o'ylab ko'rish pedagogik faoliyatingiz uchun juda foydali [10].

7. Stress holatida muloqot qilishni mashq qilish. Odam g'azablanganida o'z aslini namoyon qilib qo'yadi. Lekin uning ana shunday paytda o'zini qo'lga ola bilishi uning haqiqiy kuchini namoyon etadi. Ko'pincha, biz nimadandir achchiqlansak, alamimizni boshqadan, ayniqsa, zaiflardan olishga urinamiz. Bular ichiga o'z navbatida farzand va o'quvchilarimiz ham kirishi tabiiy. Holbuki, paradoksal tarzda bu qilig'imiz juda zaifligimizni ko'rsatib qo'yadi. Shunday ekan, shaxsiy muammolarimizni ichimizda saqlab, bir holdan ikkinchi holga o'ta olish malakasini bot-bot mashq qilishimiz darkor [11].

8. Birgalikda o'yinlar o'ynash yoki tomosha qilish. O'yin orqali har qanaqa zid qarashli insonlar ham o'zaro chiqishib ketishini ko'p kuzatganmiz. Buning uchun, masalan, bitta futbol jamoasiga muxlislik qiladigan turli xarakterdagi insonlarga qarash kifoya. Dunyoqarashlari, e'tiqodi, kasbi va tushunchalari turlicha, ammo o'zlari qarindoshdek bo'lib qolgan sport fanatlari tiqilib yotibdi atrofimizda.

9. Diqqat, e'tibor qaratishni mashq qilish. Samimiyat – o'quvchiga baho bichmasdan, tanqid, muhokama qilmasdan, boricha qabul qilish, uning qalbiga eltuvchi yagona va eng ishonchli ko'priksi barpo etadi.

10. Ko'ngillilik (volontyorlik) faoliyati va ziyyarat. Ko'ngilli bo'lib xayriya ishlarida ishtirok etish, qariyalar uyi, mehribonlik uyi, kasalxona va qabristonni ziyyarat qilish ham empatiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Qizig'i, odatda, empatiya darajasi pedagogik ish stajiga teskari mutanosib (proporsional) bo'lar ekan. Chunki uzoq muddat ta'lim sohasida ishlash kishida turg'unlik (stagnatsiya) holatini keltirib chiqaradi [12]. Balki shuning uchun ham hozirda yosh pedagog kadrlar orasida empatiya ko'nikmasini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish lozimdir.

Empatiyani rivojlantirish uchun o'qituvchilarga quyidagi mashqlarni tavsiya qilish mumkin:

1. O'zingizning va o'quvchilaringizning hissiyotlarini daftarga mudom qayd eting. Biror holat yoki vaziyatga nisbatan ularning hissiy munosabatlarini yozib boring.

2. Sizga yaqin bo'lgan hamkasbingizdan shaxsingizning SWOT-tahlilini qilishini so'rang. Kuchli, zaif tomonlaringiz, imkoniyat va xatarlar bo'yicha tahlil o'tkazing. Siz ham o'z o'quvchilaringizdan ayrimlarining shaxsiga doir SWOT-tahlilini qiling.

3. O'zingiz qo'llanadigan noverbal munosabatlarining ro'yxatini tuzing va kun davomida qaysilarini qancha ishlatganingizni tahlil qiling.

4. Har haftada 2 ta o'quvchi muammosini eshitishni mashq qiling.

5. Haftada bir marta millati, dini yoki dunyoqarashi boshqa bo'lgan inson (biror o'quvchining ota-onasi bo'lsa yanada yaxshi) bilan samimiy muloqot olib boring.

Muhokama

Aslida, o'qituvchining asosiy ish vaqt – uning dars berishdan bo'shagan vaqtidir. Aynan mana shu vaqtida u o'z ustida ishlashi, hayotiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishi,

ijodiy ishlashi uchun fursat topa oladi. Shuning uchun o'qituvchiga dars soatlari tayinlanar ekan, uning o'z ustida ishlashi uchun ko'proq imkon berish zarur, deb hisoblaymiz. Muvaffaqiyatli pedagog – muntazam va uzlusiz o'z ustida ishlovchi, tinimsiz izlanishdagi o'qituvchidir. Bunday ustoz o'quvchilari darsdan zavqlanmasa, lazzat olmasa o'zini aybdor his qiladi, faoliyatidan qoniqmaydi.

Yuqorida empatiyani rivojlantirish borasida qisqacha keltirilgan nazariy va amaliy tavsiyalar misolidagi kabi, har bir ko'nikma uchun shunday nazariy, amaliy, uslubiy materiallar, voqeiy saboqlar, videomateriallar, iqtibos va aforizmlar, infografikalar, rivojlantirish uchun topshiriq va mashqlar, nazorat va baholash tizimi ishlab chiqish hamda shu tarzdagi malaka oshirishning yangicha tizimi orqali o'qituvchilarning hayotiy va kasbiy ko'nikmalarini yuksaltirishni taklif qilmoqchimiz. Albatta, buning uchun yetarli darajada ekspertlar, malakali pedagog va psixologlarni jalg qilishga ehtiyoj bo'ladi.

Xulosa

Zamonaviy tadqiqotlar o'qituvchilik amaliyotida empatiya, nekbinlik, intizom, kreativlik, muloqot, moslashuvchanlik, innovatsiya va o'zgarishlarga doim shay bo'lish kabi ko'nikmalarning muhimligini ko'satmoqda. Shunday qilib, bugungi kunda muvaffaqiyatli o'qituvchi-pedagog nafaqat o'z sohasining professionali, balki yuksak shaxsiy va axloqiy fazilatlarga ega, mudom o'zini rivojlantirish, yangi sharoitlarga moslashishga qodir shaxs bo'lmosg'i darkor. Bunday malakali kadrni yetishtirish uchun, yuqorida keltirilgan o'qituvchida muhim ko'nikmalarni shakllantirish borasida kurslar, seminarlar, mahorat darslarini muntazam tashkil etib borish, ta'lim rivojida juda muhim va salmoqli qadamlar bo'ladi, deb ishonamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'limga tikilgan sarmoya. Nashrga tayyorlovchi Abbas Serobov. – Toshkent: "Akadem-nashr", 2022.
2. Equality of Educational Opportunity Today: Reconsidering the Coleman Report on its 50th Anniversary, Conference in Washington, D.C. on Feb. 25, 2016, Spring 2016 issue of Education Next.
3. Dan Goldhaber, In Schools, Teacher Quality Matters Most, Journal of opinion and resaerch, 2015, Vol.16, No 2.
4. James H. Stronge, Qualities of Effective Teachers, Alexandria, Virginia, USA, 2007, 2nd edition, 201 p.
5. Justin Raudys, 6 Key Qualities of a Good Teacher and 25 Ways to Live Them Out, July 31, 2020, <https://www.prodigygame.com/>
6. American Psychological Association, Coalition for Psychology in Schools and Education, 2015. Top 20 principles from psychology for pre K–12 teaching and learning. <http://www.apa.org/ed/schools/teaching-learning/top-twenty-principles.aspx>
7. Singer, Tania & Lamm, Claus. Singer T, Lamm C. The social neuroscience of empathy, Annals of the New York Academy of Sciences, 2009. 1156. pp. 81-96
8. Michael S. Sorensen, I Hear You: The Surprisingly Simple Skill Behind Extraordinary Relationships, Autumn Creek Press, 2017, 147 p.

9. Marius C. Vollberg, and Philippe N. Tobler, How learning shapes the empathic brain, *Neuroscience*, 2015, 113 (1) pp. 80-85
10. Mar, Raymond A., Oatley, Keith and Peterson, Jordan B.. "Exploring the link between reading fiction and empathy: Ruling out individual differences and examining outcomes" *Communications*, vol. 34, no. 4, 2009, pp. 407-428.
11. L. Tomova, J. Majdandzic, A. Hummer, C. Windischberger, M. Heinrichs, C. Lamm, Increased neural responses to empathy for pain might explain how acute stress increases prosociality, *Social Cognitive and Affective Neuroscience*, Volume 12, Issue 3, March 2017, Pages 401–408,
12. Jamil Zaki, *The War for Kindness: Building Empathy in a Fractured World*, Crown Publisher, 2019, 272 p.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISHNI BAHOLASHNING MAZMUNI

Kenjaboyev Sharifjon,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi,
sharifjonkenjaboev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchi individual kasbiy rivojlanishning mazmuni, baholanishi, individual kasbiy rivojlanish yo'nalishlari, o'zbek va xorij olimlarining bu boradagi qarashlari hamda o'zini-o'zi baholashning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: professionalizm, kasbiy rivojlanish, pedagog, o'zini o'zi baholash, refleksivlik, yangicha fikrlash, striming texnologiyalari, "Ochiq ta'lim resurslari.

Abstract: This article discusses the content, assessment, directions of individual professional development of future teachers, views of Uzbek and foreign scientists on this matter, and features of self-evaluation.

Key words: professionalism, professional development, pedagogue, self-assessment, reflexivity, new thinking, streaming technologies, „Open educational resources.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание, оценка, направления индивидуального профессионального развития будущих учителей, взгляды узбекских и зарубежных ученых на этот счет, особенности самооценки.

Ключевые слова: профессионализм, профессиональное развитие, педагог, самооценка, рефлексивность, новое мышление, потоковые технологии, «Открытые образовательные ресурсы».

Kirish

Bo'lajak o'qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanish jarayoni o'zini professional mukammallashtirish va tarbiyalash yetakchi komponent bo'lib, maqsadga muvofiq ma'lum tarzda amalga oshiriladigan pedagog umuminsoniy tajriba, pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan metodologik va maxsus bilimlar, kasbiy ko'nikma va

malakalar tushuniladi.

Bo'lajak o'qituvchi o'zini-o'zi baholashni shakllantirishning asosiy usuli hisoblangan, o'z salohiyati, shaxsiyati va kabiylidentitetini ideal o'qituvchi shaxsi va faoliyati bilan solishtirish va solishtirish natijalari asosida pedagogik ta'llimning boshidan boshlab individual kasbiy rivojlanish maqsadlarini shakllantirishi lozim bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Professional idealni shakllantirishning bizningcha ikki usuli mavjud. Eng sodda va ishonchli yo'li maxsus adabiyotlarni mustaqil o'rganish, o'z idealini topish maqsadida buyuk pedagoglar hayoti va ijodi bilan tanishish. Bu o'zini pedagog sifatida shakllantirishning samarador usulidir. E.A.Migranova va Sh.X.Pozolovalar o'z qo'llanmasida L.N.Tolstoyning kundaliklarida qoldirilgan, o'zini tarbiyalashning obrazlarini keltirib o'tganlar. L.N.Tolstoy o'zi uchun quyidagi qoidalarni bajarishga alohida e'tibor qaratgan: "Belgilangan narsani, albatta, hech narsaga qaramay bajarish. Bajarayotgan narsani yaxshi bajarish. Hech qachon unutgan narsani kitobga qaramay, esalb qolishga harakt qilish. Har doim o'z aqlini bor kuchi bilan ishlashga majburlash" [3; 79-81].

Professional idealni shakllantirishning ikkinchi usuli sifatida zamonaning yetuk pedagoglari shaxsiyati, kasbiy-pedagogik faoliyati, kasbiy identiteti bilan tanishish, hamsuhbat bo'lish, o'z savollarini berish, fikr-mulohazalar almshish va shu asnoda professional ideal shakllantirishdir. Bizningcha, ayni bir shaxsni ideal qilib olish samarali emas. Professional ideal shakllantirishda turli mutaxassislar, ularning kasbiy faoliyatidagi yutuqlar, samarali usullarni saralab olish va mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda o'z professional idealini shakllantirish lozim bo'ladi.

N.G.Meliyeva o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchi o'zini-o'zi baholash qobiliyatini o'z kuchi, xatti-harakati bilan shakllantirishi lozimligi, bu jarayon sifatida quyidagi omillar ta'sir qilishini keltirib o'tgan:

- o'zini o'zi tushunish;
- shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash;
- o'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi) [7; 44-47].

O'zini-o'zi baholash darajasi shaxsning o'zidan-o'zi qoniqish yoki qoniqmasligini belgilab berib, bunda o'zini-o'zi baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim.

O'zini-o'zi baholash o'z ustida ishlash uchun motiv yaratadi. Tadqiqotchi N.A.Abdullayeva o'z maqolasida o'z ustida ishlash nazariy tafakkurni shakllantirish va bunda mustaqil badiiy va ilmiy asarlarni o'qish, tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mushohada yuritishga va munozaraga o'rganib borishini ta'kidlab o'tgan [1; 601-612].

Tadqiqot ishi doirasida talabalarning individual kasbiy rivojlanishini diagnostika qilishda eng maqbul usul sifatida o'zini-o'zi baholash deb topildi va bu quyidagicha izohlanadi:

- o'zini -o'zi baholashni tashkil etish qulay va kam resurs talab etadi;
- individual kasbiy rivojlanish jarayoni dinamikligini hisobga olgan holda, o'zini-o'zi baholash mazkur dinamik jarayonni baholash imkonini beradi;

- o'zini-o'zi baholash subyektiv bo'lsada, bu vaqt o'tgan sari obyektivlashib boradi;
- o'zini-o'zi baholash diagnostik xarakterga ega bo'lib, valid ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Ta'lif sohasi rivojlanishi pedagoglarning yangicha fikrlashi va o'zgarishlarga moslashishi muhimligi bilan tavsiflanadi. Dezimone kasbiy rivojlanishning ta'siri bo'yicha bir qator amaliy tadqiqotlar, korrelyasion, kvazi-eksperimental va eksperimental tadqiqotlarni olib bordi va beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi. Bu xususiyatlar quyidagilar: kontent (mazmun)ga e'tibor, faol o'rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok [4; 181-199].

Tadqiqotchi K.Oqilova pedagogning samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch-uning motivatsiyasi bo'lib, mavjud motiv kasbiga, bolishga, o'rganishga va o'zini-o'zi rivojlantirishga rag'batlantiradi [11; 178-181].

D.MakKlelland motiv va motivatsiyani uchta ko'rinishda nomoyon bo'lishini asoslaydi:

1. Motivning paydo bo'lish sabablari.
2. Individual ravishda kashf qilingan qarashlar.
3. Affektiv vaziyatlardagi turli xil o'zgarishlar [8].

Individual kasbiy rivojlanish ijtimoiy zaruratdir. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ilm-fan hamda texnik taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish va mehnat bozoridagi bilim, ko'nikma, malakalarni chuqurlashtirish, boyitish, mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Hozirgi davrda pedagog mutaxassislarga bo'lgan talab sifat jihatdan ortgan. Shuningdek, ta'lifning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik rivojlanishdan ortda qolayotgani borasidagi tahlillar muammoning jiddiy ekanligini ko'rsatadi.

Individual kasbiy rivojlanish har bir talabaning shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlarini inobatga olish kerakligini ko'rsatadi. Talabalarda motivatsion tayyorgarlikni rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatga raqobatbardoshligini ta'minlash, ularda kasbiy kompetentsiya, kasbiy ko'nikma va malakalarning shakllanishi va rivojlanishiga erishiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishga bo'lgan motivatsiyasi pedagogik oliy ta'lif muassasasining ta'lif amaliyotiga innovatsiyalarni kiritish va umuman butun ta'lif tizimini modernisatsiya qilishning zarur shartidir. Pedagogik ta'lifning maqsadi aniq va puxta belgilanishi, mehnat bozori va jamiyat ijtimoiy ehtiyojlariga asoslanganligi pedagog mutaxassislar tayyorlashning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, shu bilan birga individual kasbiy rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar

Tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan pedagogik kuzatishlar talabalarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, o'zaro ta'sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari, motivatsiyaning pastligi hamda ko'p ikkilishlar mavjudligini ko'rsatdi. Talabalar zaruriy adabiyotlar, individual kasbiy rivojlanish shakllarini tanlash, kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini va qiyinchiliklarini anglash, o'zlarini namoyon qilish, o'z pedagogik g'oyalalarini amaliyotga tadbiq etish, ta'limga aloqador xizmatlar, tashkilotlar yuzasidan bilimlar yetishmasligi kuzatildi. Talabalarning individual kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki salohiyatdan foydalanish, o'zini-o'zi motivlashtirish, o'zini-o'zi rag'batlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning

ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion ta'limga doir ko'nikma va malakalarini takomil-lashtirish, tajribalarni yuzaga chiqarish ilmiy-metodik kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy-metodik kuzatuv pedagogning professional o'sishi va kompetentligini rivojlantirishda maqbul sharoitlar yaratish, ta'lim subyektlari hamkorligini uyushtirishda boshqaruva texnologiyasini butun, tizimli, tashkiliy faoliyat sifatida amalga oshirilish jarayoni hisoblanadi [1; 80]. Bo'lajak o'qituvchilarda individual kasbiy rivojlanish dasturini tuzish ulardan ichki motivatsiya, o'zini motivlashtirish, hissiy barqarorlik, bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini anglash, kasbiy-pedagogik ehtiyojlarini, qiyinchiliklari, maqsadlarini baholay olish, loyihalash va rivojlanish va o'sish nuqtalarini oldindan taxminlash kabi ko'nikmalarni egallashi lozim bo'ladi.

Hozirgi raqamlashtirib borilayotgan jamiyatda individual kasbiy rivojlanishning imkoniyatlari ortib bormoqda. Quyida individual kasbiy rivojlanishning pedagogik imkoniyatlari, vositalari va ularning funktsional tahlili keltirib o'tilgan. Individual kasbiy rivojlanishda "Ochiq ta'lim resurslari"ning ahamiyati katta. "Ochiq ta'lim resurslari" atamasi birinchi marta 2002-yilda YuNESKOning Rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim uchun ochiq o'quv dasturlarining ta'siri forumida qabul qilingan [10; 120].

Kasbiy mobililikka tayyorgarlikni rivojlantirish uchun o'quv jarayonini tashkil etishning faol shakllari orasida: ijodiy va ishbilarmonlik o'yinlari (o'quvchilarning intellektual, ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rag'batlantiradigan intellektual o'yinlar, mashq o'yinlari, rolli o'yinlar, vaziyatli o'yinlar); guruhning mikrogruuhlarga bo'linishi bilan "davra suhbat" konferentsiyalari va biznes loyihalar; o'quv maqsadlari; dars-munozaralar o'tkazish; kengaytirilgan ma'lumotlarni qidirish; nutq harakatlarini tahlil qilish; loyiha metodi kabilardan foydalaniladi.

Xulosa

Umuman olganda, o'zini-o'zi rivojlantirishning yagona, universal samarali usuli va texnologiyasi mavjud emas, balki bu talabalarning ziddiyatli masalalar, pedagogik o'zaro munosabatlar va o'zini-o'zi rivojlantirish holatlarini intuitiv ravishda hal qilishi lozimligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva N.A. Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi-bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida// Academic research in educational sciences, 3 (1), 2022. – P. 601-612.
2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma). – Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. – B. 80.
3. Migranova E.A., Pozilova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. – T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2018. – B. 79-81.
4. Desimone L. Improving impact studies of teachers' professional development: Toward better conceptualizations and measures// Educational researcher 38 (3), 181-199.
5. Елканов С.Б. Основы профессионально-го самовоспитания будущего учителя/ С.Б.Елканов. – М.: Просвещение, 1989. – 189 с.
6. Коростишес Т.П. Технология формирования профессионально-педагогической компетентности будущих учителей математики по индивидуальным образовательным траекториям // Педагогическое мастерство: материалы междунар. научн. конф. (г. Москва, ноябрь, 2014 г.). – М.: Буки-Веди, 2019. – С. 258-261.

7. Meliyeva N.G. Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi asosida kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurbali, 8-son. Buxoro, 2023. – B. 44-47.
8. Makkelleland, D. (2007). Motivatsiia cheloveka [Human motivation].
9. Mamirov A.X. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish sifatlarini shakllantirish // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 9-son. – Buxoro, 2023. – B. 49-52.
10. Matyushkina A.A. Представление о решении творческой проблемы в научной школе. 2017. – 120 с.
11. Oqilova K.S. O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va takomillashtirishga motivatsion tayyrlik // Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar, 8-son, <http://interscience.uz>, 2023. – B. 178-181.
12. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: 1999. – B. 84.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TA'LIMDAGI O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH

Mansurov Farrux Najmitdinovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi
farruxmansurov@gmail.com,

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson kapitalini rivojlantirish va o'zgarishlar, ta'lif muassasalarini boshqarishning nazariy jihatlari, boshqaruvi modellari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, o'zgarishlarni boshqarish, model, texnologiya, boshqaruvi nazariyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются развитие и изменения человеческого капитала, теоретические аспекты управления образовательными учреждениями, модели управления.

Ключевые слова: человеческий капитал, управление изменениями, модель, технология, теория управления.

Annotation. This article discusses the development and changes of human capital, theoretical aspects of management of educational institutions, management models.

Key words: human capital, change management, model, technology, management theory.

Inson kapitali - bu odamlarda mavjud bo'lgan, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish, iqtisodiyot va jamiyatda turli maqsadlarga erishish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat, tajriba, sog'liq va boshqa fazilatlar yig'indisidir. Jismoniy kapitaldan (mashinalar, binolar va boshqalar) farqli o'laroq, inson kapitali deganda investitsiyalar (masalan, ta'lif, sog'liqni saqlash, kasbiy ta'lif) hosildorlik va daromadning oshishiga olib

kelishi mumkin bo'lgan nomoddiy aktivlar tushuniladi.

O'z-o'zidan ma'lumki, "o'zgarishlarni inkor etgan inson tanazzul me'moridir, taraqqiyotni rad etuvchi yagona insoniy muassasa bu qabristondir". Ushbu aksiomani hisobga olgan holda, agar o'zgarishlar faol qabul qilinmasa, XXI asr tashkilotlari eskirib qolish xavfi borligini tushunish juda muhimdir. O'zgarishlarga qarshilik inson tabiatini kabi muhim va shuning uchun o'zgarishlar menejerlari shaxsiy to'qnashuvlar va ego kurashlarini hisobga oladigan inklyuziv yondashuvni qo'llashlari kerak. Ko'pincha yirik tashkilotlarda hokimiyat va hokimiyat markazlari mavjud va shuning uchun tashkilotni o'zgartirish masalasi ham guruh dinamikasiga, ham individual xulq-atvor xususiyatlarga tegishli bo'lishi kerak. O'zgarish radikal, tez, to'satdan va noaniq bo'lishi mumkin. Bu buzuvchi va ko'pincha tashkilotlarni tegishli ogohlantirishsiz yoki ogohlantirishsiz qayta e'tibor qaratishga majbur qiladigan o'zgarishlar turidir. Tashkilotlar tez va to'satdan o'zgarishlarni qabul qilishga majbur bo'lishdan ko'ra, o'zgarishlarni oldindan bilish yaxshiroqdir.

Mafkuraviy va shaxsiyat muammolaridan tashqari, qarshilik ko'rsatishning haqiqiy ehtimoli bor, chunki bundan keyin nima sodir bo'lishining "ko'rinishi" noaniq. O'zgarishlar muqarrar va faqat boshqarilishi mumkin, aks holda tashkilotlar o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin. Menejerlarni jalb qilish vositalarini tushunish tegishli yondashuvlar uchun asos bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuvlar raqobat va hamkorlik o'rniga bosim va muvofiqlashtirish taktikasini, shuningdek, hamkorlikni o'z ichiga oladi. Ta'lif sohasida o'zgarishlarni boshqarish inson kapitalining samarali rivojlanishini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib, bu o'z navbatida ta'lif sifatini oshirish va malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi. Ushbu maqola inson kapitalini rivojlantirish va o'zgarishlar, ta'lif muassasalarini boshqarishning nazariy jihatlarini o'rganadi. Ishlab chiqarish faoliyati va iqtisodiy muvaffaqiyatni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, qobiliyat va boshqa xususiyatlar yig'indisi sifatida aniqlash mumkin. Jerri Bekker tomonidan taklif qilingan klassik ta'rifga ko'ra, inson kapitali mahsuldarlik va daromadni oshiradigan ta'lif va o'qitish orqali shaxsga shaxsiy sarmoyadir (Becker, 1964).

Inson kapitali bir qancha tarkibiy qismlarga bo'linadi, ularning har biri o'zaro uzviy bog'liq.

1. Ta'lif inson kapitalining asosiy elementi hisoblanadi, ta'lif umumiyligi va maxsus bilimlarga bo'linadi. Ta'lif inson kapitalini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi, buning natijasida inson yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

2. Ko'nikma va malakalar aniq vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan professional va shaxsiy fazilatlardir. Ko'nikma va malakalarning rivojlanishi insonga o'z kasbiy faoliyatida samarali bo'lishiga imkon beradi.

3. Salomatlik, ya'ni ishlashga ta'sir qiluvchi jismoniy va ruhiy salomatlikdir. Sog'lom turmush tarzi va yaxshi jismoniy holat samaradorlikni oshishiga yordam beradi.

4. Motivatsiya va qadriyatlar: odamlarni yuqori natijalarga erishishga undaydigan ichki va tashqi omillar hisoblanadi. Motivatsiya va shaxsiy qadriyatlar insonning professional va shaxsiy haqiqatga intilishida muhim rol o'ynaydi .

O'zgarishlarni boshqarish nazariyalari

Menejmentdagagi asosiy nazariy va namunaviy o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz.

1. Kurt Levin modeli: uch bosqichni o'z ichiga oladi - muzdan tushirish, o'zgartirish va muzlatish (Lewin, 1951). Levin tashkilotni o'zgarishlarga tayyorlash, yangi amaliyotlarni amalga oshirish va mustahkamlash muhimligini ta'kidlaydi. Muzdan tushirish tizimni o'zgartirish, yangi g'oyalar va amaliyotlarni joriy etish jarayonini o'zgartirish va yangi yondashuvlarni muzlatish zaruratini o'z ichiga oladi.

2. Edgar Sheyn nazariysi: O'zgarishning madaniy jihatlariga e'tibor qarating (Schein, 2010), bu yerda tashkiliy madaniyatning asosiy tushunchasi va o'zgarishi mavjud. Sheynning fikricha, muvaffaqiyat tashkilotning o'z madaniyatini yangi sharoitlarga moslash qobiliyatiga bog'liq.

3. Jon Kotter modeli: sakkiz qadam, uzlusizlik tuyg'usini yaratishdan boshlanib, tashkilot madaniyatiga yangi yondashuvlarni kiritish bilan yakunlanadi (Kotter, 1996). Kotter keyingi o'tish jarayonini, inklyuziv koalitsiya qurishni, qarash va strategiyani ishlab chiqishni, to'siglarni olib tashlashni va qisqa muddatli g'alabalarni yaratishni taklif qiladi.

- Levin modeli maktabga tayyorgarlik ko'rish uchun ishlatilishi mumkin, masalan, yangi ta'lif texnologiyalarini joriy etish. Muzdan tushirish bosqichi xodimlarni o'qitish va xabardorlikni oshirish yoki o'zgartirish zarurligini o'z ichiga olishi mumkin.

- Sheynning yondashuvi maktab madaniyatini o'zgartirish, masalan, uzlusiz ta'lif madaniyatini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Tashkilot madaniyatini o'zgartirish yangi qadriyatlar va me'yorlarni ishlab chiqish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishni o'z ichiga olishi mumkin.

- Kotter modeli o'zgarishlarni tizimli amalga oshirish va yangi ta'lif amaliyotlarini birlashtirish uchun foydali bo'lishi mumkin. Koterning qadamlariga rioya qilish maktabga o'zgarishlarni samarali boshqarishga va barqaror natijalarga erishishga yordam beradi.

Ta'lif muassasalaridagi o'zgarishlarni boshqarish inson kapitalini samarali rivojlantirishning asosiy omildir. O'zgarishlar yangi ta'lif dasturlari, texnologik va uslubiy darslarni joriy etishni o'z ichiga olishi mumkin. Ular maktabni zamonaviy talablarga moslashtirib, o'quvchilar va o'qituvchilar salohiyatidan imkon qadar samarali foydalanish imkonini beradi.

Maktab boshqaruvidagi birinchi muvaffaqiyatli o'zgarishlar

1.Texnologiyani joriy etish: ko'plab maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv jarayoni muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Bu ma'lumotlarga kirishni yaxshilash, talabalar motivatsiyasini oshirish va ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

2.Innovatsion ta'lif dasturlari: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi ta'lif dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zamonaviy dunyoning paydo bo'lishiga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

3. O'qituvchilarning malakasini oshirish: o'qitish, seminarlar va kurslar orqali o'qituvchilarning uzlusiz malakasini oshirish o'qitish sifatini oshirish va yangi ta'lif standartlariga moslashishga yordam beradi.

Ta'lif sohasida inson kapitalini samarali boshqaruvni o'zgarishlarisiz rivojlantirish mumkin emas. Nazariy va namunaviy boshqaruv o'zgarishlaridan foydalanish bizga yangi innovatsiyalarni joriy etishda tizimli yondashuvni ta'minlash, pirovardida ta'lif sifatini oshirish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi. O'zgarishlarni boshqarish o'qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga va maktab madaniyati va

tuzilishi kabi tashkiliy jihatlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak. O'zgarishlarga qarshilik hali ham o'rganish va tadqiqotning munozarali sohasi bo'lib qolmoqda, chunki o'zgarishlar adabiyotida muhim empirik dalillar yoki faktlar yo'qligi sababli o'zgarish natijalari bo'yicha turli mualliflar o'rtasida tegishli konsensus mavjud emas. O'zgarishlarga qarshilikni churur o'rganish keyingi tadqiqotlar uchun potensial soha bo'lib qolmoqda va samarali tadqiqot va o'rganish orqali ushbu mavzu bo'yicha ko'plab yangi tushunchalarni ochish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekker G.S. (1964). Inson kapitali: ta'limga alohida e'tibor qaratgan holda nazariy va empirik tahlil. Chikago universiteti matbuoti.
2. Levin, K. (1951). Ijtimoiy fanlarda soha nazariysi: tanlangan nazariy maqolalar. Harper va Rou.
3. Sheyn, E.H. (2010). Tashkiliy madaniyat va yetakchilik. Jossi-Bass.
4. Shultz, T.V. (1961). Inson kapitaliga investitsiyalar. Amerika iqtisodiy sharxi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI KASBIY KOMPITENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVI

O'zbekistonda masofaviy ta'limga rivojlanish istiqbollari va tendensiylari

Mo'minova Nargiza Sabitdjanovna

Maktabgacha ta'limga tashkilotlari direktori va

mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish instituti "Maktabgacha va musiqiy ta'limga"

kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyachisida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlanish bo'yicha nazariy bilimlar va uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'limga tizimi, tarbiyachi-pedagog, kasbiy kompetentlilik, zamonaviy yondashuv, xalqaro tajriba, interfaol usullar, bilim, ko'nikma, rivojlanish.

Аннотация: В статье приводятся теоретические знания и методические указания по формированию и развитию профессиональной компетентности педагога дошкольной образовательной организаций.

Ключевые слова: система дошкольного образования, педагог-педагог, профессиональная компетентность, современный подход, международный опыт, интерактивные методы, знания, умения, развитие.

Annotation: the article provides theoretical knowledge and methodical instructions on the formation and development of professional competence of the teacher of the preschool educational organization.

Key words: preschool education system, educator-pedagogue, professional competence, modern approach, international experience, interactive methods, knowledge, skills, development.

Ta'lrim sifatining takomillashib borishi natijasida bugungi kun yoshlarining ma'naviy qiyofasi va maqsadlari ham o'zgacha ko'rinish kasb etmoqda. Har bir yosh kadrlar o'z faoliyatini o'ziga xos yo'nalishda tashkil etish yo'llarini aniqlashga intilib bormoqda. Shu o'rinda maktabgacha ta'lrim tashkiloti tarbiyachilari hamda ushbu faoliyatga kirib kelayotgan bo'lajak tarbiyachilar ham o'zida kasbiy layoqatni oshirish uchun tinimsiz izlanishda davom etmoqdalar.

Zamon rivojlanib borar ekan, har bir faoliyat o'zida yangicha usullarni qo'llash zaruratin keltirib chiqaradi. Xususan, maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishning eng muhim bo'g'inda turganliklari tufayli, mazkur yoshdagagi bolalar ta'lrim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar zimmasiga chuqrur mas'uliyatni yuklaydi. Bu mas'uliyatli vazifani samarali ado etishda tarbiyachi-pedagog o'zida kasbiy kompetentlikni shakllantirgan bo'lishi g'oyatda muhimdir.

Jahon ta'lrim tizimidagi islohotlar va ta'lrim bozorida raqobat muhitini shakllanishi mutaxassislar tayyorlash tizimini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va ta'lrim standartlarida belgilangan kompetensiyaviy talablarni uzlusiz takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xalqaro tajribaga ko'ra pedagoglarning kasbiy va metodik kompetentligi, jumladan, ta'lrim jarayonini amalga oshirishning eng maqbul metodlarini, samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lrim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga alohida ehtiyoj tug'ilmoqda.

Mazkur jihat bo'lajak tarbiyachi-pedagog kasbiy va metodik kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Ta'lrim jarayonini tashkil etishda ta'lrim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, metodik kompetentlikni shakllantirish usullarini, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, pedagoglarning metodik kompetentligini shakllantirishning zamonaviy metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini belgilash, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Kompetentlik – kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyatdir. "Kompetentlik" so'zining ma'nosи xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi¹.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" atamalari o'zakdosh so'zlar bo'lib, ular G'arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60-yillari oxiri, 70-yillarda paydo bo'ldi. "Kompetensiya" atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90-yillaridan e'tiboran ishlatila boshlandi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limi alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan

¹ Science and innovation international scientific journal 2022 № 3 407

ta'lism texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi:

- ✓ ta'limga umumiy maqsadning qo'yilishi;
- ✓ tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- ✓ o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki baholash.

Ta'limga texnologik yondashuv. Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi.

Shu bois tarbiyachi-pedagog uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'nnaviy barkamol shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarga muvofiq texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi;

Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga. Shaxsning ma'lum sifatlari amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'pyoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiyligini, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur.

Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachi - pedagogning tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirot etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

O'quv-tarbiya jarayonida tarbiyachi-pedagogning ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda tarbiyachi-pedagogni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashhg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi².

Jahon pedagogik leksikani qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o'yin olgan. Bu tushuncha "yangilik", "isloh" tushunchalarini anglatadi. Keng ma'noda qara-ganda ta'lism tizimidagi har qanday o'zgarish bu – pedagogik innovatsiyadir.

Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llanan edi, so'ngra ta'lism tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatsiya fani shakllandi.

Pedagogik innovatsiya - pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'lismot sifatida qaraladi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. g'oya asosida esa tarbiyachi-pedagogning bolalar bilan o'zaro harakati yotadi, ya'ni guruuhda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir bola o'z shaxsini o'zi namoyon etishini ta'minlash; har bir metodik yondashuv uchun o'ziga xos muloqot yo'llini tanlash; bolalar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar. Bunda tarbiyachi-pedagoghar bir bola qalbiga kirib borish uchun o'zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo'l topadi.

Ta'im tizimida innovatsion faoliyatning subyekti tarbiyachi-pedagoglar, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda tarbiyachi-pedagoghar shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

"Innovatsion ta'llim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'llim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq.

Bunday o'zgartirishlar ta'llim tizimining:

✓ maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqarav tizimiga;

✓ pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;

✓ ta'llim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;

✓ o'quv-metodik ta'minotiga;

✓ tarbiyaviy ishlar tizimiga;

✓ o'quv reja va o'quv dasturlariga;

✓ o'quvchi va tarbiyachi faoliyatiga bog'liq.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'llim jarayoniga kiritishdan iborat³.

Shuni tavsiya etamanki, pedagog-tarbiyachilar doimiy izlanishda bo'lishi kerak. Chet elning rivojlangan davlatlari ta'llim tajribasini kuzatish, o'rganishi ular bilan bevosita muloqotda bo'lishi, tajriba almashishi, bir xillikdan qochish, yangi ta'llim texnologiyalaridan mashg'ulotlar jarayonida foydalanishi ular pedagogik jarayonning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib, tarbiyachining kreativligi deb uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish bilish darjasini deb ta'riflash mumkin.

Tarbiyachining kreativligi - bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. M.Usmonboyeva, G.Anorkulova, G.Shamaripxodjaeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar
2. "Bilik – ilmiy faoliyat". 02-nashr: 04 aprel 2021.
3. <http://bilig.academiascience.ortfai>

MAHORATLI MAXSUS PEDAGOGNI INKLYUZIV JAMIYATNI QURISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Mo'minov Sulton Akbar o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi

Nazarova Madinaxon Erkinjon qizi
Farg'ona viloyati Qo'qon shahri 3-sonli "Nurli maskan"
maktab-internati ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada alohida ta'lismi ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotda o'z o'rnnini topishda, sog'lom bolalar bilan bir xil sharoitda umumta'lim mакtablarida ta'lismi-tarbiya olishda maxsus pedagoglarning qanday bo'llishi, o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lismi, maxsus pedagog, korreksiya, IEP, inklyuziv ta'lismi sinflari, boshlang'ich tayanch korreksion sinflar, alohida ta'lismi ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

Аннотация: в данной статье раскрываются роль, роль и значение специальных педагогов в оказании помощи детям с особыми образовательными потребностями найти свое место в общественной жизни и получить образование в общеобразовательных школах на тех же условиях, что и здоровые дети.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальный педагог, коррекция, ИОП, классы инклюзивного образования, начальные коррекционные классы, дети с особыми образовательными потребностями.

Annotation: this article reveals the role, role and importance of special pedagogues in helping children with special educational needs to find their place in social life and receive education in general education schools under the same conditions as healthy children.

Key words: Inclusive education, special pedagogue, correction, IEP, inclusive education classes, elementary correctional classes, children with special educational needs.

Barcha davlatlarning muhim sharti yosh yetishtirish kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal qilib yetishtirish desak mubolag'a bo'lmaydi. Asosan jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lismi tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lismi tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lismi samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Ayniqsa, alohida ta'lismi ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun umumta'lim mакtablarida inklyuziv ta'lismi sinflarining tashkil qilinishi va ularni ijtimoiy hayotga kichik mакtab yoshidan boshlab olib kirish diqqatga sazovordir. Bunday holatda alohida ta'lismi ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim mакtablariga moslashib ketishi, ta'lismi ishtirokchilari tomonidan

do'stona munosabat muhitini o'rnatishda ta'lim muassasalarining hamkorligi zarur ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, maktabni tugatgandan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ijtimoiy hayotda qiynalmasligi, o'rganishi, bir-birlariga yordam berishi kabi faol harakatlarga duch keladi va inklyuziv ta'limga qamrab olinganligi sababli bunday holatlardan osonlik bilan chiqib ketadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni boshqa (sog'lom) bolalar bilan birgalikda maktab tadbirlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, tabiat qo'yniga sayr qilish, yoqtirgan mashg'ulot bilan shug'ullanish, kompyuter va yordamchi texnologiyalar bilan ishslash kabi jarayonlarga yo'l ochib berilsa, maktabning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini yanada jonlantirishi, bolalarning keng ko'lamli tajriba orttirishi, dunyoqarashini kengaytirishi va shu orqali ijtimoiylashgan insonlar kamol topishiga hissa qo'shishiga umid bildiriladi.

Inklyuziv ta'lim sinflarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar bilan birga o'qishlari, ehtiyojdan kelib chiqib kerakli ta'lim yondashuvlari yuzasidan maxsus ta'lim muassasalari pedagoglari tomonidan beriladigan amaliy ish tajribasi bilan o'rtoqlashadi. Maxsus ta'lim muassasalari pedagoglari inklyuziv ta'lim sinflarida faoliyat olib borayotgan hamkasblariga ish faoliyatida yo'l-yo'riq ko'rsatish, tajribasi bilan o'rtoqlashish, maslahatlar berish va maktab o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlaydi.

Endilikda maxsus ta'lim muassasalari shu vaqtgacha to'plagan bilimlarni, nogiron bolalar bilan ishslash tajribalarini inklyuziv ta'lim sinflari tashkil etilgan umumta'lim muassasasi pedagog xodimlariga o'rgatishni asosiy vazifasi sifatida qarashi lozim. Bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitish usullari qo'llab-quvvatlaydi, eng maqbul o'qitish strategiyalarini o'z ichiga oladi. Natijada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, korreksion rivojlantirish, ularning ota-onalari (yoki o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlikda ishslashga erishiladi. Shu bilan birga maxsus maktablarga yangi nazariyalar, inklyuziv ta'lim falsafasi ilmiy yondashuvlar asosida olib kirishga erishadi.

Unda:

- inklyuziv ta'lim sinflariga qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish;
- qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahatlar berish;
- maxsus yordam ko'rsatish xonalari pedagoglari maslahatlar berib borish;
- o'quv materiallari, yordamchi texnologiyalar, baholash yuzasidan maslahatlar;
- individual ta'lim rejalarini (IEP) yaratish;
- ko'rsatiladigan tibbiy yordam, ijtimoiy ta'minot tarmoqlari, o'qituvchilarning malakasini oshirish (alohida ehtiyojli bolalar uchun o'quv materiallari, psixologik xususiyatlari bo'yicha);
- maxsus maktab, maktab-internatlar va inklyuziv ta'lim sinflari tashkil qilingan umumta'lim maktablari o'tasida ma'lumot almashish uchrashuv va seminarlarini o'tkazish;
- ota-onalarga bolalarning haqiqiy holatini tushunishni qo'llab-quvvatlash va boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi **"Alohida ta'lim**

ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori hamda ushbu qarorda belgilangan vazifalar yuzasidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning 1-ilovasi bilan "Umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarida inklyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Nizomda har bir inklyuziv ta'lif sinflari yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktab uchun alovida maxsus pedagog shtat birlklari ajratilishi belgilangan.

Maxsus pedagoglar korreksion ta'lifni olib boradi, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi, alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alovida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi.

Maxsus pedagoglar inklyuziv ta'lif sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi. Inklyuziv ta'lif sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi o'quvchilarga individual ta'lif dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchilar bilan individual ta'lif dasturlarini o'zlashtirish, maxsus pedagoglar tomonidan ta'lif jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan zamonaviy inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'qituvchi xuddi ommaviy ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar qatori, tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi va o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagog o'quvchilarga va ijtimoiy hayotda har qanday sohada faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabidir. Pedagogning tashqi qiyofasi, ya'ni kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi, ya'ni toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan zamonaviy o'qituvchi qiyofasi, madaniyatini o'zida aks ettirgan bo'lishi, o'quvchilar uchun ibrat bo'lib qoladi. Pedagogning butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi-pedagog oldiga qo'yilgan asosiy talablar sirasiga kiradi.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinali ravishda qo'llashi, bu hozirgi kun va zamon talabi. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, roman yoki doston bo'lsa, u obrazga kirib, yorqin, ya'ni rolga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqtira olishi talab etiladi. Agar mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri, til ko'nikmalariga kuchli e'tibor qaratilishi lozim. Shu o'rinda inklyuziv ta'lif jarayonida alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan pedagogga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi, birinchi o'rinda turishi lozim.

Inklyuziv ta'lif jarayonida pedagog maksimal darajada xushmuomalalik va sabr-

toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi. O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi.

Pedagogning bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylilik aks etib turishi, inklyuziv ta'limga faoliyat olib borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lsin. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta'limga faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyati, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'zin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatları hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni o'quv jarayonida bolalar nima uchun va nima o'rganayotganliklarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak va xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Alohidagi ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan inklyuziv ta'limga pedagoglarini tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'limga o'tkazilishi va taqsimlanishi uchta asosiy tizimidan iborat bo'lishi kerak:

- ta'limga mazmuni – bu tizimda zarur kasbiy bilimlar aks etadi. O'qituvchi o'zining mutaxassisligini egasi va puxta bilim sohibi bo'lishi talab qilinadi;
- bo'lajak inklyuziv sinf o'qituvchisining kasbiy mahorat tizimini mukammal darajada shakllantirish tushuniladi;
- hozirgi zamon talabidan kelib chiqib dars jarayonlarini kasbga yo'naltiruvchi ruhda hayot va amaliyatga bog'lagan tarzda tizimli qilib olib borish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta'limga o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi uchun zarur ko'nikmalar:

- inklyuziv ta'limga nima ekanligini tushunish, uning an'anaviy ta'limga shaklidan farqi nimada ekanligini ochib berishi;
- inklyuziv ta'limga muhitida bolalarning psixologik holati, yoshi va shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- sog'lom va nogironligi mavjud bo'lgan bolalarni birligida o'qitish uchun o'quv jarayonini psixologik, pedagogik, didaktik loyihalash usullarini bilishi;
- ta'limga muhitining barcha subyektlari (har bir bolalar bilan individual va guruhda ishlash, ota-onalar, hamkasblar, mutaxassislar, menejment vakillari bilan) o'rtaida turli xil pedagogik hamkorlik usullarini amalga oshirish qobiliyatini mavjud bo'lishi;
- inklyuziv ta'limga o'qituvchisining kasbiy faoliyat yo'nalishlari;
- oldini olish;
- tashxis qo'yish va maslahat berish;
- pedagogik ta'limga berish;
- psixologik va psixoterapevtik yordamda ishtirok etish;
- ta'limga ijtimoiy-pedagogik faoliyatda faol ishtirok etish;

- ta'limni tashkil etish va boshqarish;
- o'qitish faoliyatি.

Maxsus pedagog davlat ta'lim standartlari va hamda ularning individual (moslashtirilgan) ta'lim rejalarini pedagoglar bilan birgalikda ishlab chiqadi va ularni sinfga uyg'unlashtiradi.

Undan tashqari:

- pedagogik xodimga belgilangan ish yuklamasini, jumladan, o'quv-korreksion jarayoni, o'quv-korreksion jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonlarga oid ishlarni o'z vaqtida bajarish;
- korreksion-pedagogik ta'limni olib boradi, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga tayyorlash, o'quv materialini o'zlashtirishlarini xolisona, muntazam baholanishini ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatidan kelib chiqib ta'lim jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarga tayyorlash, to'garaklarga ishtirokini ta'minlash, o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni amalga oshirish;
- o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish; o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, dars, mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarining odob-axloq qoidalariiga rioya qilishini ta'minlaydi;
- o'z ehtiyojiga ko'ra fan o'qituvchilari tomonidan o'tiladigan darslarni kuzatish, dars tahlili natijasida o'zaro tajriba almashish;
- mutaxassisligi bo'yicha kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishslash, ilg'or ta'lim metodlarini o'rganish va doimiy ravishda malakasini oshirib borish choralarini ko'radi;
- o'quvchilar huquqlariga va bolalarni muhofaza qilishga oid qonunchilik talablariga rioya qilish; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;
- amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish; ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- o'quvchilarining mактабда yaratilgan shart-sharoitlardan foydalanishga rioya qilishlarini ta'minlaydi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni huquqlarini muhofaza qilish, har qanday kamsitishlarni oldini olish bo'yicha mакtab jamoasi, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi;

- o'qituvchi, o'quvchi, ota-onasiga, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inkiyuziv ta'limga bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar yaratilishi va takomillashtirishda o'z hissasini qo'shami;
 - har bir dars (mashg'ulot) rejalarini, dars o'tkazish uchun zarur bo'lgan didaktik tarqatma va ko'rgazmali materiallarni ishlab chiqadi;
 - pedagogik kengash, metodik kengash, majlislarda, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchining mактабга moslashuvi va o'zlashtirishi haqida hisobotlar beradi;
 - pedagogik axloq normalariga rivoja qilish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash, ularning farzandlarini tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha individual uchrashuvlar va suhbatlar o'tkazadi;
 - mактаб amaliyatchi psixolog bilan hamkorlikda o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularni kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash, hamda mактаб shifokori bilan o'quvchining sog'lig'i masalalari bo'yicha tegishli ishlar olib boradi;
 - ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rivoja qiladi;
 - foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rivoja qilinishini ta'minlaydi;
 - ta'lim muassasasi rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga amal qilish;
 - o'ziga biriktirilgan sind xonalari, texnik vositalar, boshqa moddiy boyliklarning saqlanishini va ulardan o'quv-metodik maqsadlarda samarali foydalanishni ta'minlash;
 - kasb mahoratini muttasil oshirib borib, o'z faoliyatida ilg'or ta'limga metodlarini o'rganish va amalga oshirish, mehnat va ishlab chiqarish intizomiy qoidalari rivoja qilishi zarur;
- Bilishi lozim:**
- amaldagi umumiy o'rta ta'limga hamda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;
 - davlat ta'limga standartlari, uning talablari, o'quv reja va individual ta'limga rejalarini;
 - o'zi mutaxassisligi sohasidagi ilmiy-nazariy asoslari, uning mazmuni va amalda qo'llanilishi, berayotgan ta'limga-bo'yicha dars (mashg'ulot) o'tish metodikasi va tashkil qilish tartibini;
 - alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning ilg'or shakllari va intensiv usullarini;
 - alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar bilimi baholash mezonlari asosida baholash, nazorat qilish usullarini;
 - o'quvchilarni o'zlashtirishini, faolligini rag'batlantirib borishni;
 - pedagogika, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini, o'quv jarayoni texnik vositalarini amaliyotda qo'llashni;
 - sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi

qidalarini bilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-ton Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-ton Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-tonli Qarori.
4. Inklyuziv ta'limda tiflopedagog o'qituvchining o'rni va ahamiyati (Pedagog xodimlar uchun qo'llanma) S. Mo'minov, Z.Xusnuddinova. Toshkent – 2022.
5. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami: Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagoglar faoliyatini modellashtirishning korreksion metodik aspektlari, 373-bet. 2024-yil 21-may Qo'qon.

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLARNI ANIQLASHDA UMUMTA'LIM MAKtablARI O'QITUVCHILARINING BIR KUNLIK HAYOTI SOLISHTIRMASI

Muradov Ikrom Turdiboyevich

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti katta ilmiy xodimi

muradov_ikrom@mail.ru

Annotatsiya: Umumta'lismaktablari o'qituvchilarining hayotini, ularning o'tayotgan har bir kunini aniqlash hamda uni chuqr bilish barcha uchun qiziqarli bo'lsa kerak albatta? Ushbu tezisdan maqsad – mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan umumta'lim maktablari o'qituvchilari va Rossiya Federatsiyasi o'qituvchilari o'rtasidagi o'zaro solishtirish, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar mavjudligini bilish hamda oxir-oqibat bundan tegishli xulosalar chiqarishdir.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, bilim berish, rol, so'rovnama, Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi, solishtirish.

Аннотация: Всем должно быть интересно узнать о жизни учителей общеобразовательных школ, их буднях и познать их глубже. Цель данной статьи – провести взаимное сравнение учителей общеобразовательных школ, действующих в нашей стране, и учителей Российской Федерации, выяснить, есть ли между ними сходства и различия, и в конечном итоге сделать соответствующие выводы.

Ключевые слова: учитель, образование, роль, опрос, Российская Федерация и

Республика Узбекистан, сравнение.

Annotation: Everyone should be interested in learning about the lives of secondary school teachers, their everyday life and getting to know them more deeply. The purpose of this article is to conduct a mutual comparison of teachers of secondary schools operating in our country and teachers of the Russian Federation, to find out whether there are similarities and differences between them, and ultimately to draw appropriate conclusions.

Key words: teacher, education, role, survey, Russian Federation and the Republic of Uzbekistan, comparison.

“Shaxsan men o’qituvchi deganda – zamon bilan hamqadam bo’lgan jonkuyar, ziyozi shaxsni, maktab deganda – bilim va ma’rifat yog’dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessans poydevori qo’yiladigan tabarruk maskanni ko’z oldimga keltiraman” – Shavkat Miromonovich Mirziyoyev [1].

O’qituvchilar ta’limda, ayniqsa sinfda dars beradigan o’quvchilar hayotida muhim rol o’ynaydi. O’qituvchi salohiyatini belgilaydigan jihat bu uning o’quvchilarga bilim berish qobiliyati va ularga ijobjiy ta’sir ko’rsatishi hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda o’qitish turli xil ko’rinishlarga ega. Chunki bir vaqtning o’zida o’qituvchi ham ota-onas, ham maslahatchi, ham murabbiy, ham namuna va hokazo bo’lishi zarur. Avvalo, o’qituvchining asosiy vazifasi bilim berishdir va bu o’qitishdan kelib chiqadi. O’qitish odatda ma’lum bir o’quv dasturiga riosa qilishni va o’quvchilarga nima o’rgatilayotganini tushunishlarini ta’minlashni o’z ichiga oladi. Agar o’qituvchi bilim berish bo’yicha o’zining asosiy mas’uliyatini bajara olmasa, bolaga boshqa har qanday ko’rinishda ta’sir ko’rsatishi qiyin bo’lishi mumkin. O’quvchilarning har kuni yoki haftada o’qituvchilar bilan o’tkazadigan vaqt ularning o’quvchilarga ma’lum darajada ta’sir qilishiga imkon beradi. Endi bu ta’sirni ijobjiy yoki salbiy holatga keltirish albatta o’qituvchiga bog’liqdir.

O’qituvchi bo’lish faqat o’quv dasturi bo’yicha dars berishdan tashqari, bolani parvarish qilish hisoblanadi. O’qituvchilar nafaqat bilim beradi, balki xarakterni shakllantirishda ham yordam beradi. O’qituvchining roli muayyan dars rejasи va ish jadvaliga riosa qilgan holda oshadi. O’quvchilar ham, o’qituvchilar ham shuncha vaqt birga bo’lganligi sababli, o’qituvchi beixtiyor tashqi ota-onaga aylanadi. O’qituvchilar bolani to’g’ri yo’lga qo’yishga yordam beradigan murabbiy bo’lishi mumkin. Bu rolda o’qituvchi o’quvchini eng yaxshi bo’lishga undashi, shuningdek, o’quvchilarga ilhom va maslahat manbai bo’lishi mumkin.

O’qituvchilar hayotni o’zgartiradigan, orzularni ilhomlantirgani va inson salohiyatining chegaralarini oshirganligi uchun muhimdir. O’qituvchining vazifasi bolalarni tarbiyalash, o’qitish va jamiyatga foydali bo’lib tarbiyalashdir. O’qituvchilarning sinfdagi, jamiyatdagi va umuman dunyodagi roli avvalgi davrdagidan boshqacha tus oldi. Vaqt o’tishi bilan o’qituvchilarga amal qilishlari kerak bo’lgan maxsus o’quv dasturi va o’quv dasturini o’qitish bo’yicha ko’rsatmalar berildi.

Bugungi kunda o’qituvchilarning roli o’quvchilarga maslahat berish va bilimlarni hayotda qanday ishlatish hamda qo’llashni o’rgatishdan iboratdir. O’qituvchilar endi o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy yo’llarini izlashmoqda. Bunga misol sifatida so’nggi yillarda xalqaro talablar asosida chop etilayotgan o’quvchilarni kreativ va mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga undaydigan darsliklar, o’quv qo’llanmalarni ko’rishingiz

mumkin.

Shuningdek, o'qituvchilarning hayotini, ularning o'tayotgan har bir kunini aniqlash, bilish barcha uchun qiziqarli bo'lsa kerak? Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning xorij mamlakatlari, xususan Rossiya Federatsiyasi o'qituvchilari bilan solishtirish, ular o'rta-sidagi o'xshashlik va farqlar mavjudligini bilish biz uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu maqsadda, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining <https://t.me/avloniyuz> [2] va https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar [3] kanallarida "**O'qituvchining bir kuni**" – nomli so'rovnoma tashkil qilingan edi. Shu vaqtga qadar 117 600 nafardan ortiq foydalanuvchilar so'rovnoma savollari bilan yaqindan tanishishgan va o'z ovozlarini bildirib o'tishgan.

Rossiya Federatsiyasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishida keltirilgan statistik ma'lumotlar hamda olingan so'rovnoma natijalari asosida solishtirma tahlil ishlari amalga oshirildi. Marhamat solishtirma tahlil jarayoni natijalari bilan tanishishingiz mumkin.

Tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasidagi umumiy holat bir-biriga yaqin ekanligi, ammo ba'zi farqli jihatlar ham borligini ko'rish mumkin.

So'rovnoma ishtirokchilarining 73,6 foizi o'qituvchilar ish jarayonida 71-90 foiz vaqtini tik oyoqda o'tkazishini, Rossiya Federatsiyasida esa bu ko'rsatkich 79 foiz ekanligini ko'rish mumkin. [4]

Respondentlarning 58,6 foizi o'qituvchilarning 1 kunda belgilangan me'yordan tashqari 3-6 soatgacha ishlashini aytishgan, Rossiya Federatsiyasida bu holat 4-5 soatni tashkil etadi.

Qatnashchilarning 71,4 foizi o'qituvchilar kun davomida 4,5-7 soat davomida baland ovozda gapirishlari, Rossiya Federatsiyasida esa 3,5-4 soat ekanligiga e'tibor qaratsak, O'zbekistonlik o'qituvchilar rus hamkasblariga qaraganda 0,5-3 soat ko'proq baland ovozda gapirishar ekan.

O'qituvchilarning 71,7 foizi vitaminlar qisman yetishmasligi va to'g'ri ovqatlanishning asosiy qoidalariiga rioya qilmasligini ta'kidlashgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida bu ko'rsatkich 80 foiz. Ya'ni ikki mamlakat o'qituvchilarining ham 70 foizdan ortig'ida ushbu muammo mavjud ekan.

Respondentlarning asosiy qismi mamlakatimizdagi barcha maktab rahbarlari va o'qituvchilari yuqori darajada stress ostida yurishini, aniq, lingvistik fanlar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda sinf rahbarlari o'rta darajada stress ostida yurishini aytishgan. Rossiya Federatsiyasida esa direktorlar va ularning o'rinnbosarlari yuqori darajada, aniq, lingvistik fanlar hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rta darajada stress holatiga tushishar ekan.

So'rovnoma ishtirokchilarining 67,9 foizi maktabdagagi jami o'qituvchilar tarkibining 71-90 foizi ayol o'qituvchilarni tashkil etishini alohida ta'kidlashgan, Rossiya Federatsiyasida esa bu ko'rsatkich 85 foiz ekan.

Qatnashchilarning 90,9 foizi yurtimiz o'qituvchilarning 1 sutkada 5-8 soat uqlashini, Rossiya Federatsiyasida bu holat 6 soat ekanligini ma'lum qilishgan.

Ishtirokchilarning 58,2 foizi o'qituvchilarning bor yo'g'i 10 foizigina ertalabki sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlari bilan shug'ullanishini bildirishgan, Rossiya Federatsiyasida esa 14 foiz ekanligi aniqlangan.

O'qituvchilarning asosiy qismi 1 kunda 2-3 marta ovqatlanishini ta'kidlashgan va Rossiya Federatsiyasida ham holat shunday ekan.

Respondentlarning asosiy qismi o'qituvchilarning sihatgohlarda yoki dengiz sohilida dam ololmasligini bildirishgan, Rossiya Federatsiyasida esa ham holat shundayligini ko'rish mumkin. Har ikki davlat o'qituvchilari dam olish va sog'lig'ini qayta tiklashda juda kam imkoniyatga ega ekanligini e'tirof etishmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, yuqorida keltirilgan barcha kriteriyalar bo'yicha solishtirish, tahlil ishlari amalga oshirildi va ular yuzasidan bir nechta takliflarni bildirish mumkin. O'zbekistondagi o'qituvchilarning ish samaradorligini yanada yuqorilashi ta'lim sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, maktabda o'qituvchilar uchun turli sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni bepul tashkil etish zarur. Sababi o'qituvchilar dars berish mashg'ulotlaridan tugagandan so'ng ushbu faoliyatlar (fitnes, yoga, sport mashg'ulotlari, yugurish, suzish, gimnastika, yengil atletika) bilan bemalol shug'ullanishi va buning natijasida inson tanasi va miyasi dam oladi. Pirovardida esa barkamol avlodni shakllanishiga zamin yaratiladi.

Ikkinchidan, yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, ikki mamlakat ko'rsatkichlari barcha jabhalarda bir-biriga juda yaqin ekan. Ko'rsatilgan kamchiliklarini bartaraf qilsak, o'ylaymizki mamlakatimiz mактаб ta'limi tizimi yanada muvaffaqiyatli odimlashiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatdagi pedagoglarga "1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni" umumxalq bayrami munosabati bilan yo'llagan tabrigi. 29.09.2022.
2. <https://t.me/avlonyuz>
- 3.https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
- 4.<https://pedsovet.org/article/profzabolevania-pedagogov-kak-ne-dopustit-sereznyh-problem>

YANGI O'ZBEKISTONDA O'QITUVCHI MAQOMI, TA'LIMNING YANGI BOSQICHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Murodova Sitora Ulug'bek qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 27-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi
sitoramurodova765@gmail.com

"Jamiyat hayotida o'qituvchining o'rni va ta'siri oshsa — mактабning obro'yi oshadi, ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohasining qadri ko'tariladi. Muallimning obro'-e'tibori esa bu millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir"
Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining mahorati, jamiyatdagi beqiyos roli, uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi muammo va uning yechimlarida o'qituvchining o'rni bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mahoratli o'qituvchi, malakali millat, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ...

Аннотация: В данной статье представлена информация о квалификации учителя, его уникальной роли в обществе, проблеме непрерывного профессионального развития и роли учителя в ее решении.

Ключевые слова: Квалифицированный педагог, квалифицированная нация, непрерывное профессиональное развитие, ...

Annotation: This article provides information on the skills of the teacher, his unique role in society, the problem of continuous professional development and the role of the teacher in its solutions.

Keywords: Skilled teacher, skilled nation, continuous professional development, ...

O'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o'qituvchi doimo ongning yagona sohibi bo'lmish insonning ta'lim–tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan muloqot olib boradi, uning aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan yuksalishiga, o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Albatta, har tomonlama yetuklikka yetgan o'quvchi esa malakali millat nomi ostida birlasha oladi. Mana shuning uchun ham ustozlik kasbi dunyodagi eng nozik, eng sharaflı va shu bilan birgalikda eng mashaqqatli kasb hisoblanadi. O'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'zishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Jamiyat uchun o'qituvchining o'rni va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aqlfarosatga, ravon nutqqa ega bo'lishi, o'qituvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z nomusini qadrashi, adolatlì bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi," - deydi Abu Nasr Al- Forobi bobomiz

Yangi O'zbekiston islohotlarining mustahkam huquqiy poydevori bo'lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz hamda davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida pedagog maqomini yuksaltirish vazifasi alohida qayd qilingan. Ushbu masala shunchaki qog'ozni bezagan chiroyli orzu-istiklalar ifodasi emas, balki qat'iy hayotiy maqsad ekani izchil islohotlar davomida kundan- kunga yanada yaqqolroq namoyon bo'lib boryapti. Prezidentimiz tomonidan kuni kecha imzolangan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunni fikrimizning tarixiy tasdig'i deyish mumkin. 21 moddadan iborat mazkur qonun bilan yurtimizdagi 700 mingga yaqin pedagogning huquqlari, majburiyatları hamda faoliyatining asosiy kafolatlari belgilandi¹. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasidagi barcha ustozlarni juda sevintirib, keng imkoniyatlar yaratdi. Bir necha imkoniyat va afzalliklar bilan birga ishbu qonun yuksak e'tibor topayotgan pedagoglar kasbiy majburiyatini bajarish chog'ida etika qoidalariiga rioya etishi zarurligi

¹ <https://jdpu.uz/ozbekistonda-pedagog-maqomi-jamiyat-va-davlat-nufuzining-mezonidir/>

ham qonun nazaridan chetda qolmagan. Pedagogik etika qoidalarini bilish va ularga amal qilish o'qituvchi o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishining sifat ko'rsatkichlarini hamda mehnat intizomini belgilaydigan mezon sifatida qayd etilgan.

Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, muallim kamolot ichra ko'zgudir. Bu ko'zgu shu qadar tiniq bo'lishi, unga boqib barcha o'zini, o'zligini takomillashtirishi, illatlaridan forig' bo'lib, fe'l-atvorini tartibga keltirishi lozim. Tabiiyki, jamiyat uchun chinakam kamolot ko'zgusi bo'lish hammaga ham nasib etavermaydi. Shu tufayli qonunda pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydigan shaxslar haqida aniq normalar mavjud².

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda bir necha muammolar va shunga ko'ra yechimlar ham mavjud. Bu muammolar o'rganilishi va yechim topish uchun o'qituvchi, ta'lim sohasidagi har bir shaxs yuqori tajribaga ega bo'lishini talab qiladi. Quyidagi yechimlar esa uzluksiz kasbiy rivojlantirishda muammolarga yechim topishda yordam berishi mumkin:

1. Qo'llanma, Maqlolalar va Kitoblar: Kasbiy rivojlantirishdagi muammolarga yechim topish uchun maqlolalar, kitoblar va darsliklardan foydalaning. Bu manbalardan kerakli bilimlar va amaliy maslahatlar olishingiz mumkin.

2. Mentorlik yoki Murojaat: Boshqa kasbiy tajribaga ega odamlar bilan murojaat qilish yoki ularni mentorigi sifatida qo'llab-quvvatlash tajribangizni oshirishi mumkin. Ular sizga maslahat berish, muammolarga yechimlar topishda yordam bering.

3. Tatbiqiy Malaka: Kasbiy rivojlantirishdagi muammolarga yechim topish uchun o'z malakangizni rivojlantirish juda muhimdir. O'z xarakteristikangizni yangilab, yangi ko'nikmalarni o'rganib chiqing.

4. Tahlil va Diagnoz Qo'yish: Muammolarni tahlil qilish va ularni aniqlash xilma-xillikni yechishga yo'li ochadi. Muammolarni ifodalab, ularni daromadga aylantirish uchun qadamlar belgilang.

5. Amaliy Mashg'ulotlar: Rivojlantirishdagi muammolarga yechim topishda amaliy mashg'ulotlar va misollar foydali bo'ladi. O'z ko'nikmalarini test qilish uchun amaliy mashg'ulotlardan foydalaning.

6. Tajriba olish: Muammolarga yechim topishda tajriba olish katta ahamiyatga ega. Yangi xulosa va yechimlarni sinab ko'rish va o'rganishdan zavq oling!

7. Internet Resurslari: Rivojlantirish sohasidagi muammolarga yechim topish uchun internetdagi resurslardan, forumlardan, bloglardan, videolardan va veb-saytlardan foydalaning.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda muammolarga yechim topish ma'lum bir vaqtini va sabr-toqatni ham talab qiladi. Muammolarni tahlil qilish, yechiladigan xilma-xil bosqichlarni belgilash va amaliy yechimlar qidirish kabi qadamlar sizga ushbu jahbada muvaffaqiyatga erishuvningizda yo'ldosh bo'ladi.

Xusola qilib aytganda, o'qituvchi – ulkan mas'uliyatli, hur fikrli va o'sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanday talab bo'lsa, unga ham shunchalik qat'iy talab bo'ladi. Ya'ni bilimini bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dolzarbligi kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik o'qituvchining majburiy kasb talabidir.

2.<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6937-o-zbekistonda-pedagog-maqomi-jamiyat-va-davlat-nufuzining-mezonidir.html>

Foydalanimanadabiyotlar ro'yxati:

1. Zamonaviy o'qituvchi va unga qo'yiladigan talablar: Journal of Pedagogy and psychology in modern education , Vol. 3 No.5 (2023) October
2. <https://jdpu.uz/ozbekistonda-pedagog-maqomi-jamiyat-va-davlat-nufuzining-mezonidir/>
3. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6937-o-zbekistonda-pedagog-maqomi-jamiyat-va-davlat-nufuzining-mezonidir.html>

O'QITUVCHI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ QAROR VA BUYRUQLARNI ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA SODDALASHTIRISH

Nazarov Erkin Sodiqovich,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

Boboyev Maqsud Mahmudovich,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD).

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan bo'lib, ta'limga oid so'nggi yillarda qabul qilingan eng muhim hujjatlar ro'yxatini shakllantirishda QR kodni ahamiyati, afzalliklarini sanab o'tilgan. Shuningdek, maktab fan o'qituvchilarga faoliyati bilan bog'liq Vazirlar Mahkamasinig qaror va buyruqlar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: metodist, XXI asr ko'nikmalari, tendensiya, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalari.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности использования современных цифровых технологий в системе образования сегодня, а также перечисляются важность и преимущества QR-кода в перечне важнейших документов, принятых в последние годы в сфере образования. Также школьным учителям науки была предоставлена общая информация о решениях и распоряжениях Кабинета Министров, связанных с их работой.

Ключевые слова: методист, навыки XXI века, тенденции, медиаграмотность, критическое мышление, исследовательские навыки.

Annotation: The article discusses the specific features of the use of modern digital technologies in the education system today, and lists the importance and advantages of the QR code in the list of the most important documents adopted in recent years related to education. Also, school science teachers were given general information about the decisions and orders of the Cabinet of Ministers related to their work.

Keywords: Methodist, 21st century skills, trend, media literacy, critical thinking, research skills.

Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lism tarbiya berishda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lism jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda AKTdan foydalanishni chuqr bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida bilimli bo'llishi, darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziqarli usullarni tanlashi va qo'llay olishi, zamonaviy AKT va multimedia vositalaridan foydalanishi, o'quvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi juda muhim omil hisoblanadi. Sababi, bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimi yuksak darajada rivoj topib bormoqda va bu soha barcha jabhalarda bo'lgani kabi inson omilini yengillashtirishga va qulaylik yaratishga yordam bermoqda.

QR-kodi (inglizcha: Quick Response code — tezkor javob kodi; Abbreviatura: QR kod) — dastlab Yaponiyada avtomobil sanoati uchun ishlab chiqilgan matritsali shtrixkod (yoki ikki o'lchovli shtrixkod) turidir. U Masahiro Xara tomonidan yaratilgan³. Termin Denso so'zidan olingen bo'lib, u Yaponiyada ro'yxatdan o'tgan savdo brendlardan biri hisoblanadi. Shtrixkod — biriktirilgan obyekt haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, tegishli mashina o'qiy oladigan optik yorliq sanaladi. QR-kodi ma'lumotlarni samarali saqlash uchun to'rtta standartlashtirilgan kodlash tizimi (raqamli, alfanumerik, ikkilik va kanji)dan foydalanadi.

QR-kod tizimi tez va oson o'qilishi va Universal Product Code kodlariga nisbatan yuqori sig'imliliqi tufayli avtomobil sanoatidan tashqarida ham keng ommalashgan. Bular jumlasiga, mahsulotni kuzatish, elementni identifikasiya qilish, vaqt ni kuzatish, hujjatlarni boshqarish va umumiy marketing kiradi¹.

QR-kod oq fonga to'rburchak joylashtirilgan qora kvadratli to'rsimon shakllardan iborat bo'lib, ularni turli kamera qurilmalari orqali o'qilishi va tasvir to'g'ri aniqlanmaguncha Reed-Solomon kodlari yordamida qayta ishlanishi mumkin. So'ngra kerakli ma'lumotlar tasvirning gorizontal va vertikal qismlarida mavjud bo'lgan naqshlar yordamida chiqariladi⁴.

Ayniqsa, o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan QR kodlardan foydalanish hamma uchun birdek qulay va imkoniyati kengdir.

Biz o'z maqolamizda o'qituvchilar bilishi kerak bo'lgan, ta'limga oid so'nggi yillarda qabul qilingan eng muhim hujjatlar ro'yxatini shakllantirdik, bu QR kodli jadval jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda qisqa vaqt ichida ko'pgina ma'lumotni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Bu uchun dastlab siz jadvalning ikkinchi ustunidagi matn bilan tanishasiz, matn ustiga telefoningiz orqali QR ko'rsangiz, hujjat bilan batafsil tanishib, uni yuklab olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

3 <https://meduza.io/feature/2021/07/10/istoriya-qr-koda>

4 <http://www.nacs.org/LinkClick.aspx?fileticket=D1FpVAvvJuo%3D&tabid=1426&mid=4802>

T/r	Mavzusi	QR
1	Umumta'lismuassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami-3271	
2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 30-sentabrdagi "Umumiyo'rta ta'lismuassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 823-sonli qarori	
3	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 7-fevraldagi "O'qituvchilarining ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 32-sonli buyrug'i.	
4	Umumta'lismuassasalaridagi fan yo'nalishlari bo'yicha uslubiy birlashmalari rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga 10 foiz har oylik ustama haq belgilash mezonlari.	
5	Umumta'lismuassasalaridagi o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilashda baholash uchun ilovadagi ro'yxatda qayd etilgan fan olimpiadalari, ko'rik tanlovlari, musobaqalar, tadbirlar ro'yxati.	
6	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 26-martdagi "Umumiyo'rta ta'lismuassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish hamda zamonaviy kasblarni o'rgatish to'g'risida"gi 96-sonli buyrug'i.	
7	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 26-mart "Umumiyo'rta ta'lismuassasalari uchun 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 94-sonli buyrug'i.	

8	Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 2008-yil 4-mart 56-soni sonli buyrug'i.	
9	"Metod birlashma to'g'risida"gi Nizom	
10	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yilgi " Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va mактабдан ташқари та'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 572-soni qarori	
11	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 27.12.2023-yildagi " Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasidan 2024-2025-o'quv yilida pedagoglarni qo'shimcha rag'batlantirish to'g'risida "gi 576-soni buyrug'i	
12	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 31-avgustdagi " Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida "gi 282-soni buyrug'i	
13	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2016-yil 30-maydagi " Umumiy o'rta ta'lim muassasasining pedagogik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida "gi buyrug'i	

14	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydag'i "Sifatli ta'limni ta'minlashda ijobiliy natijalar ko'rsatayotgan umumiyl o'rta ta'lim maktablari rahbariyati hamda o'qituvchilariga ustama berish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-son Qarori.	
15	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 562-son Qarori.	
16	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 5-yanvardagi "Umumta'lim muassasalarida uzlucksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 8-sonli buyrug'i	

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni.
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 22-sentabrdagi "Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 351-sonli buyrug'i.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 5-yanvardagi "Umumta'lim muassasalarida uzlucksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 8-sonli buyrug'i.
5. <https://meduza.io/feature/2021/07/10/istoriya-qr-koda>
6. <http://www.nacs.org/LinkClick.aspx?fileticket=D1FpVAv-vJuo%3D&tabid=1426&mid=4802>

SINF RAHBARINING OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK ISHLARI

(*bo'lajak boshlang'ich ta'llim o'qituvchilar uchun*)

Nurmanova Dilfuza Jamilovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi

difuzanurmanova05@gmail.com

Annotatsiya: maqola boshlang'ich ta'llim o'qituvchilarini bo'lajak sinf rahbarlik faoliyatida uchrashi mumkin bo'ladigan muammolar va ularning yechimlari to'g'risida allomalarimiz hamda davr talablariga muvofiq tarzda yechimlar tavsya etilgan. XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarini ham o'rghanishini o'quvchilarning va ularning ota-onalariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'llim-tarbiya, ota-onsa, bola, jamoatchilik, bo'lajak sinf rahbar, farzand, axloqiy, hayotiy.

Аннотация: В статье рекомендуются пути решения в соответствии с требованиями времени и проблемами, с которыми могут столкнуться учителя начальных классов в своей будущей классно-руководящей деятельности, и пути их решения. Подчеркнуто, что обучение необходимым жизненным навыкам в XXI веке может оказать положительное влияние на учащихся и их родителей.

Ключевые слова: образование, родитель, ребенок, сообщество, будущий классный руководитель, ребенок, мораль, жизнь.

Abstract: The article recommends solutions in accordance with the requirements of the time and problems that primary school teachers may encounter in their future classroom management activities, and ways to solve them. It is emphasized that teaching essential life skills in the 21st century can have a positive impact on students and their parents.

Key words: education, parent, child, community, future class leader, offspring, moral, vital.

Ta'llim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga tayyorlashning asosiy vositasidir. Shu bois o'quvchi yoshlar ta'llim-tarbiya jarayonida olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini hayoti davomida qo'llaydi.

Ta'llim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Inson bilimga ega bo'lishni istasa, avvalo, tarbiyalanishi lozim. Tarbiyalu inson esa mukammal ilm sohibi bo'ladi. Har bir mamalakatning buguni va ertangi kuni ta'llim-tarbiya sifatiga bog'liqdir. Ta'llim jarayonida ta'llim bilan tarbiya uzviyligini ta'minlash uchun o'qituvchi ayniqsa sinf rahbarlarning o'rni beqiyosdir. Maktab ta'llimida o'quvchilarni ilk ta'llimda moslashish davrida boshlang'ich sinf rahbarlarining xizmati katta. Bu borada qilinadigan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida pedagogika yo'naliqidagi oliy ta'llimning bakalavriat bosqichidagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar, ya'ni talabalar bilan ham anchagina salmog'li ishlarni tashkil qilish lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilar ishlash jarayonida bevosita sinf rahbarlik vazifasini bajarishadi. Shunga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini sinf o'quvchilar, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan birlgilikda ishslash bo'yicha ishlarni

amalga oshirishda oliy ta'limdi tarbiyaviy ishlar metodikasi fanlarida yoki tanlov fan (tashkilot ixtiyoridagi) soatlari hisobiga ota-onalar bilan ishslash yoki ota-onalarning mas'uliyatlarini oshirish bo'yicha ham ma'ruza, amaliy (seminar) dars mashg'ulotlarini ham kiritishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Oliy talim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mehnat faoliyatini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga dars berish bilan boshlashadi. Ish jarayonida sinf o'quvchilarini maktab va dars mashg'ulotlarida faolligini ta'minlash maqsida, albatta, ularning ota-onalariga murojaat qilishadi. Bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash ham hali tajribaga ega bo'limgan o'qituvchida ota-onalar bilan konflikt (nizo)lar yoki o'zaro tushunmovchiliklari sodir bo'lishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limg yo'nalishidagi bo'lajak sinf rahbarlari ta'limg-tarbiya uzviyigini nuqsonlarsiz tashkil qilishda o'quvchilarining ota-onalarini hamkorlikka chaqiradi. Ota-onalar bilan ishslashda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

O'quvchiga tarbiya berish, avvalo, oiladan boshlanadi. Biz oilani "Kichik Vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-onalar farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'limg'i shart. Farzandiga o'zi namunali fazilatlar ila o'rnat bo'la oladigan ota-onalarning bolani kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli, jamiyatga foydasi tegadigan komil inson bo'ladi.

Pedagogikadagi mashhur A.S.Makarenkoning fikricha ".... tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyin tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi" [1] ekanini qayd etib o'tgan. Aynan shu vaqt oralig'ida ota-onadan katta mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtda ota-onalar o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

Yoshlarga ta'limg-tarbiya berish har bir ota-onaning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Bu burchga mas'uliyat bilan yondashishi kerak. "Kelajak kafolatlanishini istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaneng buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Boshqa yo'nalishlar uchun sarflangan mehnatlar bekor ketishi mumkin, ammo farzand kamoli uchun sarflangan mehnatlar bitmas-tuganmas xazinaga aylanadi" [2]. Farzand kamoli uchun sarflangan mablag' va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Aytaylik, agar ota-onalar o'z farzandiga e'tibor bermasa, bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Bola tarbiyasida ularning yoshligidan befarq bo'lmay, uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tibor berishi kerak.

Har bir ota-onalar tarbiya berishda eng avvalo, salomlashishni, kattalarni hurmat qilishni o'rgatishi lozim. Tarbiyaning boshi salomlashishdan boshlanishi haqida "Gapning boshi-kalom, odob boshi-salom" degan xalq iborasi avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ajdodlarimiz azaldan yosh avlodni go'zal xulqli, odobli, ilmli, qobil farzand bo'lib ulg'ayishiga katta ahamiyat berishgan. Agar bola noqobil bo'lib ulg'aysa, undan faqat ota-onalar emas, jamiyat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga egadir. Bola dastavval tarbiyani oiladan oladi. Bolani tarbiyalash haqida xalqimiz orasida ko'plab afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ertaklar yurishi ham bejiz emas. Donishmandlar bolani ona

qornidan boshlab tarbiya qilish kerak deyishadi. Qachonki, bola tarbiyasi u mukammal ilm sohibi, komil inson bo'la oladi. Demak, ota-onas, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmlvi, tarbiyalii qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzARB masala hisoblanadi. "Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-onas" – deganlari ham bejiz emas [4]. Bolani tarbiyalashda agar maktab yoshida bo'lsa ota-onas va maktab hatto mahalla ham doimo yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o'rni kamayib borayotganligi, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf-aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar [5]. Haqiqatdan ham kundan kunga bunday insonlarning sonlari ortib bormoqda. Shu o'rinda aholida ta'kidlab o'tmoq kerakki, hozirgi yoshlar ham katta yoshlilar nasihat bergenlarda "Sizga nima?", "Bu meni ishim", "Menga sizning nasihatingiz kerakmas, ishimga aralashmang" kabi jumlalar orqali yoshlaning o'zidan katta yoshlarga gaplar aytilmoqda. Chunki aynan bu kabi insonlar bugun ota-onas va ular farzandlariga ta'lim bilan tarbiya berayotgan maktab o'qtuvchilariga ham bu kabi qo'pol gaplarni ishlatmoqdalar. Bu ham tarbiyasizlikning bir namunasidir. Aynan shu inson oilada noto'g'ri tarbiya topgan yoki tarbiyasining qaysidir joyida xatolik ketganki, bugun u jamiyatda tarbiyasiz yoki madaniyatsiz degan nom olyapti. Bu esa yosh avlodga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umrini va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimiz asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilganlar. Jumladan, Imom al-Buxoriyning "al-Adab al-Mufrad" hadislar to'plami, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnama", Husan Koshifiyining "Axloqi Muhsiniy", Jaloliddin Doniyning "Axloqi Doniy", Abu Lays Samarqandiyning "Bo'ston-ul orifin" asarida tarbiya va tarbiyalanishning ma'nosi, "Tanbeh-ul g'ofiliyn" asarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish hamda yana ko'plab mutafakkirlarimiz o'z asarlarida shu kabi g'oyalarni ilgari surganlar. Farzand tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xato yoki kamchiliklar:

- farzandni doimiy ravishda erkalatish uning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga, mustaqil qaror qabul qila olmasligiga sabab bo'ladi. Natijada esa hayot yo'lida o'z o'rnini topolmaslidir.
- bolalarni tinglamasliklari, qo'llab-quvvatlamasliklari ulardagi ishtiyoqning so'nishi va kelajakda odamlar orasida erkin bo'lolmasliklari hamda o'z fikrini aniq, raxon yetkazib bera olmasliklari bilan qiynalishadi.
- bolalarning barcha istaklarini muhayyo qilaverish uning tarbiyasiz bo'lib ulg'ayishiga olib keladi.
- bola tarbiyani dastavval, oiladan keyinchalik maktab va jamiyatdan oladi. Xalqimizda shunday naql bor: "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Demak biz bolaga tarbiya berishni istar ekanmiz avvalo o'zmiz tarbiyada o'rnak bo'lmog'imiz lozim. farzandingizga nimanidir o'rgatmoqchi bo'lsangiz faqat gap bilan emas, unga amalda o'zingiz ham birgalikda bajarib ifoda etib bering. Har aytgan gapingizda qilgan amalingiz bilan o'rnak bo'ling. Shundagina so'zingizning qiymati ortadi.
- haddan ortiq e'tibor berish ham bolaning tarbiyasiga yomon ta'sir qiladi. Farzandingizga o'zi mustaqil bajara oladigan ishlarni qilishga imkon yaratib bering. Agar bolani o'zi

imkoni yetadigan ishlarga ham ko'mak beraverilsa ota-onaning ko'magiga suyanib qoladi. Natijada bola ota-onasining ko'magisiz hech bir ishni qilmaydiga, boshqalarga tobe bo'lib qoladi.

- farzandingizga asli tarbiyadagi jazoni "urib" bermang! Bu bolani kelajakda xato qilmaslikka o'rgatmaydi. Aksincha hayotga va jamiyatga nisbatan nafrat hissini ortiradi. Bu jarohatlar uninng kelajakda ota yoki ona bo'lgan takrorlash ehtimolini oshiradi.
- farzandni o'ta mustaqil qilish uning o'zboshimcha va xudbin bo'lishiga zamin yaratadi.
- bolaga o'ta xushmuomalalik ham undagi kibrni ortdiradi. Tarbiyadagi bu kabi qisman og'ishlar ham farzand kelajagi uchun bazan yomon oqibatlarga sabab bo'ladi.

Farzand tarbiyasidagi ayrim xatoliklarni yuqorida sanab o'tdik. Zotan bola tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati qanchalik beqiyos bo'lsa, ustozning ham o'rni shu qadar beqiyosdir. Chunki bola tarbiyasida bilim olishiga ham katta ta'sir qiladi. Ota-onan farzandini ilmli, komil inson qilib tarbiyalash istagini ustoz orqali mujassamlashtiradi. Demak, ota-onan o'qituvchi bilan doim aloqada bo'lishi muhimdir. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutishi mumkin. Farzandining kamolini ko'rishni istagan ota-onan barcha mas'uliyatni ustozga yuklamaydi, aksincha, ustoz bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Ota-onalarning bu o'rinda farzandlariga uqtirishi lozim bo'lgan ishlardan biri shuki, bola kamolotida ota-onaning o'rni qanchalik beqiyos bo'lsa, ustozning ham undan kam bo'lмаган qiymati bordir. "O'qituvchilar yomg'ir tomchisi bilan taqqoslanadi. Yomg'ir har bir donning hayotiyligini uyg'otar ekan, o'qituvchining asosiy maqsadi har bir o'quvchining ijobiy imkoniyatlarini ochib berishdir" [7]. Tomchi suvlar orqali suvga tashna o'quvchilarni kelajagi bor inson sifatida shakllanadi. O'qituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Hayotning past-u balandi, oq-u qorasini ustoz tanitadi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabga birinchi kelgan o'quvchi birinchi ustozi, ya'ni boshlang'ich ta'lim o'qituvchisidir. Ota-onalar farzandi maktabga chiqqanidan so'ng ustozi, ayniqsa, sinf rahbarlari bilan tez-tez uchrashib tursa, natijasi, albatta, go'zal bo'ladi. Bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan va bolasining tarbiyasiga befarq bo'lмаган har bir ota-onan oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-onan maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvordan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nimalar bilan band bo'lishi haqida o'qituvchisini (sinf rahbarini) xabardor qilib turishi kerak [8]. Shunday ekan ular birgalikda harakat qilmog'lari kerak. "Ilm bahorda ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi" [9]. Ana shu yomg'ir orqali o'qituvchi o'quvchilariga ilm bulog'idan ularni sug'oradi. Bu ilm bulog'idan qonib-qonib ichish o'quvchining o'ziga va oiladagi ota-onaning ustoz va maktabga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Shunday ekan bolani komil inson bo'lishi uchun o'qituvchi, ota-onan va bolaning o'zi ham harakat qilmog'i kerak. Hamkorlikda ish qilinsa, bolani kamolotga yetkazish yo'lida o'sish bo'ladi. Shu sababli farzandini kamolotini istagan ota-onan ustoz bilan hamkorlikda ish olib boradi va nazorat qiladi. Uning tarbiyasiga ilm olishiga e'tibor qaratadi.

Farzandining kamolini ko'rish barcha ota-onaning orzusi va buning uchun esa ota-onalar qo'llaridan kelgan barcha ishlarni amalga oshiradilar. Buning uchun eng qisqa yo'l maktab, ya'ni ustoz bilan hamkorlik qilishdir. shu o'rinda bo'lajak boshlang'ich sinf rahbarlari uchun ota-onalar, sinf jamoasidagi o'quvchilar bilan quyida keltirilgan tavsiyaviy

ishlarni amalga oshirsalar mehnat faoliyatida yaxshi natijalarni qo'lga kiritadilar.

O'qitishda interfaol metodlarini qo'shish.

Bugungi kunda ta'lrim berish tizimi har bir o'quvchining o'ziga xosligini inobotga olgan holda yondashishni talab etishini yaxshi biladi. Bitta yechim hammaga mos keladi deb o'ylay olmaysiz. Shuning uchun butun dunyo o'qituvchilari ko'plab o'qitish metodlarini sinab ko'rmoqda. Sinfni boshqarish onlayn yoki oflays bo'ladimi, individual ta'lrim, o'yinga asoslangan darslar, aylanma sinflar, loyihaga asoslangan topshiriqlar, muammoli ta'lrim texnologiyalari, jamoaviy faoliyat va hamkorlikda o'rganish o'qituvchilar tomonidan o'z sind jamoalarining tarkibiga qarab qo'llanilmoqda. Turli xil o'qitish metodologiyalarini amalga oshirish siz tomonidan samarali sinfni boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi.

Sizning sinfingiz qanday o'quvchilardan iboratligini tahlil qilishingiz va ba'zi noan'anaviy o'qitish strategiyalarini sinfni boshqarish usullariga kiritishingiz kerak. Natijada o'quvchilaringiz dars vaqtida chalg'ishi, shivir-shivirlarga yoki boshqa ishlarga berilish ehtimoli kamayadi [10].

Qiziqarli tadbirlarni rejaliashtirish.

Darslaringizda barcha usullardan foydalanishingizga qaramay hali ham sinfda o'qitilayotgan darslaringizga e'tiborsiz yoki qiziqishsiz o'tiradigan o'quvchilaringiz bo'lsa, siz sinfda qiziqarli tadbirlar usulida dars mashg'ulotlarini tashkil qiling. Masalan, mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'quv filmlari, videolar va enerjayzerlarni (tetiklashtiruvchi o'yinlar) qo'shishingiz mumkin. Agar siz ularning e'tiborini jalb qila olsangiz, sinfni boshqarish osonroq bo'ladi.

Ideal xulq-atvor bilan na'muna bo'ling.

Bolalar atrofdagi xatti-harakatlarga taqlid qiladilar. Shuning uchun ota-onalar va keksalar bolalar oldida doimo nutq va muomala madaniyatiga e'tibor berishlari lozim. O'quvchilaringiz oldida o'zingizning xulq-atvoringizni nazorat qilishdan tashqari yaxshi tomonlarini ko'rsata olishingiz kerak. Siz har doim mакtab hududida nutqingiz va harakatlaringizga e'tiborli bo'lishingiz kerak. Masalan: Siz dars o'rtasida telefonidan foydalana olmaysiz va o'quvchilar ham xuddi shunday qilishdan tiyilishlarini kuta olmaysiz. Chunki o'quvchilaringiz o'zlari guvoh bo'lgan harakatlarini takrorlaydilar.

Shunday qilib siz har doim o'quvchilaringizga ideal xulq-atvorni ko'rsatishingiz kerak. Bundan tashqari, ular qanday qilib xushmuomalalik bilan gapirishlari, fikrga hurmat bilan qarshi chiqishlari, diqqat bilan tinglashlari, boshqa odam gaplashayotganda diqqatli bo'lishlari va ko'z bilan aloqa qilishlari kerakliklari haqida ham aytib o'tishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijobiy fikr bildirish yoki mukofotlash.

Ijobiy fikr-mulohazalar va mukofotlar har kimni har qanday ishda qo'lidan kelganini qilishga undaydi. Agar siz o'quvchilaringiz darsda ko'proq e'tibor berishlarini va sinfdagi mashg'ulotlarda qatnashishlarini istasangiz, ushbu yondashuvdan foydalaning. Doimo o'quvchingizning har qanday yutug'ini e'tirof eting.

Ota-onalarga qo'ng'iroq qilish va ularning farzandlarining sinfdagi faoliyati haqida ijobiy fikr bildirish uchun vaqt ajrating. Ushbu ijobiy harakatlar natijasida o'quvchilaringiz sinfda faoliyklari ortadi. O'z vaqtida olingen fikr-mulohazalar, shuningdek, ota-onalarni o'z

farzandlarining darslarni o'zlashtirishlarni nazorat qilish bilan shug'ullanish uchun majbur qiladi.

Ba'zan o'quvchilaringizni vaqt-vaqt bilan faolliklari uchun mukofotlang. Har qanday o'quvchi sinfda ideal xulq-atvorni namoyish qilsa, ularga bonus (qalam yoki shokolad) bering. Siz ko'proq o'quvchilarni ushbu harakat bilan rag'batlantirayotganini ko'rasiz va natijada sizdan mukofot yoki minnatdorchilik olish uchun yanada faolliklari ortadi.

Sinf jamoasiga moslashuvchan bo'ling.

Siz uchun ham, o'quvchilaringiz uchun ham har bir kun bir xil emas. Siz sinfning kayfiyatini his qilishingiz va shunga mos ravishda darsni o'tishingiz kerak. Agar siz uzoq vaqt sinfda qolsangiz, o'quvchilaringizni ochiq havoga olib chiqing va u yerda darsingizni davom ettiring. Shunday qilib sinfni boshqarish nima degan savolga javob shundaki, sinfingiz o'quvchilarini tushunish va ularning holatlariga muvofiq boshqarish bu kuchli sinf boshqaruvining namunasidir.

Agar o'quvchilaringiz dars davomida zerikib qolgan bo'lsa, dars davomida tetiklashtiruvchi o'yinlar yoki nostandard savol-javoblar o'yinlaridan foydalaning. Siz vaqt talabiga moslasha olishingiz va ular uchun o'quv muhitini o'zgartirishingiz kerak. Ushbu strategiya o'quvchilaringizga mos keladi va vaqt o'tishi bilan ular sizning darslaringizda zerikmasliklariga ishonishni boshlaydilar. Ishonch samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biridir [10].

Yomon xatti-harakatlarga darhol javob qaytaring.

Ko'pgina o'qituvchilar dars boshlanishidan oldin doskaga chizilgan yoki yozib qo'yilgan noxush narsa va so'zlar, dars davomida tasodifiy hushtak yoki kulgilardan qochib xatoga yo'l qo'yishadi. Buni kim va nima uchun qilganini so'rab vaqtini behuda sarf qila olmasligingiz tushunarli. Lekin, albatta, bunday xatti-harakat hal qilmasdan qoldirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bir hurmatsizlik yana bir boshqa harakatga olib keladi va siz buni bilishdan oldin butun sinf bunday ishlarga qo'shiladi. Birinchidan, nima uchun bu holat sodir bo'lganligini tahlil qilib oling. Agar sizning dars berish uslubingiz ularning e'tiborini jalb qila olmaydi deb o'ylasangiz, hamkasblaringiz bilan darslaringizni qiyosiy taqqoslab ko'ring va ularning metodlaridan darsingizga foydalaning. O'quvchilaringiz bilan chegara saqlagan holda iliq munosabat o'rnatiting hamda xushmuomalalik va mehribonligingizdan voz kechmagan holda yomon xatti-harakatlarga qat'iylik bilan munosabatda bo'ling [10].

Zero, siz har safar aybdorlarni ushlay olmaysiz, lekin har safar tartibsizlik vaqtida voqealarga e'tiborsiz bo'lmasligingiz va o'z munosabatingizni ba'zan sinfni ommaviy jazolash orqali namoyon qilganingizda, ular o'z xatolarini tushunishadi. Sinfni boshqarishning eng yaxshi ko'nikmalarini namoyish qilish uchun siz o'quvchilarning odob-axloq qoidalari va maqbul xatti-harakatlar chegaralarini kesib o'tishlariga yo'l qo'ymasligingiz kerak [10].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham kelajakda ham ustoz ham ota-onadirlar. Faoliyatining boshlanish va o'qituvchilik davrida ta'lim-tarbiya uzviyligida maktab, o'quvchi va ota-onalarning hamkorligi muhim. Yosh avlodga ilm berish faqat ustozning vazifasi emas, balki ota-ona, oilasi, atrof-muhit ham birdek mas'uldir. Ayniqsa, bolaning tarbiyasida ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ota-ona o'z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun

tarbiya samarali bo'lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-onalilarni ilmli, tarbiyalili bo'lishi shart. Farzandlarimizning ilmli va tarbiyalili bo'lishi uchun o'zimizni ma'nnaviy rivojlantirishimiz va bola tarbiyasiga befarq bo'lmasligimiz lozim.

Asosiysi, ota-onalarimiz farzandlarimiz taqdiriga befarq emas. Eng muhumi farzandlarini ma'nnaviy yetuk, barkamol qilib tarbiyalashni xohlaydi, shuningdek, ota-onalar farzandlarini turli tahdidlar va salbiy ta'sirlardan asrashni istaydilar. Ma'lumki, bola mакtabga kelgunga qadar ham, mакtabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy bo'g'ini sifatida bolalarning dunyoqarashi, tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi tabbiy holdir. Oila a'zolarining ma'nnaviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda mакtabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rтasida ta'lif-tarbiyaga oid tashviqot ishlarni kengaytirish ularni mакtabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va mакtabdan tashqaridagi ishlarda har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur. Jamiatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinasiga ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsiyonal madaniyatga muhtojlik sezilmoxda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatlari kundalik hayot ehtiyojiga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan ularning birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Shu sababdan yuqorida berib o'tilgan fikrlarni tavsiyaviy xarakter xususiyati bilan kelajakda bo'lajak boshlang'ich sinf rahbarlari o'z ish faoliyatlarida tatbiq etsak, foydadan holi bo'lmaydi. Zero, bir farzandning ta'lif-tarbiyasi nafaqat ota-onaning, balki butun bir jamiyat, millatning ertasidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Al-jome' as-sahih" asari. Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning fazilati to'g'risidagi hadislar to'plami.
2. Karamatova D.S. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni ijobiy faoliyatga yo'naltirish metodlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN: 2181-2484, Volume 1. ISSUE 2 2021. 4-9-b.
3. Raximqulova M.B., Nurmanova D.J. // Boshlang'ich ta'lindagi va kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish kurslar misolida) // Uslubiy-qo'llanma. Toshkent- "Qamar-media" nashriyoti.-2022.-80-bet
4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilicheva M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Образование и наука в XXI веку" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. –С. 956-962.
5. Karamanova D.S. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatni rivojlantirish / International Scientific Practical conference

"Topical Issues of Science" Xalqaro konferensiyasi. – USA: NEW York university

6. Karamaova D.S. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatni rivojlantirish//“Образование и наука в XXI веку” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
7. Maktab oiladan boshlanadi. – T.: Yangi asr avlodi. 2013.
8. Salayeva M.S. O'tmish mutafakkirlarimiz ota-onा va farzandlar munosabatlari xususida // Mahfitar yog'dusi. № 3. 2000. – B. 76-80.
9. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida bolalarning o'z oilasidagi hayotga munosabatlarining etno-psixologik xususiyatlari. / “O'zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy psixologik muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – TDIU. 24-25-may 2000 yil. – B. 81-82.
10. Nurmanova D.J. Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish // Ta'lif, fan va innonatsiya. ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent. – 2023-yil, 1-son. 89-92-betlar.
11. Nurmanova D.J. Xorij tajribalari asosida sind jamoasini boshqarish usullari // Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. Toshkent. – 2023-yil, 1-son. 28-31-betlar.
12. Nurmanova D.J. Boshlang'ich sind rahbarining innovatsion kasbiy kompetentligini shakllantirish // Образование и наука в XXI века|Научно-образовательный электронный журнал (ISSN: 2658-7998) Випуск №10 (том 1) (январь, 2021) Ст. 92-97

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBA

Omonov Farruh

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
FarrukhOmon88@mail.ru

Anotatsiya: Jahon hamjamiatida rivojlanayotgan davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi yetakchi o'rinda ildam qadamlar bilan bosqichma-bosqich o'zini taraqqiyot yo'lidan ketmoqda. Ushbu maqola xalqimizning farovon hayoti, go'zal hayot tarzi va umuman olganda, har bitta sohada yuksak yutuqlarga erishish maqsadida davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish, unda horijiy tajribani o'rganish, milliy amaliyotda qo'llash haqida kerakli va foydali ma'lumotlarni ifoda etadi.

Kalit so'zlar: davlat va jamoat boshqaruvi tizimi, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi, hamkorlik, xalqaro tajriba, modernizatsiya, demokratlashtirish.

Аннотация: Республика Узбекистан занимает лидирующие позиции среди развивающихся стран мирового сообщества и постепенно движется к собственному развитию. В данной статье изложены необходимые и полезные сведения об благополучной жизни нашего народа, прекрасном образе жизни и в целом в целях достижения высоких

достижений в каждой области, повышения эффективности системы государственного управления, изучения зарубежного опыта. в нем и применять его в национальной практике.

Ключевые слова: система государственного и общественного управления, система государственной службы, сотрудничество, международный опыт, модернизация, демократизация.

Annotation: The Republic of Uzbekistan occupies a leading position among the developing countries of the world community and is gradually moving towards its own development. This article presents the necessary and useful information about the prosperous life of our people, a wonderful way of life and, in general, in order to achieve high achievements in each area, improve the efficiency of the public administration system, study foreign experience. in it and apply it in national practice.

Keywords: state and public administration system, civil service system, cooperation, international experience, modernization, democratization.

Davlat harakat strategiyasining harakatlantiruvchi kuchi davlat va uning organlari hisoblanadi. Islohotlarning kafolati va kafolati - bu davlatning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqeа. U boshqaruv mahorati bilan uzoq muddatli maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqaradi, aholini safarbar qiladi va mavjud resurslardan oqilona va adolatli foydalanadi. Binobarin, davlat va jamoat boshqaruvi tizimini takomillashtirmsandan mamlakat hayotini modernizatsiya qilish mumkin emas. Modernizatsiya mamlakatni rivojlanishiga olib keladi, menejmentning xizmat qilish muddatini yangi sifat va talablar darajasi-ga ko'taradi. Ushbu jarayonlar bevosita mintaqaviy rivojlanish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda mahalliy hokimiyat organlariga mustaqil qaror qabul qilishga imkon beradigan qonunchilik bazasini shakllantirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, prezidentimiz parlament qarorlarini qabul qilish va qonunlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish, ijo etuvchi hokimiyat tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy boshqaruv usullaridan keng foydalanish, malakali mutaxassislarni jalg qilish zarur deb takidladi. Asosan davlat xizmati, siyosatni ishlab chiqish, mahalliy hokimiyatlarning vakolat va majburiyatlarini qayta belgilash va ularning mustaqilligini yanada mustahkamlash borasida ko'rsatmalar berdi.

So'nggi yillarda konstitutsiyaviy qonunchilikka kiritilgan yangi institutlar davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishda, hukumat tuzilmalari (parlament, prezident, hukumat) o'rtaсидagi munosabatlarning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuni davlat hokimiysi tizimini yanada demokratlashtirish uchun muhim huquqiy asos bo'ldi. Asosiy qonunning 98-moddasiga islohotlarning oldingi bosqichida kiritilgan o'zgartishlar hokimiyat sub'ektlari o'rtaSIDA vakolatlarni munosib taqsimlanishiga erishishda muhim rol o'ynadi. 2019-yil boshida, O'zbekistonda Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida Birlashgan Arab Amirligi bilan qo'shma dasturi tashabbusi bo'yicha say harakatlar boshlandi. Vazirliklar, idoralar, iqtisodiy organlar va ta'lim muassasalari vakillaridan iborat O'zbekiston delegatsiyasi Birlashgan Arab Amirliklariga "Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish" hukumatlararo dasturi ishchi guruhining ikkinchi yig'ilishida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi. Tashrifning asosiy maqsadi Birlashgan Arab Amirliklarining

davlat boshqaruvi tizimini yaratish va muqobil kontseptsiyani O'zbekistonga yanada joriy etish bo'yicha tajribasini o'rganish, ishchi guruhlarning ikkinchi yig'ilishini o'tkazish, 2019-yilgi "yo'l" ni muhokama qilishdir. 2020-yil turli yo'nalishlarda "Xarita"ni ishlab chiqish va tasdiqlash. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BAAGa mart oyida qilgan tashrifidan so'ng, O'zbekiston va BAA o'rtaqidagi ikki tomonlama aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Tashrif davomida tomonlar "Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish" qo'shma dasturi tashabbusi to'g'risida kelishib oldilar va may oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan seminar dasturning mantiqiy davo midir. Hozirgi globallashuv davrda, davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish uchun davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi katta ahamiyatga ega. Asosan davlat xizmatlari ko'rsatish masalasi yetakchi masalalardan biri bo'lib, bu tizimning maqsadi aholi manfaatlariga xizmat qilishdir. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya va uning ro'yobi xalqimizga juda ma'qul keldi. Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini yanada oshirishda "Elektron hukumat" tizimi muhim o'rinn tutmoqda. O'z navbatida, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining izchillik bilan takomillashtirilishi va modernizatsiya qilinishi aholimizning hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash hamda biznesni yanada rivojlantirish imkonini bermoqda. Bu davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, internet orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek, kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish masalalari ham ko'zda tutilgan. Xususan, 2018-yilda Davlat xizmatlari markazlari va Yagona portal orqali 30 dan ortiq avtomatlashtirilgan davlat xizmatlari ishga tushirildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda. Bu, albatta, aholining huquq va manfaatlari ta'minlanishiga, investitsiya jozibadorligiga hamda ishchanlik muhitining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, fikrimning yakuniy qismida, shuni ta'kidlash joizki, O'zbek xalqi azaldan mehnatkash, vatanparvar, iymonli, ilmi va dono xalq hisoblangan. Tarixdan ma'lumki, buyuk bobolarimiz hukmdor bo'lib, o'z davrida davlatni boshqaruv tizimini mustaxkam va tartibli tarzda boshqarishgan. Xususan, ikkinchi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko'plab say-harakatlari, oliy maqsadlar sari vatanimizning taraqqiyoti uchun tun-u kun tinmasdan mehnat qilmoqdalar. Bunday harakatlarning natijasi albatta davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirishda ulkan poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yaqin yillarda, rivojlangan davlatlar boshqaruv tizimi bilan teng kela oladigan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv tizimi eng samarador, musathkam va yetakchi tizimlar qatoridan joy oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent; 2014 yil.
2. Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. -T.; 2010, 8-bet.
3. Yusupov E. va boshq. Ijtimoiy boshqaruv tizimi evolyutsiyasi va davlatning shakllanishi. -T., 2005.75-bet.
4. Shavkat Mirziyoyev. Biz jasur va olijanob xalqimiz bilan erkin va obod, demokratik

O'zbekiston davlatini ko'ramiz! 2016 yil 15 dekabr

5. Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. -T. 2010, 12-13-bet.
6. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlari - mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi, 2016 yil 8-dekabr

O'QUV JARAYONINI STRATEGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Pulatova Muattar Kurakboyevna

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
muattarkurakboyevna@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ta'lif vositalari sanalgan o'quv strategiyalari, pedagoglarning o'quvchilarga sifatlari bilim olishida maslahatchilik kompetensiysi, o'quvchi o'z ustida mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishida pedagoglarning roli, o'qituvchilar o'zlarida yangi yondashuvlarni shakllantira olishi, rivojlantirishi masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oson o'quv uslublari, o'rganish usullari, strategik yondashuv, strategiya, o'quv strategiyasi, ta'lif oluvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik maslahat.

Kirish

Tez rivojlanib borayotgan hayot sharoitlari barkamol inson uchun zaruriy ko'nikmalarning minimal hajmini ham yuqori darajada boyitmoqda. Ta'lif muassasalari o'zlarining bitiruvchilaridan kutayotgan har tomonlama shakllanganlik kompetentliligi indikatorlari miqdori va sifati ham oshib bormoqda. Ma'lumotlar eskirib, qadrsizlanishi uchun oz vaqt yetarli bo'lgan mazkur davrda axborotni tezda o'rganish, malakali foydalana olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ta'lif mazmunini yangilash jarayonining davom etayotgani, qisqa davrda keng ko'lamli ma'lumotni qayta ishlash va jarayonga tatbiq etish, yangi, individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqish, takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, ta'lif jarayonini hayot davomida o'qish, o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lif kabi strategik yondashuvlar bilan boyitish zamonaviy matabning hozirgi vaqtdagi eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ta'lif oluvchi jamiyatda muvafaqqiyatga erishgan shaxs sifatida kamolga yetishi uchun o'z ehtiyojlari safiga bilim olish, ko'nikmalarni mustahkamlash kabi harakatlarni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirmog'i lozim. O'quvchi ongida muntazam ravishda o'z ustida ishlash ko'nikmasini kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishida dastlabki turkini pedagog o'z vaqtida bera olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning o'quvchilarga o'quv strategiyalariga o'rgatishida quyidagi maqsadlar uchun yordam berish nazarda tutiladi: matnni o'qish va tushunish, loyihalar va yozma ishlarni bajarish, eslatmalar yozib olish, vaqt ni boshqarish, tashkil eta olish, ma'lumotlarni o'rganish va

eslab qolish, test topshirish, muammoni hal qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqalar.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda maktablar o'quv faoliyati fan va texnologiyaning amaliy integratsiyasini, zamonaviy ta'lif talablaridan biri sifatida barcha o'quvchilar bir xil tushuna olishi va tafakkurida ko'nikma hosil qila olishi uchun innovatsion o'quv strategiyalarini qo'llashni talab qilmoqda. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmasligi nuqtayi nazaridan, har bir o'quvchining o'z ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishni lozim. O'quv strategiyalarga asoslangan o'quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko'rsatish, savol bera olish, hayot bilan bog'lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi. Ta'lif olishning har qanday turida an'anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta'lif turlarida o'quvchilarda o'zlariga akademik maqsadni qo'ya olishlari va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish masalasi o'zining yangi yechim va takliflarini kutmoqda. Kutilgan natijaga erishish yo'lida o'zlarini yo'naltirishlari va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

O'quv strategiyalari o'quvchilarning samarali o'rganishlari uchun foydalanadigan usullar hisoblanadi. Shuningdek, o'quv strategiyasini akademik va akademik bo'limgan sharoitlarda mazmunni yanada oson va samarali o'zlashtirish yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun ma'lum ko'nikmalarni tashkil qilish va ulardan foydalanishning individual usuli sifatida izohlash mumkin. O'quv strategiyalari o'qituvchilarga ta'lif oluvchilarga ma'lum tarkib yoki ko'nikmalarni emas, balki qanday o'rganishni o'rgatish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning o'quv jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Strategik yondashuvga asoslangan jarayonda o'quvchilar o'qituvchidan ma'lumot olmaydilar va baholashdan nofaol foydalaniladi, chunki ular o'quv jarayonining barcha jihatlarini qanday hisobga olishni o'rganadilar. O'quv strategiyalaridan bunday faol foydalanish o'quvchilarga ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga va o'rganish jarayonida motivatsiyani oshirishga yordam beradi. O'quv strategiyalardan foydalanish o'z-o'zini o'rganishga yordam beradi va o'quvchilarga o'zlarining ta'limgari uchun javobgarlikni zimmalariga olishga sababchi bo'ladi. O'quv strategiyalaridan foydalanishdan maqsad - o'quvchining motivatsion yoki ruhiy holatiga hamda ularning yangi bilimlarni tanlashi, egallashi, tashkil qilishi yoki birlashtirishiga ta'sir qilishdir.

O'quv strategiyalari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun ham zarur bo'lgan faol, o'z-o'zini jalb qilish vositalaridir. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan yangi ma'lumotlarni olish, saqlash, eslab qolish va ulardan foydalanish jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladigan ko'plab ongli harakatlar hisoblanadi.

Umumta'lif maktablari o'qituvchilari o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishi, mazmunni tez, oson va manfatdorlik bilan o'rganishga olib keladi. O'quvchilarga o'quv strategiyalarni o'rgatish doirasida shaxsning o'rganish usullarini tahlil qildik. Chunki, o'quvchilar o'quv strategiyalarini o'rganishlari uchun amalga oshiriladigan jarayonlar o'rganish usullari orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotimiz doirasida o'rganish usullarining uchta rivojlantiruvchi modellari aniqlandi:

1. Kognitiv modellar;
2. Motivatsion nazariya modellari;

3. Muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash modellari. [5]

O'quvchilar boshlang'ich sinflardagi ko'nikmalarni o'rganishdan ko'ra, o'rta sinflardagi mazmunni o'rganishga o'tganda mustaqil ravishda darsliklardan ma'lumot o'qish, ma'ruza matnlari, o'z-o'zini boshqarish va yozma insholar, testlarda tushunishlari uchun ortib borayotgan talablarga duch kelishadi. Yuqori sinflarga o'tganlarida esa ular mavzuga emas, balki amaliyotga e'tibor berishni boshlaydilar. Ular vazifalar yoki muammolarni hal qilish uchun vaqt va kuch sarflashda ko'proq motivatsiyaga ega bo'lishi kutiladi. Strategik yondashuvning motivation aspektlari funksional jihatdan ayni nuqtalarda samarali natijalarga ega bo'lishda asqotishi nazarda tutiladi.

Bugungi kunda ta'llim jarayoniga asoslangan strategik yondashuvlarning aksariyati til o'rganish uchun moslashgan bo'lsa-da, ulardan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish o'quv strategiyalarining murakkabligini tushunish uchun yaxshi asos yaratgan holda funksoinal ahamiyatni ochib berishga xizmat qiladi. O'quv strategiyalarini tasniflashning ko'plab usullari mavjud. O'quv strategiyalarini mazmuni jihatidan kognitiv o'quv strategiyalari, xulq-atvor strategiyalari, o'z-o'zini tartibga solish strategiyalari toifalarga bo'lish mumkin.

1. Kognitiv o'quv strategiyalari;
2. Xulq-atvor strategiyalari;
3. O'z-o'zini tartibga solish strategiyalari. [3]

Natija

Foydalanish davriga nisbatan o'quv strategiyalari darsdan oldin, dars vaqtida hamda darsdan so'nggi kabi klassifikatsion formaga ega. Mazmunni bilishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini ma'lum amaliyotlar trayektoriyasi jihatidan quyidagi yondashuvlarda amalga oshirilishi mumkin: rejalashtirish strategik yondashuvi - individual o'rganish uslubi yoki ijobiy o'rganish strategiyasi; eksperimental strategik yondashuvi - yangi ma'lumotlarni tartibli tizimga aylantiradigan va uni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadigan uslubiy, ammo moslashuvchan yondashuv; monitoring strategik yondashuvi - o'z-o'zini boshqarish va ma'lumotdan foydalanishga tanqidiy sezgirlik va boshqalar.

Sinfda o'qituvchi uchun o'quv strategiyalarini tanlash barcha o'quvchilar uchun muhim. O'quvchilar tomonidan esa strategiyalardan foydalanish uchun o'qituvchilar tomonidan o'rgatilish uchun guruhlash yanada osonlashtiradi. Hozirgi davrda ushbu strategiyalarni ayrim pedagoglar menejment ko'nikmalari va o'qishni tushunish singari tushunchalar ochib beradi.

Xulosa

O'quvchilar turli xildagi xarakter-xususiyatlari, psixologik jihatlarga ega. Shu sababli, turlicha individual yondashuvni talab etishadi. Bu holat sinfdagi har bir o'quvchiga individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqishni, tanlashni talab qiladi. Darhaqiqat, sinfdagi o'quvchilar iqtidorli yoki o'ta iqtidorli bo'ladi. Ularning idrok kanallari xoslangan yondashuvlar o'zini oqlayotgan mazkur davrda o'quv strategiyalaridan foydalanish masalasi dolzabligini saqlab qolmoqda deyish mumkin.

Agar o'quvchilar o'quv jarayonida yuqorida sanab o'tilgan bir nechta omillarni hisobga olsalar, kamida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qish muammolarni hal qilish va o'qish paytida qat'iyatlilik tajribasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. O'quv

strategiyalari o'quvchilarni akademik muvaffaqiyatga olib boruvchi juda muhim omil deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Argyris C., D. Schon. Organizational Learning: Vol. 2. Theory, Method, and Practice. Reading: Addison-Wesley1996.
 2. Fleming N. Teaching and learning styles VARK strategies. Christchurch. 2006.
 3. Weinstein C., R. Mayer. "The teaching of learning strategies," in Handbook of Research on Teaching, ed. M. C. Wittrock (New York: Macmillan), 1986 315–327.
 4. Wittrock M.C., Alessandrini K.. Generation of summaries and analogies and analytic and holistic abilities. Am.Educ.Res. J. 1990.
- doi:10.3102/00028312027003489
5. Zimmerman B.J. "Models of self-regulated learning and academic achievement," in Self-Regulated Learning and Academic Achievement: Theory, Research and Practice, eds J. Z. Barry and H. S. Dale (New York: Springer) 1989.
 6. Савинова Л.Ф. Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013.
 7. Ройтблат О.В. Развитие теории неформального образования в системе повышения квалификации педагогических работников: дисс... док. пед. наук. – Тобольск., 2015.
 8. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari (tarix fani o'qituvchilari misolida): ped. fan. nom... diss. – Toshkent, 2007

YANGI BILIMLAR TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O'RNI

Qahhorov Rahimjon Samjonovich
Impuls tibbiyot instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlar, umuminsoniy qadriyatlarni shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, jamiyatimiz uzlucksiz ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojiga oid huquqiy hujjatlar, taklif va mulohazalarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-gumanitar fanlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy dastur, falsafa, jamiyatshunoslik, etika, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется социальным и

гуманитарным наукам, значению социальных и гуманитарных наук в формировании общечеловеческих ценностей, правовым документам, предложениям и мнениям относительно развития социальных и гуманитарных наук в системе непрерывного образования моего общества.

Ключевые слова: Социальные и гуманитарные науки, общечеловеческие ценности, национальная программа, философия, социология, этика, критическое мышление.

Annotation: This article focuses on social and humanitarian sciences, the importance of social and humanitarian sciences in the formation of universal human values, legal documents, proposals and opinions regarding the development of social and humanitarian sciences in the continuous education system of my society.

Key words: Social and humanitarian sciences, universal values, national program, philosophy, sociology, ethics, critical thinking.

Kirish

Yurtimizda istiqlol yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar milliy davlatçılık va suverenitetni mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'zbekistonda uzluksiz ta'limg-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalihsida qayta qurish eng asosiy va markaziy muammolardan biridir. Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma'naviy dunyosi, kasb mahoratiga bog'liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g'oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog'lom fikrni uyg'otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g'oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma'naviyatlari komil inson bo'lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida O'zbekiston tarixi fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari hamda maktablarda o'qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

Ammo qo'lga kiritilgan milliy davlat mustaqilligini saqlab qolish, uni siyosiy, iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash va kelajagi buyuk davlatni barpo qilish mislsiz darajada murakkab va sharaflı bir vazifadir. Bu vazifaning qay darajada bajarilishi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy saviyasi, milliy ma'naviyatimizning nechog'lik ular ongida shakllanib, hayotiy dunyoqarashiga aylanishi bilan mushtarakdir. Yosh avlodga o'z ona tarixini bildirmasdan, tarixiy voqeа va hodisalarini tahlil etmasdan, tarixiy bilim va tarbiya bermasdan uning ongida milliy o'zlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish mumkin emas. Ta'limg va tarbiyaning uzluksiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishining nazariy va metodik jihatlari shu sohada mehnat qilayotgan kadrlarning ongi va qalbidan zarur darajada o'rın olishi kerak. Ular ta'limg-tarbiyani O'zbekiston Respublikasi Ta'limg to'g'risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bo'yicha belgilanadigan yaqin vaqt va uzoq davrga mo'ljallangan tadbirdirlarda, o'quv rejalarini va dasturlari, test savollari tuzayotganlarida va boshqa shu kabi ta'limiyl ishlarda ularning mazmuni insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishiga asosiy e'tibor qaratishlari zarur.

Ta'limg va tarbiyani tashkil etishning o'quv-metodik, nazariy-metodologik jihatlari bo'yicha ish ko'radigan davlat muassasalari, ularning jamoalari, shuningdek, nodavlat strukturalar

jamoalari o'z faoliyatlarini belgilayotganlarida insonparvarlik g'oyalariga qat'iy amal qilishlari uchun ham Davlat hujjatlarini yaratish zarurati tug'ilmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida ularni o'qtadigan kadrlar har jihatdan o'z sohasining bilimdoni va mohir pedagog, o'qitish pedagogikasini mukammal egallagan bo'lishiga erishish kerak. Oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan fanlarning umumiy soatlari miqdoridan universitet va pedagogika institatlarda kamida 35 foizini ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga ajratilishi zarur. Ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini belgilab olish maqsadida "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy" fanlar bo'yicha ishchi guruahlari tuzish zarur. Ishchi guruhidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda "Bakalavr akademik darajasiga va ta'limning eng zaruriy mazmuniga qo'yiladigan talablar" mezoni ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Ushbu me'yoriy hujjatda bakalavr uchun tayyorlanadigan fan sohalarida umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha bilim va saviyalariga qo'yiladigan talablar har bir fan sohalari bo'yicha alohida-alohida beriladi. Xuddi shuningdek, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumi bo'yicha ham eng zaruriy (minimal) talablar mazmuni har bir fan bo'yicha alohida-alohida bayon etiladi.

Umumgumanitar va ijtimoiy fanlar o'z ichiga quyidagi fanlarni qamrab oladi:

- 1) falsafa (qadriyatshunoslik, jamiyatshunoslik, etika, estetika, mantiq);
- 2) O'zbekiston tarixi;
- 3) ma'naviyat asoslari;
- 4) milliy g'oya va mafkura;
- 5) sotsiologiya;
- 6) pedagogika va psixologiya;
- 7) dinshunoslik;
- 8) madaniyatshunoslik;

Mana shu fanlar bo'yicha namunaviy dasturlarni va darsliklarni qayta tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Birinchi navbatda, ta'limning uzviyligiga va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish kerak. Zero, "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q". Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixon bag'ishlaydi. Shunday ekan, mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimida Vatan tarixini mufassal, asosiy fan sifatida o'qitish bugungi hayotimizning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolishi – bu davr taqozosidir. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishi zarurati shundaki, o'tmish tariximizni bilmasdan kelajakni qura olmaymiz. Bugungi yosh avlod ongiga xalqimizning istiqlol uchun asrlar davomida olib borgan kurashi, mustaqillikning mohiyati, uning buyuk ne'mat ekanligini singdirib, ular qalbida insonparvarlik, vatanparvarlik, sadoqat, mehr-muhabbat, burch va mas'uliyat tuyg'ularini singdirishda tarix, falsafa, ma'naviyat kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning salmog'i katta. Mazkur fanlar yosh

avlodni ulug' xalqimizning milliy qadriyatları va axloqiy sifatlari: halollik, poklik, odillik, insonparvarlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va kamtarinlik, iymon va e'tiqodlilik ruhida tarbiyalamog'i lozim, ularda Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqat hissini qaror toptirmog'i kerak.

Ijtimoiy fanlar yoshlar hayotida muhim o'r'in tutadigan fanlar sirasiga kiradi. U kelajak avlodni kreativ fikrlashga, faol bo'lishga undaydi. Jamiatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni keng idrok etishga imkon beradi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Ma'naviyatni yuksaltira borib yot g'oyalar ta'siriga tushmaslik, ularga qarshi kurashuvchan bo'lishga undaydi. Ijtimoiy fanlar orqali siyosiy yetuklikka erishiladi. Tanqidiy fikrlash, har qanday masalaga to'g'ri ijodiy yondashish normalari shakllanadi. Nutq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi va bu orqali yoshlarda ma'naviy va siyosiy yetuklik ortib boshqaruv qobiliyati shakllanadi. Ijtimoiy fanlar hayotda bo'layotgan turfa jarayonlarni anglashga o'rgatadi va kreativ fikrlash g'oyalarini o'rgatishda kuchli motivatsiya rolini o'ynaydi. Shubhasiz ijtimoiy fanlar o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida juda kerakli fanlardir. Ijtimoiy fanlarni o'qitish davlat siyosati darajasidagi masala desak xato bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, uzlusiz ta'llim-tarbiya tizimini oldiga asosiy vazifalardan biri umuminsoniy va milliy, ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda ta'llim va tarbiya mazmunini insonparvarlik g'oyasi bilan boyitish, demokratlashtirish uzviyligi, izchilligi va dunyoviyligini ta'minlashdan iboratdir. Ta'llimni zamonaviylashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning or-nomusi, sha'ni va ma'suliyyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlikni, ma'naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir. Ta'llimning o'quv va madaniy-tarbiyaviy vazifalari, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning sifati samaradorligini oshirish yuzasidan qilinayotgan ishlar davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ushbu muhim masalani hal qilishga qaratilmoqda. Ta'llim tizimizni kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida qayta qurish, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini milliy istiqlol g'oyasi bilan boyitish bu vazifalari nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash va mustahkamlashga ajratilgan keng miqyosli tadbirlardir. Mutaxassislarning kasbiy, ixtisoslik tayyorgarligi millatning ma'naviy merosidan oziq olgan bo'ladi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari, keng dunyoqarashi va chuqur aql-idroki, yuksak ijtimoiy axloq me'yordi bilan o'zaro muvofiq kelishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent: "O'zbekiston". 2021-y.
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
3. M. Hamdamova. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzlusiz ta'llimni insonparvarlashtirish texnologiyasi). T., "Fan va texnologiya", 2008, www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Umarjonov, S.S. (2021). Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda Faxriddin Roziyining ontologik qarashlarining o'rni va ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9).
5. Saifnazarov I. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni nega kuchaytirishimiz kerak? Xalq so'zi. 29.10.2021 №231

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАРДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ШАКЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Қаҳҳоров Сиддиқ Қаҳҳорович

Бухоро давлат университети профессори

siddikkahhorov@gmail.com

Илхомов Хуршид Илхомович

Бухоро давлат педагогика институти

таянч докторанти (PhD)

XurshidIlhomov@gmail.com

Аннотатсия: Ушбу мақолада талабаларнинг таълим олишида, ҳозирги кунда инновацион технологиялар, интерфаол услубларнинг сони жуда кўпайиб кетган. Улар жуда хилма-хилдир, биз уларнинг таълим муассасаларида кенг тарқалаётганлари, ўқитилиладиган аниқ фан ва предметларда қўлланиши мумкин бўлган баъзи педагогик технологиялар интерфаол услублардан фойдаланиш методикаси тавсия этилади. Инновацион педагогика ҳозирги даврда норасмий фан сифатида маълум бўлган, бироқ кун сайин бутун жаҳон соҳа мутаҳассислари эътиборига тушиб жадал ривожланиб бораётган билимлар тизимиdir. Бу вазиятда инноватсия жуда муҳим педагогик билимлар тизимиdir.

Калит сўзлар: контексли, ресурслар, мухандис, предмет, касбий, мотиватсion.

Аннотация: В данной статье значительно увеличилось количество инновационных технологий, интерактивных методов в обучении студентов. Они очень разнообразны, мы рекомендуем широкое распространение в образовательных учреждениях некоторых педагогических технологий, которые можно использовать по конкретным предметам и предметам, а также методику использования интерактивных методов. Инновационная педагогика – это система знаний, которая в настоящее время известна как неформальная наука, но которая стремительно развивается изо дня в день, привлекая внимание специалистов со всего мира. В этой ситуации инновации являются очень важной системой педагогических знаний.

Ключевые слова: контекстуальный, ресурсы, инженер, субъект, профессионал, мотиватсionный.

Annotation: In this article, the number of innovative technologies, interactive methods in the education of students has greatly increased. They are very diverse, we recommend that some pedagogical technologies that can be used in specific subjects and subjects are widely spread in educational institutions, the method of using interactive methods. Innovative pedagogy is a system of knowledge that is currently known as an informal science, but which is rapidly developing day by day, attracting the attention of experts from all over the world. In this situation, innovation is a very important pedagogical knowledge system.

Keywords: contextual, resources, engineer, subject, professional, motivational.

Бўлажак мұхандисларда мустақил таълим кўникмасини шакллантириш учун унинг ички ва ташқи омилларига аниқлаштириб олинади. Бўлажак мұхандисларнинг қишлоқ хўжалик техника технологиялари соҳасидаги шахсий билим қизиқиши; касбий мұхим натижаларга эришиш учун талабаларнинг ўз-ўзини ташкил этиш; шахсий ва касбий ўз-ўзини ривожлантиришга бўлган эҳтиёжларни, ички омилларни ташкил қиласи. Ташқи омиллар - электрон ресурсларнинг дидактик мажмуасини ўз ичига олган техника технологиялар таълим мұхитининг мавжудлиги; талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ташкил этишда ўқитувчининг моҳир раҳбарлиги, мураббийлиги ва қўллаб-қувватлаши; электрон ресурслар ёрдамида ўқувчиларнинг ўз-ўзини тарбиялаш фаолиятини ташкил этиш учун олий таълим муассасалари талабаларининг ички тайёргарлиги тушунилади.

Юқорида қайд этилган омиллар техника технологик таълим ресурслари самара-дорлигига таъсир қилувчи сабаблар ва шароитларнинг амалга ошириш тўғрисидаги тушунчаларни кенгайтиришга имкон беради.

Ажратилган омиллар эътиборга олинган ҳолда бўлажак мұхандисларда мустақил таълим кўникмасини шакллантириш учун ташкилий ва педагогик шартлар тўпламини танлаш белгиланди. Бўлажак мутахассисларда электрон ресурслар ёрдамида мустақил таълим кўникмасини шакллантиришнинг ташкилий ва педагогик шартларини: контексли топшириқларни бажариш орқали бўлажак мұхандисларнинг мустақил касбий фаолиятига мотивatsion муносабатини рағбатлантириш; бўлажак мутахассисларни муқобил касбий талабга жавоб берадиган электрон ресурслардан фойдаланган ҳолда техниклойиҳаларни яратиш бўйича мустақил таълим фаолиятига киритиш; ўқитувчилар ва таълим олувчиларнинг электрон техника технологиялари таълим мұхитида уюшган ва ўз-ўзини ташкил этган касбий фаолиятидаги педагогик ўзаро боғланишлар ташкил қиласи.

Кўникмаларни шакллантиришнинг биринчи ташкилий педагогик шарти бўлажак мутахассисларда мустақил таълимнинг контексли топшириқларни бажариш орқали талабаларнинг мустақил касбий фаолиятига мотивatsion муносабатини рағбатлантириш [1].

Касбий фаолият талабаларнинг ўқув ва касбий фаолияти - шакл бўйича таълим ва мазмунан профессионал сифатида қабул қилинади. Бўлажак мұхандисларнинг мустақил касбий фаолиятига мотивatsion муносабатини талаба учун ҳам ўқув, ҳам касбий фаолиятда, ҳам келгусидаги касбий фаолиятда қимматли бўлган ушбу фаолиятни рағбатлантирувчи омил сифатида белгиланади. Бўлажак мұхандислар мустақил касбий фаолиятга бўлган бундай муносабатларни рағбатлантириш уларнинг ушбу фаолияти мақсадлари ва натижаларига онгли муносабати, билиш жараёнига муносабати, унинг таълим ва касбий фаолиятда фойдаланиш учун янги маълумотларни олиш истаги билан ифодаланади [2,3].

Талабаларнинг билим олишга интилишини шакллантириш замонавий таълимнинг асосий муаммоларидан биридир, бу қуйидаги: эҳтиёжлар, қизиқишлиар, мақсадлар, талаба учун машғулотнинг мазмуни каби таркибий қисмлардан иборат. Турли талабалар учун бир хил ўқув фаолияти бошқача маънога эга, улар, хусусан, ўқув фанлари бўйича ҳам, умуман келгусидаги касбий фаолиятда ҳам турли хил

қизиқишларга эга. Олий таълим муассасаларида ўкув жараёнида талабаларнинг келгусидаги касбий фаолиятига қизиқишларини ривожлантириш зарур. Биринчи курсдан ва Олий таълим муассасадаги барча ўкув машғулотлари давомида талабаларнинг ўз касбига бўлган ижобий муносабати, касбий фаолиятда ўз-ўзини ривожлантиришнинг ижтимоий аҳамиятини тушуниб етиши талабаларни мустақил таълимга интилишга йўналтиради. Маълумки, талабалар орасида материални мустақил равишда ўрганишга фаол муносабат ахборот катта амалий аҳамиятга эга бўлганда пайдо бўлади, унинг янгиликларига қизиқишиш уйғотади, пайдо бўлган саволларга жавоб излашга ёрдам беради[4].

Мақолада нафақат талабаларда ўрганилаётган фанларга нисбатан ижобий муносабатни ривожлантиришга, балки контексуал топшириқларни ҳал қилиш келгусидаги фаолиятнинг моҳиятини тушуниш орқали талабаларнинг мустақил касбий фаолиятга бўлган ички мотивациясини шакллантиришга ҳаракат қилинади.

Контексли топшириқлар - бу касбий фаолиятнинг предмети ва ижтимоий мазмунини моделлаштирилган вазифалар тушунилади [1]. Талабаларнинг мавжуд ижтимоий маданий тажрибаси билан боғлиқ бўлган аниқ ҳаётий вазиятларни тавсифловчи контексли топшириқларнинг мотивасіон хусусиятига ишора қиласди. Контексли топшириқларни тузишда биз талабаларнинг лойиҳалаш, компьютер ва ахборот технологиялари соҳаларига бўлган билим эҳтиёжлари ва қизиқишларини эътиборга олишга ҳаракат қилинади.

Контексли вазифалар бўлажак техник муҳандислар касбий фаолияти билан боғлиқ бўлган ва маълумотни қидириш ва қайта ишлаш учун электрон тақдимотлар: (тақдимот, хабар, ҳисобот ва бошқаларни тайёрлаш) маълумотларни тақдим этди; касбий муаммо бўйича ижодий вазифаларни бажариш; лойиҳалаш модулларини такомиллаштириш учун қўшимча ихтисослаштирилган дастурний таъминот ёки дастурний таъминот компонентларини топиш ва ишлашга қаратилган [5].

Контексли ўқитиш усуллари муаммони дастлабки изоляциялаш ёки муаммоли вазиятни яратишни ҳамда муаммоли излаш ҳолатини ўз ичига олган. Ушбу метод талабалар томонидан қўйилган ёки пайдо бўлган муаммони ҳал қилиш йўлларини аниқлаш, уларни ҳал қилиш учун зарур бўлган маълумотларни танлаш бўйича мустақил электрон фаолиятни ўзида акс эттирган ечимини намойиш қилиш усулларини танлаш, вазифалар натижасини баҳолаш ва кейинги муаммолар доирасини аниқлайди.

Бўлажак мутахассисларнинг мустақил таълим кўнилмаларини шакллантиришнинг иккинчи ташкилий ва педагогик шарти - бу муқобил касбий талаб қилинадиган электрон ресурслардан фойдаланган ҳолда дастурний маҳсулотни яратиш бўйича бўлажак мутахассисларни мустақил таълим фаолиятига киритишдир. Маълумки, инсон янги интеллектуал маҳсулотни яратишда, айниқса, маълумотларни танлаш ва қайта ишлашда фаол бўлади. Талабалардан билим ва кўнилмаларни янги вазиятга ўтказа олиш, муаммони кўра билиш, фаолиятнинг ўрганилган усулларини бирлаштириши ва ўзгартириши, принципиал янги йўлни ташкил қилишни талаб қиласди [6]. Билим ва кўнилмаларни янги вазиятга ўтказиш, улардан онгли равишда фойдаланиш, талабаларнинг ақлий ривожланишининг юқори даражаси, мустақил таълимга ижодий билимга тайёрлигини англатади.

Бўлажак муҳандисларда лаборатория ва амалий ишлар ҳамда курс лойиҳасини

бажаришда «Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қуритиш техникаси ва технологияси» фанидан амалий топшириқларни ишлаб чиқиша мустақил таълим фаолиятига кўшилади. Лаборатория ва амалий ишларни амалга ошириш талабалар томонидан ишни бажариш бўйича маълумотноманинг электрон китоблари ва фаннинг электрон ўқув методик мажмуаси ёрдамида амалга оширилди [7].

Талабаларнинг мустақил таълим олиш кўникмаларини таснифланиши

Тадқиқотчилар қаратган асосий эътибор	Мустақил таълим кўникмаларини аниқлаш	Мустақил таълим кўникмаси турлари
Бўлғуси муҳандисларда мустақил таълим олиш кўникмалари	Предмет ҳақидаги мустақил равишда янги билимларни олиш ва уларни амалда қўллаш ҳамда субъектнинг назарий ва амалий мустақил билим олишга бўлган ҳаракатларга тайёрлиги	Ахборотни олиш ва қайта ишлаш кўникмалари, ўз-ўзини ташкил этиш ҳамда ўз-ўзини назорат қилиш кўникмаларига эгалик
Талабаларда мустақил таълим олиш фаолияти кўникмалари	Шахснинг мустақил таълим олиш фаолиятини амалга ошириш, мақсадни белгилаш натижа ва баҳолашни амалга ошириш қобилияти	Ахборотни олиш ва қайта ишлаш, ўз-ўзини ташкил этиш ва ўз-ўзини назорат қилиш кўникмалари
Техника олий таълим муассасалари талабаларида кимёдан мустақил таълим олиш кўникмалари	Талабанинг предмет бўйича янги билимларни мустақил равишда олиш ва уларни амалда қўллаш учун назарий ва амалий ҳаракатларга тайёрлиги	Ўқув фаолиятини ўз-ўзини ташкил этиш кўникмалари, ахборот-таҳлилий кўникмалар-ахборотни излаш, қайта ишлаш, ўз-ўзини назорат қилиш ва ўз-ўзини баҳолаш кўникмалари
Талабаларда мустақил таълим олиш фаолияти кўникмалари	Субъектнинг мустақил таълим олиш фаолияти мақсади, уни амалга ошириш шартлари ва усуслари ўртасидаги муносабатларни ўрната олиш қобилияти	Ахборот-таҳлилий кўникмалар, фаолиятни мустақил ташкил эта олиш кўникмалари, рефлексив кўникмалар

Фан бўйича курс лойиҳаси жараёнида талабаларнинг когнитив фаоллигини ривожлантиришга ва техника ва технология лойиҳасини ишлаб чиқиши учун контексли топшириқ асосида ўз билимларини мустақил равишда тузиш қобилиятига асосланган лойиҳа усули қўлланилди. Курс дизайнни асосида дастурий маҳсулотни яратишида талабанинг ўзи лойиҳанинг мақсад ва вазифаларини, мақсадга эришиш йўлларини аниқлайди (контексли топшириқни ҳал қилишнинг математик усулинини, танлади), натижада режалаштирилган фаолият маҳсулоти шаклида, ишининг тартибини

режалаштириди, маълумот билан ишлайди (қидириш, маълумотларни тўплаш, тизимлаштириш ва таҳлил қилиш), касбий талабга жавоб берадиган турли хил электрон ресурслардан (ўқув сайтлари, порталлар, электрон кутубхоналар) фойдаланиб лойиҳаларини тақдим этишади [8,9,10].

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, бўлажак мутахассисларда мустақил таълим кўникмаларини шакллантиришда электрон таълим ресурсларнинг ўрни беқиёс ҳисобланади. Қишлоқ хўжалик техника технологиялари инновацион педагогик технологиялар талабаларнинг билим ва кўникмаси ҳамда имкониятлари инобатга олган ҳолда улар билан ишлаш имкониятини яратади. Берилаётган ҳар бир топшириқ касбий фаолияти билан боғлиқ топшириклар қўйилса, талабаларнинг касбий фаолиятига қизиқишлари ошишига мотивация беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мамаева, Н.А. Формирование учебной мотивации студентов технических вузов / Н.А. Мамаева, Ю.Б. Агапова // Вестник Астраханского государственного технического университета. - 2008. - №1. - С. 207-210.
2. Маслоу, А. Мотивация и личность / Пер. А.М. Татлыбаевой. - СПб.: Евразия, 1999. - 480с.
3. Данилова, О.В. Использование активных методик обучения студентов разработке электронных образовательных ресурсов / О.В. Данилова // Наука и образование в жизни современного общества. -2015. - С. 30-33.
4. Руководство самообразованием школьников: из опыта работы / Подред. Б.Ф. Райского, М.Н. Скаткина. - М.: Просвещение, 1983. - 143 с.
5. Информационные и коммуникационные технологии в образовании / И.В.Роберт, С.В.Панюкова, А.А.Кузнецов, А.Ю.Кравцова И.В.Роберт. - М.:Дрофа, 2008. - 312 с.
6. Р.А.Мавлонова, О.Тўраева, К.М.Холиқбердиев. Педагогика.Дарслик Т.:Ўқитувчи 2008-йил.
7. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.
8. Р.А.Мавлонова, Н.Ҳ.Воҳидова, Н.Ҳ.Рахмонқулова. Педагогика назарияси ва тарихи. Дарслик Т.: Фан ва технологиялар. 2010 йил.
9. К.Хошимов, С.Очилов. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлланма.Т.:Ўқитувчи 2010 йил.
10. Р.А.Мавлонова, Н.Ҳ.Воҳидова, Ижтимоий педагогика. Ўқув қўлланма. Т.:Ношир 2009 йил.

PEDAGOGIK STRATEGIYALAR ORQALI TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH

Qayumov Shohruh Abdujalol o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti doktaranti, p.f.f.d.(PhD).

Shohruh_Qayumov@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu tadqiqot maqolasida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlanishning dolzarb muammosi pedagogik qarashlar orqali chuqur tahlil qilingan. Asosiy e'tibor salomatlik, sog'lom turmush tarzi, millat kelajagi va uni to'gri muvofiqlashtirish kabi asosiy jismoniy fazilatlarga qaratilgan. Olimlar bu fazilatlar talabalarning umumiyligi salomatligi va faol hayat tarzi uchun muhimligini ta'kidlaydilar. Batafsil tahlil qilish jarayonida talabalarda jismoniy holatlarni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar muhokama qilinadi. Talabalarning umumiyligi jismoniy tayyorgarligi va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan harakatsiz turmush tarzi va yetarli darajada jismoniy faoliyit muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada ushbu muammoni hal qilish uchun samarali yechimlar va amaliy choralar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, innovatsiya, talaba, sport, immunitet, rivojlanish, pedagogika, strategiya, olimpiada, mehnat, tabiat.

Аннотация: В данной научной статье с педагогической точки зрения глубоко анализируется актуальная проблема развития спортивно-оздоровительного иммунитета у студентов. Основное внимание уделяется основным физическим качествам, таким как здоровье, здоровый образ жизни, будущее нации и ее правильная координация. Ученые подчеркивают, что эти качества важны для общего здоровья и активного образа жизни студентов. В процессе детального анализа обсуждаются многие факторы, влияющие на развитие физического состояния студентов. Особое внимание уделено проблеме малоподвижного образа жизни и недостаточной физической активности, что отрицательно влияет на общую физическую подготовленность и здоровье студентов. В статье предложены эффективные решения и практические меры по решению данной проблемы.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, инновации, студент, спорт, иммунитет, развитие, педагогика, стратегия, Олимпиада, работа, природа.

Abstract: In this research article, the actual problem of developing sports and health immunity in students is deeply analyzed through pedagogical perspectives. The main focus is on basic physical qualities such as health, healthy lifestyle, the future of the nation and its proper coordination. Scientists emphasize that these qualities are important for the general health and active lifestyle of students. In the process of detailed analysis, many factors affecting the development of physical conditions in students are discussed. Special attention is paid to the problem of a sedentary lifestyle and insufficient physical activity, which negatively affects the general physical fitness and health of students. The article offers effective solutions and practical measures to solve this problem.

Keywords: healthy lifestyle, innovation, student, sports, immunity, development, pedagogy, strategy, Olympics, work, nature.

Kirish. Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Ma'lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o'quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta'lif oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Sog'lom turmush tarzi bu faol mehnat, ijd og'ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yengil ko'tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir. Talabalar o'rtasidagi o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, oliy o'quv yurti talabalari bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash, kun tartibi, dam olishga va mehnat tartibiga rioya etishi sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili: Dunyoda bugungi kunda o'qituvchilar va talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda pedagogik aspektlari, uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, aynan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va talabalarining kasbiy sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik shartlari, texnologiyalarni joriy etish muammolari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga katta ahamiyat berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqotlar o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari, uni tarkib toptirishning ijtimoiy, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik strategiyalari shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy hamda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Muhokama: Mamlakatimizda "Uchinchi Renessans" poydevori qurilayotgan, ta'lim sohasida islohotlar amalaga oshirilayotgan hamda ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Prezidentimiz "Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zлari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda" deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya daslarini zamon talablarasi tizimini yanada takomillashtirish, salomatlik immunitetini rivojlantirish jamiyat talablarining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga javob beradigan jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, malakaviy amaliyot jarayonini modernizatsiyalash, uni tashkil etish bo'yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqr tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Har qanday shaxsning o'zi tanlagan sohasi bo'yicha yuqori malakali, mahoratga ega mutaxassis sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unga ko'p yillik samarali mehnat,

ijodiy izlanishlar natijasidagina erishish mumkin. Biroq mazkur sifatlarning shakllanishi uchun zamin oliy o'quv yurtlaridagi tahsil olish jarayonida yaratiladi. Jumladan, Oliy ta'limga muassasalarida talabalarda sportga qiziqtirish, sport va salomatlikni takomillashtirishda mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda pedagogik-psixologik fanlar doirasida nazariy va amaliy bilimdonlikning shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi turli sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aynan mazkur salomatlikni rivojlantirishni shakllantirishga pedagogi strategiyalarni olib chiqishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Natija: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni ham Jamiyatimizda "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

– har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, mактабгача, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'limga muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish;

– ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish;

– aholi turli guruuhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan voz kechish yo'li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish;

– aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish;

– sanitariya-gigiyena qoidalariga riosa etilishini oilalar, mahallalar, mактабгача ta'limga umumta'lim muassasalarini darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish;

– mактабгача ta'limga umumta'lim, o'rta maxsus, professional va oliy ta'limga muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdag'i barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish.

Buning barchasini qamrab olgan holda Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini amaliyatga tadbiq etish chora-tadbirlari tashkil etildi.

Oliy ta'limga tizimida talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, oliy ta'limga asosiy maqsadi zamon talablariga mos yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga va yuksak ma'naviyatga ega yetuk kadrlarni tayyorlashdir. Shu ma'noda Sog' tanda sog'lom aql, sog'lom hayot uchun bir qadam kabi kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy pedagogik ta'limga tizimi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rinnegallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lismi har bir mutaxassis qatorida sog'lom bo'lishi, kuchli ruhiy

bosimda ishchanlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. Sport va salomatlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Salomatlikning pedagogik strategiyalari jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini va har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

XULOSA

Zamonaviy ta'limda innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarining asosiy negizini quyidagi sifat ko'rsatkishlari tashkil etadi: psixologik-pedagogik bilimlari, kasbiy tayyorgarligi, oliy ta'limning me'yoriy huquqiy hujjatlarini mukammal bilishi, mohiyatini tushunib yetgan xolda amalda qo'llay olish layoqati shakllanganligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan to'liq foydalana olishi kabi sifatlar kasbiy tayyorgarlikda namoyon bo'lishi, shuningdek Talaba qiziqlishlari, moyilliklari, layoqati va ta'lim muassasalari ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish kabi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yaxlit pedagogik jarayon asosini tashkil etadi va mazkur jarayonni amalga oshirish talab etiladi.

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini takomillashtirishda jismoniy tarbiya va ushu fanni o'qitish metodikasini integratsiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish maqsada muvofiqdir. Har bir talabaning innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida fundamental bilimlarni egallahiga, aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, har bir talabada shaxsiy va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat va qat'iyatlilik hissini rivojlantiradi.

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari nafaqat bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda butun oliy ta'lim muassasalaridagi barcha talabalarni kasbiy layoqatliligining mazmuni uni tarbiyalash jarayoni doirasida bo'lajak kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari bilan aniqlanadi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini mazkur faoliyatni amalga oshirishda nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorlash va uning bu jarayonga tayyorligi birligidan iborat bo'lib, u moddiy, ijtimoiy, yani, o'quv fanini o'qitish texnologiyasi loyihasida o'z ifodasini topadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori" 2015. 4-b.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637, 2020 yil 23 sentabr.
3. Sh.M.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi. 2020 yil, 25 yanvar, 19(7521)-son.
4. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlanti-

rish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-sod qarori bilan tasdiqlangan "2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi" //lex.uz// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-sod;
6. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sod farmoni.
7. Sh.M.Mirziyoevning "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019 yil 27 avgustagi PF-5789-soni farmoni.
8. Sh.A.Qayumov "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi" Monografiya. T.: Ziyo chashmasi. 2023. 109 b.

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STEAM VA INTEGRATSIYA

Qayumova Mohinur Karim qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti
Mohinurqayumova27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM fanlari haqida tushuncha, uning ahamiyati, kelajakda va kasb tanlashdagi o'rni, oliy ta'limga integratsiya qilish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, integratsiya, muhandislik, texnologiya, integrativ dars.

Аннотация: В данной статье представлена информация о концепции STEAM-наук, ее важности, роли в будущем и выборе карьеры, а также ее интеграции в высшее образование.

Ключевые слова: STEAM, интеграция, инженерия, технология, интегративный урок.

Abstract: This article provides information about the concept of STEAM sciences, its importance, role in the future and career choices, and its integration into higher education.

Keywords: STEAM, integration, engineering, technology, integrative lesson.

Kirish

Bugungi kunda integratsion jarayonlar inson hayotining barcha jabhalariga kirib bormoqda va zamonaviy fikrlashning muhim uslubiga aylanmoqda. Biz integratsiyani ta'lif,

iqtisod, kompyuter texnologiyalari, ishlab chiqarish va boshqa ko'p sohalarda ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy ta'lif tizimida esa STEAM fanlarning o'rni katta. Biz STEAM fanlarining integratsiyasi, uning zamonaviy ta'lif tizimi uchun o'rni katta ekanligi haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqdamiz.

Adabiyotlar tahlili

Maqolani yozishda Nabihev F.A va Murodov K.Q.larning STEAM–bu integratsiyalashgan ta'lif texnologiya nomli maqolasidan va bir necha ta'limiy saytlarning ma'lumotlaridan foydalanildi. Yuqoridaq maqolada integratsiyaning bugungi kundagi o'rni, STEAM fanlarining o'qitilishi, o'quvchilarning puxta bilim olishi va mehnat bozorida talabgor kasblarning o'rganish uchun zarurligi, Prezident mакtablarida o'qitish tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. Biz ushbu maqolada STEAM texnologiyasini nafaqat mакtab o'quvchilari uchun, balki bo'lajak o'qituvchilarga, o'quvchilarga o'rgatish, integratsiya qilish haqida to'xtalib o'tamiz.

Muhokama

STEAM ta'lif texnologiyasi mакtab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'lifi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi¹. Ilm-fanni (Sience) yaxshi o'zlashtirish o'quvchiga o'zini o'rab turgan atrof-muhitni yaxshi anglash, undagi hodisalarini o'rganish va abstrakt tafakkur hosil qilish qiyinchilik tug'dirmaydi. Texnologiya fani insoniyat kelajagi bo'lgan raqamli dunyoga moslashuvchan, kelajak kasblarini o'rganishda salohiyat hosil qiladi. Muhandislik (Engineering) bilan o'quvchi muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'rgangan bilimlarini yangi loyihalar yaratish uchun qo'llay oladi, o'z yechimini topayotgan bir necha muammolarga o'zining yechimini taklif qila oladi. Matematika esa ma'lumotlarni tahlil qilish, xatolarni tuzatish, to'g'ri yechimlar topish, aniq hisob-kitoblar qilish uchun kerak. STEAM mana shu 4 ta yo'nalishni bir tizimga soladi va jamiyatga innovatsiyalar yarata oladigan, muammolarga barqaror yechimlar topa oladigan, o'zining teran fikri va ilmiy dunyoqarashiga ega kadrlarni tayyorlab beradi.

Integratsiyalashgan dars - bir tushuncha, mavzu yoki hodisani o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar bo'yicha o'qitishni birlashtirgan maxsus dars turi. Boshqacha aytganda, integratsiyalashgan darsda bir nechta o'quv fanlari materiali o'rganiladi. Har bir fanning ushbu fanlarni bir-biriga bog'laydigan o'z maqsad va vazifalari mavjud. Integratsiyalashgan darslar katta imkoniyatlarga ega. Aynan shu usulda tashkil etilgan darslarda talabalar turli mavzulardagi ma'lumotlardan foydalanib, voqeа va hodisalarini mutlaqo yangicha tushunish, chuqr va rang-barang bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Natija

BMT prognozlariga ko'ra 2050 yilga borib kasblarining 75 foizi STEAM fanlariga aloqador bo'lishi kutilmoqda. Aynan mana shu tizim asosida ta'lif olish orqali o'quvchilar kelajak muammolariga yechim topa oladigan, yangi kashfiyotlar qila oladigan kadrlarga aylanishiga ishonilmoqda.

¹ Nabihev F.A. va Murodov K.Q. STEAM –bu integratsiyalashgan ta'lif texnologiya.

Hozirgi kunda biz faoliyat yuritayotgan fanlarning ko'p qismi kelajakda avtomatlashib ketishi yoki robotlar tomonidan bajarilishi mumkin. Bu jarayon esa kelajak kasblari fanni, matematika, muhandislik, texnikaviy bilimlarni o'zida jamlay olgan mutaxassisni talab qiladi. Maktab ta'limali STEAM ning tobora dolzarb bo'lishining sabablaridan biri shu desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'limali tizimini faqatgina maktab o'quvchilariga emas, balki bo'lajak o'quvchilarga ham puxta o'rgatish zarur. Pedagogika o'quv yurtlarida STEAM bo'yicha integrativ kurslar tashkil qilish, bu kurslarda bo'lajak o'quvchilarni o'qitish zarur. Chunki o'zida mustahkam bilimi bor o'quvchigina zamon talablariga mos, kelajakda yetuk mutaxassisni tayyorlay oladi.

Xulosa

Ключевые слова: Дистанционное образование, профессиональное образование, современные инновации, ЮНЕСКО, компетентность.

Жаҳон миқёсида педагогика соҳасида профессионал таълим муассасаси педагогининг ижодий фикрлаши ва креативлигини ривожлантириш масалаларига қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Замонавий инновацияларни таълим жараёнига татбиқ этиш, педагог-тарбиячиларнинг креатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш усулларини илмий асослаб бериш, педагогика коллежлари таълим тизими мазмунига мос креативлик компетенциясини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш ва ўкув материалларини бойитиш зарурияти юзага келмоқда.

Бутун дунё бўйлаб профессионал таълим жараёнида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш, профессионал таълимни модернизация қилиш, таълим дастурларини рақамлашган муҳит эҳтиёжларига мос равишда олиб бориш ва бўлажак мутахассисларнинг ахборот компетенцияларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бирлашган миллатлар ташкилотининг таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ташкилоти ЮНЕСКО томонидан 2018 йилда қабул қилинган медиа ҳамда ахборот саводхонлиги бўйича бешта қонунида медиа ва ахборот саводхонлиги бугунги кунда таълим олиш, яшаш ва ишлаш учун зарур бўлган компетенциялардан бири эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган. Шундан келиб чиқиб, профессионал таълимда ўқувчиларнинг медиасаводхонлигини ривожлантириш орқали мустақил

фаолиятини ташкил этиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мамлакатимизда замон талаблари асосида профессионал таълим жараёнини ташкил этиш, жумладан, профессионал таълим тизимида ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш орқали юқори малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. 2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг еттига устувор йўналиши бўйича Тараққиёт стратегиясида “Касбий таълим билан тизимли равишда шуғулланиш масалаларини тўлиқ равишда Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигига ўтказиш, касбга ўқитиш кўламини 2 баробарга ошириш, жами 1 миллион нафар ишсиз фуқароларни касб-хунарга ўқитиш” каби устувор вазифалар белгиланган. Бу борада профессионал таълимдада бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятига тайёрлаш, ўз мутахассислигига хос сифатларни ва мустақил фаолиятга тайёргарлик даражаларини баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш ишлари олиб борилмоқда. Профессионал таълим жараёнига илфор техника ва технологияларнинг татбиқ этилиши ўқувчиларнинг медиасаводхонлигини ҳамда уларнинг мустақил фаолият олиб боришга амалий тайёргарлигини такомиллаштиришга кенг имконият яратади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сонли, 2020 йил 2 марта “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантиришчора-тадбирларит тўғрисида”ги ПФ-5953-сонли Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4623-сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 15 майдаги “Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўнкималарни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида”ги ВМ-287-сонли, 2020 йил 7 августдаги “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта маҳсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-хукуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 466-сон Қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-хукуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада хизмат қилади ва ушбу меъёрий ҳужжатлар методологик асос ҳисобланади.

Прфессионал таълим муаммолари, бўлажак мутахассисларни касбга йўналтириш, касбий фаолиятга тайёрлаш, касбга ўргатиш, уларда шахсий ва касбий сифатларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг долзарб масалалари мамлакатимиз олимлари, жумладан, Р.Х.Джураев, Ш.Э.Қурбонов, А.Р.Ходжабаев, С.Ю.Ашуррова, З.К.Исмаилова, Н.А.Муслимов, Қ.Т.Олимов, О.Т.Тўракулов, Ж.А.Ҳамидов, Д.О.Ҳимматалиев, О.А.Қўйсинов ишларида ёритиб берилган.

Педагог олимлардан О.Жамолиддинова, О.Мусурмонова, М.Уразова, Н.Эгамбердиева, Э.Юзликаева, Ш.Шарипов, Ш.Шодмоноваларнинг илмий изланишларида талабаларда креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг бўлажак мутахассисларни касбий-инновацион тайёргарлигини шакллантиришдаги ўзига хос жиҳатлари, креативлик сифатларини ривожлантиришга таъсир этувчи ижтимоий омиллар, шахснинг фаоллиги, шунингдек, талабаларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш йўллари ва шакллари, мавжуд педагогик шарт-шароитлари, дидактик таъминоти, шунингдек педагогик креативлик

мазмуни ёритиб берилган.

“Креативлик компетенциясини ривожлантиришга оид илмий тадқиқот ишлари билан олимлардан А.Р.Арипджанова, Ш.Ҳ.Позилова, Г.И.Ибрагимова, П.Торренс, Г.Альтшуллер, М.Зиновкина, Гильфордлар шуғулланишган ва фанда креативлик атамасининг пайдо бўлишига асос согланлар.

Ўзбекистонда халқаро стандартлар асосида малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, профессионал таълим муассасасини жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиши, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларини кенг жорий қилиш, ўқувчилар, илмий-педагогларни касбий компетентлиги таркибиға кирувчи креатив компетенцияларини ривожлантириш, таълимда интерфаол усуслардан самарали фойдаланиш масалалари Таълимнинг халқаро стандарт таснифлагичи (МСКО) даражалари билан уйғунлашган мутлақо янги профессионал таълим муассасалари тармоғи ташкил этилди. Ана шу нуқтаи-назардан илғор хорижий тажрибалар асосида профессионал таълим мазмунини модернизациялаш, компетенцияларга асосланган инновацион технологияларни тадбиқ этиш имкониятини янада кенгайтиromoқда.

Профессионал таълим тизимида мустақил фаолиятни тартибга солиш ва ривожлантиришнинг мотивациян, когнитив, амалий-фаолиятли ва ижодий компонентлари ўқувчиларни касбга тайёрлашда, билимларни мустақил ўрганишларида мустақил ўқув-билиш фаолиятини ташкил этишнинг энг муҳим омили ҳисобланади. Айнан мустақил билим ортириш фаолияти ўқувчини мустақил ишлашга, ўқувчиларни ҳам назарий, ҳам амалий, ҳам мустақил ўқиб-ўрганиш нуқтаи назаридан мустақил ишларни бажаришга йўналтиради.

Бугунги креатив фикрни шакллантириш бўлажак ўрта маҳсус маълумотли мутахассиснинг кучли шахс сифатида камол топишида уни болалиқдан креатив фикрловчи этиб шакллантиришга йўналтирилган тадқиқот ишларини олиб бориш ҳозирги куннинг муҳим вазифалари сифатида белгиланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2022. Б.39.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги «Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3289-сон қарори. // «Халқ сўзи», 2017 йил 27 сентябрь.
3. Абдуқодиров А.А., Пардайев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Т.:Фан, 2009. 84 б.
4. Носиров А. Раҳбарнинг касбий компетентлиги, педагогик маҳорати ва бошқарув маданияти. / “Таълим менежменти” журнали. 2013 йил. № 6. 45-бет.

- Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти дарслиги. - Т.: "Саноатстандарт", 2017. - 174-175 бетлар.
- Шоймардонов Т.Т. Педагог кадрлар малакасини ошириши ва касбий фаолияти мониторингини ташкил этишнинг электрон тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа докторлиги диссертацияси. – Т.: ТДПУ, 2017.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ МУСИҚА РАҲБАРЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИЯСИНИ РИВОЈЛАНТИРИШДА ХОРИЈ ТАЖРИБАСИ ВА ЗАМОНАВИY YONDASHUVLAR

Rizayeva Munisxon Mahkamovna

*Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari musiqa rahbari musiqa faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omillarni amaliyot bilan bog'lay olganligiga, bola shaxsiga hamda uning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Ushbu vazifalarni yuqori darajada bajarish musiqa rahbarining kasbiy kompetentligiga borib taqaladi. Kasbiy kompetensiyaga ega musiqa rahbari maktabgacha ta'lif tashkilotlarida musiqiy ta'lif-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, qonuniyatlari, nazariy asoslari va uslubiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Kalit so'z: musiqiy faoliyat, musiqiy-didaktik o'yinlar, ritm hissi, musiqiy repertuar, bolalar cholg'ulari, musiqiy qobiliyat, atributlar.

Аннотация: огромный воспитательный потенциал музыки раскрывается только на основе умения музыкального руководителя связывать важные факторы, определяющие эффективность музыкальной деятельности, с практикой, личностью ребенка и его постоянным вниманием к развитию его музыкальных и творческих способностей.

. Выполнение этих задач на высоком уровне зависит от профессиональной компетентности музыкального руководителя. Музыкальный руководитель, обладающий профессиональной компетентностью, определяет конкретные характеристики, цели и задачи, закономерности, теоретические основы и методические направления музыкального образования в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: Музыкальная деятельность, музыкально-дидактические игры, чувство ритма, музыкальный репертуар, детские инструменты, музыкальные способности, признаки.

Abstract: The huge educational potential of music is revealed only on the basis of the music leader's ability to connect the important factors that determine the effectiveness of music activities with practice, the child's personality and his constant attention to the development of his musical and creative abilities. Performing these tasks at a high level depends on the professional competence of the music director. A music director with professional competence determines the specific characteristics, goals and tasks, laws,

the oretical foundations and methodological directions of musical education in preschool educational organizations.

Key word: Musical activity, musical-didactic games, sense of rhythm, musical repertoire, children's instruments, musical ability, attributes.

Xorijiy davlatlardagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish darajasini o'rganish mamlakatimizdagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammolariga tahliliy jihatdan yondashishga imkon beradi hamda musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish nazariyasi kengaytirilishiga va chuqurlashtirilishiga yordam beradi. Ta'lif sifati bolalar, oilalar va jamoalar bilan ishlaydigan pedagoglarning malakasiga bog'liq. Ko'pincha, biz "kompetentlik" atamasini individual amaliyotchining fazilatlari bilan bog'laymiz, bu mashg'ulot va kasbiy tayyorgarlik (ya'ni, bilim, ko'nikma, munosabat, motivatsiyaning integratsiyasi) orqali erishilishi mumkin bo'lgan jarayon. Ushbu konsepsiya ingliz tili kontekstida malakali bo'lish (to'liq insoniy xususiyat) ko'pincha "kompetentlik"ga qisqartiriladi. Muayyan vazifani bajarish uchun shaxslar ega bo'lishi kerak bo'lgan bir qator ko'nikmalar va bilimlarni mujassamlashtiradi. Maktabgacha yosh davridagi ta'lif va tarbiya kontekstidagi "kompetentlik" ta'lif tizimining o'ziga xos xususiyati sifatida tushuniladi. Kompetensiyaviy tizim shaxslar, jamoalar, institutlar va kengroq ijtimoiy-siyosiy kontekst o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda rivojlanadi. "Kompetensiyali tizim"ning asosiy xususiyati-bu shaxslarning doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy kontekstlarda bolalar va oilalarning ehtiyojlariga javob beradigan mas'uliyatli va samarali amaliyotlarni rivojlantirish qobiliyatini ro'yobga chiqarishlarini qo'llab-quvvatlashdir¹.

Rossiya ta'limalda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning (G'arb adabiyotida u "competence-based-education" ya'ni, kompetensiyaga asoslangan ta'lif deb ataladi) joriy etilishi ikki jarayon bilan bog'liq:

- olingan bilimlar jamlanmasi ularni qo'llashning tez o'zgaruvchan amaliyoti;
- amalga oshirilayotgan islohotlarni g'oyaviy va pedagogik ta'minlashni yangilash zarurati².

O.E.Lebedevning so'zlariga ko'ra kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu ta'lif maqsadlarini aniqlash, mazmunni tanlash, ta'lif jarayonining shartlarini tashkil etish va ta'lif natijalarini baholashning umumiy tamoyillari to'plamidir.³

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lif tizimini isloh qilish sharoitida boshqarish vositasi va ayni paytda ta'lif sifatini oshirish vositasi hamdir. Ta'lifdagi kompetensiyaviy yondashuvning barcha xilma-xil talqinlari bilan uning mohiyatini quyidagi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin:

- ta'lifning maqsadi muammolarni samarali hal qilishga o'rgatishdir;
- ta'lif vazifalari uning mazmuni va shakllarini birlashtirish, bola shaxsini rivojlantirish bilan bog'liq;
- ta'lif mazmuni vaziyatli muammolarni hal qilishda asosiy va maxsus (kasbiy)

1 Mathias Urban, Michel Vandenbroeck, Arianna Lazzari, Katrien Van Laere, Jan Peeters. Competence Requirements in Early Childhood Education and Care. London and Ghent, September 2011. Completion date: October 2012. http://ec.europa.eu/education/more□information/doc/2011/core_en.pdf

2 Профессиональная компетентность современного педагога: теоретические подходы. Научно-технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки 4' 2011. УДК 371

3 Лебедев, О.Е. Компетентностный подход в образовании. // Шк. технологии: науч.-практ. журн. – Т. 2: Новое время. – 2006. – 459 с. – С. 3–12.

kompetensiyalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi;

- kompetensiyaga asoslangan ta'larning yetakchi shakli pedagogning shaxsiy tajribasini shakllantiruvchi interfaol variantdir;

- bunda ta'limg natijalari tekshirilganligi, tez o'zgaruvchan zamonaviy dunyoda noaniq vaziyatlarda pedagog tomonidan qo'llaniladigan kompetensiyalarning asoslilikiga bog'liq.

Mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- umumijtimoiy va shaxsiy ahamiyat shakllangan bilim, ko'nikma, malakaning sifatli va samarali bo'lish yo'llari;

- xulq-atvor va baholashda ifodalangan kasbiy va shaxsiy takomillashtirish maqsadlarini aniq belgilash;

- shaxsni rivojlantirish maqsadlari ham bo'lgan muayyan vakolatlarni aniqlash;

- milliy va umuminsoniy madaniyatni idrok etishga asoslangan semantik yo'nalishlar majmui sifatida kompetensiyalarni shakllantirish;

- statistik usullar bilan qayta ishlanishi mumkin bo'lgan o'lchov mezonlarining aniq tizimining mavjudligi;

- shakllanayotgan shaxsga pedagogik yordam ko'rsatish va uning uchun "muvaqqiyat zonasi" ni yaratish;

- maqsadga erishish uchun strategiya tanlash dasturini individuallashtirish;

- bilimlardan amaliy foydalanish va qimmatli hayotiy tajribani o'zlashtirish ko'nikmalarini har tomonlama tekshirish uchun vaziyatlar yaratish;

- mavjud bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini takomillashtirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan shaxsnинг integral xarakteristikasi, ijtimoiylashuvi va hayotiy tajribani egallashi.

Xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'limg tizimini o'rganishimiz jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga keng o'rinn ajratilganiga guvoh bo'ldik. Xususan, bolalarning erta rivojlanishini va tarbiyalashni amalda sinovdan o'tkazgan buyuk italyan pedagogi Mariya Montessorining bolani erta rivojlantirish nazariyasi bilan bog'liq metodikalari butun dunyoda dolzarb. O'z g'oya va prinsiplariga rioya qilib, M.Montessori pedagogik tizim asosiga bolalar o'zlari istaganidek faoliyatda erkin namoyon bo'lishi, u ishlab chiqqan metodning mazmuni bolani o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'ziga ta'limg, o'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlanishidan iborat ekanligini ta'kidlagan.

Musiqa ta'limgida majburlamaslik va asta-sekinlik bilan yondashish juda muhim, deb bilardi Montessori. Kichik bolalarga eng sodda musiqiy o'yinchoqlarni taklif etish kerak deb, musiqiy tarbiyada muvaffaqiyatga faqat shu yo'l bilan erishilishini ta'kidlagan. Montessori fikricha, bolalarda jismoniy va musiqiy tarbiyani birlashtirish, ularda ritm tuyg'usi va harakatlarda muvozanatning rivojlanishiga ko'maklashadi, bolaga nafaqat jismoniy tarbiyani, balki ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun musiqani yanada chuqr o'rganish zarur. Montessori bolani musiqiy tarbiyaga o'rgatish "qancha erta bo'lsa, shuncha yaxshi" degan g'oya-ga tayangan.

Musiqa ta'limi orqali insoniylikka yondashuv asosida ish ko'rgan Sh.Suzuki bo'ldi. Yapon pedagogining fikricha, "bola tug'ilganidan musiqaga oshno bo'lishi kerak, shu sababli

uni jarang sochib turgan musiqaga uyg'un holda tarbiyalash kerak".

Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari – sog'lom, mustaqil, har tomonlama rivojlangan, bilimga ega va o'z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a'zosini yaratishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida ta'lif dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqlari o'tkazilib, muntazam sayrlarga chiqiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o'tkazilishidan maqsad – bolada hamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor jamoada aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi, musobaqa o'tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g'oliblikka erishiladi va mutlaqo g'olib yakka bo'lmaydi⁴.

Janubiya Koreya maktabgacha ta'lif bo'yicha dunyoda eng yuqori o'rirlarni egallab kelmoqda. Koreyslar bolalarning jismonan sog'lom va baquvvatligiga, shuningdek, musiqa mashg'ulotlarini o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratadilar. Bog'chadan boshlab bolalarga dunyoni musiqa orqali anglatish aqidasini ilgari surishadi. Bolaga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofni obrazli - emotsiyonal idrok etishi va bola xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi uchun musiqa tarbiyasining ahamiyati yuqori deb hisoblashadi. Shu sabab Janubiy Koreyada musiqani qabul qilish, his etish va tushunish, badiiy - ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash bo'yicha alohida dasturlar mavjud.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ham musiqa mashg'ulotlarida quvnoq kuy va qo'shiqlarni tinglash, chapak chalish hamda bolalar cholg'ulariga jo'r bo'lish musiqaga ishtiyoqlarini yanada oshirib boradi. Chunki bu yoshdagi bolalarda hali diqqat – e'tibor uncha to'liq bo'lmaydi, ular ko'proq serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Musiqa mashg'ulotlarida bolada musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo musiqa rahbarining diqqat markazida bo'lishi, turli metod va vositalar, jumladan musiqiy-didaktik qo'llanma va o'yinlar yordamida amalga oshirilishi lozim.

Musiqiy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulariga mos kelishi va bolalarning hissiy va ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi nazariy jihatdan isbotlangan va amalda tasdiqlangan. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida musiqiy faoliyatning olib borilishi N.A.Metlov, N.A.Vetlugina, K.V.Tarasova, D.B.Kabalevskiy, Ye.B.Abdulin, N.L.Grodzenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Bolalarning musiqiy rivojlanishi va bolalar ijodini faollashtirish usullari G.L.Struve, V.V.Yemelyanova, D.Ye.Ogorodnikova, G.P.Stulova, L.A.Barenboyma, L.V.Shkolyar, V.V.Kiryushina, L.N.Komissarova, O.P.Radinovaning ishiga bag'ishlangan. Nazariy masalalarni ishlab chiqishda Z.Kodai, K.Orflarning bolalar ijodiy salohiyatini rivojlantirish orqali musiqa dunyosini hissiy tushunish haqidagi fikrlari ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lif tashkilotida musiqa faoliyat jarayonida bola hayotini, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etish uchun repertuar tanlash lozim bo'ladi. Olib boriladigan musiqiy tarbiya ishlarini badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshirish, musiqiy tarbiyaning ilg'or tajriba va turli metodlaridan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotini bolalarga badiiy-estetik zavq uyg'otishini, ularning his tuyg'ularini shakllantirishda, ijodiy fikrlash qobiliyatini va nutqini o'stirishda xizmat qilishni ta'minlash lozim.

Musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiylarini rivojlantirish muammosining dolzarbliji, mustaqil ijodiy faoliyatga qodir shaxsnинг ijtimoiy talabi, ta'lif jarayonini insonparvarlashtirishga bo'lgan ehtiyoj, shaxsni o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitlarga

4 Galitravel.ru/doshkolnoe-obrazovanie-v-yaponii/Elektron resurs/

moslashtirish vazifalari, pedagogik tadqiqotlarda ushbu muammoning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori <https://lex.uz/docs/5179335>
2. Mathias Urban, Michel Vandenbroeck, Arianna Lazzari, Katrien Van Laere, Jan Peeters. Competence Requirements in Early Childhood Education and Care. London and Ghent, September 2011. Completion date: October 2012. http://ec.europa.eu/education/more-information/doc/2011/core_en.pdf
3. О.П.Радынова, А.И.Катинене, М.Л.Палавандишвили. Музыкальное воспитание дошкольников. Учебное пособие - Москва, 1998 г.
4. М.А.Давыдова. Музыкальное воспитание в детском саду. Средняя, старшая, подготовительная группы. - М.: ВАКО, 2006.
5. Лебедев, О.Е. Компетентностный подход в образовании. // Шк. технологии: науч.-практ. журн. – Т. 2: Новое время. – 2006. – 459 с. – С. 3–12.

ZAMONAVIY TA'LIMDA SUN'iy INTELLEKTNING O'RNI: IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHDA YANGI IMKONIYATLAR

Ruzikulov Rustam Ravshanovich

*Respublika ta'limdi rivojlantirish ilmiy-metodika markazi bo'lim boshlig'i
ruzikulov921@gmail.com*

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarni o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning samarali usullari, shu jumladan, virtual laboratoriylar, onlayn ta'lim platformalari va interaktiv texnologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hamda ta'lim sifatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy fanlar, zamonaviy instrumentlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriylar, onlayn ta'lim platformalari, sotsial media, ta'lim sifati, o'quvchilarning qiziqishi.

Аннотация: Использование современных инструментов в преподавании обществознания является неотъемлемой частью современной системы образования, повышающей интерес учащихся к образовательному процессу и углубляющей их знания. В этой статье анализируются информационные и коммуникационные технологии, виртуальные лаборатории, образовательные онлайн-платформы и инструменты социальных сетей, используемые в преподавании обществознания.

Спомощью этих подходов рассматриваются возможности развития у студентов навыков самостоятельного мышления и анализа, сделать учебный процесс интерактивным и эффективным. По результатам статьи определено, что использование современных инструментов важно для вывода образования социальных наук на новый уровень.


Ключевые слова: Общественные науки, современные инструменты, информационно-коммуникационные технологии, виртуальные лаборатории, образовательные онлайн-платформы, социальные сети, качество образования, интерес студентов.

Abstract: The use of modern tools in the teaching of social sciences is an integral part of the modern education system, which increases students' interest in the educational process and deepens their knowledge. This article analyzes information and communication technologies, virtual laboratories, online educational platforms and social media tools used in teaching social studies. With the help of these approaches, the possibilities of developing students' independent thinking and analysis skills, making the educational process interactive and effective are considered. According to the results of the article, it is determined that the use of modern instruments is important in bringing the education of social sciences to a new level.

Keywords: Social sciences, modern instruments, information and communication technologies, virtual laboratories, online educational platforms, social media, quality of education, students' interest.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida ijtimoiy fanlar tarkibiga tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya fanlari kiradi. Har o'quv yilida mo'ljallangan ta'lif dasturiga ko'ra, ijtimoiy fanlar haftalik o'quv soatlari quyidagi ko'rinishda taqsimlangan: tarix – 17 soat, davlat va huquq asoslari – 4 soat, tarbiya – 11 soat.

Umumiy olganda maktab o'quvchisi maktab davrida jami 1216 soat vaqtini ijtimoiy fanlarga sarflashi kerak. Qolgan fanlarni tahlil qilib ko'raylik.



Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, umumiy o'rta ta'lif muassasalarida asosan

filologiya yo'nalishiga katta e'tibor qaratilgan. Filologiya fanlari bo'yicha ko'rsatilgan ko'rsatichlar eng yuqori (4294), bu esa boshqa yo'nalishlarga nisbatan katta farqni ko'rsatadi. Aniq fanlar (2546) va amaliy fanlar (1938) filologiya fanlaridan keyingi o'rinni egallaydi. Ijtimoiy fanlar esa eng kam ko'rsatkichga ega (1216). Bu holat, o'qituvchilarni bu fan yo'nalishlarida ko'proq ishlashiga, katta va ko'p ma'lumotlarni belgilangan va qisqa muddatda tushuntirisha majbur qiladi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonlarini yanada samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning vaqt va kuchini tejashta yordam beradi, shu bilan birga, o'quvchilarga ma'lumotlarni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, ijtimoiy fanlar yo'nalishida ham innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali bu yo'nalishni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, masalan, o'qitish platformalari, virtual yordamchilar va avtomatik baholash tizimlari, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning yukini yengillashtiradi va ularga o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos ta'lim dasturlarini tuzish ham mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy fanlar sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi tadqiqot va tahlil jarayonlarini tezlashtiradi. Masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan tendensiyalarni kuzatish va ijtimoiy muammolarni aniqlashda sun'iy intellektning hissasi katta. Natijada, o'qituvchilar va tadqiqotchilar tezkor va aniq ma'lumotlarga ega bo'lib, o'quv jarayonini va ilmiy izlanishlarni samarali amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, nafaqat o'quv jarayonini yengillashtiradi, balki ta'lim sifatini ham oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ijtimoiy fanlar sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, tarix fanida virtual reallik (VR) yordamida o'quvchilar tarixiy voqealarni jonli tajriba orqali o'rganishlari mumkin. Davlat va huquq asoslari fanida sun'iy intellekt yordamida interaktiv huquqiy muammolarni yechish va o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish imkoniyati mavjud. Tarbiya fanlarida esa sun'iy intellekt vositalari orqali o'quvchilarning axloqiy va tarbiyaviy rivojlanishini kuzatish va mos tavsiyalar berish mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlashda va ularga mos ta'lim dasturlarini tuzishda yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim olishlariga imkoniyat yaratadi. Natijada, ijtimoiy fanlar sohasida sun'iy intellektni qo'llash nafaqat o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning fuqarolik ongini, huquqiy bilimlarini va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofikdir.

Bundan tashqari, Videoscribe dasturi mavjud bo'lib, u o'qituvchilarga animations mavzular orqali darslikda berilgan materiallarni tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu dastur ayniqsa boshlang'ich sinflarda juda kerakli bo'lib, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va o'qitilayotgan mavzularni tushunishni yengillashtiradi. Videoscribe dasturi yordamida o'qituvchilar mavzularni vizual tarzda, qiziqarli va interaktiv shaklda taqdim

etishlari mumkin. Bu usul bolalarning ko‘rish va eshitish orqali o‘rganish qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, ularning motivatsiyasini va ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Animatsiyalar orqali murakkab tushunchalar oddiy va aniq tarzda tushuntiriladi, bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda muhimdir.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim — tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, uning ma’naviy — ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorini va hissiyotini jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgata olish va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik mahorat kerak bo‘ladi. Pedagogik mahorat o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnat faoliyatidir.

Zamonaviy instrumentlardan foydalanish ijtimoiy fanlarni o‘qitishda yangi imkoniyatlar ochadi, ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘rganishlari, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh va bilimli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida ijtimoiy fanlar sohasida sun’iy intellekt va animatsion texnologiyalarni qo’llash nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning kreativ va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shuning uchun, bu texnologiyalarning keng joriy etilishi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda va o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi, o‘qituvchilarning vaqt va kuchini tejash bilan birga, o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr)
2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-Moliya. (2011)
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martda-gi 94-son buyrug‘i.
4. Videoscribe Software. (2023). Sparkol Ltd. Accessed from: <https://www.videoscribe.co>.
5. VR in Education. (2022). EdTech Magazine. Accessed from: <https://www.edtechmagazine.com>
6. Anderson, J. & Rainie, L. (2018). Artificial Intelligence and the Future of Humans. Pew Research Center.

IJTIMOIY FANLARNI O'QITILISHIDA O'QITUVCHIGA QO'YILADIGAN TALAB VA KOMPETENSIYALAR.

Ruziyev Davlat Axillesovich

Farg'onan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi tarbiya fani metodisti

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy fanlar o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq zamonaviy pedagogik ta'larning dolzarb muammosi ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish asosida ijtimoiy fanlar o'qituvchisining ta'lim sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyasini aniqlashdir.

Kalit so'zlar: standart, kompetensiya, pedagogik mahorat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi, xronologiya, professionallik, qidirish metodikasi.

Аннотация: В статье рассматривается актуальная проблема современного педагогического образования, связанная с формированием и развитием профессиональных компетенций учителя обществознания. Цель статьи - определить профессиональную компетентность преподавателя обществознания, необходимую для повышения качества образования, на основе анализа его педагогического опыта.

Ключевые слова: Стандарт, компетентность, педагогическое мастерство, информационно-коммуникационные технологии, образовательная эффективность, хронология, профессионализм, методика поиска.

Annotation: The article examines the current problem of modern pedagogical education related to the formation and development of professional competencies of the social science teacher. The purpose of the article is to determine the professional competence of the teacher of social sciences necessary to improve the quality of education based on the analysis of his pedagogical experience.

Key words: standard, competence, pedagogical skills, information and communication technologies, educational effectiveness, chronology, professionalism, search methodology.

Kirish. O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim tizimi uni modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan muhim o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, jarayonning asosiy vazifalaridan biri umumiyligini ta'lim sifatini, ayniqsa, o'qituvchilarning mahorati, metodologiyasi, kompetensiyalarni oshirishdir. Zamonaviy oliy ta'larning rivojlanishini belgilovchi asosiy elementlardan biri davlat ta'lim standartidir. Bunda ta'lim beruvchi o'qituvchida umuminsoniy, umumiyligini va kasbiy kompetensiyalarni tarbiyalashga asoslanadi. Ta'limga modernizatsiya qilish jamiyatning raqobatbardosh, malakali, doimiy o'zini takomillashtirishga intilladigan va kasbiy o'sishga, izlanishga harakat qiladigan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'liq. Ta'limga kompetensiyaga asoslangan jarayonga o'tish hayotning doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy-madaniy sharoitlariga muvaffaqiyatli moslasha oladigan, butun faoliyati davomida o'z-o'zini tarbiyalab boradigan, mustaqil izlanuvchi va ijodkorlikni namoyish etadigan

o'qituvchini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu aspektlarni inobatga olib zamonaviy pedagogik ta'lif tizimida o'quvchi – bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog'liq hamda dolzarb ahamiyatga ega. O'qituvchining kasbiy kompetensiyalari masalalari bo'yicha tadqiqot va izlanishlar olib borgan so'nggi o'n yillik-dagi quyidagi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini ko'rib chiqish mmkin: E.N.Bondarenko, I.S.Gavrilova, Z.U.Zavzanova, T.A.Zotova, E.V.Ivanova, I.A.Patronova, T.V.Rixter, I.Z.Skvorodkina, N.A. Checheva, Yu.A. Shupletsova, Civis Saragosa Mireia, Diaz-Gibson Jordi, Fontanet Caparros Annabel va boshqalar.

Kompetensiyalar - bu shaxs o'zining kasbiy, ilmiy yoki ijtimoiy faoliyatini amalga oshirishda ta'lif jarayonida qo'llaydigan qobiliyatlar to'plami. E.N.Bondarenko qayd etishicha o'qituvchining pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lishi uchta yo'nalish bilan bog'liq: o'zining o'quv intizomini bilish, ta'lifni boshqarish, ta'lif tizimi va uning muhitini anglashdir. "Kasbiy kompetensiyalar" tushunchasining mazmunini tadqiqotchi T.A.Zotova "o'qituvchining fan (kasbiy) kompetensiyalari -pedagogik moslashtirilgan ilmiy bilimlar, faoliyat usullari (metod bo'yicha harakat qilish qobiliyati); muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribasi; tabiatga, jamiyatga va insonga hissiy va qadriyatlarga asoslangan munosabat tajribasi tizimini ifodalaydi.

Tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash jarayonida quyidagi omillarning ta'sirini hisobga olish zarur: ta'lif yo'nalishi, o'qituvchining kasbiy faoliyati sohasi, obyekt va turlar; davlat ta'lif standartida taqdim etilgan kasbiy vazifalar va umumiy kasbiy vakolatlar.

O'qituvchi: ta'lif sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va kasb etikasi standartlariga muvofiq kasbiy faoliyatni amalga oshirishga; o'quvchilarning, shu jumladan alohida ta'limga muhtoj bo'lganlarning birgalikdagi va individual o'quv va ta'lif faoliyatini tashkil etishga; o'quvchilarni asosiy milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni amalga oshira olishga; o'quvchilarning ta'lif natijalarini shakllantirishni nazorat qilish va baholashga; kasbiy faoliyatda psixologik-pedagogik texnologiyalardan foydalana olishga; ta'lif dasturlarini amalga oshirish doirasida ta'lif munosabatlari ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatda bo'lishga; maxsus ilmiy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni amalga oshira olishga bog'liq bo'lgan kompetensiyalar ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish tarix fani o'qituvchisining quyidagi kasbiy kompetensiyalarini aniqlash imkonini berdi: O'quv faniga oid va uslubiy ko'nikmalarga (kartografik, xronologik, tahliliy, uslubiy va boshqalar) ega bo'lish.

Tarix fanidan o'quv va tarbiyaviy ishlar; ta'lif tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib borish jarayonida tarixiy bilimlarni qo'llash qobiliyati; mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash, malaka va kasbiy mahorat darajasini oshirish qobiliyati; tarix fanidan o'quv va sinfdan tashqari ishlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati va istagi; kasbiy sohada loyiha faoliyatiga qobiliyat va doimiy tayyorlik.

Tarix o'qituvchisining kasbiy vazifalari va kompetensiyalari o'rtaidagi bog'liqlik belgilari:

a) ta'lif sifatini ta'minlash uchun, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lif muhiti uchun imkoniyatlar yaratish - ijtimoiy fanidan o'quv va sinfdan tashqari ishlarda zamonaviy AKTdan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligi;

b) yosh xususiyatlarga mos keladigan va bilim sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi texnologiyalardan foydalangan holda ta'limga sohasida o'qitish va ta'limga tashkil etish - tarix fanidan o'qitish va tarbiyaviy ishlarning sifatini ta'minlash uchun fan va uslubiy ko'nikmalarga ega bo'lish; ta'limga tashkilotlarida o'quv-tarbiya ishlarni olib borish jarayonida tarixiy bilimlarni qo'llash qobiliyat;

c) o'quvchilarning ta'limga sohasidagi imkoniyatlarini, ehtiyojlarini, yutuqlarini o'rganish va olingan natijalar asosida o'quv dasturlari, fanlari va individual ta'limga, ta'limga, rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish-kasbiy sohada "Ta'limga loyiha" faoliyatiga qobiliyat va tayyor-garlik;

d) kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va shaxsiy o'sishni amalga oshirish, keyingi ta'limga yo'nalishini va kasbiy martabasini loyihalash - mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallah, malaka va kasbiy mahoratni oshirish qobiliyat;

"Tarix" ixtisosligi va "Pedagogik ta'limga" tayyorlash sohasi bo'yicha davlat ta'limga standartlari tarix o'qituvchisining quyidagi fan va uslubiy mahoratini aniqlash imkonini berishi kerak:

xronologik (tarixiy xronologiya bilan ishslash qobiliyat);

kartografik (tarixiy xarita bilan ishslash qobiliyat);

analitik (tarixiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, sabab (sabab-oqibat) munosabatlari ni aniqlash, turli tarixshunoslik maktablari tushunchalarini tanqidiy idrok etish qobiliyat);

tarixshunoslik, manbashunoslik va bibliografik tahlil qilish qobiliyat);

nazariya va o'qitishning dolzarb muammolarini tahlil qilish qobiliyat);

maktab tarixini o'qitish usullari va boshqalar);

uslubiy (tarixni o'qitishda pedagogik jihatdan asoslangan texnologiya va usullarni tanlash va qo'llash qobiliyat);

ta'limga natijalarini baholashning zamonaviy vositalaridan foydalana olish; tarixiy tadqiqot metodologiyasi va usullarini egallah;

ishchi o'quv dasturlarini tuzish metodikasini egallah;

texnologik dars xaritalari tarixiy ta'limga standartlarini qo'llash qobiliyatini fan bo'yicha o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarning fuqarolik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishni tarix o'quv predmeti orqali amalga oshirish;

ma'lumot (ma'lumotni qidirish, qayta ishslash va undan foydalanishning zamonaviy usullariga ega bo'lish: sharhlar, izohlar, tezislар, bibliografiyalar tuzish;

ma'lumotni sharhlash va uni qabul qiluvchiga moslashtirish qobiliyat);

tarixiy ta'limga tarmoq sifatida o'rganish uchun turli manbalardan foydalanish qobiliyatni ilmiy bilimlar va boshqalar);

taxminiy (tarix o'quv fanining ta'limga, tarbiya va rivojlanish imkoniyatlarini oldindan taxmin qilish qobiliyat, tarixni o'rganish jarayonida talabalar uchun yuzaga keladigan qiyinchiliklar;

o'qitish va tarbiyalashning turli texnologiyalari va usullaridan foydalanish samarasini

tahlil qilish) .

Tarix o'qituvchisi keng tarixiy dunyoqarashi va tarixiy faktlardan mohirona foydalanishi tufayli turli xildagi o'quv mashg'ulotlari va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarning fanga bo'lgan bilim qiziqishini uyg'otishi, davlatimiz an'analariga hurmat tuyg'usini shakllantirishi, vatanparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy yoshlarni tarbiyalashdir.

Mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, malaka va kasbiy mahorat darajasini oshirish qobiliyati kompetensiyasi shaxsning bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini tashqi yordamisiz o'zlashtirish qobiliyatidir.

Tarixni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish raqamli ta'lif muhitini tashkil etish va maktab tarixini o'qitish sifatini oshirish, o'quvchilarning fanga kognitiv qiziqishi va motivatsiyasini rag'batlantirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari audio va videomateriallar, rangli illyustrativ materiallar, turli manbalar va animatsion tarixiy xaritalar yordamida tarix darslarini "jonlantirish", ularni zamonaviy, qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradi. O'qituvchining tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish istiqbollari xilma-xil va cheksizzir (o'quv veb-saytlari, interfaol o'yinlar, elektron multimedia darsliklari va boshqalar), ulardan o'quv va tarbiyaviy jarayonda samarali foydalanish ko'p jihatdan o'quv-tarbiyaviy texnologiyalarga bog'liq.

Kasbiy sohada loyiha faoliyatiga qobiliyat va tayyorlik kompetensiyasi o'qituvchining o'z o'quv faoliyatini loyihalash, prognozlash, tahlil qilish va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatida, shuningdek, fan bo'yicha turli toifadagi o'quvchilar uchun individual o'quv yo'nalishlarini loyihalashda namoyon bo'ladi. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, intellektual rivojlanish darajasi va yutuqlarini hisobga olgan holda ish o'quv dasturlari va individual o'quv yo'nalishlarini loyihalash; tarix o'quv fanining mazmunini, o'qitish va tarbiyalash texnologiyalari va usullarini, ta'lif natijalarini baholashning zamonaviy vositalarini loyihalash; kasbiy mahorat, o'zini o'zi tarbiyalash va shaxsiy o'sishni loyihalash; tarix fanidan tadqiqot loyihalarini yaratish qobiliyatini shakllantiradi. Loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish - bu o'qituvchi shaxsini o'z-o'zini anglashning murakkab va ayni paytda tabiiy jarayoni bo'lib, u kelib chiqish, shakllantirish va takomillashtirish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Loyihalash o'qituvchi faoliyatining bir turi sifatida xususiyatlari: qizg'in intellektual mehnatni ifodalaydi; loyihalash ijodkorlik, zukkolik va izlanuvchanlikning namoyon bo'lishini o'z ichiga oladi. Pedagogik ta'lif tizimida bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tegishli bosqichlarni – o'quv jarayonidagi nazariy-uslubiy tayyorgarlikdan tortib, uni maktabdagi o'quv faoliyati va sinfdan tashqari ishlarda amaliy amalga oshirishgacha bo'lgan bosqichlardan o'tadi. Sinfdan tashqari ishlar tarix o'quvchisining turli faoliyat turlari bo'yicha malakalarini amalga oshirish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Demak, olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini o'qitishga tayyorlash ularning bilim malaka sifatini oshirish uchun fanlardan tayyorlangan ishchi o'quv dasturlariga zamonaviy ta'lif talablaridan kelib chiqib kasbiy kompetensiyalar kiritilishi kerak. Oliy pedagogik ta'lif tizimida bo'lajak tarix o'qituvchisining kompetensiyalarini rivojlantirish va tarbiyalash talablarini XXI asr ko'nikmalar hamda talablariga moslashtirish. Kasbiy kompetensiyalar bo'lajak o'qituvchini shakllan-

tirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning kasbiy tayyorgarlik darajasini, mehnatga, o'ziga bo'lgan munosabatini tavsiflaydi va o'qituvchilik faoliyati samaradorligiga ta'sir qildi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Bondarenko E.N. Dunyoning turli mamlakatlaridagi zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari haqidagi qarashlar // Bugungi kunda oliy ta'lrim. 2009-yil. № 1. 42–44-betlar.
2. Zotova T.A. Pedagogika oliy o'quv yurtlari tarix talabalari o'rtasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish xususiyatlari // Fan, madaniyat, ta'lim olami. 2010-yil. № 1(20). 179–181-betlar.
3. Rixter T.V. Pedagogika universiteti talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish // Fan va ta'lim istiqbollari. 2014-yil. No 3(9). 73–75-betlar
4. <https://infourok.ru/sovremennye-trebovaniya-k-professionalizmu-uchitelya-istorii-i-obshhestvoznaniya-v-usloviyah-sovremennoj-sstemy-obrazovaniya-6985344.html>
5. https://pushkino.ecvdo.ru/states/kakie-kompetencii-neobhodimy-sovremennomu-uchitelyu-istorii-i-obshhestvoznaniya?__cf_chl_tk=9ZtiJADB6tSu5FBkS4b5MvlusE_uT4Lh1Elfhs0FvSQ-1721885946-0.0.1.1-3775

КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Садикова Фируза Махмудовна
ТИҚҲММИ МТУ “Профессионал таълим”
кафедраси п.ф.ф.д.(PhD) доцент.в.б.
Sadikovafiruza1974@.com

Аннотация. Ҳозирги кунда илмий техник тараққиётнинг инновацион ривожланиши, билимларнинг тезлик билан янгиланиши бўлажак мутахассисларнинг замонавий шароитларга тез мослашиши ҳамда ўқув-билиш мотивларини эгаллашларига интилишини талаб этади. Бу эса талабаларни мустақил изланишга, касбий муаммоларни мустақил ечиш, унга ижодий ёндашишга ўргатиш заруриятини туғдиради. Шунинг учун ҳам бугунги кунда ижодкор креатив фикрловчи мутахассисларни тайёрлаш жараёни узлуксиз таълим тизимининг энг асосий вазифаларидан бўлиб, бунда компетенциявий ёндашув асосида талабаларнинг ижодий фаолиятини такомиллаштириш муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади.

Калит сўзлар. Таянч, умумкасбий ва маҳсус-касбий компетенциялар, креатив фикрлаш, мустақил таълим, касбий педагогик ижодкорлик, мотивация, касбий педагогик фаолият.

Кириш. Ўзбекистонда халқаро таълим стандартлари асосида олий малакали мутахассисларни тайёрлаш учун зарур шарт-шароитлар яратилмоқда. Хусусан, олий

таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида «индивидуал таълим траекторияларига асосланган, талабаларда креатив фикрлаш, амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган ўқув режалар ишлаб чиқиш орқали талабалар қизиқишлиари ҳамда кадрлар буюртмачилари эҳтиёжларига мувофиқ таълим дастурларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш»¹ каби муҳим вазифалар белгиланган. Бу эса бўлажак мутахассисларнинг касбий тайёргарлиги сифатини ошириш билан бир қаторда, олий профессионал таълим соҳасида бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларининг мустақил ижодий фаолиятини ривожлантириш заруратини юзага келтиради. Мустақил таълимни ташкил қилишга бўлган янги ёндашувлар талабалар нафақат сунъий вазиятларни, балки ҳақиқий амалий топшириқларни ҳал қилишларини назарда тутади. Бунда улар нафақат профессор-ўқитувчидан, балки бир-бирларидан ўрганадилар, жумладан, турли хил ахборот базалари билан ишлайдилар, танқидий фикр юритишни ҳамда танланган ечим учун жавобгарликни бўйинларига олишни ўрганадилар, ўзларининг шахсий касбий нуқтайи назарларини шакллантирадилар.

Давлат таълим стандартларида олий таълим тизимида профессионал таълим соҳа йўналиши талабаларнинг касбий-педагогик фаолиятида ўқитувчилик, тарбиячилик, ўқув-методик, ишлаб чиқариш, илмий-тадқиқот вазифаларини амалга ошириши кўзда тутилган.

Талабаларда таянч, умумкасбий ва маҳсус-касбий компетенцияларни шакллантириш ва касбий-педагогик ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришда таълим мазмуни, ўқув режа, дастурлар, таълим шакли, метод, воситалари ва дарсликлар, электрон ахборот таълим ресурслари ҳамда бошқа дидактик материаллар, ўқув-методик қўлланмалар, лаборатория жиҳозлари, таълим технологиялари ва бошқалардан фойдаланиш асосида аниқланади. Натижада етук, малакали кадрларнинг мустақил ва режали асосда ўз устида ишлаши, касбий ва ижодий фаолият компетенцияларини изчил ривожлантириб боришини таъминлашга эришилади. МДҲ мамлакатларида олий таълимда педагогларни тайёрлаш жараёнида ижодий қобилиятларни фаоллаштириш ва ривожлантириш масалалари Л.А.Буровкина, Е.А.Зновенко², Е.А.Лапина, И.В.Динерштейн³ ва бошқаларниниг тадқиқотларида кўриб ўтилган. Профессионал таълими жараёнида касбий маҳоратга эгаликни тарбиялашнинг ўзига хослигини В.А.Караковский, В.А.Левина, О.А.Халифаева, Н.М.Яковлева ва бошқаларнинг тадқиқотларида кузатиш мумкин. Таълим жараёнида ижодкорлик ва коммуникативликнинг баъзи аспектлари Д.П.Кохановская, А.М.Лещенко, В.В.Мороз, А.П.Тряпицина, И.М.Файзрахманова, М.Б.Ўрозова⁴ тадқиқотларида ўрганилган ва таҳлил этилган.

¹ 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Фармони

² Буровкина Л.А., Зновенко Е.А. Формирование творческих способностей учащихся на занятиях изобразительным искусством // Инновационные технологии в науке и образовании: материалы IV Междунар. науч.-практ. конф. Редкол.: О.Н. Широкови др. – Чебоксары: ЦНС “Интерактив плюс”, 2015. – С. 121-123.

³ Динерштейн И.В. Проблема соотношения общих и специальных творческих способностей в школьном возрасте: Автореф. дисс. ...канд. психол. наук. – М., 2002. – 22 с.

⁴ Ўрозова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳала фаолиятигатайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. пед. фан.докт. дисс.... автореф. – Тошкент: 2015.

Мустақил иш ва ахборот-коммуникация технологияларининг ўзаро алоқаси ахборот тармоқларидир. У кутубхоналар ва ахборот-ресурс марказларининг маълумотлар базасидан маълумотларни излаш, уларни қайта ишлаш, мустақил ишни мувофиқ шаклга келтириш, мавжуд муаммоларни касбий ҳамжамиятларда муҳокама қилиш ва материаллар билан алмашиш зарурлиги билан изоҳланади. Аудитория ишининг камайиб, мустақил иш ҳажмининг ортиши таълим мақсадлари ўзгаришларига боғлиқ - билимларни пассив қабул қилиш ўrniga талаба уларга мустақил эришиши керак, бу унга касбда мобил бўлиш, ижодий фаолиятини ривожлантириш ва умри давомида мустақил таълим олиш имконини беради.

Талабалар мустақил ишлаши ҳажмининг ортишига олий таълим муассасаларининг технологик модернизацияси (технологияларни мустақил ўзлаштириш), касбий тайёргарликнинг узлуксизлиги, олий таълим муассасаларининг тармоқли ўзаро алоқаси ва виртуал академик мобиллик (фанларни мустақил ўрганиш), минтақавий таълим (мехнат бозори талабларини мустақил аниқлаш, таълим траекториясини куриш ва касбда ўзини намоён этиш) хизмат қилади. Бу эса талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини: ўз шахсий фаолиятини ташкил қилиш, касбий масалаларни ечиш усувларини белгилаш, уларнинг самарадорлиги ва сифатига баҳо бериш, таваккалга баҳо бериш ва ностандарт вазиятларда қарор қабул қилиш, касбий масалаларни ўз олдига қўйиш ва уларни ҳал қилиш, касбий ва шахсий ривожланиш учун зарур ахборотни излаб топиш, таҳлил қилиш ва баҳо беришни амалга ошириш, касбий ва шахсий ривожланиш масалаларини мустақил равишда белгилаш, мустақил таълим билан шуғулланиш, онгли равишда малака оширишни режалаштиришни тақозо этади. Талабаларнинг мустақил ишлаши ва ижодий фаолиятини олиб бориш сифати ўқитувчи томонидан унинг ташкил этиш методикасининг ишлаб чиқилиши, тайёрланиши, амалга оширилиши ва унинг талабалар томонидан бажарилиш сифати билан таъминланади.

Педагогларнинг илғор тажрибалари келтирилган илмий-амалий конференция материалларининг таҳлили кўрсатишича, талабалар мустақил фаолиятларини ташкил қилиш муаммосига кўпгина нашрлар чиқарилган бўлиб, уларда мустақил ишни бажаришда талабаларнинг мустақил ишларини ташкил қилиш муаммосига бағишланган. Касбий таълим ва олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари талабаларнинг мустақил ишини ташкил қилиш ва режалаштириш, талабалар билан ишлашда аудитория ва аудиториядан ташқари мустақил иш ташкил қилишнинг турли шакллари, усувлари ва йўлларини қўллаш бўйича тажриба алмашадилар. Талабалар мустақил иши натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш масалалари ёритилади.

Талабаларнинг мустақил ишини ташкил қилиш мураккаб ва кўп ўлчовли жараён бўлиб, у ўз ичига бўлғуси талабада мотивация ва касбий нуқтайи назарни, ўкув фанларини ўзлаштириш жараёнига мустақил ишни қўшишни ҳамда мустақил иш натижаларини назорат қилиш шаклларини танлашни олади. Бундан келиб чиқиб, талабаларнинг мустақил ишини ташкил қилиш уни муваффақиятли бажариш боғлиқ бўлади деган фикр келиб чиқади. Талабалар мустақил ишини ташкил қилиш таълимда узлуксизлик, тартибилик ва кетма-кетликни таъминловчи режалаштиришни ўз ичига олади. Мавзу режасини тузиш талабалар мустақил ишини ташкил қилишнинг бошланғич босқичи бўлиб, у ўкув материалини тушуниб этиш, унинг мураккаблик даражасига баҳо бериш, топшириқларни бажариш учун зарур бўлган вақт меъёрини аниқлаш, таълим воситалари ҳамда талабалар мустақил ишини

ташкил қилишнинг шаклларини танлаб олишни ўз ичига олади.

Бундан кўриниб турибдики, жадал ривожланаётган ахборот жамиятида мустақил таълим олиш у ёки бу мутахассисликни эгаллашнинг ажралмас таркибий қисмига айланмоқда. Бу мақсадда таълим технологияларини ўзгартириш, таълим шаклларини такомиллаштириш зарур бўлиб, назаримизда, айнан шу таълим оловчиларда мустақилликни фаоллаштириши ва ривожлантириши, улар томонидан таълим олишнинг индивидуал траекториясини танлашга имкон бериши мумкин. Дарҳақиқат, мустақил таълим олиш кўникмаларини эгаллаш малакали мутахассисларни тайёрлашнинг муҳим таркибий қисмини ташкил қиласди. Зеро, бугунги жадал ривожланаётган жамиятда эгалланган билим ва кўникмалар тез эскириб қолади, пировардида, мустақил таълим олишга қодир бўлмаган мутахассис замонавий талабларга жавоб бермай қолиши мумкин. Буларнинг ҳаммаси таълим оловчилар мустақил ишини ташкил қилишга психологияк-педагогик ёндашувларни қайта кўриб чиқишини ва ўзгартиришни талаб қиласди.

Таълим оловчилар мустақил ишининг самарадорлиги, бизнинг назаримизда, бир қатор шартларга боғлиқ, хусусан, мустақил ишни аниқ режалаштириш, ташкил қилиш ва ўз вақтида назорат қилиш ва ҳоказо. Бу ўз навбатида, мустақил, ижодкор шахсни босқичма-босқич ривожлантиришни таъминлайди.

Аудиториядан ташқари мустақил иш соатларининг сони 50% гача ошганлиги сабабли, бизнинг назаримизда, бир тарафдан мустақил ишни методик таъминлашни янгилаш зарур бўлса, иккинчи тарафдан таълим оловчиларни мустақил ишни бажаришга мотивация қилиш (ундаш) керак. Замонавий талаба ўз вақтининг аксарият қисмини Интернет тармоғида ўтказади, демак, Интернет-ресурслар, электрон ресурслардан фойдаланиш аудиториядан ташқари мустақил иш топшириқларини олиш ҳамда талаба қаерда бўлишидан қатъи назар: кутубхона, аудитория, уйда ёки кўчада бўлсин уларни бажариш имконини беради.

Шундай қилиб, мустақил ишнинг аҳамияти етарли даражада ошган бўлиб, ҳозирги кунда талabalарнинг мустақил иши таълим жараёнининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Мустақил иш орқали талabalарда билишга оид фаолият билан шуғулланишга билим ва кўникма, кейинчалик эса билим олиш усусларини ўзлаштириш, ижодий ишга қизиқиш пайдо бўлади, бунда талabalар мустақил ишини ташкил қилиш талабани фаолият усусларининг “фаол ишлаб чиқарувчиси” вазиятига ўтказишга, турли шакллардаги машғулотларда ўз фикрига эга бўлишга имкон бериши, улар эса ўз навбатида умумий, коммуникатив ва касбий компетенцияларни эгаллашга ёрдам бериши зарур.

Бунда профессор-ўқитувчининг ҳам вазияти ўзгариб, ундан янги роллар, яъни таълим жараёнида тыютор, маслаҳатчи кабиларни эгаллашини талаб қиласди. Бу эса мустақил иш улушининг ортиши ва индивидуал таълим йўналишларига ўтиш шароитида таълим оловчилар билан ўзаро алоқадорликнинг янги асоси бўлиб хизмат қиласди. Шунингдек, профессор-ўқитувчи муаммоларни ҳал қилиш ва талаба касбий фаолиятига ижобий ўзгаришларни жорий қилиш бўйича таълим оловчилар билан ўзаро алоқадорликни ташкил қилувчи маслаҳатчи ролини эгаллайди. Бунда профессор-ўқитувчи машғулотларни бошлаш жараёнида ахборот берувчи эмас, ёрдамчига айланади, яъни у педагогик муроқот бўйича шерик сифатида талabalарнинг билишга оид фаолиятини йўналтиради.

Талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишдаги асосий вазифа хар қандай шаклдаги машғулотда интеллектуал ташаббус ва тафаккурни ривожлантириш учун психологик дидактик шароитларини яратишдан иборатдир. Талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишдаги бош тамойил талабаларни индивидуал ишлашга уринишларини таъминлаш керак. Бунда айrim топшириқларни нормал ва пассив бажаришдан уни онгли ва фаол бажарилиш сари йўллаш асосий ўрин тутиши керак.

Талабаларнинг мустақил ишларини мақсади аввал ўқув мазмуни билан, кейин эса илмий ахборотлар билан англаб хамда мустақил ишлашга ўргатиш, ўз-ўзини йўналтириш ва ривожлантириш асосларини, кейинчалик ўз малакасини мунтазам равишда ошириб бориш кўнижмасини ҳосил қилишдир.

Биз педагогларнинг зиммамизга юклатилган асосий вазифалардан бири талабаларга чукур билим бериш билан бирга уни мустақил ишлашга, мустақил китоб ўқишига, мустақил билим олишга, эркин фикр юритишга жалб этишдан иборатдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги ПФ - 5847 - сонли Фармони // www.lex.uz.
2. Буровкина Л.А., Зновенко Е.А. Формирование творческих способностей учащихся на занятиях изобразительным искусством // Инновационные технологии в науке и образовании: материалы IV Междунар. науч.-практ. конф. Редкол.: О.Н. Широкови др. – Чебоксары: ЦНС “Интерактив плюс”, 2015. – С. 121-123.
3. Динерштейн И.В. Проблема соотношения общих и специальных творческих способностей в школьном возрасте: Автореф. дисс. ...канд. психол. наук. – М., 2002. – 22 с.
4. Ўрозова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. пед. фан.докт. дисс.... автореф. – Тошкент: 2015.
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М. «Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик» модули бўйича ўқув-услубий мажмуя.Т., 2016.–147 б

PISA XALQARO O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI BAHOLASH TADQIQOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Sakibayeva Tahmina Ilhamjanovna
Xalqaro Nordik universiteti magistranti
tahminasakibayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “PISA” xalqaro o’quvchilarning bilim darajasi va aqliy salohiyatini baholovchi dasturining tarixiy konsepsiysi, qo’llanilishi bosqichlari, rivojlanishi yo’nalishlari, maqsad va vazifalari hamda mamlakatlarning ta’lim tizimiga ta’sir ko’rsatadigan muhim jihatlari tahlili statistik tadqiqot metodidan faol foydalangan holda amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, ta’lim tizimi, strategik loyihalar, jamiyat, o’qish va tushunish qobiliyati.

Аннотация: В данной статье рассмотрены историческая концепция, этапы применения, направления развития, цели и задачи программы «PISA» для оценки уровня знаний и умственного потенциала иностранных студентов, а также статистический анализ важных аспектов, влияющих на Система образования стран осуществлялась путем активного использования исследовательского метода.

Ключевые слова: PISA, система образования, стратегические проекты, общество, чтение и понимание.

Annotation: In this article, the historical concept, stages of application, directions of development, goals and objectives of “PISA” program for assessing the level of knowledge and mental potential of international students, as well as a statistical analysis of important aspects that affect the education system of countries was carried out by actively using the research method.

Key words: PISA, education system, strategic projects, society, reading and comprehension.

Kirish


Globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsion davrda jahondagi ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta’lim orqali esa jamiyatda kelajakdagи vazifalarni bajarishga qodir bo’lgan yangi avlod shakllantiriladi. Dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi “PISA” (O’quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o’qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi qator xalqaro dasturlar mavjud bo’lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo’llanilib kelinmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-sonli Farmonida O’zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib “PISA”

Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo'yilgan¹. PISA dasturi 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Tadqiqot texnik standartlariga muvofiq 15 yosh-u 3 oylikka to'liq to'lgan va 16 yosh-u 2 oylikka to'lganlar o'rtasidagi yoshlari, shu jumladan, mamlakatdagi har qanday ta'limga muassasa-dagi o'quvchilar haqida gap boradi. 2024-yildagi asosiy sinovlar davrida taxminan 2008-yilda tug'ilgan o'quvchilar ishtirok etadi. Har bir ta'limga muassasasidan kamida bir nafar o'quvching ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Xalq ta'limga tizimining strategik maqsadlari belgilab qo'yilgan va ularni bir qator tamoyillarga ajratish mumkin. Bular: umumta'limga tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi; ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'limga olish imkoniyatini yaratish; inson kapitalini mehnat bozorida, xususan, mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini oshiruvchi asosiy omil sifatida belgilangan. "PISA" xalqaro baholash tadqiqotining O'zbekistonda tashkil etilishi va unga mas'ul vazirlik hamda idoralar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" tomonidan o'tkaziladigan "PISA" va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi to'g'risida"gi qarori bilan belgilab qo'yilgan.

"PISA" xalqaro o'quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning ilm-fan jamiyati talablariga javob berishi qanday holatda? Dasturning bosh maqsadi esa, o'quvchilarning mакtabda o'rganayotgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi qanday holatda ekanligini aniqlashdan iborat. "PISA"da o'quvchilarning bilim sifati monitoringgi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi (1-rasm):



1-rasm: "PISA" dasturida o'quvchilarning bilim darajasini baholovchi yo'nalishlar.

"PISA" dasturining vazifasi unda ishtirok etuvchi davlatlarning ta'limga mas'ul vazirlik va idoralarining oldida turgan quyidagi savollarga javob topishida yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-571 2-sonli farmoni.

- o'quvchilar majburiy ta'lif so'ngida demokratik jamiyatda faol fuqarolik faoliyatini amalga oshirishda yetarlicha tayyorlanganmi?
- o'quvchilar o'z g'oya va tasavvurlarini tahlil qilish, asoslash va shular asosida muloqot qila olish ko'nikmasiga egami?
- o'quvchilar hozirgi kuchli raqobatga ega bo'lgan mehnat bozori talablari asosida maktabda ta'lif olyaptimi?

Savodxonlik deganda o'quvchining matn ko'rinishidagi axborotni tushunishi va unga javob bera olishi, bilim darajasini oshirishi va o'qigan ma'lumotlaridan jamiyat hayotining faol ishtirokchisi sifatida foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi tushuniladi. Bu jarayonda savodxonlik tushunchasi keng ma'no kasb etdi. Bu yerda o'quvchining savodxonligi ma'lum bir badiiy asardan parcha, hujjatlar, turli xatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, turli o'quv qo'llanmalar, turli mavzudagi geografik xaritalar, jumladan, sxemalar, rasmlar, grafik va jadvallarda berilgan matnni tushunish, uning mazmuni haqida fikr yuritish, matn mazmunini baholash va o'qigan ma'lumotlar haqida shaxsiy fikrlarni realizatsiya qilish qobiliyati kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu bo'limda biz tadqiqot mavzusiga aloqador bir nechta mahalliy va xorijiy tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari tahlilini amalga oshirib, tahlil natijada umumiy xulosalar berib o'tiladi. "PISA" xalqaro o'quvchilarning bilim darajasi va aqliy salohiyatini baholovchi dasturining rivojlanish bosqichlari nomli mavzusi doirasida bir qator xorijiy tadqiqotchilar, xususan, L.Sholikah va F.N.Pertiwi², J.Anderson, Huann-Shyang Lin, D.Treagust, Sh.Ross va Lyore³, B.Boman⁴, E.Enchikova, T.Neves va G.Nata⁵ kabi olimlarning tadqiqotlari o'rganildi. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari ham, xususan, M.Abdukayumovna⁶, Sh.Lavhitdinova⁷, D.Usmonov⁸ kabi tadqiqotlari ustida tahlil amalga oshirildi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadqiqotchi olimlar mavzuyimizga aloqador bir qancha asosiy va muhim fikrlarni ilgari surgan. Xususan, "PISA" baholash tadqiqotining amaliy yo'naltirilganligini L.Sholikah va F.N.Pertiwi kabi tadqiqotchi olimlar quyidagicha xossalarga ajratishdi:

- Ta'lif siyosati yo'nalishini belgilash;
- Innovativ "savodxonlik"ni oshirish;
- O'quvchilarning ta'limga butun hayoti davomida o'zaro qat'iy munosabatda bo'lishi;
- Tizimlilik – doimiylik;

² Analysis of science literacy ability of junior high school students based on programme for international student assessment (PISA), Journal of PlumX Metrics, Vol. 2 No. 1, 2021-06-07. <https://doi.org/10.21154/insecta.v2i1.2922>.

³ Using large-scale assessment datasets for research in science and mathematics education: programme for international student assessment (PISA). received: 30 may 2007; accepted: 30 may 2021.

⁴ Cognitive skills and economic growth in the twenty-first century: Evidence from PISA and cognitive ability studies. International Journal of Educational Research Open. December 2024

⁵ Change in socioeconomic educational equity after 20 years of PISA: A systematic literature review. International Journal of Educational Research OpenDecember 2024.

⁶ Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning pisa xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni. Journal of "Development of pedagogical technologies in modern sciences". International scientific-online conference 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10408447>.


⁷ Xalqaro baholash dasturlari (PISA) talablari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodikasi. Journal of "Filologiya masalalari - yosh tadqiqotchilar nigozida". 23 fevral 2024yil.

⁸ Xalqaro baholash dasturlari. Journal of "Interdiscipline innovation and scientific research conference" Vol.2 No.21: 15 iyun 2024 yil.

- O'qituvchilardan o'quvchilarga o'quv jarayonida beriladigan topshiriqlarining sifatini baholash va topshiriqlarning berilishini nazorat qilishdir.

Tadqiqot natijalarida maktab ta'liming hukumat miqyosida ko'rib chiqilishida yo'nalishlarni belgilab olishiga sifatli va ishonchli ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlanishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tishgan. Shuningdek, ular tadqiqot natijalarida ishtirok etuvchi davlatlarning ta'lim siyosatiga katta ta'sir ko'rsatib, ta'lim siyosatining yo'nalish tanlashiga katta turtki berishini aytib o'tishgan. Shuningdek, E.Enchikova va uning hammualliflarining ilmiy izlanishlarini tahlil qilgan holda shuni ta'kidlash joizki, PISA dasturi bo'yicha to'plangan jami ko'rsatkichlar 50 balldan oshishi, har yillik yalpi ichki mahsulot (Yalm) ning 1% ga o'sishini ko'rsatishini aytib o'tishgan.

Shuningdek, mamlakatimiz tadqiqotchi olimlarimiz ham ushbu mavzuda bir qator muhim izlanishlarni amalga oshirib, ular amalga oshirgan natijalar asosida kelib chiqqan xulosalar tadqiqotimiz mazmunini boyitishda faol ishtirok etdi. Xususan, tadqiqotchi olimlar PISA dasturining funksional savodxonlikni baholash modelini quyidagicha baholadilar (2-rasm);



2-rasm. O'qish savodxonligi (PISA) dasturining funksional savodxonlikni baholash modeli⁹.

Ushbu funksional savodxonlikni baholash modelinin asosiy maqsadi o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishish, bilim va salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyat hayotida samarali ishtirok etish uchun yozma tildan foydalanish qobiliyatini baholovchi asosiy komponent hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

"PISA" baholash tadqiqotlarining xususiyatiga, asosan, sinov bosqichi 2020-yilda mart-iyun oylarida 6 hafta yoki 42 kalendar kuni oraliq'ida o'tkazilishi belgilangan bo'lib, unda milliy markaz xalqaro pudratchilar bilan hamkorlikda 28 ta maktablardan 71-72 nafardan jami kamida 1992 nafar o'quvchilar tanlanib, tadqiqot uchun tanlab olinadi. Asosiy tadqiqotlar 2021-yilda 8 haftagacha yoki 56 kalendar kunlari orasida kompyuterga asoslangan holda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, unda "PISA" dasturi xalqaro pudratchilari tomonidan tasodifiy tanlov asosida 150 maktablardan 41 nafardan kamida 6300 o'quvchilar qamrab olingan.

⁹ D.Ulmonov "Xalqaro baholash dasturlari". Journal of Interdiscipline innovation and scientific research conference. Vol.2 No.21: 15 iyun 2024 yil.

Asosiy tadqiqotlardan 12 oy oldin 15 yoshli o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar bazalari shakllantirilib, milliy va xalqaro ekspertlar tomonidan sifat monitoringlari olib boriladi. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lif 7 ta tilda olib boriladi. "PISA" xalqaro baholash dasturi texnik standartlariga ko'ra, 2020-yilda sinov bosqichida 15 yoshlilarning kamida 5,2%, 2021-yildagi asosiy tadqiqotlarda kamida 0,7%ni qamrab olgan o'qitish tillarida baholashlar tashkil etilishi lozim. Dastlabki tahlil natijalariga ko'ra, umumiy o'rta ta'lif mакtablarida o'zbek tilidagi ta'lif 86,58%, rus tilida 8,74%, qoraqalpoq tilida - 1,9%, tojik tilida - 1,49%, qozoq tilida - 0,96%, qирғиз tilida 0,13%, turkman tilida 0,17 %ni tashkil etishini inobatga olinsa, 2020-yildagi sinov bosqichida o'zbek va rus tillarida, 2021-yildagi asosiy sinovlar esa o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik va qozoq tillarida tashkil etilishi lozim bo'ladi.

PISA-2018 xalqaro baholash dasturining murakkabligi va qiyinlilik darajasini saqlab qolish maqsadida o'qish savodxonligining tarkibiy shkalasi va har bir qo'shimcha shkalalari oltita darajaga ajratiladi. Mazkur darajalar, PISA-2000 tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilganidek, PISA-2009 va 2015 tadqiqotlarida sohaviy yo'nalişlarini baholashda qo'llaniladigan tarkibiy shkala uchun saqlab qolindi. Shunday bo'lsa-da, yangidan tuzib chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini yaxshilashga va PISA-2000 tadqiqotlari yuqori va past o'zlashtirish darajalarini oshirishga yordam berdi. Shunday qilib, ushbu shkalalarga 6-daraja qo'shildi va 1-daraja 1a va 1b darajalarga ajratildi.

1-jadval. PISA-2015 tadqiqotlarida berilgan tasnif asosida o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini ko'rsatuvchi darajalar¹⁰.


Daraja	O'quvchilar nima qila olishlari
6-daraja 698 1.1%	6-darajaga mansub o'quvchilar odatda batafsil va qisqacha xulosa chiqaradi, qiyoslay va zidlay oladi. Bunday o'quvchilar bir yoki bir necha matnlarni to'liq va batafsil tushunishni namoyish qiladi va matnlarda berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi. Topshiriqlarda o'quvchidan mavhum tushunchalarni umumlashtirish va bir-biriga zid ma'noli ma'lumotlardan iborat notanish mavzudagi murakkab matnni tanqidiy baholaydi. Mazkur darajada topshiriqlarni baholash va ajratib olish uchun kerakli shart matndan anglashilmagan ma'lumotlarga e'tibor qaratish va tahlil qilishdan iborat.
5-daraja 626 8.4%	5-darajaga mansub o'quvchi matndagi qaysi ma'lumot tegishli ekanini inobatga olib, murakkab tarzda berilgan ma'lumotni topib, tartibga sola oladi. Mazkur topshiriqlar o'quvchidan muayyan bilim va tajribalarga tayanib, tanqidiy baholash yoki mulohaza yuritishni talab etadi. Talqin etish va ta'riflashga qaratilgan topshiriqlar shakli yoki mazmuni noma'lum bo'lgan matnni to'liq va batafsil tushunishni talab etadi. O'qish savodxonligining barcha jihatlaridan kelib chiqib, ushbu darajada berilgan topshiriqlar odatda mavjud tushunchalarga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar bilan ishlashni taqozo etadi.

¹⁰ S.Zaripova, G.Xolboyeva "2022-yilgi PISA xalqaro dasturi natijalari: PISA xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash usullari", journal of European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume-26 April 2024. ISSN (E): 2720-5746.

4-daraja 553 29.5%	4-darajaga mansub o'quvchilar berilgan ma'lumotni topib, tartibga soladi. Shuningdek, ular butun bir matn bilan ishlash orqali uning alohida qismining tilga oid nozik jihatlarini talqin etadi. Boshqa ta'riflashga oid topshiriqlarda o'quvchi noma'lum konteksda berilgan kategoriyalarning tushunish va qo'llash ko'nikmasini namoyon qiladi. Bundan tashqari, bu darajadagi o'quvchi matnni tanqidiy baholash yoki u haqida mulohaza yuritish uchun rasmiy va ba'zan umumiylar bilimlaridan foydalanadi. O'quvchi shakli yoki mazmuni noma'lum bo'lgan murakkab yoki katta hajmdagi matnlarning to'g'ri tushunish ko'nikmasini ko'rsatishi lozim.
3-daraja 480 58.6%	3-darajaga mansub o'quvchilar ma'lum tamoyillar asosida tuzilgan bir necha ma'lumotlar orasidagi bog'lanishni topadi va ayrim hollarda tushunishga harakat qiladi. Shuningdek, ular matnning asosiy g'oyasini aniqlash, so'z yoki iboraning ma'nosini talqin qilish yoki bog'lanishni tushunish uchun matnning ayrim qismlarini umumlashtiradi. O'quvchilardan matndagi ma'lumotlarni qiyoslash, zidlash yoki tasniflashda qatnashadigan qator jihatlarga e'tibor qaratadi. Ko'p hollarda, talab etilgan ma'lumot ko'zga tez tashlanmaydi yoki matnda bir necha zid ma'noli ma'lumotlar mavjud bo'ladi yoki noto'g'ri talqin etilgan yoki mavjud g'oyalarga zid bo'lgan g'oyalalar kabi boshqa qarama-qarshiliklar (ixtilofli ma'lumotlar) mavjud bo'ladi.
2-daraja 407 82.0%	2-darajaga mansub o'quvchilar ayrim talablarga javob berishi mumkin bo'lgan va ma'nosi ham anglashilishi oson bo'lgan ma'lumotlarni topa oladi. Ular matnning asosiy g'oyasini, ular orasidagi bog'lanishlarni tushunadi yoki ma'lumotlarni ajratib ko'rsatilmagan matnning ayrim qismlari ma'nosini talqin qiladi va o'quvchi past saviyada xulosa chiqaradi. Mazkur darajada berilgan topshiriqlar matnning yuzaki jihatlari asosida qiyoslaydi yoki zidlaydi. Ushbu darajada berilgan odatdagagi mulohaza yuritishga oid topshiriqlar o'quvchidan shaxsiy tajriba va munosabatlariga tayanib, matnga oid yoki unga oid bo'lmagan bilimlar orasidagi o'xshashliklarni yoki tafovutlarni aniqlaydi.
1a-daraja 335 94.3%	1a-darajaga mansub o'quvchilar yaqqol ko'rsatib berilgan alohida ma'lumotlarni topa oladi, ma'lum mavzuga oid matnda keltirilgan muallifning maqsadi yoki matnning asosiy g'oyasini tushunadi yoki matndagi ma'lumot va kundalik, umumiylar bilimlarni bir-biriga bog'laydi. Odatda, matnda talab etilgan ma'lumot ajralib turadi va unda, ayrim hollarda, bir-biriga zid ma'lumotlar mavjud bo'ladi. O'quvchi topshiriqdagi va matndagi tegishli jihatlarni bevosita e'tiborga oladi.

1b-daraja	1b-darajaga mansub o'quvchi hikoya yoki sodda ro'yxatda bo'lgani kabi ma'lum konteksdagi sintaktik jihatdan sodda va hajman qisqa tuzilgan matnda yaqqol ko'rinish turgan alohida ma'lumotlarni topa oladi. 1b-darajaga xos matnlarda odatda o'quvchilarga yordam beradigan ko'rsatmalar (masalan, ma'lumotlarning takroran qo'llanilishi, tasvirlar yoki ma'lum belgilar) beriladi. Matnlarda bahsli xarakterdagi ma'lumotlar kam uchraydi. 1b-darajaga mansub o'quvchilar bir-biriga mazmunan yaqin ma'lumotlarni bir-biriga sodda tarzda bog'lash orqali matnlarni talqin qila oladi.
262	
98,7%	

PISA butunjahon baholash dasturi bugungi kunda dunyo hamjamiyatining eng ommabop tajribalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz bu dasturda 2021-yil qatnashishi e'lon qilingan edi. Xuddi shu 2021-2022-yilgi ta'lif jarayonida PISA butunjahon baholash dasturlarida tanlangan maktablar ishtirok etdilar. O'zbekistonning PISA-2022-yildagi tadqiqotida ishtirok etishga oid natijasi 2023-yil 5-dekabr kuni xalqaro darajada e'lon qilindi. Mazkur tadqiqotda 82 ta davlat qatnashib, O'zbekiston 80-o'rinni egalladi, ya'ni tadqiqotda O'zbekiston oxirgi 10 talikdan joy olgan. O'qish savodxonligi bo'yicha o'quvchilarning atigi 13,1 foizi 2-darajaga, 2,1% - 3-darajaga va 0,3% - 4-darajaga erishdi. Umuman olganda, o'quvchilarning 62,2% dan ortig'i savodxonlikning uchta yo'nalishi (o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy) bo'yicha eng pastki darajaga (2-daraja) ham erisha olmadilar. O'zbekiston har uch yo'nalish bo'yicha ham oxirgi o'ntalikdan joy olgan: matematik savodxonlik – 367 ball (dasturda qatnashgan mamlakatlar ko'rsatgan o'rtacha natija 474 ball), o'qish savodxonligi – 339 ball (o'rtacha ball – 481 ball), tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha – 361 ball (o'rtacha ball – 492 ball).



1-grafik. 2010-2023-yillar mobaynida 16 yosh va undan katta yoshdagagi aholining savodxonlik darajasi ko'rsatkichlari¹¹.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi(STAT.UZ). <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

Ushbu statistik ma'lumotlar 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida 16 yosh va undan kata yoshdagi aholining savodxonlik darajasi ko'rsatkichlari berib o'tilgan. Statistik ma'lumotlar natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, so'nggi 24 yil davomida aholining savodxonlik darajasi deyarli eng yuqori darajada bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich 2012-yilda 100% ko'rsatkich bilan, eng minimal daraja esa 2010-yilda 99,8% ko'rsatkich bilan ajralib turadi. Shuningdek, 24 yillik vaqt oralig'ida aholining umumiy o'rtacha savodxonlik darajasi 99,9% natijani ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Ilmiy izlanishlarimiz davomida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan har bir o'quvchiga 11 yillik ta'lif uchun taxminan 15300 dollar sarflanadi. Singapur (487 ball), Yaponiya (450 ball) va Estoniya (427 ball) kabi mammalatlarning eng kam ta'minlangan o'quvchilari (butunjahon o'Ichovlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda minimal 20 foizlik) matematikadan O'zbekistonning eng farovon hayot kechirayotgan o'quvchilaridan (butunjahon o'Ichovlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda eng yaxshi 20 foizlik) yaxshiroq.

Bundan ko'rinih turibdiki, matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha o'tkazilgan 2022-yilgi PISA xalqaro dasturi natijalari sohada qilinadigan ishlar hali ko'pligini aniq ko'rsatdi. Shuning natijasida, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston 2030-yilgacha PISA natijalari bo'yicha Top-30 davlat qatoriga kirishni rejalashtirmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'quvchilarga bilim va ko'nikmadan tashqari kompetensiyalar zarurligi xalqaro tajribada o'z ifodasini topgan. Maktab ta'lim tizimida o'rganilgan bilimlarni o'quvchilarning o'z shaxsiy, kasbiy va jamiyat hayotida qo'llay olishi "PISA" baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. "PISA" baholash tadqiqoti mazkur tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlar hukumatlari, ta'lim tizimiga mas'ul vazirliklar, idoralar va ta'lim tadqiqotchilari uchun ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun chora-tadbirlarni belgilashda ahamiyati kattadir.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi 997-sod "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.12.2019-y., <https://lex.uz/docs/4097073>
3. Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish va tashkil etish mavzusida qo'llanma // Namangan viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi, Ta'lim sifati monitoringgi bo'limi, 2019, B.30.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (STAT.UZ). <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
5. Bildungsmonitoring Schweiz: Für das Leben gerüstet? Die Grundkompetenzen der Ju-

- gendlichen-Nationaler Bericht der Erhebung // „PISA“ 2000. -182 pages.
6. Elley W. The IEA study of reading literacy : reading and instruction in thirty-two school systems// Oxford : Pergamon Press- 1994, p. 165.
 7. Lehmann P. Aspekte der Lernausgangslage und der Lernentwicklung.
 8. Analysis of science literacy ability of junior high school students based on programme for international student assessment (PISA), Journal of PlumX Metrics, Vol. 2 No. 1, 2021-06-07. <https://doi.org/10.21154/insecta.v2i1.2922>.
 9. Using large-scale assessment datasets for research in science and mathematics education: programme for international student assessment (PISA). received: 30 may 2007; accepted: 30 may 2021.
 10. Cognitive skills and economic growth in the twenty-first century: Evidence from PISA and cognitive ability studies. International Journal of Educational Research Open. December 2024
 11. Change in socioeconomic educational equity after 20 years of PISA: A systematic literature review. International Journal of Educational Research Open December 2024.
 12. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning PISA xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni. Journal of "Development of pedagogical technologies in modern sciences". International scientific-online conference 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10408447>.
 13. Xalqaro baholash dasturlari (PISA) talablari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodikasi. Journal of "Filologiya masalalari - yosh tadqiqotchilar nigozida". 23-fevral 2024-yil.
 14. Xalqaro baholash dasturlari. Journal of "Interdiscipline innovation and scientific research conference" Vol.2 No.21: 15-iyun 2024-yil.
 15. D.Usmonov "Xalqaro baholash dasturlari". Journal of Interdiscipline innovation and scientific research conference. Vol.2 No.21: 15-iyun 2024-yil.
 16. S.Zaripova, G.Xolboyeva "2022-yilgi PISA xalqaro dasturi natijalari: PISA xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash usullari", Journal of European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume-26 April 2024. ISSN (E): 2720-5746.

O'QITISH VOSITALARINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Sharopova Muhabbat Sotvoldiyevna
Farg'ona PMM MXK bo'limi biologiya fani metodisti

Annotatsiya. Maqlada o'qitish vositalaridan dars jarayonida foydalanish holatlari, o'quvchi-talabalarning ayni fanga bo'lgan qiziqishi, bilim, ko'nikma, malaka egallashlarida ko'rgazmali qurollarning o'rni, xotirani shakllanishida, o'tilgan ma'lumotlarni esda saqlab qolishda ko'rgazmali qurollarning muhim rol o'ynashligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, o‘qitish vositasi, ko‘rgazma, mutaxassis, sinf, mikropreparatlar, tirik o‘simlik va hayvonlar, kolleksiyalar, tuluplar, gerbariyalar, osteologik materiallar, obyekt.

Аннотация. В статье рассмотрены случаи использования средств обучения в ходе урока, интерес учащихся к предмету, роль наглядных пособий в приобретении знаний, умений и навыков, в формировании памяти, в обсуждается важная роль наглядных пособий.

Ключевые слова: образование, учебное пособие, выставка, специалист, класс, микропрепараты, живые растения и животные, коллекции, тюльпаны, гербарии, остеологические материалы, объект.

Annotation. The article discusses cases of using teaching aids during a lesson, students' interest in the subject, the role of visual aids in the acquisition of knowledge, skills and abilities, in the formation of memory, and discusses the important role of visual aids.

Key words: education, textbook, exhibition, specialist, class, micropreparations, living plants and animals, collections, tulips, herbariums, osteological materials, object.

“Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalombor, farzandlarimizning unib-o’sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir.

O‘zbekistondagi mehnat salohiyatining muhim xususiyati, ta’lim darajasining yuqoriligidir. Bu esa respublikaning inson salohiyati yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar bilan bir qatorga olib chiqadi.

Respublikada majburiy umumiyligi o‘rtalama qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Bunday ta’limni umumiyligi ta’lim maktablari, litseylar, gimnaziyalar, o‘rtalama kasb-hunar o‘quv yurtlari va tijorat maktablarining keng tarmogi orqali olish mumkin. Ya’ni hozir bilim darajasi jihatidan respublika haqli sur’atda o‘qimishli mamlakatlar qatoriga kiradi.

Shunday sharoitlar davlat tomonidan yaratilganligi, o‘qituvchilarga dars o‘tish jarayonini mas’uliyatini yanada oshishiga olib keladi.

Dars qadimdan o‘quvchi-o‘qituvchi orasidagi muloqot bo‘lib, zamon bilan ham-nafas, o‘qituvchi fikrini to‘ldiruvchi, asoslovchi sifatida ko‘rgazmalarini keltirish mumkin. Ko‘rgazmalar turlicha bo‘lishiga qaramasdan har doim yangilanib boradi.

Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda eng yuqori samara beradigan o‘qitish vositalaridan foydalana olish san’ati hisoblanadi. Yosh o‘qituvchilar barcha sinflar uchun bir xil ko‘rgazma olib kirilsa, malakali mutaxassislar sinf yoki guruhga o‘qitish vositalarini tanlay olishadi.

O‘qitish vositalari o‘quvchi tanasida joylashgan analizatorlarni qancha ko‘p ta’sirlay olishiga qarab darsning turli bosqichlarida qo‘llaniladi. Masalan, ayrim o‘quvchilar boshqa tengdoshlariga nisbatan ilmiy dunyoqarashi rivojlanganroq, barcha darslarni o‘rganishga qiziquvchan, tajriba qo‘ya oladigan, idrok etish, tasavvur qilish, esda saqlash, amalda qo‘llash va natijalarni tekshira oladigan bo‘lsa, ikkinchi o‘quvchi bunday natijaga erisha olmaydi. Sabab, ular dars jarayonida o‘qituvchini bir xil diqqat bilan eshitishmagan. Yoki keyingi partada o‘tirgan holda diqqati bo‘lingan, aynan shu masala tufayli ko‘p maktablarda birinchi parta muammosi hech kimga sir emas. Biologiya tizimidagi

fanlarni o'qitish jarayonida tabiiy ko'rgazmali vositalar yetakchi o'rinni egallaydi. Tabiiy ko'rgazmali vositalarga mikropreparatlar, tirik o'simlik va hayvonlar, kolleksiyalar, tuluplar, gerbariyalar, osteologik materiallar va shu kabilar kiradi. Albatta, hamma darsda ham tabiiy obyektlarni ko'rsatib bo'lmaydi. Ayrim ko'rgazmalar o'simlik va hayvonot dunyosini ma'lum bir bosqichini ifodalovchi maxsus materiallardan ishlangan ko'rgazmalar bo'lishi mumkin. Ularga mulyajlar, statik va dinamik modellar, rasmlar, chizmalar, relyefli jadvallar kiradi. Ko'rgazma vositalariga, shuningdek, har xil laboratoriya asboblari, mikroskop, turli xil ignalar, lupa...kiradi. Bundan tashqari, o'qitishning texnik vositalariga, televizor, kompyuter, magnitafon kiradi. Shu sababli, ko'pgina o'simlik va hayvonlar, tirik tabiatning rivojlanish jarayonlari va qonuniyatatlari maxsus tayyorlangan qisqa metrajli ko'rsatuvar orqali tushuntiriladi, qushlarning ovozi eshitish orqali farqlanishi mumkin.

Biologiya tizimidagi fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari juda katta tezlikda ortib bormoqda. Tasviriy vositalarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish ko'zlangan natijani berishi mumkin. Axborot texnologiyalaridan multimedialarni namoyish etish, modul dasturlari orqali talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish, qo'shimcha material to'plash va ular ustida mustaqil ishlash, nazorat dasturlari va test topshiriqlari orqali talabalarning bilimini nazorat qilish hamda baholash, talabalarning qiziqishini rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiqli.

Biologiyani o'qitishda og'zaki bayon, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda hamkorlikda o'qitish, muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlardan foydalanishda o'quv partalarini an'anaviy joylashuvini o'zgarishi, aynan birinchi parta muammosini yo'q qiladi. Jumladan, hamkorlik ta'limi texnologiyalari o'quv jarayonida o'quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bir-birlari bilan kelishuvni yuzaga keltiradi, birgalikda harakatlanishga o'rgatadi, bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, o'zaro munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'quvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muammoli ta'lim muhim rol o'ynaydi. Muammoli darslarning tashkillanishi o'quvchilarda avval o'zlashtirgan bilimlarini muammoni hal etishda qo'llash, yangi bilimlarni egallah ko'nikmalarini shakllantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llash malakasini rivojlantiradi, izlanuvchanligi, qiziqishi, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlanishiga olib keladi.

Munozarali darslar ham muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslanadi. Bu darslarning maqsadi o'quvchilarda o'z bilimini asoslash, nutqini o'stirish, bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga, fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish, qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini beradi.

Xulosa qilib aytganda, turli xil ko'rgazmalarni dars jarayonlarida almashtirib turish o'quvchilar bilimini oshishiga, yangi mavzuni oson o'zlashtirishiga yordam beradi, chunki bosh miya yangi ilgari ko'rilmagan ko'rgazma yoki jihozni o'zlashtirishga tezroq harakat qiladi. Aynan shu fiziologik jarayondan o'quvchilarga bilim berishda foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kayumova O. I. & Axmadjonova S. Sh (2021). Biologiya fanini o'qitishda muammoli ta'lif texnologiyasidan foydalanish. Ob'chestvo i innovatsii, 2(4/S), 42-45.
2. Axmadjonova, S. Sh & Akbarova.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fanini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash. Globalashuv sharoitida fan va ta'lifni rivojlanish tendensiyalari. Respublika ilmiy-amaliy internet konferensiyasi. Farg'ona-2017.
3. Turkistonova M & Akhmadjonova S (2020). Use of didactic game technology in teaching youth physiology lessons.

ТЕХНИКУМЛАРДА КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИ ЖОРЙ ЭТИШ

Шойқулов Бахтиёр Бакирович

Профессионал таълимни ривожлантириш институти директор ўринбосари

Равшанов Собир Марқаевич

Профессионал таълимни ривожлантириш институти бош мутахассиси

Анотация. Мақолада профессионал таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар, техникумларда кредит-модул тизимининг жорий этилиши борасидаги ишлар ёритилган.

Калит сўзлар. Кредит-модул, академик мобиллик, кредитларни коъчириш, кредит тоъплаш, мобиллик дастури, таълим дастури, таълим дастури каталоги, Европа модели (ECTC), таълим жараёнини бошқариш ахборот тизими, таълим модули (модул), таълим элементлари, транскрипт.

Аннотация. В статье описаны реформы, проводимые в системе профессионального образования, внедрение кредитно-модульной системы в техникумах.

Ключевые слова. Кредитный модул, академическая мобилность, перевод кредитов, накопление кредитов, программа мобилности, образовательная программа, каталог образовательных программ, европейская модель (ECTC), информационная система управления образовательным процессом, образовательный модул (модул), образовательные элементы, транскрипт.

Тобора ривожланиб бораётган Ўзбекистон дунё ҳамжамияти нигоҳида келажаги порлоқ мамлакат сифатида кўзга ташланмоқда. Юртимизда турли соҳалар бўйича, жумладан, профессионал таълим тизимида ҳам мамлакатнинг келажаги учун мустаҳкам пойдевор қуриш ва ривожланган мамлакатлар даражасига эришиш учун коъплаб ислоҳотлар ва ишлар амалга оширилмоқда. Келажак авлоднинг билимли ва баркамол боълиб етишиши, уларга берилаётган имкониятларнинг дунё бўйлаб кенг қамровли бўлишини таъминлаш мақсадида мамлакат таълим тизимига янги таълим технологиялари, хорижнинг илғор тажрибалари трансформация қилинмоқда ва мос тарзда ўзгаришлар амалга ошириб келинмоқда. Жумладан, 1999 йил июн ойида

Италиянинг Болония шаҳрида дунёning **29 та** мамлакат ўртасида имзоланган, айни пайтда дунёning **49 та** мамлакати иштирокчисига айланган Болония декларациясига Ўзбекистоннинг қўшилиши ва таълим тизимига кредит-модул тизимини жорий этиш борасида ишларнинг бошлаб юборилиши мамлакат олий таълим тизимида замонавий ўзгаришлар даврини бошлаб берди.

Барчамизга маълумки, сўнгги йилларда мамлакатимизда таълим тизимини, хусусан, профессионал таълим тизимини изчил ривожлантириш юзасидан кенг кўламли испоҳотлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимиз профессионал таълим тизимидағи испоҳотларнинг мантиқий давоми, ўз вақтида қабул қилинган муҳим ҳужжатлардан бири Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 7 декабрдаги «Профессионал таълимда кредит-модул тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 648-сон қарори бўлди. Мазкур қарорга асосан техникумларда ўрта бўғин кадрлар тайёрлашда кредит-модул тизими бўйича ўқув жараёнини ташкил этиш ва таълим сифатини таъминлаш кўзда тутилган, шунингдек, ўқувчилар томонидан ўқув йили ва семестр давомида тўпланадиган кредитлар микдори ва ўзлаштириш лозим бўлган фанларни белгилаш, ўқувчилар ўзлаштиришини баҳолаш, ўқувчилар академик мобиллиги ҳамда кредитларни тан олишни амалга ошириш, кредит-модул тизимида рўйхатга олиш хизматини ташкил этишни назарда тутувчи кредит-модул тизими янги ўқув йилидан (2024-2025) бошлаб амалга оширилмоқда.

Қолаверса, профессионал таълим тизимида тизимли устувор йўналишларни белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, меҳнат бозори талабларига мос юқори малакали кадрларни тайёрлаш, таълим сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш, инновацион илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этишнинг самарали механизmlарини яратиш орқали мамлакатда таълим тизимини испоҳ қилиш бўйича изчил ишлар амалга оширилмоқда.

Кредит-модул тизими – бу таълимни ташкил этиш жараёни бўлиб, ўқитишининг модул технологиялари жамланмаси ва кредит ўлчови асосида баҳолаш модели ҳисобланади. Уни бир бутунликда олиб бориш серқирра ҳамда мураккаб тизимли жараёндир. Кредит-модул тамойилида иккита асосий масалага аҳамият берилади: ўқувчиларнинг мустақил ишлашини таъминлаш; талабалар билимини рейтинг асосида баҳолаш.

Кредит-модул таълим тизимини жорий этишдан мақсад ўқув жараёнининг мазмуни ва ташкил этилиши бўйича мослашувчан таълим тузилмаларини яратишdir. Асосий вазифа ўқувчиларга зарур билимларни бериш билан бирга, уларнинг узлуксиз касбий таълим ва ўз-ўзини тарбиялаш тизимига киришига имкон берадиган янги шакл ва усусларни жорий этишдан иборатdir. Кредит-модул таълим тизимининг асосий вазифаси ўқитишининг нафақат зарур билимларни берадиган, балки ўқувчининг узлуксиз касбий таълим ва ўз-ўзини тарбиялаш тизимига киришига имкон берадиган янги шакл ва усусларини танлашдан иборат.

Бугунги кунда мазкур кредит ўлчови тизимини амалиётга татбиқ этиш бўйича тўртта модел кенг тарқалган. Булар Америка Қўшма Штатларининг кредит тизими (УССС); Европа мамлакатларининг кредит тизими (ECTC); Осиё — Тинч океани мамлакатларининг кредит тизими (УСТС); Буюк Британиянинг кредит тизими (CATC).

Техникумларда кредит-модул тизимида ўқув жараёни кредит тўплаш ва

кўчиришнинг Европа моделига (European Credit Transfer and Assumption System — ECTS) мувофиқ ташкил қилинади.

Кредит-модул тизимининг асосий вазифалари сифатида қўйидагилар эътироф этилади:

- ўқув жараёнларини модул асосида ташкил қилиш;
- битта фан, курс (кредит)нинг қийматини аниқлаш;
- талабалар билимини рейтинг бали асосида баҳолаш;
- ўқувчиларга оъзларининг ўқув режаларини индивидуал тарзда тузишларига имкон яратиш;
- таълим жараёнида мустақил таълим олишнинг улушини ошириш;
- таълим дастурларининг қулайлиги ва меҳнат бозорида мутахассисга қўйилган талабдан келиб чиқиб ўзгартириш мумкинлиги.

Кредит-модул тизимиға оид атамалар:

академик мобиллик - техникум ўқувчиларининг муайян вақт мобайнида республика худудидаги ёки чет элдаги бошқа бир профессионал таълим ташкилотида таълим олиши;

кредит - таълим олиш натижаларига кўра, ўқувчи томонидан муайян фан бўйича ўзлаштирилган ўқув юкламасининг ўлчов бирлиги. Кредитлар қоидага мувофиқ бутун сонларда ифодаланади;

кредитларни кўчириш - ўқувчиларнинг академик мобиллигини таъминлаш мақсадида бир техникумдаги таълим дастурида олинган кредитларни бошқа техникумга кўчириш ва тан олиш;

кредит тўплаш - ўқув юкламасини ўзлаштириш натижасида тақдим этиладиган кредит бирликларини йиғиш;

мобиллик дастури - икки ёки ундан ортиқ техникум ўртасида ўзаро келишув асосида ташкил этиладиган дастур;

таълим дастури - профессионал таълим ташкилоти битиравчисига муайян эгаллаган касб ёки мутахассислик бўйича касбий фаолиятни малакали бажариш имконини беришга қаратилган профессионал таълим тайёргарлигининг асосий мазмунини аниқловчи давлат таълим стандарти, малака талаби, ўқув режаси ва ўқув дастурларидан иборат хужжатлар тўплами;

таълим дастури каталоги - профессионал таълим ташкилоти тавсифи, кредит-модул тизими, мавжуд касб ва мутахассисликлар, ўқув режалар, ўқув дастурлари, хизматлар ва ресурслар тавсифи тўғрисида ахборот;

таълим жараёнини бошқариш ахборот тизими - ўқувчиларни рўйхатга олиш, ўқув материалларини тарқатиш, ўқувчилар ва педагог ходимлар ўртасида ўзаро ҳамкорликни таъминлаш, топшириқларни бериш, назоратлар ўтказиш, баҳолаш ва унинг натижаларини қайд этиш каби имкониятларга эга бўлган электрон тизим (махсус дастурий восита);

таълим модули (модул) - ўқувчида билим, кўникма ва малакаларни

шакллантиришга қаратилган таълим дастурининг таркибий қисми сифатида назорат қилишнинг тегишли тури билан якунланадиган алоҳида ўқув фани (унинг қисми ёки ўзаро бир соҳага доир фанлар мажмую);

таълим элементлари - таълим дастурининг бир қисми бўлиб, таълим олиш натижаларига эришиш ва таълим дастурида кўрсатилган билимларни ўзлаштиришга ҳамда кўнилмаларни эгаллашга кўмаклашувчи ўқитиш тури;

транскрипт - таълим олишнинг тегишли даврида ўзлаштирилган кредитлар ҳамда олинган баҳоларнинг ҳарф ва рақамлардаги ифодаси кўрсатиб ўтилган фанлар рўйхатини ўз ичига олган белгиланган шаклдаги хужжат.

Техникумларда ўқув жараёни ўқувчилар, педагог ходимлар ва маъмурият ўртасида очик мулоқот шаклида ўқувчига йўналтирилган ёндашув асосида таълим дастурларини инобатга олган ҳолда режалаштирилади. Ушбу жараёнда ўқувчиларнинг талаб ва истаклари муҳокама қилинади.

Ўқув жараёнини режалаштириш намунавий ва ишчи ўқув режа ва ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, танлов фанлари рўйхатига мос равишда ўқувчиларнинг шахсий таълим позициясини шакллантириш ҳамда академик гуруҳлар бўйича ўқув машғулотлари жадвалини тузиш босқичларидан иборат бўлади.

Шунингдек, техникумларда ўқув йили давомийлиги таълим дастури асосида белгиланади. Академик давр давомида ўқувчи томонидан тўпланиши лозим бўлган кредитлар миқдори ўқув режасида кўрсатилган мажбурий ва танлов фанларни оъз ичига олади. Мажбурий ва танлов фанлар таркиби ҳамда уларни ўрганишга ажратиладиган кредитлар миқдори фанлар каталогига мувофиқ техникум томонидан мустақил белгиланади.

Ўқувчи бир ўқув йилида камида 60 кредит тўплаши зарур. Ўқув йили давомида ўқувчи томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган кредитлар ҳажми ўқув режасида кўрсатилган мажбурий ва танлов фанларни ўз ичига олади.

Ўқувчи ўзининг шахсий таълим траекториясини шакллантиришда ҳар бир ўқув йили учун камиде 60 кредит ҳажмидаги фанларнинг ўзлаштирилишини назарда тутиши, унинг таркибида ўқув режасидаги мажбурий фанлар бўлишини инобатга олиши шарт.

Техникумларда кредит-модул тизимининг жорий этилиши натижасида таълим дастури асосида битирувчилар олий таълим муассасаларининг иккинчи босқичидан ўқишини давом эттиришлари мумкин. Бунда, тўпланган жами кредитлар олий таълим муассасасининг биринчи босқичида тўпланиши лозим бўлган кредитга тенглаштирилган ҳолда ҳисобланади.

Техникумларда ўқув юкламасининг ҳажми ўқув режаси асосида белгиланади. Кредит-модултизимида 1 кредит ўртача 25-30 академик соат ҳисобидаги ўқув юкламасига тенг қилиб олинган бўлиб, бунда ўқувчи муайян фандан тегишли кредитларни тўплаши учун белгилаб олинган миқдордаги ўқув юкламасини ўзлаштириши зарур.

Ўқув юкламаси аудитория соати ва мустақил таълим соатига бўлинади. Таълим дастури ўқув йили учун ўқувчи томонидан қоида тариқасида бир семестрда 30 кредит, бир ўқув йилида 60 кредит тўплаши инобатга олинниб ишлаб чиқлади.

Фаннинг ишчи ўқув дастурида белгиланган баҳолаш тартибига мувофиқ ҳамда

ижобий баҳолар доирасида баҳоланган ўқувчиларга кредитлар берилади. Баҳолаш усуллари ўқувчининг фан доирасидаги ютуқларини акс эттирувчи ва тасдиқловчи ёзма, оғзаки, амалий иш, лойиха иши каби назорат турларини ўз ичига қамраб олади.

Эндилиқда, техникумларда бир техникумдаги баҳолаш тизими бошқа бир техникумдаги ёки (хорижий) профессионал таълим ташкилотидаги баҳолаш тизими билан қиёсий таққослаш орқали баҳолаш тизимига конвертация қилиниб, кредитларни кўчириш амалга оширилади.

Академик мобилликни таъминлаш ва ўқувчининг кредитлари бошқа техникумлар томонидан тан олинишида таълим дастури каталоги, таълим тўғрисидаги келишув, маълумотнома ва транскрипт ҳужжатлардан фойдаланилади.

Мазкур тизимни амалиётга жорий қилгандавлатларда олий маълумот тўғрисидаги дипломлар халқаро миқёсда тан олинади, талабалар ва профессор-ўқитувчилар учун академик мобиллик ва халқаро алоқалар учун катта имкониятлар очилади, илғор тажрибалар асосида тайёрланган рақобатбардош кадрларга меҳнат бозорида талаб юқори бўлади.

Олий таълим тизими битирувчиларни муайян ихтисослик бўйича касбий компетенциясини шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Шу билан бирга тобора ривожланиб бораётган меҳнат бозори талабарини ҳам эсдан чиқармаслик лозим. Меҳнат бозорида рақобатнинг ўсиб бораётгани ва янги ишчи кучининг кириб келаётгани олий таълим тизимида етишиб чиқаётган кадрлар олдига ҳам қатор вазифалар кўймоқда. Бир сўз билан айтганда, олий таълим тизими меҳнат бозори талабларига мослаша бориши зарур.

Кўпгина Farb давлатларида олий ўқув юртларида талабаларнинг мустақил ишлаши рағбатлантирилади. Бунинг асосий сабаби, мустақил изланиш натижасида талабалар янги билимларни қўлга киритишади, турли ахборотларни топиш, қайта ишлашни ўрганади. Натижада, уларнинг дунёқараши кенгайиб, амалий ва назарий билимлари ҳам бойиб боради.

Бугунги кунда республикада **214 та** техникумлар фаолият олиб бормоқда. Уларда «Профессионал таълимнинг тайёрлов йоъналишлари, касблар ва мутахассисликлар классификатори» бўйича жами **105 та** касб ва мутахассисликлар бўйича ўқувчилар қабули амалга оширилмоқда.

Профессионал таълимни ривожлантиришинstitutimutakhassislari tegi shili ligi бўйича олий таълим муассасалари ҳамда иш берувчи корхона ва ташкилот раҳбар ва мутахассислари билан ҳамкорликда жами **105 та** модулли таълим дастурлари ишлаб чиқилди ва янги ўқув йилидан бошлаб амалиётга жорий этилади.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, профессионал таълим тизимида, хусусан, техникумларга кредит-модул тизимининг кириб келиши уларда фаолият олиб бораётган ўқитувчи ва ишлаб чиқариш таълими усталарининг бу борадаги билим ва тажрибалари етарли эмаслиги ҳамда ўқувчиларнинг фанлардан белгиланган кредитларни йиғиш босқичларини ўзида акс эттирадиган ва ўқувчиларнинг мустақил таълим олишларида уларнинг фаоллигини таъминлайдиган мукаммал ҳаракат механизми тўлиқ шакллантирилмаган.

Шунингдек, педагог ва ўқувчилар модул (фан)лар бўйича белгиланган

кредитларни қандай тартибда тоъплаш, бунда нималарга эътибор бериш лозимлиги ва ўзларининг мажбуриятлари, зиммасидаги масъулият ҳақида етарлича тушунчаларга тоълиқ эга эмаслар.

Ушбу хulosалардан келиб чиқсан ҳолда қуйидаги ишларни амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

1. Техникумларда фаолият олиб бораётган барча педагогларга кредит-модул тизими бўйича тушунтириш ишларини олиб бориш;
2. Педагогларнинг иш фаолиятида фойдаланиши учун кредит-модул тизимига оид йоъриқнома, услубий ва ўқув қоълланмаларни яратиш;
3. Ҳар бир модул (фан)нинг хусусиятидан келиб чиқсан ҳолда ўқувчиларнинг белгиланган кредитларни тоъплаш тартибини аниқ ишлаб чиқиш;
4. Ҳар бир ўқувчи оъзининг оъзлаштириш коърсаткичларини доимий тарзда билиб туришини, яъни маълумотлар шаффоғлигини таъминлаш;
5. Кредит-модул тизимида модул (фан)га ажратилган ўқув соатларининг 40% қисми ўқувчининг мустақил таълим олишига ажратилганлигини эътиборга олиб, ўқувчиларнинг мустақил таълим олишга интилишини ва мустақил ҳаракатини кучайтирувчи механизмни яратиш ва жорий этиш;
6. Дарс машғулотларида ўқувчи билимига қоъйилган баҳоларни конвертатсия қилишда муаммолар келиб чиқмаслигини эътиборга олган баҳолаш тизимини оптималлаштириш лозим.

Кредит-модул тизими бизнинг профессионал таълим тизимимиз учун ўқитишининг янги тизими боълиб, бу борада етарлича тажрибага эга эмасмиз. Шу сабабли мамлакатимизнинг етакчи олимлари ва мутахассислари томонидан хориж мамлакатларининг тажрибалари оърганилиб, бизнинг миллий менталитетимизга хос боълган, шу билан бирга дунё мамлакатлари ҳам тан оладиган янги ўқитиш тизимини яратиш борасида Институтимизда ҳам бир қатор илмий ишлар олиб борилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар роъйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 7 декабрдаги «Профессионал таълимда кредит-модул тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 648-сон Қарори.
2. У.Махмонов. Кредит-модул тизимида талабалар билимини баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари. Замонавий таълим. 2021, 3 (100).
3. А.Джуманқулов, С.Аллярова. Кредит-модул тизимида талабаларни илмий тадқиқот фаолиятига йўналтириш имкониятлари. Жамият ва инновациялар.
4. Spesial Ussue – 02 (2022) / ИССН 2181-1415.
5. Авазбаев, А., Джураев, Ю. & Турсунходжаева, З. (2021). Технологик таълим жараёнини кредит-модул тизими асосида тасҳкил етисҳ сҳарт-сҳароитлари. Общество и инновации, 2(4/C), 171-176.
6. Жабборова О.М. (2021). Ўқитишининг кредит-модул тизимида ўқув фанларини танлаш тамойиллари. Академис ресеарч ин едусатионал ссиенсес, 2(6).

6. Н.Камилова & О.Бекмуродова (2021). Кредит-модул тизими асосида таълим бериш асосида мутахассислар тайёрлаш масалалари. *Scientifig progress*, 1 (5), 553–557.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA GEOGRAFIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODLARI

Suyunov G'ayrat Nasrullayevich
Mustaqil izlanuvchi
suyunovgayrat953@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya darslarini yanada samarali tashkil qilish,o'quvchilarni fanga qiziqtirish, geografiya darslarida o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga geografik jarayonlar osonroq yetkazib berish haqida fikr yuritiladi. O'quvchi asosiy o'rinda, o'qituvchi yo'naltiruvchi bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: geografik topishmoq, kim ko'p ma'lumot aytadi, raqamlar so'zlaganda, nima uchun?

Аннотация: в данной статье рассматривается, как более эффективно организовать уроки географии, заинтересовать учащихся наукой, а также облегчить учителям донесение до учащихся географических процессов на уроках географии. Ученик занимает главное место, учитель должен быть проводником.

Ключевые слова: географическая загадка, кто сообщает больше информации, когда цифры говорят, почему?

Annotation: this article discusses how to organize geography lessons more effectively, to make students interested in science, and to make it easier for teachers to deliver geographical processes to students in geography lessons. The student is in the main place, the teacher should be the guide

Keywords: geographical riddle, who tells more information, when numbers speak, why?

Geografiya darslarida o'quvchilarning qiziqishlarini yanada oshirish hamda darslarni qiziqarli tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ba'zi o'qituvchilar o'quvchilarning darslarga befarqligidan, ko'proq vaqtini telefon, kompyuter oldida o'tkazishini aytib nolishadi. Buning sababi, ehtimol, o'qituvchilarning darslarni qiziqarli tashkil qila olmayotganligidamikan deb o'ylab qoladi kishi.

"GEOGRAFIK TOPISHMOQ", "KIM KO'P MA'LUMOT AYTADI?", "NIMA UCHUN?", "RAQAMLAR SO'ZLAGANDA", "ORQADA QOL-MANG", "MAVZULARNI HAYOT BILAN BOG'LASH", "ZAKOVATLI O'QUVCHI", "O'RNINGNI TOP!" metodlari.

Birinchi metod. Geografiya faniga oid topishmoqlardan o'z o'rnida, dars berayotgan sinflarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, darsni boshlayot-ganda e'tiborni jalb qilish va darsga qiziqtirish maqsadida muammoli vaziyatlar tarzida foydalanish yoki guruhlarda ishslash jarayonida sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, ketma – ketlikda topishmoqlarni

navbat bilan guruhlarga berib, o'ylashlari uchun besh soniya vaqt berish orqali, tarqatma material tarzida 5-, 6-, 7-, 8-, 9- va 10-sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib turli metodlarni o'z o'rnidagi qo'llanilsa, darslarning samaradorligi yanada yuqori bo'lar edi. Geografiya faniga oid topishmoqlardan namunalar:

1. Yo'ldan adashib Tolib,

Rosa qolibdi horib.

Xarita va plan ham,

Kompas, gnomonlar ham,

Qolgan edi yo'qolib,

Ne qilsin endi Tolib ?

Ketsin shaxdam yo'l solib,

Daraxtlarga qarabmi,

Tog' - suvlarda yayrabmi ?

J: Daraxtlarga qarab aniqlash

2. Unga o'simliklar yuzini burar,

Qumursqlar inin og'zin qurar,

"Avstraliya" - so'zi unga taqalar,

Bu tomonning nomi qanday atalar ?

J: Janub

3. Bir xil baland nuqtani,

Tutashtirar bir chiziq.

Unga relyef bo'lsa bas,

Hech rang ishlatmas qiziq.

J: Gorizontal

4. Harakatsiz barqaror,

Yerda ikki nuqta bor.

J: Qutblar

5. Ekvatoridan Arktikaga,

Yo'l oldi do'sting G'ani.

Qaysi kenglik tomon borar,

Shu G'ani aytin qani?

J : Shimoliy kenglik tomon

6. To'g'ri rang bersang unga,

Axborot berar senga.

J: Yozuvsiz xarita

Ikkinci metoddan foydalanish orqali darsda ko'pchilik o'quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Bu metod "**Kim ko'p ma'lumot aytadi?**" deb nomlangan bo'lib, uni quyidagicha tashkil qilish mumkin: Sinfda nechta qator bo'lsa har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqib ma'lum bir mavzu bo'yicha birin-ketinlik bilan bittadan ma'lumot aytadi, 5 soniyada uzilish bo'lgan o'quvchi yutqazib joyiga o'tiradi. Oxirida qolgan va eng ko'p ma'lumot aytgan o'quvchi g'olib sifatida rag'batlatiriladi.

Uchinchi metod – **Raqamlar so'zlaganda** deb nomlangan bo'lib, o'qituvchi o'tilgan

mavzularga oid raqamlarni doskaga yozadi. O'quvchilar tezda ushbu raqamlar nimani bildirishini izohlab berishlari lozim. Masalan, 11022 m, 4643 m, 4484 m, 13 ta, 1507-yil, 1498-yil, 1595-yil, 1966-yil, 1976-yil ... 11022 m –Mariana cho'kmasi ...

To'rtinchi metod «**Nima uchun?**» usulidan geografiya darslarida foydalanish uchun masalan, O'rta Osiyo va O'zbekistonda vujudga kelgan hududiy (lokal) ekologik muammo - bu Orol dengizi suvining qurishi muammosi bo'lib, u so'nggi vaqtarda dunyoviy (global) ekologik muammoga aylanib ulgurdi. «**Nima uchun?**» sxemasi usuli-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiridir. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usuli bo'lib, buning uchun o'quvchilar «**Nima uchun?**» sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. «**Nima uchun?**» so'rog'ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi. Orol dengizi suvi qurishi muammosining dastlabki sababini aniqlash uchun 4 marta **nima uchun?** degan savolga javob beriladi:

1. Nima uchun Orol dengizi suv sathi pasaydi?

Javob: Chunki Orol dengiziga quyiladigan Amudaryo va Sirdaryo kam miqdorda suv quyan.


2. Nima uchun Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga kam miqdorda suv quyan?

Javob: Chunki Amudaryo va Sirdaryodan ko'plab kanallar qazilgan.

3. Nima uchun Amudaryo va Sirdaryodan ko'plab kanallar qazilgan?

Javob: Chunki cho'llarni o'zlashtirish va suv chiqarish uchun kanallar qazilgan.

4. Nima uchun cho'llar o'zlashtirilgan? Javob: Chunki sobiq Ittifoq hukumati tomonidan 1948-yilda "Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Orolbo'yi hududida ekologik vaziyatni yaxshilashning asosiy **yo'llari**: aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qurib qolgan o'zanlar, ko'llarga muntazam ravishda suv yuborish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini to'sish uchun qumlarni o'simliklar bilan mustahkamlash, yerkarning meliorativ holatini yaxshilash, yaylovlar, pichanzorlar maydonlarini kengaytirishdan iborat. Beshinchchi metod "**Orqada qolmang!**" metodidan darsning o'tilgan mavzuni takrorlash, o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida foydalansha ko'proq o'quvchilarni baholash hamda o'quvchilarning faolligini yanada oshirish mumkin.



Ushbu metodni 6-, 7-sinflarda qo'llash uchun doskaga ikki o'quvchi chiqadi, ularning birining qo'lida **TOG'LAR**, ikkinchising qo'lida esa **DARYOLAR** yozuvlari bo'ladi. Stol ustida

daryo va tog'lar nomlari yozilgan yozuvlar teskari bilan qo'yilgan bo'lib, partada o'tirgan o'quvchilar chiqib, bittadan yozuvni olib o'qiydi va daryo nomi chiqsa, **DARYOLAR** yozuvini ushlab turgan o'quvchi bir qadam oldinga yuradi, aksincha tog' nomi chiqsa **TOG'LAR** yozuvi ushlagan o'quvchi bir qadam oldinga yuradi. 9-10-sinflarda RESPUBLIKA va MONARXIYA , FEDERATIV va UNITAR ,YEVROPA va OSIYO nomlarini yozib davlatlar to'g'risidagi o'quvchilarning bilimini sinab ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir o'tilayotgan **mavzuni hayotimizning turli sohalari bilan bog'lab** tushuntirsak, hayotiy misollar keltirsak, nafaqat, darsimiz qiziqarli, balki fanimizning hayotdagi ahamiyati beqiyos ekanligini tushuntirish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirgan bo'lamiz. 2022-yil 12-13-aprelda PISA dasturining tashabbuskori va rahbari **Andreas Shlyayxer** bilan suhbatda O'zbekiston ta'lim tizimidagi kamchiliklardan biri ta'limning hayot bilan bog'lanmaganligi tanqid qilingan edi. 8-sinfda O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan O'zbekiston tuproqlar mavzusida tuproqlarni unumdorligini oshirishda mahalliy o'g'itlardan foydalanish orqali tabiiy sog'ligimiz uchun foydali oziq - ovqat mahsulotlarini yetishtirish mumkinligi, hamda o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga undagan bo'lamiz, **Quyi Zarafshon** tabiiy geografik okrugi mavzusida Buxoro va Gazlidagi yer qimirlash haqida gapirganda zilzila vaqt qanday harakat qilish kerakligini tushuntirib o'tish foydadan holi bo'lmas edi. Bunday misollarni har bir fandan har bir mavzularda qo'llash mumkin. 8-sinfda O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish bobida iqtisodiy rayonlar haqida gapirib, ularning betakror tabiatni, tarixiy madaniy yodgorliklarini ko'z - ko'z qilish orqali ichki turizmni rivojlantirish va yoshlarni tadbirdorlikka yo'naltirish mumkin. **Yettinchi** metod **Zakovatli o'quvchi** ham darsni samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning darslarga qiziqtirishga ko'maklashadi.

I. 9-sinflarda Amerika Qo'shma Shtatlari mavzusidan:

1. AQSHning Davlat Gerbidagi burgut panjalaridagi 13 ta kamon o'qi nimani anglatadi?
2. AQSHda gaz quvurlari yotqizilgandan so'ng, gaz bilan birga xom go'sht hidi ham aralash yuborilar ekan. Buning sababi nimada ?

II. Rossiya mavzusidan: XVII asrda Rossiyada qalbaki pullar yasash chinakam falokatta aylanib ketgan. Ish shu darajaga bordiki, qalbaki pullarni dehqonlar va hatto qashshoqlar ham zarb qiladigan bo'ldilar. Senat tomonidan tuzilgan maxsus komissyaning qanday taklifi bilan qalbaki pul zarb qilishga chek qo'yildi?

III. 8-sinf O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan "Dehqonchilik" mavzusida: "Uning achchig'i yurakdagagi qurtni o'ldiradi, bemazasi me'dani baquvvat qiladi, shirini semirtiradi". Topingchi qadimda tabiblar nima haqida aytib o'tishgan? Javob : Qovun

IV. Transport mavzusidan: 1992-yilda u transport tarmog'i ichida rekord o'rnatgani uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. 60 joyda to'xtab tezlikni 36,5 km/soatgacha oshira olgan. Bu qaysi transport tarmog'i? (J: Lift) **Sakkizinch O'rningni top!** metodida mavzularga berilgan geografik obyektlarning o'rnnini qit'alar yoki Yer sharidagi o'rnnini tasavvur qilishda qo'l keladi. 7-sinflarda Dunyo okeani mavzusida 4 nafar o'quvchi doskaga chiqib okeanlar nomlari yozilgan yozuvlarni olib 4 ta okeanning maydoniga ko'ra ketma-ketlikda turib olishlari kerak bo'ladi(6 nafar o'quvchi 6 ta materikni maydoniga ko'ra). O'zbekistonning tabiiy geografiyasi fanidan Vatanimiz hududidagi botiqlarni chuqurligiga ko'ra, tog' cho'qqilarini balandligiga ko'ra, daryolarni uzunligiga ko'ra va boshqalarni o'yin tarzida tushuntirsak darslarimiz yanada qiziqarliroq bo'lar edi.Oliy o'quv yurtlarida Germaniya

Federativ Respublikasi mavzusidagi dars mashg'ulotida Yevropa qit'asida Germaniya iqtisodiyoti rivojlanishiga ko'ra, maydonining kattaligiga ko'ra, aholisi soniga ko'ra qaysi o'rinni egallashini guruh talabalaridan 6 nafari doskaga chiqib, 6 ta davlat nomi (Rossiya, Germaniya, Fransiya, ...)lari nomlari yozilgan yozuvlar bilan o'z o'rinxlarini egallashlari kerak bo'ldi. Bu geografik o'yinni talabalar zo'r qiziqish bilan amalga oshiradilar. Ushbu metodlardan foydalanib darslarni tashkil qilish orqali geografiya fanidan o'quvchilarning o'zlashtish samaradorligini 15-30% gacha ko'tarish mumkingi o'z isbotini topdi. Bunday natijaga erishish uchun o'quvchilar va talabalarning yosh xususiyatlari, sinf va guruhlardagi psixologik holat, ayniqsa, pedagoglarimizning bilim va tajribasiga bog'liq. Chunki hozirgi zamon o'quvchi va talabasiga 20-30 yil avvalgi metodika bilan dars o'tish juda qiyin, shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida dars mashg'ulotlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilinsa katta yutuqlarga erishish mumkin.

Yuqorida berilgan metodlarni qo'llashda ustozlardan ijodkorlik, sinflarni o'ziga xosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashsalar kerakli natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. Rafiqov V. Qiziqarli geografiya. T. 2010, [120-b]
2. Respublika ta'lif markazi "Umumiy o'rta ta'limda geografiya fanini o'qitish metodikasi" (metodik qo'llanma). Toshkent . 2020-yil.
4. Vahobov H, Mirzamahmudov O.T. "Geografiya o'qitish metodikasi" uslubiy qo'llanma. Namangan. 2016-yil.
5. Mirakmalov M.T, Avezov M.M, Nazaraliyeva E.E. "Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar". Toshkent. 2015-yil.
6. Abdullayev .A "DAQIQA QADRI". "DAVR PRESS". T.: 2010 -yil .
7. "Ma'rifat" gazetasi. 2018-yil. № 75 son, [6-bet]
8. "Umumta'lif fanlar metodikasi" jurnali 2020-yil sentabr № 9, [117-b].
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi viloyat ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami "Tabiiy fanlarda innovatsion yondashuvlar:yechimlar va istiqbollar". Navoiy. 2021-y,[79-82-betlar]
10. Pedagoglar.uz "Ustozlar uchun" . 2021-yil 31- oktabr.
11. Tadqiqot.uz "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar". 2020-yil. №20,[164-bet]

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI YANGI METODIKALAR ORQALI QO'LLASH MAHORATI

Taylakova Dilnoza Norbekova

Toshkent shahar viloyati pedagogika mahorat markazi direktori "Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lif metodikasi" kafedra mudiri

Annotasiya: Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lif jarayonida pedagogik kompetensiyalar ularni turlari, qo'llash mahoratlari, pedagogik texnologiyalar va amaldagi natijalari olib berilgan. Pedagogik kompetentlik yuqori darajada mavjud bo'lsa, kelgusida o'quvchilarning yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam berishi xususida bat afsil to'xtalgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagog, kompetensiya, innovatsiya, informatsiya, eksperimental, texnologiya, kreativ, kommunikativ.

Аннотация: В статье раскрываются педагогические компетенции, их виды, навыки применения, педагогические технологии и практические результаты в процессе личностно-ориентированного образования. Высокий уровень педагогической компетентности помогает студентам в будущем стать высокопотенциальными и конкурентоспособными кадрами.

Ключевые слова: современный педагог, компетентность, инновация, информация, опыт, технология, креатив, коммуникативность.

Annotation: In the article, pedagogical competencies, their types, application skills, pedagogical technologies and practical results are revealed in the process of person-oriented education. A high level of pedagogical competence helps students to become high-potential and competitive personnel in the future.

Key words: modern pedagogue, competence, innovation, information, experiential, technology, creative, communicative

Dunyo ta'lif tizimida ta'lifni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayyorlarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta'lif muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta'lif dasturlari ishlab chiqilgan.

O'z ertangi kelajagiga befarq bo'limgan, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lif tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lif tizimi samaradorligini oshirishda:

- birinchidan, hududiy rivojlanish istiqbolaridan kelib chiqib, kasb yo'naliishlarini belgilash va joriy etish amalga oshirildi;
- ikkinchidan, ta'lif muassasalarining kasbiy yo'naliishlari loyihalashtirildi;
- uchinchidan, ta'lifning moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlandi;

- to'rtinchidan, ta'lif muassasalari yuqori malakali pedagog va muxandis-pedagog xodimlar bilan ta'minlandi;
- beshinchidan, ta'lif muassasalari faoliyatini yuritishda davlat byudjet va homiylik mablag'laridan samarali foydalanildi;
- oltinchidan, ta'lif muassasalari va mehnat bozori o'tasida uzviylikni ta'minlash ishchi kuchi talab va taklifi muvofiqlashtirildi.

Pedagogika sohasidagi o'qituvchilarni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlari boyitishda ularni innovatsion ta'lif texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagolgarda kasbiy kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lif muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sun qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lifning Davlat Ta'lif Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatni sifatida ta'rif berilgan.

Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kompetentlik bu insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir iqtidori degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'lif muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi muhim komponentlardan biri – o'qituvchining kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeyer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatadi.

Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi. Kasbiy kompetentlikda mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi nazarda tutiladi. Bu tushuncha bo'yicha turlicha ta'rif va yondashuvlar mavjud. N.M.Muslimovning fikriga ko'ra, "kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish,

yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoèn eta olishni ifodalaydi. V.I.Andreyevning fikricha, kompetensiya ma'lum o'quv, kasbiy va boshqa majmuaviy masalalarini hal qilishda namoyon bo'luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko'rsatkichlar bo'lib, u shaxsnинг ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o'z ichiga oluvchi tayyorgarlik darajasidir. N.V.Tarasova kompetensiya tushunchasini muammoni hal etishga qaratilgan bilim va vaziyat, bilim va harakat o'rtaida aloqadorlikni ta'minlash imkonini beruvchi bilim, qadriyatlar va idrokka asoslangan umumiyligini qobiliyat sifatida talqin etadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda va boshqa shu kabi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik kompetentlik esa o'zining kasbiy mahoratini mukammal rivojlantirgan, dars jarayonini samarali loyihalashtiradigan, uni boshqara oladigan, ta'lif islohotlarini, zamon talablarini, innovatsion paradigmalarini ilg'agan holda ularni dars jarayonida muvafaqqiyatli qo'llay oladigan mutaxassislarga nisbatan bildiriladi.

Aytib o'tish kerakki, pedagogik kasbiy kompetentlik negizida bir qator sifatlar mavjud bo'lib, ularning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faoliyot ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy-pedagogik faoliyatda subektlar bilan kommunikativ muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashdir. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonida sog'lom psixologik muhitni yarata olish, ta'lif oluvchilar va ta'lif jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

- uslubiy kompetentlik – pedagogik jarayonni uslubiy jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lif yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, usul va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ularni samarali qo'llay olish;

- informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan tezkor, maqsadli va samarali foydalanish;

- kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish, muammolarga nisbatan keng qamrovli turli hil yechimlarni topa olish;

- innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lif sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliètga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

- kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiylar ta’sir ko‘rsata olish.

- shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish;

- texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

- ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g’ri harakatlanish malakasiga egalik va hokazo.

- maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);

- shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoèn etish);

- ijtimoiy kompetentlik (qo‘sishma faoliyatni hamkorlikda tashkil etish);

-individual kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish)

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan individual rivojlantirish dasturlarida pedagogik bilim, malaka va shaxsiy sifatlarining ayni paytdagi mavjud darajasi va bu kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol vazifalar keltirilib o‘tilgan bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan rivojlanish dinamikasini turli darajalarda doimiy monitoring qilib borishda samarali faoliyat maxsuli bo‘lib, buning natijasida pedagog kasbiy kompetentligiga katta e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan kompetentlik qismlari yaqqol ko‘rinadi va bu uni rivojlantirishga turki beradi. Kasbiy pedagogik kompetentligi yuqori ta’lim beruvchi tomonidan olib boriladigan o‘quv-tarbiya jarayonlarida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo ta’lim oluvchi yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish o‘quvchilarning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi, zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash kelgusida intellektual salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o‘rtal va o‘rtal maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g’risida”gi 187- sonli qarori, 2017 yil 6 aprel.
2. Зейер Э.Ф., Шахматова Н. Личностноориентированние технологии и профессионального развития спетсиалиста. – Екатеринбург, 1999.
3. R.Ishmuhamedov, M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 60 bet.
4. Muslimov N.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.
5. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: Инновационный курс. Кн. 1. -Казан: Изд-во Казан, ун-та, 1996. - 570 с.
6. Тарасова Н.В. Стратегия реализации компетентностного подхода в образовании: историко – педагогический аспект– М.: FIRO, 2007. – 52 s.

ZAMONAVIY PEDAGOGNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODLARI

To'rayeva Nargiza Nasrullayevna

Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Dostonbek Davron o'g'li

Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti talabasi

dostonabdurahmonov05@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogning kasbiy kompitentligini rivojlantrish metodlardan unumli foydalanish hamda sifatli ta'lif berish va o'z navbatida pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqligi haqida to'xtalib o'tilgan. Maqolada ta'lif-tarbiya jarayoni alohida o'ringa ega ekanligi hamda hozirgi zamonaviy pedagogning egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompitentlik, pedagogning mahorati haqida to'xtalib ilmiy jihatdan yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, o'zini o'zi tahlil qilish, autokompetentlik, ekstremal kasbiy kompitentlik, dars berish mahorati, nazariya, pedagogika, o'zini o'zi baholash.

Аннотация: В данной статье развитие профессиональной компетентности современного педагога ориентировано на эффективное использование методов и качество образования, а, в свою очередь, на зависимость профессиональных навыков педагога. В статье учебному процессу отведено особое место, научно выделены профессиональная компетентность и мастерство педагога, которые должен приобрести современный педагог.

Ключевые слова: Компетентность, самоанализ, аутокомпетентность, предельная профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, теория, педагогика, самооценка.

Annotation: This article discusses the fact that the development of professional competence of a modern educator depends on the effective use of methods and the provision of quality education and, in turn, on the professional skills of an educator. The article highlights the special place of the educational process, as well as the professional competence that the current modern educator should occupy, the skill of the educator, and covers it scientifically

Keywords: Competence, self-analysis, autocompetence, extreme professional competence, teaching skills, theory, pedagogy, self-assessment.

Kirish

Ta'limda pedagogika – bu yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish va uni rivojlantrishga yo'naltirilgan fan. Bu o'qituvchining o'quvchini shakllantirish va rivojlantrish maqsadida unga ta'sir ko'rsatish san'atidir. Shuning uchun ham pedagogika asosiy vazifasi – o'quvchiga ta'lif muassasasida o'qish jarayonida takomillashish imkoniyatini yaratishdan iborat. Buning uchun birinchi navbatda o'quvchilarni asosli tarzda jadal, tezkor, iqtisodiy jihatdan samarali ta'lif olishga o'rgatish hamda o'qituvchilarning kasbiy layoqatlari doirasida fikrlash va harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Zamonaviy jamiyat ta'lif tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh,

tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yomoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lif muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasid bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyatni va tajribasini o'z ichiga oladi.

Muhokama va natijalar: Shaxsga yo'naltirilgan yangi tipdag'i ta'lifni keng joriy qilish uchun birinchi navbatda axborot berishga asoslangan ta'lif paradigmاسini fikrlashga yo'naltirilgan paradigma bilan almashtirish lozim. Faqat shu yo'l bilangina ta'lif jarayoni markaziga o'quvchi shaxsini qo'yish, pedagogik jarayonning barcha sub'ektlarini faollashtirishga erishish mumkin. Shu tarzda o'quvchilarda qanday qilib muallif bo'lish layoqati, tahliliy tafakkur, bag'rikenglik, muloqotga kirisha olish kabi shaxsiy sifatlar tarkib topadi. Shaxsning bunday o'ziga xos jihatlari faoliyatning faol sub'ekti sifatida faqatgina shaxsga yo'naltirilgan ta'lif jarayonida harakat qilishi natijasida tarkib toptirilishi mumkin. Mazkur o'quv jarayonining asosiy maqsadi – har bir o'quvchining ijodiy layoqatlari va imkoniyatlari rivojlanishini ta'minlashdan iborat¹. Buning uchun o'qituvchining o'zi ijodiy faoliyat tajribasi va mualliflik matabiga ega bo'lishi kerak.

Pedagogning kasbiy kompetentligi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranganigan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishslash quyidagilarda ko'rindi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni bugungi kunda pedagoglarning ta'lif berish samaradorligini oshirish va amalga oshirishi kerak bo'lgan bir qator talablar qoydi. Ular quyidagilarni tashkil etishi lozim:

1.Dars berish mahorati

2.Tarbijalash mahorati

3.O'quv-tarbiyaviy jarayonlardainsonparvarlik tamoyillariga yondashuvni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar

¹ https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ydktBSAAAAAJ&citation_for_view=ydktBSAAAAAJ:u-x608ySG0sC

4.Ta'lism oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati Kasbiy faoliyat jarayonida zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompitentligini rivojlantirish orqali shaxs hayotiga hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin². Zamonaviy jamiyatda ta'lism-tarbiya tizimini rivojlantrishning bosh go'yasi – shaxsning turli hil sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy- ma'nnaviy rivojlanishidir. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompitentligini rivojlantirishdan avval ushbu tushunchaning asl mohiyatini, shundan so'ng esa uni takomillashtirish yo'llarini bilish lozim.

Kompetensiya (lotincha Competentio dan Competo-ga erishaman, uchrashaman, mos kelaman) - bu mutaxassisning ma'lum darajadagi kasbiy muammolarni hal qilishdagi shaxsiy bilish qobiliyatidir. Shuningdek, kompetensiya deganda ma'lum bir tashkilot, kompaniya xodimlarining (yoki ayrim xodimlar guruhining) shaxsiy, kasbiy va hokazo fazilatlariga rasmiy ravishda tavsiflangan talablar tushuniladi.

Kasbiy kompitentlik – mutaxasis tomonidan kasbiy faoliyatni oshirish uchun kerak bo'lgan bilimlarning, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni o'z faoliyati davomida munosib qo'llay olishidir. O'qituvchi albatta, alohida bilim ko'nikmalarni egallashi bilan birga, ma'lum bir mustaqil yo'nalish boyicha bilimlar va harakatlarni o'zlashtirilishini nazarda tutadi.Demak, kasbiy kompitentlik pedagogdan mutaxasislik bilimlarini boyitib borish, yangi axborotlarni kuzatib ularni qo'llay bilish,izlanuvchanlik va yangi bilimlarni qayta ishlab o'z faoliyatiga qo'llay olish mahoratini ham talab etadi.

Pedagogik mahorat bu yerda to'rt guruhga ajratiladi:

1. Ta'larning obyektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati: shaxs va jamoani o'rganish, shu asosda yangi bilim va dizaynni faol o'zlashtirishga tayyorligini aniqlash, jamoani rivojlantrish va alohida talabalar; ta'lism, tarbiya va rivojlantrish vazifalari kompleksini aniqlash, ularni konkretlashtirish va ustun vazifani belgilash.

2. Mantiqan tugallangan pedagogik tizimni qurish va yo'lga qo'yish qobiliyati: o'quv vazifalarini kompleks rejalashtirish; uni tashkil etish shakkllari, usullari va vositalarini asosli tanlash.

3. Ta'larning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish, ularni amalda qo'llash qobiliyati: zarur sharoitlarni yaratish (moddiy, axloqiy, psixologik, tashkiliy va boshqalar); talaba shaxsini faollashtirish, uning faoliyatini rivojlantrish;

4. Pedagogik faoliyat natijalarini qayd etish va baholash qobiliyati: o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini introspeksiya qilish va tahlil qilish; dominant va bo'ysunuvchi vazifalarning yangi to'plamini belgilash. O'zbekistonda o'qitvchining kasbiy kompitentligi va uningo'ziga xos jihatlari tog'risida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ta'lism-tarbiyaning an'anaviy texnologiyalari ta'larning Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan strategik maqsad va vazifalarini, ayniqsa, yangicha fikrlaydigan tafakkur egasi, ijtimoiy faol, ma'nnaviy boyliklarni o'zlashtirgan, ijodiy tarzda rivojlanuvchi shaxsni shakllantirish imkoniyatiga yetarlicha ega emas.

Xulosa va takliflar

² https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ydktBSAAAAAJ&citation_for_view=ydktBSAAAAAJ:u5HHmVD_uO8C

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etilganligini ko'ramiz.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, har tomonlama yetuk intellektual rivojlangan, ijtimoiy sifatlar bilan tarbiyalangan, milliy va ma'naviy qadriyatlarga sadoqatli, yangicha fikrlaydigan, o'z shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasiga ega, milliy mafkuraning barcha sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan barkamol shaxsnar tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy ta'lif siyosati XXI asr talablariga javob berishi, yangi tipdag'i intellektning shakllanishi, yangicha tafakkur qilish va layoqatni namoyon etish, tez o'zgaradigan atrof-muhitga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxsnar shakllantirishga qaratilishi lozim. Buning uchun o'quvchilar ijtimoiy, iqtisodiy sohalar, yangi texnologiyalarga oid bilimlar, axborotlar bilan qurollantirilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni. O'RQ-637 23.09.2020
2. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ Theoretical & Applied Science.
3. To'rayeva Nargiza "Kasb ta'lif metodikasi" - Toshkent: 2024 yil
4. To'rayeva Nargiza, Abduraxmonov Dostonbek " Qurilish konstruksiysi fanini fanlararo integratsion o'qitish asosida talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi" - 2024 600 - 605. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor
5. Turayeva NN, Abduraxmonov A. - Zamonaviy fan, ta'lif va ishlab chiqarish ..., 2023

MUKAMMAL YO'LGA QO'YILGAN BOSHQARUVDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI

To'rayev Asqarali Baxtiyor o'g'li

Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalar o'rgatish milliy markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalarining jamiyatdagi o'rni va mukammal yo'lga qo'yilgan boshqaruvda zamonaviy texnologiyalar taraqqiyotdagi o'rni va ahmiyatini baholaydi. Zamonaviy texnologiyalar, jamiyatning har qanday sohasida o'rnatalgan va amalga oshirilgan, katta o'ringa ega bo'lgan muhim vositalar hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy texnologiyalar, menejment, ish boshqaruvchi, texnologik jarayonlar, Farmon, jamiyat, mobil ilovalar, biznes, ta'lif, xalqaro aloqalar.

Аннотация. В данной статье оценивается роль современных технологий в обществе, а также роль и значение современных технологий в развитии в условиях хорошо налаженного управления. Современные технологии, внедряемые и внедряемые в любой сфере жизни общества, являются важными инструментами, имеющими большое место.

Ключевые слова. Современные технологии, менеджмент, руководитель работ, технологические процессы, декрет, общество, мобильные приложения, бизнес, образование, международные отношения.

Annotation. This article evaluates the role of modern technologies in society and the role and importance of modern technologies in development in a well-established management. Modern technologies, installed and implemented in any sphere of society, are important tools that have a great place.

Key words. Modern technologies, management, work manager, technological processes, decree, society, mobile applications, business, education, international relations.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847сон Farmonida xalqaro tajribalarga tayangan holda oliy ta'lim standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv fan dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limgan tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'limgan mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berildi. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da esa individual ta'limgan trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'limgan dasturlarini rivojlantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'limgan muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangidan-yangi korxonalar va ish joylarini ko'paytirishimiz zarur. Bu g'oyat dolzarb ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi", - deb ta'kidlagan.

Mukammal yo'lga qo'yilgan boshqaruv deganda biz menejment atamasini esga olamiz. Menejment atamasi o'zi nima?

Menejment (inglizcha management) - boshqarish, tashkil etish) - maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to'g'risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat. Boshqaruv - tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat

etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'lnlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog'liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo'llashga, har bir xodimga va jamoaga ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilalar ham menejment fani bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV-XV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda "Temur tuzuklari" asarida davlat, qo'shin va boshqalarni boshqarish san'ati to'g'risida o'z qarashlarini bayon etib, izohlab bergen. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to'plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiylar, nazariy g'oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladidi. Boshqarish fanining asoschisi — amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylording zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo'riqlash, hisob-kitob, ma'muriy)ga bo'lib, boshqarishni 6-guruhga kiritadi. Menejment yoki boshqarishning obyekti korxona faoliyati, uning subyekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar - yollanma boshqaruvchilar - menejerlar shug'ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi. Menejmentning yuqori (firma strategiyasini ishlab chiqish), o'rta (ishlab chiqarish, sotish, narx belgilash, mehnatni tashkil qilish), quyi (sex, bo'lim doirasida ishni tashkil qilish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlari bajarilishini boshqarish) bo'g'lnlari bor. Shunga muvofiq holda menejerlar olyi martabali, o'rta toifadagi va quyi toifadagi menejerlarga bo'linadi.

Ayrim tadqiqotlar menejment kishilardan naflı samaralar olish san'ati, deb hisoblaydilar. Mukammal menejmentning xos belgilari: faoliyatga, izlanishga tarafdarlik; oddiy tuzilma va kamsonli xodimlar; iste'molchiga yaqinlik; unumdarlikni ta'minlashda insonning hal qiluvchi o'rni; tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi; asosiy faoliyat turiga birlamchi e'tibor; hammadan ko'ra yaxshiroq tanish bo'lgan sohaga kirishish; erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qo'llash.

Firmalarning menejment tizimi umumiy menejment, funksional menejment, moliyaviy menejment, marketing ishi, xodimlar ishini boshqarish, ishlab chiqarish menejmenti, ilmiy-texnika ishlarini boshqarish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Menejment sohasining tarixi.

XX asrning o'ttalariga kelib menejment O'zbekistonda tez sur'atlar bilan rivojlandi. 1966-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kibernetika institutining tashkil qilinishi, akademik V. K. Qobulov boshchiligidagi olib borilgan nazariy, uslubiy, amaliy ilmiy tadqiqot ishlari respublikada menejment fanining rivojlanishiga asos bo'ldi. Menejment sohasida birinchi tadqiqotlar sinfiy maktablar tomonidan amalga oshirilgan. Birinchi menejerlarni asosan ishlab chiqarish (texnik yondashuv) masalalari tashvishga solgan. Ular o'z faoliyatlarini ishchilarni moslash masalalariga qaratganlar. Bu maqsadlar uchun ish joyi dizayni ishlab chiqilgan. Turli operatsiyalarga ish vaqt o'rganilgan va hokazo.

O'sha davrning ko'pchilik tadqiqotchilari menejment bu san'at deb tasavvur qilgan. Menejmentni bunday tushunishning sababi, hamma xodimlar ham o'z o'lchovlari bo'yicha rahbarlik lavozimiga to'g'ri kelmasligidir.

XX asr oxiri - XXI asr boshlarda menejment O'zbekistonda maxsus fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshladi, menejmentga doir tadqiqotlar yo'lga qo'yildi, darsliklar yozildi.

Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqtı o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi timmay izlanishi, ijodkor bo'lmos'i darkor. Bunday holda, ayniqsa, darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmاسini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan.

Mukammal yo'lga qo'yilgan boshqaruvda zamonaviy texnologiyalar o'rni.

Zamonaviy yondashuv texnologiyalari asosida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish adabiyotlarda boshqaruv ma'nosini turlicha talqin etiladi, masalan, fransuz olimi A.Fayol boshqarishni kelajakni ko'rurvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli quroq deb ataydi. Qator tadqiqotlarda boshqaruv insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sifatida izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga ta'sir etishi yoki maqsadga yo'naltirilgan ta'sir etish, subyektning obyektga ta'siri natijasida obyektning o'zgarishi, deb ta'riflaydilar. Tadqiqotlarda keltirilishicha, keyingi paytlarda boshqaruv g'oyalaring rivojlanishi pedagogik menejment muammolarini hal etish bilan bog'liqidir. Pedagogik menejment atamasi orqali "maqsadga erishish hamda qo'yilgan vazifalarni bajarishda insoniy, iqtisodiy va samarali yo'llar bilan insonlarni boshqarish va vositalardan foydalanish" tushuniladi. Demak, ta'lim va tarbiya jarayonlarini boshqarish bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni mazkur jarayon ishtiroychilariga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash, shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalarni tanlash, ilmiy-metodik mahsulotlar tayyorlash, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash kabi vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Demak, o'qituvchilar nafaqat pedagogik tajribaga, balki ta'lim va tarbiya jarayonlarini boshqarishning funksiya va metodlari, ulardan foydalanish, boshqaruvning mohiyati, rahbarlik uslublari va ulardan foydalanish kabi tushunchalarga ega bo'lishi muhim.

Ta'lim tizimidagi yo'lga qo'yilgan mukammal boshqarish tizimida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish g'oyalari tizimini bilish, aniq vaziyatlarda muammolarni hal etish hamda ixtiyoriy pedagogik tizimda ularni qo'llashning natijalarini oldindan hisobga olishda yordam beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonlarida turli

vaziyatlarda erishilgan natijalarning samaradorligini tahlil qilish zarur bo'lib, tahliliy jarayonda vaziyatli yondashuv o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Demak, ta'lif va tarbiya jarayonlari da vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra, o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi, bunda vaziyatli yondashuv ta'lif va tarbiya jarayonlari samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlashni ko'zda tutadi.

Bizning fikrimizcha, vaziyatli yondashuvning o'ziga xos jihatlarini quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin: ta'lif-tarbiya jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish asosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqlash; erishiladigan natijalarning samaradorligini turli vaziyatlarga ko'ra oldindan belgilash.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lif tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotlarni o'zlashtirgan, bu axborotlatni o'zlarini tomonidan bahslashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bu borada oliy ta'lifni innovatsion texnologiyalarning boshqarish jarayonidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsiya (inglizcha-innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta'lifda boshqaruv rolini o'qituvchi bajaradi.

Oliy ta'lifni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar barkamol avlodni va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari aytilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari barcha o'quv yurtlarining ish samaradorligini hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlarining vazifasi bo'lishi bilan birga, tabiiyki, eng avvalo, uzuksiz ta'lif tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan, qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadigan murakkab jarayondir. Bularning barchasi oliy ta'lifni boshqarish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lifni boshqarish va rivojlantirish belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, chet elliq yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-yondashuvlar-asosida-boshqaruv-uslubini-samaradorligini-oshirish-texnologiyalari>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-innovatsion-texnologiya-orqali-ta-lini-boshqarishning-ahamiyati>
3. <https://conf.innovascience.uz/index.php/ICACE/article/view/31>
4. <https://yuz.uz/uz/news/talimda-zamonaviy-ilgor-pedagogik-texnologiyalar-asosida-yondashuv-samarasi>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 24-yanvar).
6. X.B.Xudoyberdiyevich (2022, April). Yangi renessans sharoitida pedagogika ta'lif sohasini rivojlantirishning ayrim dolzarb masalalari. In E Conference Zone (pp. 67-70).
7. Z.Y.Sayibova, (2023). Innovatsion texnologiyalarning ta'lif sohasidagi o'rni. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 829-834.
8. Xudoyqulov X.J. Pedagogik texnologiya ta'lif samaradorligining asosidir. Toshkent. Navro'z. 2012 yil

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB DIREKTORLARINING KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Umarova Nilufar Xasanovna

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti

umarova.nilufar1983@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ strategiyaning tadqiqi borasidagi ilmiy tahlillar, maktab direktorlari kommunikativ strategiyalarining mohiyati, ta'lrim sifatini oshirishdagi ahamiyati, kommunikativ strategiyalarning elementlari va tasniflari berilgan.

Kalit so'zlar: maktab direktori, kommunikativ strategiya, axborot-psixologik o'zaro ta'sir, mikro daraja, media darajasi, makro daraja.

Kirish. Ta'limda sifat va samaradorlikning oshishi ko'p jihatdan shu jarayonni tashkil etuvchi maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalariga bog'liq. Kommunikativ aloqa strategiyasi - bu zaruriy muloqot darajasini o'rnatish uchun harakatlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish jarayoni[1]. Aytishimiz mumkinki, kommunikativ strategiya har qanday ijtimoiy o'zaro ta'sirning uzoq muddatli rejasi bo'lib, uning maqsadi aloqa jarayonida ma'lum natijalarga erishishdir.

Kommunikativ strategiyaning asosiy maqsadi maktab rivojlanish strategiyasini amalga oshirilishini ta'minlash, muassasada ta'lim sifatini tashkil etish, o'quvchilar ehtiyojlarini, ularning sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish talablarini qondirish va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish, o'z ustida ishlashlarini rag'batlantirishga qaratilgan barqaror va samarali boshqaruv faoliyatini ta'minlashdan iborat. Kommunikativ strategiyaning asosiy vazifasi mактабning rivojlanish strategiyasi, missiyasi va boshqaruv muloqotini samarali tashkil etilishini ta'minlashdir.

Boshqaruv sohasida "kommunikativ strategiya" tushunchasining qo'llanila boshlanganiga uzoq muddat bo'lmagan bo'lsa ham, uning tarkibiy komponentlarini tashkil etuvchi tushunchalar ancha avval paydo bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kommunikatsiya (lot. communicatio - xabar, uzatish) atamasi XX asr boshlarida ilmiy adabiyotlarda qo'llanila boshlandi va birinchilardan bo'lib N.Viner kibernetika va informatikaning paydo bo'lishi bilan mazkur atamadan foydalandi.

F.I.Sharkov kommunikatsiyaga quyidagi ta'rifni beradi: "kommunikatsiya - keng ma'noda turli xil ma'lumotlarni yaratish, uzatish va qabul qilish imkonini beradigan o'zaro ta'sir jarayoni va aloqa usullari [2].

Shuningdek, u bunday konsepsiyanı aloqa jarayoni sifatida belgilab, "Kommunikativ jarayon - bu turli xil aloqa subyektlari o'tasida ma'lumot almashinadigan aloqa tizimi orqali o'zaro ta'sir qilish jarayonidir"[2] deydi.

V.A.Achkasova kommunikatsiyani:1) umumiy timsollar (belgilar) tizimi orqali shaxslar o'tasida muloqot qilish, axborot almashish (fikrlar, bilimlar, his-tuyg'ular, xulq-atvor shakllari); 2) o'ziga xos ma'lumotlar almashinushi, buning natijasida intellektual va hissiy mazmundagi ma'lumotlarni jo'natuvchidan qabul qiluvchiga o'tkazish jarayoni [3] sifatida ta'riflaydi.

D.P.Gavraga ko'ra kommunikatsiya tushunchasi: birinchidan, muloqot ya'ni, subyekt-subyektning o'zaro ta'siridir; ikkinchidan, ikki yoki undan ortiq subyektlarning bilvosita o'zaro ta'siridir. Ikkala subyekt uchun ham mazmunga ega bo'lgan axborot shakllanishi bo'lib, subyektlar o'tasida vositachi vazifasini bajaradi va shu bilan aloqa o'zaro ta'siri tashkil topadi. Shunday qilib, kommunikatsiya - bu axborotning o'zaro ta'siri (yoki ikki subyekt uchun ham mantiqiy bo'lgan ma'lumotlar vositasida subyekt va subyektning o'zaro ta'siri) [4].

V.P.Konetskaya kommunikatsiyani "har xil aloqa vositalaridan (verbal, noverbal) turli kanallar orqali shaxslararo va ommaviy aloqa sharoitida ma'lumotlarni uzatish va idrok etishning ijtimoiy jihatdan aniqlangan jarayoni" deb tushuntiradi [5].

Yuqoridagi barcha ta'riflar kommunikatsiyaning asosiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Demak, kommunikatsiya - bu turli xil aloqa subyektlari o'tasida ma'lumot almashinadigan umumiyl timsollar orqali shaxslar o'tasida muloqot qilish, axborot, fikr, bilim, his-tuyg'ular almashish tizimi bo'lib, ma'lumotlarni uzatish va idrok etishning ijtimoiy jihatdan aniqlangan jarayonidir.

"Strategiya" dastlab harbiy sohada iste'foda etilgan bo'lsada, hozirgi vaqtida o'z qo'llanilish doirasini kengaytirib, turli ilmiy fanlarda uchramoqda: psixologiya (xulq-atvor strategiyasi), menejment (boshqaruv strategiyasi), iqtisodiy nazariya (korxonani rivojlantirish strategiyasi), tilshunoslik (kommunikatsiya strategiyasi) vas hu kabilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida strategiya atamasi urish olib borish san'ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmiy ma'nolarida talqin etilgan. Strategiya so'zi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxona yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, shuningdek, maqsadga erishish natijalarini avvaldan bilish va nazorat qilish yo'nalishida keng qo'llanilmoqda.

Qariyb yuz yil avval, ya'ni 1925-yilda rus harbiysi, harbiy nazariyotchi, publisist va pedagog A.A.Svechin tomonidan yozilgan "Strategiya" (harbiy ma'noda) darsligida mazkur atamaning rivojlanish tahlili berilgan [6]. Strategiyani shakllantirishga strategik maqsadlar ta'sir qiladi. Strategiya maqsadlarga erishishning asosiy usullarini taklif qiladi, shunda harakatlar yagona yo'nalishga ega bo'ladi. M.Mladenovich yozganidek, strategiya "nafaqat maqsad va vazifalar to'plami", balki "kuchli qurol" [7] hamdir.

A.A.Romanov strategiya deganda "muloqot ishtirokchilaridan birining global va mahalliy aloqa maqsadlariga erishish rejasini bilan belgilanadigan va bog'liq bo'lgan xatti-harakati turi"ni nazarda tutadi [8].

Xo'sh, "kommunikativ strategiya" nima?

1970-yillarda Selinker, Savignon va Tarone [9] kabi tadqiqotchilar ikkinchi tilni o'rganish va o'qitishning yangi davrini yaratdilar. Selinker o'zining "Tillararo" maqolasida kommunikativ strategiyalar haqida gapirdi. Keyinchalik Tarone va uning hamkasblari Koen va Dyumaslar 1976-yilda "kommunikativ strategiya"ning birinchi ta'rifini berishdi [10].

Kommunikativ strategiya tushunchasi turli amaliy tadqiqotlar uchun nisbatan yangi. Ushbu atamaning faol qo'llanilishi 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida boshlandi. Hozirda kommunikativ strategiyaga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati tilshunoslik va aloqa nazariyasi doirasida ekanligini ko'ramiz. Menejmentda ham kommunikativ strategiyalarni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini uchratishimiz mumkin.

T.S.Djambinovaga ko'ra, kommunikativ strategiya - bu muloqot va strategiyaning sintezi, bu ma'lum bir kommunikativ maqsadga erishish uchun turli xil verbal va noverbal vositalar qo'llaniladigan kommunikativ xatti-harakatlar yoki kommunikativ o'zaro ta'sirning bir qismidir. Kommunikativ strategiyani ishlab chiqish ehtiyojlaridan kelib chiqib, maqsadli auditoriyaning afzalliklari va boshqa omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Kommunikativ strategiyani ishlab chiqish jarayonida vazifalar tahlil qilinadi, aloqa xabari va aloqa maqsadi shakllantiriladi, asosiy elementlar aniqlanadi, ular yordamida xabarlar maqsadli auditoriya vakillariga samarali uzatiladi [11]. Tadqiqotchi, ma'lum bir maqsadga erishish uchun turli vositalar yordamida kommunikativ xatti-harakat yoki o'zaro ta'sirning muayyan qismini muloqotdagi strategik ifodasini kommunikativ strategiya sifatida talqin qiladi.

A.V.Serpilinning ta'rifiga ko'ra, "kommunikativ straregiya - maqsadli auditoriya bilan qulay o'zaro munosabatlarni yaratish uchun kompaniyaning ichki va tashqi muhitga har tomonlama ta'siri [12]dir.

G.Ya.Goldshteyn esa, kommunikativ strategiyani iste'molchi sifatida maqsadli auditoriyaga ma'lumot uzatish uchun mavjud bo'lgan usullarning ko'p omilli tizimi, ulardan foydalanish ketma-ketligi, vaqt va erishilgan natijalarni miqdoriy baholash sifatida belgilaydi, bu ishlab chiqilgan tashkilot strategiyasining iqtisodiy samaradorligini belgilaydi [13].

Tahlillardan shuni alohida qayd etib o'tish joizki, maktab direktori ta'limda sifat va samaradorlikka erishish uchun turli subyektlar bilan aloqa o'rnatadi: ta'lim xizmatlari iste'molchilari, (o'quvchilar), manfaatdor taraflar (ota-onalar), jamoatchilik vakillari, homiyalar, turli davlat va nodavlat tashkilotlari. Mazkur aloqa subyektlarining har biri matabning o'z missiyasini amalga oshirishi, shuningdek, sifatli ta'lim muhitini tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maktab direktorining muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan to'g'ri tuzilgan kommunikativ strategiyalarga bog'liq.

Tahlil va natijalar. Har qanday tashkilot o'z faoliyatida boshqa tashkilotlar bilan kommunikativ munosabatlarsiz rivojlna olmagani kabi, maktab ham zamonaviy talablarga javob bera oladigan ta'lim maskani bo'lishi uchun, albatta, boshqa ta'lim subyektlari bilan maqsadli aloqalarni o'rnatishi, rivojlanish strategiyasini amalga oshirish barobarida kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishi lozim. Ta'lim sifatining oshishi nafaqat o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muvafaqqiyatli, natijador o'zaro aloqalar balki, barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari), turli davlat va nodavlat tashkilotlari, homiyalar, jamoatchilik vakillari bilan maktab direktorining to'g'ri tanlangan kommunikativ strategiyalari muhimdir. Bu o'z navbatida direktorlardan keng dunyoqarash, strategik fikrlash, natijani oldindan prognozlash, barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan kommunikativ munosabatlarda amaliy tajribaga ega bo'lishni talab qiladi.

Kommunikativ strategiyaning elementlari: kommunikantning maqsadi, nutq xatti-harakatlari modellari, individual shaxsiy xususiyatlar va muloqot ishtirokchilarining mafkuraviy qadriyatlarini kiradi. Kommunikativ strategiya shaxs xatti-harakatlarini boshqarishning yuqori sifatli vositasi bo'lib, voqelikning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashadi, shu bilan birga qabul qiluvchiga ta'sir qilish usullarini takomillashtiradi.

Kommunikativ strategiyalar - tashqi va ichki muhitda o'zaro ta'sir qilishning o'ylangan taktik vositalaridan iborat bo'lgan ongli va nisbatan uzoq muddatli rejalar deb tushuniladi. Kommunikativ strategiyalar direktor tomonidan qo'llaniladigan ijtimoiy-psixologik boshqa-

ruv usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, boshqaruv uslubi va tashkiliy xatti-harakatlar modelini shakllantiradi. Kommunikativ strategiyalarni bir qancha mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

- ✓ boshqaruv usulining mohiyati - tashkiliy, ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik;
- ✓ kommunikativ harakat mazmuni - axborot hamkorligi strategiyasi (asosan axborot almashinuvi), ijtimoiy-psixologik hamkorlik strategiyasi (asosan his-tuyg'u va istaklar almashinuvi);
- ✓ muloqot taraflari soni - bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama strategiyalar;
- ✓ aloqa darajasi – makro darajadagi strategiyalar, media darajasidagi va axborot-psixologik o'zaro ta'sirning mikro darjasasi [14];

Axborot-psixologik o'zaro ta'sirning mikro, media va mikro darajalaridagi kommunikativ strategiyalari aloqa darajasiga qarab farqlanadi.

Mikro daraja - bu maktab direktorining mahalliy aloqa darajasi bo'lib, axborot-psixologik o'zaro ta'sir direktorning bevosita tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Bunda barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ta'lim oluvchilar, ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari) nazarda tutilmoqda.

Media darajasi maktab direktorining o'z hamkasbleri (maktab direktorlari) o'rtasidagi aloqalarni nazarda tutadi. U boshqa maktablar va tizimdagи mutaxassislar (menejerlar) bilan ta'limdagi zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Axborot-psixologik aloqaning uchinchi darajasi makro daraja bo'lib, bu darajada muloqot o'z jamoasi, tashkiloti va sohasi chegaralaridan tashqariga chiqadi. U keng sohalarda xalqaro hamkorlikni o'z ichiga oladi. Maktab direktorining axborot makro muhiti nafaqat makonda, balki vaqt bo'yicha ham taqsimlanadi.

Xulosa. Yuqorida mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, direktorlarning maktabda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi sa'y harakatlarini oldindan rejalshtirilgan kommunikativ strategiyalar asosida tashkil etishi maktabning rivojlanishi va muvaffaqiyatini ta'minlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Коммуникативная стратегия [Электронный ресурс] // marketch.ru. –http://www.marketch.ru/marketing_dictionary/marketing_terms_k/communicative-strategy/
2. Ф.И.Шарков Коммуникология. Основы теории коммуникации. Учебник / Ф. И. Шарков. – М.: Дашков и Ко, 2014. – с. 100.
3. В.А.Ачкасова Связь с общественностью как социальная инженерия / В. А. Ачкасова // Под ред. В. А. Ачкасовой, Л. В. Володиной. - СПб.: Речь, 2005. – с. 228.
4. Д.П.Гавра Основы теории коммуникации: Учебное пособие. Стандарт третьего поколения / Д. П. Гавра. — СПб.: Питер, 2011. — с. 60.
5. В.П.Конецкая Социология коммуникации. Учебник / В. П. Конецкая. – М.: Международный университет бизнеса и управления, 1997. – с. 8
6. А.Свечин. Стратегия. Военный вестник. М.1927.-263. 15 с.

7. М.Младенович Военная стратегия в международных отношениях // Свободная мысль. — 2012. — № 3-4 (1632). — 223 с. — С. 5-14
8. А.А.Романов Системный анализ регулятивных средств диалогического общения. М.: Ин-т языкоznания АН СССР, 1988. 182 с.
9. З.Дорней и М.Л.Скотт (1997). Стратегии коммуникации на втором языке: определения и таксономия. Изучение языка, 47, 173–210. <http://dx.doi.org/10.1111/0023-8333.51997005>
10. E.Tarone (1980). Communication Strategies, Foreigner talk and repair in interlanguage. Language learning 30: 417-413.
11. Т.С.Джамбиноva Разработка коммуникационной стратегии продвижения товара в сети Интернет // Бизнес. Общество. Власть. 2014. № 18. С. 115-130.
12. А.ВСерпилин. Основные подходы к разработке и внедрению стратегии развития предприятия // Управление компанией. – 2001. – №3. – С. 31–48.
13. П.Смит, К.Бэрри, А.Пулфорд Коммуникации стратегического маркетинга. – С.: Юнити Дана, 2001. – 415 с.
14. В.Э.Бежовец Уровни информационного взаимодействия ученых. Гуманитарные дисциплины. LAP LAMBERT Academic Publishing, 2014.84 с.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING YANGI BILIM VA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY FANLARNING AHAMIYATI

Usmonova Gulnoraxon

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati yuzasidan fikrlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya imkoniyatlari, zamonaviy usullar, interfaol metodlar.

Abstract. This article discusses the importance of social sciences in the development of new knowledge and competencies of teachers in the process of professional development. At the same time, the possibilities of digital technologies are highlighted.

Key words. Knowledge, skill, competence, competence, opportunities, modern methods, interactive methods.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение социальных наук в развитии новых знаний и компетенций учителей в процессе профессионального развития. При этом подчеркиваются возможности цифровых технологий.

Ключевые слова. Знания, умения, компетенции, компетентность, возможности, современные методы, интерактивные методы.

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida yoshlarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rinn tutadi.

Metodist P.S.Leybengrub ta'larning asosiy tashkili formasi bo'lgan dars tuzilishi jihatidan tor sxemaga, qat'iy bir qolipga tushib qolganligi malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarni o'qitish oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni qiyinlashtirayotganini, ayni vaqtda bu hol o'qitishda har xil metod va usullardan foydalanishga to'sqinlik qilayotganini, o'quvchilarning darsga qiziqishini ham pasaytirayotganini to'g'ri ta'kidladi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati darsining quyidagi 4 ta tipini tavsiya etdi:

Ta'limgarayonining barcha elementlarini o'z ichiga olgan.

- 1) aralash dars;
- 2) to'liq yoki qisman yangi mavzuni o'rganishga bag'ishlangan dars;
- 3) umumlashtiruvchi — takrorlash darsi;
- 4) bilimlarni tekshirish va hisobga olish darsi.

Shuni aytish kerakki, P.S.Leybengrub shu masalaga bag'ishlangan asarlarida ham o'rta ta'limgarayonida tajribasida ilg'or o'qituvchilar qo'llanib kelayotgan dars turlarining hammasini ko'rsatmagan bo'lsada bu masalani o'rtaqa qo'yib, matbuot sahifasida munozara boshlab berishi g'oyat foydali ish bo'ldi. Shundan so'ng, 1957-yilda A.Vaginning malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarni o'qitishda darslari turlariga bag'ishlangan risolasi e'lon qilinadi. Bunda darslarining turlari to'rtta emas, balki ko'pligini, ularni turli formalarda olib borish zarurligini pedagogik jihatdan isbotlab berishga harakat qiladi.

Darslar mohiyatiga qarab turlarga ajratiladi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda darslarining mohiyatini ta'limgarayoni tashkil qiladi. Demak, ta'limgarayonining obyektiv qonuniyatlariga asoslanib, ijtimoiy fanlardagi darslarini turlarga bo'linishi masalasini to'g'ri hal qilish mumkin. Darsning har xil turlariga xarakteristika berishda o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok qilishga tayyorlash, materialni tahlil qilishga, asosiy tarixiy faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarini anglab olishga, umumlashtirishga, olgan bilimlaridan zarur paytda foydalanishga o'rgatish kabi ta'limgarayonlari e'tiborga olinadi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati darslarini turlarga bo'lishda uning bir turini boshqa turlaridan ajratib qarash yaramaydi.

O'qituvchi o'quv materialini bayon qilish jarayonida uni tahlil qilib boradi va umumlashtiradi. Biroq, ba'zi murakkab mavzular va bo'limlar yuzasidan maxsus tahlil qilish darslari, tarix kursining g'oyaviy mazmuni, ta'limgarayonining qonuniyatlarini bilan bog'lab maxsus umumlashtiruvchi – takrorlash darslari o'tkaziladi. Har bir darsda, o'quvchilarda xarita, har xil kartinalar, illyustratsiyalar ustida ishslash, jadvallar, reja va konspekt tuzish ko'nikma va malakalari hosil

qilish yuzasidan ish olib boriladi. Demak, o'qitishning ilmiy asosda tashkil qilinishi o'qituvchining darsda har xil vazifalarni muvaffaqiyatli bajara bilishiga bog'liq. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati tarixiy voqealarini bayon qilib berish va uni navbatdagi darsda so'rashdan iborat emas. O'qituvchi o'quvchilarni tarixiy voqealar ustida mustaqil fikrlashga, o'rganilgan tarixiy materiallardan tegishli xulosalar chiqarib olishga, uni umumlashtirishga, mavzular va umuman kursning asosiy masalalarini puxta o'zlashtirib olishga, turli matnlar, xaritalar bilan mustaqil ishlay bilishga, reja, konspekt, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzishga, ma'ruza va referatlar tayyorlashga, diagrammalar mazmunini tushunishga o'rgatishi lozim.

Dars turlariga xarakteristika berishda ta'lif jarayonining qonuniyatları, uning asosiy bosqichlari (o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga tayyorlash, material bilan tanishtirish, uni tahlil qilish, umumlashtirish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish, olgan bilimni ishga solishga o'rgatish va tekshirish) asos qilib olinadi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarni o'rganishning har bir bosqichi materialning mazmuniga qarab o'ziga muvofiq shakl oladi. Yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyatida darsining turi o'rganilayotgan mavzuning g'oyaviy mazmuniga va o'quv-ta'lifi va tarbiyaviy vazifalariga qarab belgilanadi. Binobarin, ta'lif qonuniyatlarini amalga oshirish va mavzuni o'rganishda foydalilaniladigan dars turlarini unga muvofiqlashtirib borishning aniq usullari tarix dasturi materialining mazmuniga qarab belgilanadi.

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning o'qitilishining maqsadi, ta'lif - tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish uchun ijtimoiy fanlarni o'qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi. Ijtimoiy fanni o'qitish uchun, uni o'quvchilarning o'rganishi ham darsda, ham darsdan tashqari mashg'ulotlarda davom etadi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati ta'lif - tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli darsdir. Binobarin, tarix darsining o'quvchilarga bilim berish, ularni vatanparvar ruhda tarbiyalash va komil inson bo'lib yetishishidagi o'rni beqiyosdir.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishga mo'ljallangan darslarga bo'lgan umumi pedagogik va didaktik talablar asosida zamonaviy dars variantlarini eksperimental tajribalar asosida ishlab chiqish shu kunga qadar biron tadqiqotchi olim yoki amaliyotchi o'qituvchining ilmiy izlanish obyekti bo'limgan.

Zamonaviy tarix darsiga bo'lgan talab nima bilan belgilanadi? Tarix ta'lifi davomida o'quvchi yoshlarni tarixiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirib, ularni o'tmishda va bugungi kunimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarini to'g'ri baholash va xulosalar ilmiy – uslubiy va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan tarix ta'lifi dars jarayonida samara beradigan turli – tuman shakl va usullardan foydalnishni taqozo etadi.

Tarix o'qitish deganda faqatgina o'qituvchini voqealar to'g'risidagi hikoyasini tinglash – u, kelgusi darsda uni o'quvchilardan so'rashgina emas, balki, tarix o'qitish jarayonida biz o'quvchilarimizni fikrlash va tarixiy voqealarini tahlil etish, o'rganilayotgan tarixiy material asosida xulosalar chiqarish va ularni umumlashtirish, tafakkur etish, o'rganilayotgan hamma mavzular va kursning yetakchi g'oyalarini ongli ravishda mustahkam o'zlashtirib olish, ularni tarixiy hujjatlar ustida mustahkam ishlab, rejalar va konspekt, xronologik va sinxronologik

jadvallar tuzishga, ularni tahlil etishga, qisqacha ma’ruzalar tayyorlashga, tarixiy xaritalar bilan ishslash va to’g’ri tarixiy mo’jal olishga qunt bilan o’rgatish jarayoniga aytildi.

Bugungi kunda o’quvchilarni o’qishga qiziqishlari borasida turlicha yondashish, qiziqishlarini bir xil emasliklari yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Ularni o’rab turgan ijtimoiy muhit o’quvchi yoshlarimiz dunyoqarashlarida o’z tamg’alarini goldirmoqda. Bunday sharoitda tarix o’qituvchisining vazifasi sinfda mavjud bo’lgan barcha o’quvchilar diqqat – e’tiborlarini ularga nisbatan differensiatsiya usulini qo’llab, bir vaqtida ularning hammalari uchun maqbul bo’lgan tarixiy materilni bayon qilish bilan, ikkinchi tomondan har bir o’quvchining qiziqishlarini hisobga olgan holda unga individual yondashmoqqa harakat qilmog’i kerak.

Dars jarayonida o’quvchilar faoliyatiga differentsial yondashuv qanday nazorat etilsa, ularning uy vazifalarini bajarishlarini nazorat etish ham shunday amalga oshirib borilmog’i kerak. Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, tarix darsining mazmuni mustaqil O’zbekiston Respublikasining yoshlar orasida olib boriladigan mafkuraviy ishlar vazifalariga mos kelishi, tarix o’rganishning turmush bilan aloqasini bog’langanligida, O’zbekiston kelajagi buyuk davlat bo’lishini nazariy va amaliy ishlar bilan bog’lab olib borishga yo’naltirilgan bo’lmog’i kerak.

Yangi bilim va kompetensiyalarni rivojlantiruvchi darslari samaradorligini oshirib borish uchun o’qituvchi tarix fanining rivojlanib borishini doimiy ravishda kuzatib bormog’i lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Cho’lpon, 2005.
2. Ahmedov B. O’zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O’qituvchi, 2001.
3. Барг М.А. Категории и методы исторической науки. – М., 1984.
4. Ganiyeva M., Fayzullayev D. Zamonaviy o’qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to’plami. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 95-b.
5. Гора П.В. Методические приемы и средства наглядного обучения истории в средней школе. – М., 1971.

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ТРЕНИНГ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ РОЛИ

Узаков Каҳрамон Пазилдинович
Давлат бошқаруви академияси
uzfar2686@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада давлат фуқаролик хизматчиларининг касбий кометентлигини ривожланишида тренинг машғулотларидан самарали фойдаланиш масалалари ёритилган. Ишда мавзуга оид ўтказилган сўровнома ва ҳуқуқий ҳужжатлар

муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: Давлат фуқаролик хизматчиси, касбий комптитентлик, тренинг машғулоти, малака ошириш, узлуксиз таълим, масофавий таълим.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования учебных занятий в развитии профессиональной компетентности государственных служащих. В деле обсуждались анкета и правовые документы, относящиеся к данной теме.

Ключевые слова: государственный государственный служащий, профессиональная компетентность, подготовка, повышение квалификации, непрерывное образование, дистанционное образование.

Annotation: This article covers the issues of effective use of training sessions in the development of professional competency of state civil servants. The questionnaire and legal documents related to the topic were discussed in the case.

Key words: State civil servant, professional competence, training, professional development, continuous education, distance education.

Кириш. Ўзбекистон – 2030 стратегиясида белгиланган мақсадларни муваффақиятли амалга ошириш кўп жиҳатдан давлат фуқаролик хизматчиларининг билим, малака ва кўнижмаларига умумий қилиб айтганда **касбий компетенцияларига боғлиқ**.

Давлат фуқаролик хизматчиларининг билим ва малакаларини, касбий компетенциялари оширишда таълим алоҳида аҳамият касб этади.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда давлат хизмати фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилиб, мамлакатимизда кадрлар сиёсати соҳасидаги ислоҳотлар янги босқичи бошланди.

Ўзбекистон Республикасининг “**Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида**”ги Қонунида давлат мутахассиснинг касбий компетенция дараҷасини оширишда таълимнинг узлуксизлигитъминлашга алоҳида эътибор қаратилган.

Сўнгги йилларда раҳбарлар таркиби ва ходимлар учун тренинг машғулотлари стратегиянинг муҳим таркибий қисми сифатида пайдо бўлди. Таъкидлаш керакки асосан йирик тадбирорклар ходимларни ўқитиш ва ривожлантиришга сармоя киритиш ходимларни рағбатлантиришини ва ташкилотга юқори малакали ишчи кучини яратишга имкон беришини тушуниб бормоқда.

Шу билан бирга давлат фуқаролик хизматчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантиришга ҳам ҳукума ва давлат идоралари ҳам бефарқ эмас.

Ушбу мақолада давлат фуқаролик ҳизматчиларини ўқитиш ва ривожлантиришнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Шунингдек, у давлат идоралари ўз ходимларини ўқитиш учун фойдаланадиган турли ёндашувларни тавсифлайди.

Тренинг режаси жамоани маълум бир ўқув мақсадига йўналтирадиган материаллар ва тадбирларни тавсифлайди.

Тренинг режасида ўрганиш керак бўлган мавзу, ҳар бир бўлимнинг узунлиги, ҳар бир мавзу бўйича ўқитиш усули ва раҳбарлар сиз билиши керак бўлган нарсаларни

ўрганғанлигига ишонч ҳосил қилиш учун фойдаланадиган чоралар күрсатилган.

Амалий машғулотларда ҳамма учун бир хил ёндашув йўқ. Бироқ, муқобиллар жуда кўп бўлса, ходимларингиз учун қайси ўқитиш усули энг яхши эканлигини аниқлаш вақт талаб қилиши мумкин.

Адабиётлар таҳлили ва методология: Катта ёшдагиларни таълимидаги тренинг машғулотларидан самарали фойдаланиш тобора омаллашиб бормоқда. Бу эса бутун ҳаёт давомида ўқиш ва ўрганиш принципининг ажralmas қисмига айланнишига сабаб бўлмоқда. Боиси умр давомида ўқиш, яни узлуксиз таълим олишнинг асосий шаклларидан бири тренинг машғулоти ҳисобланади.

Узлуксиз таълим контсепциянинг келиб чиқишини Аристотель, Суқрот, Афлотун, Сенека, Конфутсий ва бошқа қадимги мутафаккирларда топиш мумкин. Узлуксиз таълим ғоялари Вольтер, Гёте, Руссо қарашларида келтирилган бўлиб, уларни инсон ривожланишининг тўлиқлигига эришиш билан боғлаган. Й. А. Коменский узлуксиз таълим тўғрисидаги замонавий ғояларнинг асосчиси деб тан олинган, унинг педагогик меросида, А. И. Пискуновнинг сўзларига кўра, "ҳозирги кунда узлуксиз таълим концепциясида акс этган ғояни ўз ичига олади"[1].

Касбий компетентликка оид бўлган ёндашувларни таҳлил қила туриб, шуни айтиш мумкинки, ўқув жараённида унинг аҳамиятини аввалдан англаб етганларини кўриш мумкин. Н.А. Муслимов ва Қ.М. Абдуллаеваларнинг фикрича, компетентлик – олинган назарий билим, кўникма ва малакалар мажмуасини амалиётга мустақил ва ижодий қўллай олиш даражаси, бу талабанинг амалиёт жараённида ҳам, олий таълимдан кейинги фаолиятида ҳам шаклланиб боради[2]. Б.Р. Муқимов бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш ғоясини кўриб чиқиб, шуни таъкидланган: "Касбий компетентлик – мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларнинг амалда юқори даражада қўллай олиниши" деб фикр билдирган[3]. Россиялик олим А.В.Хуторскойнинг қайд этишича, "Компетенция предмет ва жараёнларнинг маълум доирасига нисбатан шаклланувчи шахснинг ўзаро боғлиқ бўлган сифатлари (билим, кўникма, малакалари) мажмуаси бўлиб, уларга нисбатан самарали ва самарасиз таъсир кўрсатиш демак. Компетентлик эса шахс томонидан мос компетенцияга эга бўлишни англатади". Англиялик олим Джон Равеннинг таъкидлашича, "Компетентлик муайян соҳада аниқ ва конкрет ҳаракатларни бажариш учун зарур бўлган ва тор мутахассисликка оид билимлар, алоҳида малака ва кўникма, фикрлаш усули, шунингдек, қилган ҳаракатлари учун жавобгарликни тушунишни қамраб олган ўзига хос қобилиятдир"[4].

Муҳокама: Давлатимиз раҳбари таъбири билан айтганда мамлакат тараққиётининг замонавий босқичида кенг кўламли ислоҳотларнинг муваффақиятли амалга оширилиши стратегиясининг мақсадларига эришиш давлат бошқарувининг мутлақо янги, самарали ва сифатли фаолият юритувчи тизимини яратишни, давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг уйғун фаолиятини ташкил этишни талаб қиласди.

Юқоридаги талаблардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти ўтган давр мобайнида мамлакатда кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини ривожлантиришга қаратилган бир нечта хужжатларни имзолади. Жумладан,

“Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сонли фармони, “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843-сонли фармони ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4472-сонли қарори билан соҳада амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар аниқ белгилаб берилди.

Хусусан, ушбу ҳужжатларда давлат хизматчиларини қайта тайёрлаш ва малакасини оширишга алоҳида эътибор қаратилган.

Давлат хизматчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш масаласига оид салмоқли илмий изланишлар олиб борилган. Бироқ, давлат хизматчисининг малака оширишда тренинг машғулотларидан самарали фойдаланиш масаласида олиб борилган изланишлар етарли эмас.

Айтиш керакки бизнес ходимлари ёки корхона ходимларининг касбий компетентлигини оширишда тренинглар ташкил этиш масаласи бир қанча олим томонидан ўрганилган аммо айнан давлат фуқаролик хизматчилари иштирокидаги курсларда тренингларни ташкил этиш масаласи етарлича муҳокама қилинмаган.

Шу сабабдан мазкур мақолада давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетентлигини оширишда тренинг машғулотларидан самарали фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари ўрганилиб, таҳлил қилинган.

Натижа: Давлат фуқаролик хизматчисининг малакасини оширишда тренинг машғулотларидан самарали фойдаланиш масаласини илмий жиҳатдан ўрганишда асосан **2 та усулидан** фойдаланилди:

1. Контент анализ: соҳага оид маҳаллий норматив ҳужжатлар таҳлили ҳамда Россия Федерацияси тажрибаси ўрганилиб, уларда ўрнатилган тартиб-қоидалар таҳлил қилинди. Бунинг учун Россия Федерациясининг қонун ва қонунисти ҳужжатлари ўрганиб чиқилди.

2. Сўровнома: давлат фуқаролик хизматчиларини масофавий (онлайн) тарзда малакасини ошириш борасидаги давлат фуқаролик хизматчиларининг фикрини ўрганиш мақсадида улар ўртасида ижтимоий сўровнома ўтказилди. Анкета сўровномаси 2та ёпиқ саволлардан иборат бўлиб, сўровнома “telegram.org” ижтимоий тармоғидаги давлат хизматчиларидан иборат гурӯхларда ўтказилди. Сўровномада жами 85 нафар респондент иштирок этди. Сўровнома натижалари Microsoft Excel дастури орқали таҳлил қилиниб, уларнинг айримлари диаграммалар орқали тақдим этилган ва кузатув усулларидан фойдаланилди.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Президенти “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843-сонли фармонида давлат фуқаролик хизматчиларининг билим ва малакаларини ошириш, кўникмаларини ривожлантириш мақсадида мунтазам равишда малака ошириш ва қайта тайёрлаш ишларини ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилган.


Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонунинг 42-моддаси “**Давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириш**” масаласига оид бўлиб, унда давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда оширишдан мақсад унинг самарали фаолият юритиши учун зарур бўлган билимлар, кўникмалар ва малакаларни эгаллаши учун шарт-шароитлар яратишдан иборат эканлиги қатъий белгилаб қўйилган [6].

Давлат фуқаролик хизматчиларининг анъанавий таълимдан узулганига кўп бўлганлиги ва уларнинг ёшга доир хусусиятларидан келиб чиқиб қулай таълим турлари ва шаклларидан фойдаланиш зарур бўлади. Бу борада уларнинг фикрини ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, мутахассисларни касбий компетенция даражасини оширишда тренинг машғулотларининг аҳамияти борасидаги давлат хизматчиларининг фикрини ўрганиш мақсадида улар ўртасида ижтимоий сўровнома ўтказилди. Анкета сўровномаси 2 та ёпиқ саволлардан иборат бўлиб, сўровнома “telegram.org” ижтимоий тармоғида ўтказилди. Сўровнома давлат ҳокимиятининг қуи ва ўрта бўғинида фаолият юритувчи давлат фуқаролик хизматчилари иштирок этишди. Сўровномада жами **85 нафар** респондент иштирок этди.

Сўровнома натижаларига қўра давлат фуқаролик ҳизматчиларининг малака ошириш курсларини ташкил этишда тренинг машғулоти энг самарали эканлиги маълум бўлди (1-расм).

Давлат фуқаролик ҳизматчилари учун малакасини ошириш курсларини ташкил этишда қўйидагилардан қайси бири самарали?



1-расм

Респондентлар томонидан вебинар (онлайн) таълим шакли танланмади. 94 фоиз иштирокчи тренинг машғулотларини афзал кўрган.

Шунингдек давлат ҳизматчиларидан Давлат фуқаролик ҳизматчилари иштироқида ташкил этиладиган тренинг машғулотларида асосан қайси жиҳатларга эътибор қаратиш лозимлиги сўралганда уларнинг асосий қисми мунозаралар (ўзаро тажриба алмашиш) ва машқлар, ролли ўйинлар (интервю)га жавоб варинтлари ни танлашган (1-жадвал).

Давлат фуқаролик ҳизматчилари иштирокида ташкил этиладиган тренинг машғулотларида асосан қайси жиҳатларга эътибор қаратиш лозим?

Жавоб варианatlари	Берилган овозлар фоизда
Мунозаралар (ўзаро тажриба алмашиш)	61%
Машқлар, ролли ўйинлар (интервю)	52%
Кичик гуруҳларда ишлаш	38%
Савол-жавоблар	36%
Кейс ва вазиятли саволлар муҳокамаси	35%
Ҳаракатли ўйинлар	23%
Видео, аудио ва бошқа дастурий материаллар	22%
Кичик маърузлар	8%
Тест топшириқлари	6%
Мустақил ишлаш	5%

1-жадвал.

Мазкур саволга респондентлар 3 тагача жавоб варианatlарини танлаш имкониятига эга бўлди. Шу сабабдан ҳам умумий қиймат 100 фоизни ташкил этмайди.

Жадвалда кўриб турганимиздек давлат фуқаролик ҳизматчилари иштирокида ташкил этиладиган тренинг машғулотларида асосан мунозаралар (ўзаро тажриба алмашиш), машқлар, ролли ўйинлар (интервю), кичик гуруҳларда ишлаш, савол-жавоблар ва кейс ва вазиятли саволлар муҳокамасига эътибор қаратиш лозим бўлар экан.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, тренинг машғулотларини ташкил этиш масаласини муҳокама қиласми.

Тренинг машғулотлари одамларга турли хил таълим қадриятларини бериш учун мўлжалланган дастурлардир. Бу, масалан, корпоратив тренинг ёки жамоавий малака ошириш бўлиши мумкин. Ушбу машғулотлар билим ва касбий кўникмаларни ошириш, маънавиятни ошириш, жамоага қайта эътибор қаратиш ва ҳоказолар учун жуда яхши. Ушбу сессиялар маърузалар, баҳолашлар, муҳокамалар ва намойишларни ўз ичига олиши мумкин.

Учта асосий омил дастур билан боғлиқ барча элементларни тушунтириши мумкин.

1. Олдиндан тайёргарлик

Тренингдан олдин баҳолашни ўтказиш жуда муҳим, чунки бу тренерларга номзодларнинг талабларга тезда жавоб бериши ва машғулотларда яхши ишлашини таъминлаш имконини беради. Кейинги қадам номзодларни барча талаб қилинадиган мезонлар бўйича баҳолаш учун тайёргарлиқдан олдинги тестни ишлаб чиқиш бўлади.

2. Тренинг

Мунтазам равишда ўқитиладиган ходим иш самарадорлигини ошириши мумкин. Ўқув дастурлари туфайли ҳар бир ходим асосий вазифаларни бажариш учун хавфсиз амалиётлар ва тегишли тартиб-қоидалар билан танишади.

Ўқув дастури, шунингдек, ходимга соҳа ва ўз лавозимининг масъулиятини яхши-

роқ тушуниш орқали ишончни қозонишга ёрдам беради.

3. Машғулотдан кейинги машғулотлар.

Баҳолашнинг энг машхур усулларидан бири бу ўқувдан сўнг дарҳол номзодларга тестларни ўтказишидир. Бу мураббийларга номзодлар мақсадларга эриша оладими ёки йўқлигини аниқлаш имконини беради. Идеал ўқув тести аниқ натижаларга эришиш учун саволларга нисбатан ҳар доим ҳақиқий ва ишончли бўлиши керак.

Давлат фуқаролик хизматчиларининг берган жавобларидан келиб чиқиб, тренинг машғулотларини самарали ташкил этишда қуидагиларга эътибор қаратиш лозим бўлади.

Тренинг машғулотларининг самарали ўтишини таъминлаш учун уни ташкил этишда бир қанча муҳим жиҳатларга эътибор бериш лозим болади.:

- Машғулот ўтиш жойи ва жихозлари ҳамда вақти;
- Тингловчилар груҳи (тофаси, ёши, соҳаси ва бошқалар) ва сони;
- Материаллар рангбаранглиги ва ҳаётийлиги.

Жумладан замонавий тренингларни тақдимотсиз тасаввур этиш қийин.

Шу нуқтаи назардан тақдимот тайёрлаш тренингга тайёргарлик кўришнинг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади. Бунда қуидаги ишларни босқичма босқич амалга ошириш тавсия этилади (2-расм).



2-расм

Хулоса: Тренингни ва тегишли воситаларни режалаштирмасдан самарали машғулот ўтказиб бўлмайди. Чунки давлат хизматчиларининг вақти жуда қадрли ва улар бой тажриба эгалари.

Шунинг учун улар учун ташкил этиладиган малака ошириш курсларини ташкил этишда тингловчилар фикрига таяниш лозим. Сабаби улар мустақил фикрловчи, ҳатто турли даражадаги жамоаларни бошқарувчи шахслар ҳисобланади.

Россиялик мутахассис Луканина Юлияниг ўзининг 2014 йилдаги “Давлат хизматчиларининг малакасини ривожлантириш, уларнинг касбий шахсини шакллантириш шарти сифатида” номли мақоласида мутахассислар давлат хизматчиларининг касбий ваколатларини ривожлантириш механизми сифатида узлуксиз касбий таълимнинг минтақавий тизимини модернизация қилиш бўйича билдирган таклифлари қайд этилган. Мутахассисларнинг фикрига кўра, замонавий масофавий таълим шаклларини минтақавий узлуксиз касб-хунар таълими тизимиға фаол жорий этиш орқали амалга оширилган ўқитишнинг элективлиги шароитда тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Бугунги кунда минтақамиизда давлат хизматчиларини тайёрлаш жараёнида ушбу технологиялар қўлланилмоқда, аммо афсуски, бу етарли эмас. Масофавий таълимни сифатли модернизация қилиш учун ўқув жараёнининг ўқув ва услубий жиҳозларини (электрон дарсликлар, видео маъruzалар, масофавий симуляторлар, маълумот ва таҳлилий материаллар, вебинарлар ва бошқалар) тақомиллаштириш зарурлиги таъкидланган [7].

Юқорида Ю.Луканина томонидан таъкидланган масалалар бугунги кунда Ўзбекистон учун ҳам долзарб масалалардан ҳисобланади.

Давлат хизматчиларидан иборат тингловчилар учун ташкил этиладиган малака ошириш ва қайта тайёрлаш курсларида қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Машғулотлар вақти: Машғулотлар вақтини белгилаш муҳим масалалардан бўлиб, бунда давлат фуқаролик хизматчисининг ақлий ва руҳий тетиклик вақти ва асосий меҳнат фаолиятидаги бўш вақтидан келиб чиқиб белгилаш керак.

Мулоқот ва муҳокама: машғулотларда жонли мулоқот қилиш, муҳокамалар ташкил этиш ва кейслар ҳамда вазиятли саволлардан самарали фойдаланишга оид қўлланмаларни яратиш.

Кўплаб хорижий давлатларда олий таълимда семинар-тренинг шаклидан самарали фойдаланиб келинмоқда ва бу борада мамлакатимиздаги олий таълим муасссалари ҳам маълум натижаларга эришишмоқда.

Бундан ташқари АҚШ, Англия, Корея, Туркия каби давлатларда давлат хизматчиларини малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш вазифаларини айрим олий таълим муасссалари томонидан амалга оширилади. Бунинг натижасида юқоридаги давлатларда давлат хизматчиларини малакасини ошириш ва қайта тайёрлашда тренинг машғулотларидан самарали фойдаланиб келинмоқда.

Шу сабадан давлат фуқаролик хизматчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашда тренинг машғулотларидан самарали фойдаланиш фойдаланиш мақсадида олий таълим муасссалари билан ҳамкорликни ривожлантириш мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар рўйхати:

1. Муслимов Н.А ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқувметодик қўлланма. – Т. Sanostandart, 2015. – 120 б.

- Муқимов Б.Р. Талабаларни мустақил иш жараёнида интерфаол таълим методлари асосида дидактик компетенциясини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020. – 186 бет.
- Непрерывность образования как фактор повышения уровня профессиональной компетентности специалиста. https://studexpo.net/471072/pedagogika/nepreryvnost_obrazovaniya_faktor_povysheniya_urovnya_professionalnoy_kompetentnosti_spetsialista
- Олимов Э. Б. Ички ишлар органлари ходимларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 04 | Apr - 2023 ISSN: 2181-2608.
- Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон
- <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-kompetentsiy-gosudarstvennyh-sluzhaschih-kak-uslovie-formirovaniya-ih-professionalnoy-identichnosti>

“TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA STRATGIYLARI

Xabibulloev Doniyor Sadulloyevich

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonining ahamiyati, ta’limni rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalari haqida ma’lumotlar berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, tendensiya, strategiya, tamoyil, kategoriya, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье представлена информация о значении образовательного процесса, тенденциях и стратегии развития образования.

Ключевые слова: образование, подготовка, тенденция, стратегия, принцип, категория, развитие.

Annotation: This article provides information about the importance of the educational process, trends and strategies of educational development.

Key words: education, training, trend, strategy, principle, category, development.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga yetishi bilan bog’liq. Bizning eng asosiy vazifamiz, yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

Ta’lim-tarbiya jarayoni turli davrlarda va turli jamiyatlarda o’z xususiyatini o’zgartirib, makon va zamon nuqtai nazari bilan takomillashib boradi. Ijtimoiy hayotning talablari, unda yashaydigan insonlarning ehtiyoji bilan ta’lim nazariysi va amaliyotida o’ziga xos

rivojlanish tendensiyalari kuzatiladiki, bu tabiat va jamiyatning evolyutsion tadrijiy o'zgarishlari bilan hamohang ravishda olib boriladi. Har bir tarixiy davrda ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, xususiyatlari va uslublarida o'sha davr uchun xos bo'lgan yangilanishlar va modernizatsiya kuzatiladi. Shu mazmunda ta'limning ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ijtimoiy kategoriya sifatida o'rganamiz.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi.

Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlidan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars jarayonidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'Imagan bitta tushunchaning o'rinni olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'Imagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtaсидаги mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahvilili mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'Imagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'Imagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'Imagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.
- Ta'lim jarayoni, uning tendensiyalari, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi

ijtimoiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lism jarayoni – bu bir butun pedagogik jarayonlar, ta'lism va tarbiyaning o'zaro bog'langan va mohiyatan bir-birini to'ldirib boradigan xususiyatlarni o'z ichiga olib, ta'lism mazmunini bugungi kuni va istiqbolini belgilab beradigan tashkiliy normalarni o'zida mujassam etadi.
2. Ta'lism jarayoni ijtimoiy hayot, atrof-muhit, tabiat va jamiyat bilan doimiy o'zaro aloqadorlikda bo'lib, shuningdek, ular o'rtasidagi umumiylar munosabatlarni mohiyati va birligini ta'minlash uchun o'z imkoniyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy makon va ochiq tizimdir.
3. Ta'lism tizimi inson taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan kompleks xususiyatlarni o'z ichiga olib, inson takomilining tabiat va jamiyat bilan bog'liq jihatlarini umumiylar falsafiy qonuniyatlarini asosida faol va doimiy harakatdagi ijtimoiy vogelikdir.
4. Ta'lism jarayoni ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadlarga mo'ljallangan vazifalarni bajarib, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro shartnomaga asoslangan ta'limiylar munosabatlardir.
5. Ta'lism tizimi jamiyatda muhim ijtimoiy vazifa, ya'ni inson manfaatlari, uning kelajagi va istiqbolini ta'minlash, yosh avlodni barkamol, zamonaviy taraqqiyotga innovatsion bilimlari bilan kirib keladigan, natijada farovon hayot qurishga qaratilgan qadriyatlarni ro'yobga chiqaruvchi ijtimoiy makondir.
6. Ta'lism tizimi yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy va jahon madaniyatining durdonalaridan bahramand qiladi, insonlar o'rtasida o'zaro barqaror ma'naviy aloqalarni ta'minlaydi, insonni ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar ta'lism berish tamoyilini o'zida mujassam etadi.

Ta'lism strategiyalari ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilar tomonidan o'rganish va muloqot qilish qobiliyatlarini samarali ishlashiga yordam beradigan amaliyot va tadbirlarni anglatadi. Ta'lism strategiyalari shaxsning akademik tushunchalarni tushunishning tizimli usulini anglatadi. O'quvchilar akademik maqsadlarga erishishga qaror qilganlarida, ular o'rganish strategiyalarini foydali yo'llar bilan amalda qo'llaydilar. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilar o'z iste'dodi va qobiliyatlarini o'rganish mazmunida hamda boshqa vazifalar va faoliyatlarda qo'llashlari kutiladi. Ta'lism strategiyalari odamlar tomonidan o'z hayotida ta'lism maqsadlariga erishish kontekstida emas, balki boshqa sohalarda ham, akademik bo'Imagan sohalarda ham amalga oshiriladi.

Ta'limning barcha bosqichlaridagi o'qituvchilar o'quvchilarni guruhlarda ishlashga undashadi. Boshqacha qilib aytganda, ular o'quvchilar o'zaro tushunishni rivojlantirishlari va bir-biri bilan muvofiqlashtirish va integratsiyada ishlashlari uchun jamoaviy ishlashni rag'batlantiradilar. Demak, o'quv strategiyalarining mazmuni va ahamiyati o'quvchilarning samarali tartib-qoidalarni qo'llashi va guruh bo'lib ishlaganda amalga oshadi.

Maktablarda, yoki bolalar bog'chasi, va boshlang'ich, o'rta yoki o'rta muktabda, o'quvchilar ko'p vaziyatlarda o'z o'rganishlarini osonlashtirish uchun boshqalardan yordam oladilar. Oila a'zolari, do'stlari yoki shaxsiy repetitorlar bo'ladimi, akademik tushunchalar qiyin bo'lganda, ular internet yordamida tushunishni osonlashtiradi, biroq ular boshqa odamlarning yordamiga muhtoj. Gohida o'qish materiallari o'quvchilarga tushunchalarni aniqa va samarali tushunishga imkon bermasligi mumkin.

Shu uchun, o'quvchilar o'zgalar bilan muloqotda bo'lganda, o'rganish tezkor tarzda

amalga oshirilishi mumkinligi yaxshi tushuniladi. O'rganishni osonlashtirish uchun amaliyotda qo'llaniladigan ko'plab o'quv strategiyalari mavjud. Shunday qilib, ta'lif strategiyalarining mazmuni va ahamiyati o'quvchilar o'zlarining baholari, mavzulari va tushunchalari, o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda foydalanilganda amalga oshiriladi, deb aytish mumkin.

Demak ta'lif tendensiyalari va strategiyalari – insonlarning ijtimoiy hayot bilan bevosita bog'liq ong va tafakkur tizimini rivojlantirib, tarixiy va falsafiy dunyoqarash, siyosiy va huquqiy madaniyat, diniy, axloqiy, estetik, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan chora-tadbirlar asosida maqsadli va istiqbolli shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. -Тошкент, Фан, 2006. –Б.6.
2. Yuldasheva G., & Shermatova, H. (2022). Ta'lifda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. Science and Innovation, 1(B8), 5-9.
3. Mirzayevna S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifatini oshirishda AKTdan foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74
4. Shermatova Xilola Mirzayevna, Maxammadjonov Jaxongir, SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 Fan va ta'lif rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. www.oriens.uz; 788-792

TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xalimov Muxammad Raximberdiyevich

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil-tadqiqotchisi,
muxammadxalimov80@gmail.com,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda ta'lif tizimida inson resurslarini boshqarishga turli yondashuvlarning xususiyatlari hamda bu borada olib borilgan ishlar o'r ganilgan va xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: inson resurslarini boshqarish jarayoni, ontologik yondashuv, yangi o'qituvchilarni moslashtirish, "strategik yo'nalish" va "inson resurslariga yo'naltirilganlik", "vertikal" va "gorizontal" strategik yo'nalish.

Аннотация: В данной статье изучены характеристики различных подходов к управлению человеческими ресурсами в системе образования в развитых странах, а также работа, проводимая в этом направлении, и сделаны выводы.

Ключевые слова: процесс управления человеческими ресурсами, онтологический подход, адаптация новых преподавателей, «стратегическое направление» и «кадровая

ориентация», «вертикальное» и «горизонтальное» стратегическое направление.

Abstract: In this article, the characteristics of different approaches to human resources management in the educational system in developed countries, as well as the work carried out in this regard, were studied and conclusions were drawn.

Key words: human resource management process, ontological approach, adaptation of new teachers, “strategic direction” and “human resource orientation”, “vertical” and “horizontal” strategic direction.

Hayotimizning barcha sohalarida inson resurslarini boshqarishda, yangicha fikrلай-
digan, qiyin damlarda mas’uliyatni o’z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam
yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirish
hamda ular tomonidan xodimlarni boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanish eng
dolzarb masalalaridan biridir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning
2017 yil Parlamentga Murojaatnomasida: - “Davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish
maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar
siyosatini shakllantirish zarur”ligini alohida ta’kidladilar [1].

Ayni paytda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy muammolarni yecha oladigan,
avvalo, uni teran anglaydigan, islohotlar jarayonida jonkuyarlik qila oladigan, ma’naviy-
ahloqiy barkamol, qodir shaxslarni boshqaruv bo‘g‘inlariga ko‘proq jalb etish asosiy va
bosh masala hisoblanadi. Ko‘rsatilgan muammolarni hal yetish uchun - Inson resurslarini
boshqarish jarayonini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim sohasida inson resurslarini boshqarish (IRB) borasida oxirgi paytlar ko‘plab
tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, boshqa tarmoqlarga masalan, ishlab chiqarish
sohalariga qaraganda ancha kamdir. Bu ta’lim tizimida IRB tamoyillarini hali yangi va
dolzarb deyishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, ta’lim tizimida IRB bo‘yicha yetarlicha
model va yondashuvlar o‘rganilmaganligini anglatadi.

Ta’lim taskilotlarda inson resurslarini boshqarish borasidagi zamonaviy model
va yondashuvlarni tahlil qilganimizda, ularni otnologik (ontology), yangi o‘qituvchilarni
moslashtirish (HR architectures for new teachers) kompetensiyaga asoslangan
(competence-based), nizolarni hal qilishga qaratilgan (conflict management case studies)
model va yondashuvlarni alohida ajiratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Ontologik yondashuv boshqaruvda ishchi-xodimlar bilan bog‘liq barcha mehnat
munosabatlarini o’z ichiga oladi. Ma’lumki, inson resurslarini boshqarish funksiyasi ishga
qabul qilish, rag‘batlantirish, bo‘shatish, har bir xodimning shaxsiy yozuvlari (ma’lumotlar,
ko‘nikmalar, qobiliyatlar) va ish tajribasidan tortib to ish haqi yozuvlarigacha bo‘lgan
son-sanoqsiz ma’lumotlarni tartibga solishdan iboratdir[2]. Ontologik yondashuv ushbujarayon
va vazifalarni to‘g‘ri tartibga solish va rivojlantirish uchun uni raqamlashtirishni nazarda
tutadi.

Ontologik yondashuv ish izlovchilar va uning CV (tarjimai holi) ma’lumotlarini,
shuningdek, ish taklifi va ish beruvchi ma’lumotlarini modellashtirishga qaratilgan [3]. Maqsad
ish izlovchi va ish beruvchi o‘rtasidagi dastlab munosabatlarni osonlashtirish va ochiq-
shaffof ko‘rinishga keltirishdir. Shu bois, bo‘sish ish o‘rinlari, ishning xususiyati, talab va
majburiyatları, kompetensiyaviy talablar, ish haqi miqdori va rag‘batlantirish shakllari
raqamlashtirilgan (onlayn) ko‘rinishda e’lon qilinadi va nomzodlar ham o’z arizalarini,
CV (tarjimai holi) va boshqa ma’lumotlarini masofadan (onlayn) topshiradi. Bu an’anaviy

usullarni ya'ni qo'lda ariza berish, to'g'ridan-to'g'ri ish beruvchi bilan kontakt qilishni oldini oladi va ishga kirish arizalari ishga qabul qilish uchun tuzilgan komissiya qo'liga kelib tushadi. Komissiya a'zolari nomzodlarni ma'lumoti, tajribasi, yutuqlari, til bilish darjasи, kompetensiya va qobiliyatlarini baholash orqali eng maqbul nomzodni tanlaydi.

Ishga yangi kirgan o'qituvchi uchun nima qilish kerak, uni jamoaga kirib ketishi va moslashishi uchun nima qilish kerak? Ushbu savol va masala bo'yicha inson resurslarini boshqarishning o'ziga xos model va yondashuvlari bor. Shulardan biri, tadqiqotchilar Yeva Vekeman, Gert Devos va Martin Valkelar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hisoblanadi [4]. Ushbu tadqiqotchilar HR arxitekturasi ma'muriy, rivojlanish, strategik va strategik-rivojlanish arxitekturasiga bo'linishini ta'kidlaydi. Ammo tadqiqotchilarning fikricha, faqat ozchilik direktorlar yangi o'qituvchilar uchun HR amaliyotlari to'plamini strategik jihatdan ishlab chiqadi. Buning sababi yangi o'qituvchilarni qanday boshqarish kerakligi haqida strategiya ishlab chiqilmagan va direktorlar orasida nomutanosiblik bor.

Umuman olganda, IRB ikki yo'nalishga bo'linadi: "strategik yo'nalish" va "inson resurslariga yo'naltirilganlik". Ikkala yo'nalish ham IRB amaliyotlarini konfiguratsiya qilish uchun ta'sir qiladi. Strategik yo'nalish "vertikal" va "gorizontal"ga bo'linadi. Vertikal strategiya IRB amaliyoti tashkiliy maqsadlarga moslashtirish yoki integratsiyalashni nazarda tutadi. Gorizontal strategiya esa IRB amaliyotlarini turdosh vazifa va maqsadlarga bog'lashdir. Vertikal strategiya davlat tashkilotlarida bo'lganidek, maktablarda ham tashkilot rahbarining qiymatini oshirish bilan bog'liq emas, balki tashkilotning aniq qadriyatlar va missiyalarga asoslangan bo'lisi kerak. Gorizontal strategiya vertikal strategiyani amalga oshirish uchun barcha yon va turdosh yo'nalishlarni birlashtirishi va harakatga keltirishi kerak. Masalan, o'qituvchilarning yetishmasligi, yangi o'qituvchilarni jalb qilish kabi omillarni hal qilish va boshqalar [4].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab maktablar IRB amaliyotini ma'muriy ko'rinishda amalga oshiradi va yangi o'qituvchilar uchun IRBni moslashtirmaydi. Maktab direktorlari IRBni yangi o'qituvchilarning ehtiyojlari yoki mакtab maqsadlariga emas, balki byurokratik qoidalarga yo'naltiradi. Qolaversa, IRB o'z maktablarining strategiya maqsadlarini aks ettirishni ta'minlashdan ko'ra, IRBning operatsion tartiblari bilan shug'ullanadi. Ko'pchilik direktorlar yangi o'qituvchilarning rivojlanish ehtiyojlarini tan olsa-da, amaliyotda ularni strategik resurs sifatida ko'rmaydi. Chunki, maktab direktorlar o'qituvchilarni ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan strategik resurslardan ko'ra, birinchi navbatda sotib olinishi yoki tanlanishi kerak bo'lgan resurslar sifatida qabul qilinadi [4].

Bundan kelib chiqib, tadqiqotchi Y.Vekeman, G.Devos va M.Valkelar maktablarda IRB amaliyotida strategik-rivojlanish arxitekturasini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish lozim. Bu strategik-rivojlanish boshqaruvi yangi o'qituvchilarni rivojlantirish va ularning maktab maqsadi va missiyalari uchun istiqbolli yetuk kadr bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Shuningdek, bu o'qituvchilarni kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi [4].

Muammo shundaki, tijoriy sektordan farqli o'laroq, ta'lim sohasiga yangi kadrlarni jalb qilish biroz qiyin. Chunki, tijoriy sektorda tashkilotning obro'si va maoshiga qarab yangi kadrlarni o'zi kela boshlaydi. Ammo, maktablarda odatda bunday bo'lmaydi. Maktablarda yangi o'qituvchilarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi o'qituvchilarning rivojlanish ehtiyojlariga alohida

e'tibor berish kerak. Yangi o'qituvchilarni jalg qilish va malakali o'qituvchilarni ushlab turish uchun kasbiy rivojlanish va maktab tomonidan qo'llab-quvvatlanish juda zarur. Boshqacha qilib aytganda, maktablarga investitsiyalar tashkilotga qiymat yaratishni ta'minlash uchun maktablarda IRBda yangi o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning malakasini oshirishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot shuni ko'ssatadiki, inson resurslariga yo'naltirilgan direktorlar qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda yangi o'qituvchilarning o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor qaratadilar va IRB ushbu xususiyatlarning sifatini yaxshilashga harakat qiladi [4].

Xulosa qiladigan bo'lsak, umumta'lim maktablarida inson resurslarini boshqarish modeli muhim ahamiyatga ega. Har bir maktab IRB borasida o'z modeliga va strategiyasiga ega bo'lishi kerak. Model doim takomillashtirib borilishi, strategiya esa maktab kompetensiyasiga mos kelishi kerak. IRB da maktab qadriyatları, qarashlari, maqsadlari hamda ichki va tashqi tizimlar bilan hamkorlik tamoyillari bo'lishi kerak. Har qanday IRB modeli maktab faoliyatini yanada yaxshilash, inson resurslari borasidagi muammo va kamchiliklarini oldini olish va maktabning yaqin va uzoq kelajakdagi yutuqlariga mos kelishi va ta'lif sohasidagi muvaffaqiyatlarini kafolatlashi kerak.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 29-dekabr. <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/203>
2. Legge Karen. Human Resource Management: Rhetorics and Realities Anniversary ed. Hounds Mills Basingstoke Hampshire: Palgrave Macmillan, 2005.
3. Gómez-Pérez A., Ramírez J. and Villazón-Terrazas B., An Ontology for Modelling Human Resources Management Based on Standards. In: Apolloni, B., Howlett, R.J., Jain, L. (eds) Knowledge-Based Intelligent Information and Engineering Systems. Lecture Notes in Computer Science, vol 4692. Springer, 2007, pp.1-8.
4. Vekeman E., Devos G., & Valcke M., Human Resource Architectures for New Teachers in Flemish Primary Education. Educational Management Administration & Leadership, 44(6), 2016, pp. 970-995; Vekeman E., Devos G., & Valcke M., Linking educational leadership styles to the HR architecture for new teachers in primary education. SpringerPlus, 5:1754, 2016.

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA PEDAGOGIK BOSHQARUV TIZIMINI DEMOKRATLASHTIRISH

Xalmonov Umid Ochilovich

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisı,
MTTDMQTMO instituti mustaqil izlunuvchisi.
E-mail: umidxalmonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro tajribalar asosida sifat menejmentiga bo'lgan evolyutsion yondashuvlar bosqichlarining mazmun-mohiyati, zamонавиј sifat menejmenti

tizimini joriy etish vazifalari va ularni hal qilish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlari: ta'lism sifati, menejment, sifat menejmenti, sifat menejmenti tizimi, pedagogik ta'limgning zamonaviy boshqaruvi, modernizatsiya, ta'limni demokratlashtirish, markazlashtirish.

Аннотация: В статье на основе зарубежного опыта рассматривается сущность этапов эволюционных подходов к управлению качеством, задачи внедрения современной системы менеджмента качества и пути их решения.

Ключевые слова: качество образования, менеджмент, управление качеством, система менеджмента качества, современный менеджмент педагогического образования, модернизация, демократизация образования, централизация.

Hozirgi kunda jamiyat rivojlanishi ilm-fanga investitsiya kiritish orqali inson kapitalidan ratsional foydalanishga bog'liq ekanligi namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun "inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart". Darhaqiqat, rivojlangan davlatlar amaliyoti ham ta'lim tizimini isloh qilishning, unga e'tiborni, investitsiyani ko'paytirishni hamda inson resursini to'g'ri boshqarish lozimligini ko'rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbuskorligida "umumi o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimizni har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish"¹da ta'lim boshqaruvini ham isloh qilish va bu orqali uzuksiz ta'lim sifatiga va bilim berish samaradorligiga ta'sir ko'rsatish zarurati ortib bormoqda. Zero, "ta'lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo'naltirilgan"²ga o'tish uchun asos zarur. Shunday ekan, ta'lim tizimi boshqaruvining har bir qismini samarali, olib borishga imkon beradigan menejment tamoyillarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida uning sifatini takomillashtirish, demokratlashtirishni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, uning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, pedagogik imkoniyatlarni belgilash, bu boradagi amaliy tajribalarni yoritish hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Sifat menejmenti tizimini joriy etish va boshqarish masalalari bo'yicha ko'plab xorijlik olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Xususan, AQShda E.Demingning: "Sifat, unumdarlik va raqobatbardoshlik" va "Inqirozdan chiqish" kabi kitoblarida "14 qoida" nomi bilan tanilgan³ Deming falsafasi o'rin olgan bo'lib, ular umumi sifat (Total Quality) ning asosini tashkil qilgan. Boshqa bir mashhur Amerikalik, Sifat sohasidagi mutaxassis A. Feygenbaumning ta'rifiga ko'ra, "sifat - evangelizm emas, oqilonalashtirish taklifi emas va shior ham emas, u hayot tarzidir deb atagan". Shunindek, Yaponiya olimlar va muhandislar birlashmasi (JUSE) tomonidan "Sifat ustasi va nazorati" jurnalida "Sifat korxonaning taqdirini hal qiladi" degan fikrlar bayon etilgan.

"Ta'lism sifati" iborasi mamlakatimizda ilk bor 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjalarning ta'lism sifati ustidan davlat nazoratiga bag'ishlangan modda va bo'limlarida rasmiy ravishda qayd etilgan. Sh.Qurbanov va E.Seytxalilovlarning tadqiqotlarida ta'lism sifati deganda ta'lism jarayonining turli ishtirokchilari ta'lism muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lism xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi tushuniladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. URL://<https://president.uz/uz/lists/view/2228>

2 Дж. Харрингтон. "Управление качеством в американских корпорациях". М.: "Экономика", 1990, с. 272.

3 <http://учебник-онлайн.ком/123/1302.хтмл>

Ta'lism sifati, bu butun ta'lism tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi (dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lism muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi⁴.

"Boshqaruv" tushunchasi odatda tizimning bir holatdan yanada sifatiroq holatga o'tishi sifatida tavsiflanadi. Bu erda ikki jihatga e'tiborni qaratish lozim. Birinchi – tizimni saqlash, uning barqarorligini quvvatlash maqsadida boshqarish (ma'muriy boshqaruv). Ikkinci jihat – tizim yangi sifat holatiga o'tishini, ya'ni muttasil rivojlanishni ta'minlovchi boshqarish⁵.

Tadqiqotlarga ko'ra, ta'lism sifati deganda ta'lism jarayonining turli ishtirokchilari ta'lism muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lism xizmatlaridan foydalanuvchilarning qanoatlantirilishi darajasiga nisbatan ishlataladi. Jamiyatda ta'lism jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya hisoblanadi.

Jumladan, mакtab va oliy ta'lism muassasalari hamkorligini rivojlantirish, ular o'rтасидаги integratsiyani yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda umumta'lism maktablarida o'quvchilarga berilayotgan ta'lism-tarbiya, pedagoglarga bo'lgan hurmat va e'tibor tobora yuksalib bormoqda. Ustoz-murabbiylarning jamiyatdagи оrnini mustahkamlash, iste'dodli o'quvchilarni kashf etish, ularni o'zлari qiziqqan hamda orzu qilgan kasbga yo'naltirish ta'lism sohasining muhim vazifasiga aylandi.

Pedagogik ta'lism innovatsion usullari doirasida tashkil qilingan "Maktab – Oliy ta'lism tashkiloti – malaka oshirish hududiy markazi" tajriba maydonlarida umumiy o'rta ta'lism faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator tajriba-sinov amaliyotlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Mazkur tajriba usuli ta'lism tizimiga tatbiq etish jarayonlarida, birinchi navbatda, umumta'lism tashkilotlarining sifat darajasi chuqur tahlil qilinib, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha moslashtirilgan holda samarali usul va vositalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lism sifatini yanada kuchaytirish va amaliyotga to'g'ri targ'ib qilib borasida bir qator olimlarning tahlil va takliflar ishlab chiqilgan.

Jumladan, N.Shmireva, M.Gubanova va Z.Kretsanlar ta'lism sifati – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta'minlovchi ta'lism xizmatlari iste'mollilik xususiyatlarining majmuasi, deb hisoblaydi.

E.Dombrovskaya ta'lism sifatini ta'limga Davlat ta'lism standartlari, tegishli ta'lism dasturining o'quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi, deb e'tirof etadi. Adabiyotlar tahlili umumlashgan ma'noda, ta'lism sifatiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig'indisi sifatida qaralganligini ko'rsatadi.

N.Selezneva, A.Subettolar ta'lism sifatini boshqarish – ta'limga barcha obyekt va jarayonlarning sifatini boshqarishdir, deb ta'kidlasa, O.Nazarova ta'lism sifatini boshqarishni bilim sifati va ma'lumotlilik darajasining oshishiga olib keluvchi jarayonlar, muolaja va amaliyotlarni boshqarish, deb e'tirof etadi.

Ta'lism sifati menejmenti – ta'limga oldindan bashoratlangan natijalariga erishishga yo'naltirilgan boshqaruv bo'lib, sifatni ta'minlash tadbirlarini loyihalashtirish, ta'lism jarayoni

4 Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма "Логос", 1993. – с.181.

5 Василкова С. Технология работы социального педагога. – Москва.: Академия. 2009. 39 с.

ishtirokchilarini samarali mehnatga qiziqtirish, maqsadlardan chetga chiqishlarni aniqlash, o'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish jarayonlaridan iborat.

Yuqoridagi tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lif sifati – ta'lif oluvchilar bilimining xalqaro davlat standartlariga mosligi, turli darajalardagi ta'lif muassasasi sifat natijaviyligi, muassasaning muvaffaqiyatli faoliyati, shuningdek, ta'lif jarayoni ishtirokchilarining innovatsion ta'lif xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati natijasi hisoblanadi⁶.

Aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lif sifatini baholash ikki tarkibiy qismdan, ya'ni ichki (o'zini-o'zi baholash) va tashqi baholashdan iborat. Sifatni tashqi baholash tizimi ko'proq standartlar va iqtisodiy samaradorlik bilan, ichki baholash tizimi esa raqobatbardoshlik va rivojlanishga yo'naltirilgan takomillashtirishlar bilan aloqadorlikda tushuniladi. Dunyoda mavjud ta'lif sifatini baholash tizimlarini ham ularda tashqi yoki ichki baholashga urg'u berilishiga qarab, shartli ravishda, ikki modelga bo'lish mumkin.

Birinchi, ta'lif muassasalarining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan "fransuz" modeli.

Ta'lif sifatini baholashning ikkinchi – "ingliz" modeli asosini ta'lif muassasasi tomonidan ichki baholash tashkil qiladi. Fransuz modeli Fransiya, Norvegiya, Chexiya, Latviya, Estoniya kabi Yevropa mamlakatlarida, ingliz modeli Buyuk Britaniya, Daniya, Germaniya, Sloveniya, Polsha, AQSH, Lotin Amerikasi davlatlarida qo'llaniladi. AQSH, Finlyandiya va boshqa ayrim mamlakatlarda ta'lif sifatini baholashning har ikkala modelidan samarali foydalanib kelmoqda.

Demak ta'lif sifati nazorati ichki va tashqi baholashdan iborat bo'lib, mazkur baholashlarning mexanizmlari turlicha bo'lishi va ta'lif sifatini ta'minlashda ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida ta'lif sifatining nazorat-boshqaruvi deb, ta'lif muassasasida mavjud bo'lgan resurslar (moddiy, inson) va vositalardan qay darajada foydalanganlik, ta'lif oluvchilarning jamiyat a'zosi sifatida qay darajada shakllanganligi va davlatning rivojiga hissa qo'sha oladigan bilim va ko'nikmalarni qay darajada egallaganliklarini nazorat qilish va bu orqali baholash tushuniladi.

O'zbekistonda ham ta'lif sifati boshqaruvi jarayonlari ko'plab tadqiqotchi-olimlar tomonidan tadqiq etilgan va turlicha munosabat bildirilgan. Unga ko'ra, ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lif va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi. Ta'lif jarayonini modernizatsiyalash hamda moddiy texnika bazasini yaxshilash, jamiyatni ma'naviy yangilash, birinchi navbatda, yosh avlod an'analari insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Bularning barchasi yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ta'lifni rivojlantirish sifati va xususiyatlarini zamonaviy jamiyatda ushbu muammoni jamoat talablariga, muayyan hududlarning manfaatlariga va ta'lif ehtiyojlariga qaratilgan mintaqaviy, shahar va maktablar darajasida hal qilinishini taklif qiladi degan xulosaga kelamiz. Shuning uchun ta'lif sifatini oshirish va uni tashkil etish ta'lif tizimida barqaror va izchil rivojlanish, intellektual va moddiy resurslarni jalb qilish qobiliyatini belgilovchi yangicha yondashuvlarni tatbiq etishni talab qiladi.

6 Toshtemirova S.A, Muxammadiyev L.G'. "Ta'lif sifati boshqaruvi va bu yo'nalishdagi xalqaro modellarning o'ziga xos xususiyatlari". – T.: Academic research in educational sciences. 2021. 769-b. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifati-bosh-aruvi-va-bu-y-nalishdagi-hal-aro-modellarning-ziga-hos-hususiyatlari>

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. URL // <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Дж. Харрингтон. “Управление качеством в американских корпорациях”. М.: “Экономика”, 1990, с. 272. <https://uchebnik-online.com/123/1302.html>
3. Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма “Логос”, 1993. – с.181.
4. Василкова С. Технология работы социального педагога. – Москва.: Академия. 2009. 39 с.
5. Toshtemirova S.A, Muxammadiyev L.G‘. “Ta’lim sifati boshqaruvi va bu yo‘nalishdagi xalqaro modellarning o‘ziga xos xususiyatlari”. – T.: Academic research in educational sciences. 2021. 769-b.
6. Qurbanov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. – T.: “Turon-Iqbol”, 2006. 101-b.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONLARIGA YONDASHUVLARNI TATBIQ ETISH

Xo‘jaqulov Behzod Abdusattorovich

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
khujakulovbekhzod@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiyl o‘rtalim maktablarida strategik boshqaruvni takomillashtirish, boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlari sub’ektlarining faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Strategiya, yondashuv, jarayonli yondashuv, tizimli yondashuv, vaziyatli yondashuv, sub’ekt, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования стратегического управления в общеобразовательных школах, реализации подходов, служащих совершенствованию деятельности субъектов управленческих процессов в управлении и сотрудничестве.

Ключевые слова: Стратегия, подход, процессный подход, системный подход, ситуационный подход, субъект, эффективность.

Abstract: This article covers the issues of improving strategic management in general secondary schools, implementing approaches that serve to improve the activities of subjects of management processes in management and cooperation.

Key words: Strategy, approach, process approach, system approach, situational

approach, subject, efficiency.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzlusiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim muassasalari boshqaruvi jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish asosida takomillashtirish yo'nalişlarida o'ziga xos yangi talablarni belgilab bermoqda.

Mazkur talablar umumiyligi o'rta ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu zaruriyat umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlari sub'ektlarining faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Umumiyligi o'rta ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari pedagoglar va o'quvchilarning munosabatlari va faoliyatlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarish ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish turli yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarga asoslanish masalalari qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan yurtimiz olimlaridan R.Fatxutdinov, R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov N.R.Pulatova, A.S.Begmatov va M.Quronovlar, MDH olimlaridan L.Plexova, T.Anurina, S.Legkostaeva, L.Kuznetsovalar ta'lim tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib brogan.

Muhokama. R.Fatxutdinov zamonaviy, murakkab va dinamik bozor muhiti oliy ta'lim muassasalaridan o'z boshqaruv tizimlarini va ularni axborotli qo'llab-quvvatlash tizimlarini doimiy takomillashtirib borishni talab qilishini va tashkilot faoliyatini boshqarishga ikkita asosiy yondashuvdan foydalanilishini ta'kidlagan [1] (1-jadvalga qarang):

1-jadval:

Tashkilot faoliyatini boshqarishga yondashuvlar

Tuzilmaviy yondashuv	Jarayonli yondashuv
Tashkilotning turli xildagi tashkiliy tuzilmalaridan foydalanishga asoslanadi	Tashkilot faoliyatining biznes jarayonlarga yo'naltirilishi
Faoliyatni boshqarish tuzilmaviy elementlar (byuro, bo'lim, departament va h.k.) bo'yicha amalga oshiriladi	Tashkilotni boshqarish tizimlari har bir biznes jarayonni ham alohida, ham barcha biznes jarayonlar bilan birgalikda boshqarishga asoslanadi
Tuzilmaviy elementlarning o'zaro harakatlari – mansabdar shaxslar (byuro, bo'lim, departament boshliqlari) va yuqoriyoq darajadagi tuzilmaviy bo'linmalar orqali amalga oshiriladi	Jarayonlar egalari o'z biznes-jarayonlarini ko'rsatkichlar tizimi yordamida nazorat qiladilar

L.Plexova, T.Anurina, S.Legkostaevalar har bir maktab boshqaruv ilmiga o'z sezilarli ulushini qo'shgani lekin qarashlarning xilma-xilligiga qaramasdan ular ichidan uchta asosiy

– jarayonli, tizimli va vaziyatli yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkinligini ta'kidlagan [2] (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Boshqaruvdagi asosiy yondashuvlar

Yondashuv	O'ziga xosligi	Ustunligi	Kamchiligi
Jarayonli	Boshqaruv jarayon sifatida olib qaraladi	Boshqaruv faoliyati o'z ichida an'anaviy ravishda rejalashtirish, motivatsiya, tashkil etish va nazorat ajratib ko'rsatiladigan boshqaruv funksiyalarini namoyon etuvchi uzlusiz, o'zaro bog'lanishli harakatlar seriyasi sifatida olib qaraladi.	Tashkilotning barcha ichki tarkibiy qismlarining o'zaro aloqalarini va tashqi muhit bilan aloqasini ko'rsatmaydi, ya'ni, boshqaruv jarayonini olib qarashda tizimlilik mavjud bo'lmaydi.
Tizimli	Tashqi va ichki omillarning birgalikdagi ta'sirini hisobga olish bilan tashkilotning faoliyat yuritishiga majmuaviy yondashuv.	Tashkilotni uni tashkil etuvchilarining birligi sifatida namoyon qiladi.	Boshqaruvga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy o'zgaruvchilarni aniqlab bermaydi.
Vaziyatli	Boshqaruvning istalgan universal metodlarini inkor etadi va konkret vaziyatlarda konkret boshqaruv harakatlarining qo'llanilishiga asoslanadi.	Vaziyatning o'zaro bog'langan xususiyatlarini beradi.	Universal boshqaruv dastaklari mavjud emas, to'la asoslanmagan.

Umumiy o'rta ta'lif tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligi tizim komponentlari bo'lgan ta'lif muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, pedagogik jarayon ishtirokchilari va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liq bo'lib, strategik boshqaruvda yangilik kiritish, ya'ni strategik maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar va yangi vazifalar belgilash jarayoniga rahbarlar, o'qituvchilar va tarbiyachilarni jalb etish, ularning fikrlarini o'rganish va takliflarini inobatga olish muhim. Shuning uchun rahbarlar bilan bir qatorda, pedagog xodimlar ham strategik maqsadni aniqlashtirish, strategik rejalarni ishlab chiqish, qarorlar qabul qilish, ko'zlangan natijalarni oldindan shakllantirish jarayonlarida o'z takliflari bilan ishtirok etishi zarur [3]. Chunki mazkur jarayonda pedagog

xodimlarning o‘z takliflari bilan ishtirok etishi, shuningdek ularning takliflarini inobatga olinishi strategik maqsadlarga ko‘ra yuqori natijalarga erishish uchun ularda moyillik, qiziqish va mas’uliyat hissini shakllanishiga xizmat qiladi.

Strategik va strukturaviy yondashuvlar asosida umumiy o‘rtta ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish jarayoni samaradorligi mazkur jarayon sub’ektlari faoliyatini tashkil etish metodlari va uni tashkil etish yo‘nalishidagi asosiy yondashuvlarga ham bog‘liq bo‘lib, sub’ektlar faoliyati samaradorligini ta’minalash bir qator yondashuvlarga asoslanadi. Umumiy o‘rtta ta’lim tizimida pedagogik jarayonlar boshqa ijtimoiy voqe’liklardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy o‘rtta ta’lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligi mazkur jarayon sub’ektlari faoliyatini tashkil etishda qo’llaniladigan metodlar va yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham bog‘liq bo‘ladi.

A.S.Begmatov va M.Quronovlar fikricha, texnologik yondashuv barcha jarayonlar uchun universal xususiyatga ega. Zero, bu tamoyil “maqsad - natija” sari harakatni to‘la qamrab olishi, yaxlitlik, tizimlilikni ta’minalashi, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklar, entropik vaziyatlarni tezkor tuzatish imkonini berishi bilan ham qimmatlidir [4].

Boshqa bir qator tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, texnologik yondashuv – bu ta’limning aniq kutilgan natijalariga ega bo‘lgan uzlucksiz jarayonidir. Uning komponentlari: tizimli yondashuv asosida o‘quv jarayonini loyihalash; o‘quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; talabalarni ularning xatti-harakatlari asosida o‘qitish; qayta aloqa; bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘la o‘zlashtirilishi rejalshtirilgan maqsadlarga erishishni kafolatlash; o‘qitishning samaradorligiga erishilishi [5].

Bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasiz boshqaruv muammolarining hal etib bo‘lmaydi. Zamonaviy yondashuvning joriy etilishi boshqaruvda tizimli yondashuvda ta’lim muassasasi tizim sifatida, ya’ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqiladi [6].

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida strategik boshqarishda vaziyatli yondashuv umumiy o‘rtta ta’lim tizimi komponentlari bo‘lgan ta’lim muassasalari va ularning sub’ektlari faoliyati samaradorligini ta’minalash jarayonlarida mavjud imkoniyatlardan va vaqtidan samarali foydalanish, strategik maqsadga erishish yo‘nalishida belgilangan funksional vazifalarni strategik rejalarda belgilangan muddatlarda samarali amalga oshirilishi uchun muvofiqlashtirilgan yondashuvni boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish zaruratinı belgilaydi.

Natija. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirishga strukturaviy yondashuvni tatbiq etishda pedagoglar va mutaxassislarining faoliyatini, ularning o‘z vazifasiga bo‘lgan munosabatlarni va ularning manfaatlari uyg‘unlashuvi holatlari o‘rganiladi. Shuningdek, mavjud ehtiyojlardan kelib chiqib, pedagoglar va mutaxassislar qo‘yilayotgan talablarni bajarish uchun ularda qay darajada bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi aniqlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, kadrlar salohiyati va ularning o‘z funksional vazifalariga bo‘lgan munosabatlari, ularning mavqeyi hamda o‘quvchilar bilan munosabatlari o‘rganilib, kadrlar salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlarida chora-tadbirlar belgilanadi [7].

Strategik yondashuvini tatbiq etishda vaziyatli yondashuv va tizimli yondashuvning o‘ziga xos jihatlari inobatga olinishi zarur. Mazkur yondashuvlarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda strategik yondashuvini amaliyatga tatbiq etish strategiyalardan maqsadi va vazifasiga ko‘ra oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Ya’ni, vaziyatlarga ko‘ra bir vaqtning

o'zida va bir biriga dahl qilmagan holda bir necha strategiyalarni amalga oshirish jarayonlarini muvofiqlashtirish tizimli va vaziyatli yondashuvlarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lif tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlarida sub'ektlarning faolligini ta'minlash, mavjud strategiyalarni takomillashtirish, strategik maqsadga ko'ra erishish zarur bo'lgan natijalarga sub'ektlar qiziqishini rivojlantirish, ularni bevosita boshqaruv jarayonlariga kirishishga undash, sub'ekt sifatida ularning o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishi uchun zaruriy sharoitlar yaratish samaradorlikning muhim shartlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фатхутдинов Р.А. Организация производства: Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2000 г.
2. Плехова Л.В., Анурина Т.М., Легкостаева С.А. и др. Основы менеджмента: электронный учебный курс / - электрон, дан. - М.: КНОРУС, 2008 г.
3. Кузнецова Л.В. Уровневые характеристики организаторов педагогического процесса. Журнал: Право и образование. №1. 2006 г.
4. Komilov N., Begmatov A., Quronov M. Rahbar va xodim.-Toshkent: "Akademiya", 1998-y.
5. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lif muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - T.: Fan, 2006 y.
6. Pulatova N.R. Talabalar innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2023 y.
7. Ахмедова Н.К. Направление управлеченческой деятельности руководителей общеобразовательных средних школ. Журнал: Актуальные проблемы современной науки. Учредители: ООО «Издательство «Спутник+». ISSN: 1680-2721. Номер: 3 (71) Год: 2013.

PEDAGOGLARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI KREATIV-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR – MUAMMOLAR, IZLANISHLAR VA YECHIMLAR

Xoshimova Mohira Nabijonovna

Farg'onan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi huquq fani metodisti

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda ko'plab yangiliklar, virtual dunyo, inson vazifalarini bajaruvchi robotlar bular hammasi inson tomonidan yaratilgan, ya'ni inson tasavvur, tafakkuri natijasida dunyoga kelgan g'oya va fikrlar mahsulidir. Insonning tafakkuri, dunyoqarashi, aql-idroki qancha keng bo'lsa, uning ijod namunalari ham shuncha sermazmun bo'ladi. Bu esa o'z navbatida pedagogika fanidagi "kreativ" tushunchasiga borib taqaladi va bu sohani chuqur o'rganishni talab qilishi haqida maqolada keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Kereativlik, individual, virtual, kreativ, innovatsion, dialog, korruption, akt, innovatsion texnologiya.

Аннотация. В статье многие инновации, виртуальный мир, роботы, выполняющие человеческие задачи – все это создано человеком, то есть продукт идей и мыслей, пришедших в мир в результате человеческого воображения и мышления. Чем шире мышление, мировоззрение, интеллект человека, тем богаче будут его творения. Это, в свою очередь, восходит к понятию «творчество» в науке педагогика, и в статье широко поясняется, что эта область требует углубленного изучения.

Ключевые слова. Творчество, индивидуальное, виртуальное, креативное, инновационное, диалог, коррупция, действие, инновационные технологии.

Annotation.. In the article, many innovations, virtual world, robots performing human tasks are all created by man, that is, the product of ideas and thoughts that came to the world as a result of human imagination and thinking. The broader a person's thinking, worldview, intelligence, the more rich his creations will be. This, in turn, goes back to the concept of "creative" in the science of pedagogy, and it is widely explained in the article that this field requires in-depth study.

Keywords. Creativity, individual, virtual, creative, innovative, dialogue, corruption, act, innovative technology.

Bugungi kunda ta'limgan sohasida olib borilayotgan ishlarni jadal sur'atlar bilan rivojlanishi hech kimga sir emas. Ta'limgan sohasida bo'layotgan izchil harakatlar qator qaror va qonunlar bu - o'quvchi, talabalarimizni zamon talablariga mos bo'lib ulg'ayishlari, chuqur bilim egallashlari, kreativlik salohiyatini shakllantirishlari uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda ko'plab yangiliklar, virtual dunyo, inson vazifalarini bajaruvchi robotlar bular hammasi inson tomonidan yaratilgan, ya'ni inson tasavvur tafakkuri natijasida dunyoga kelgan g'oya va fikrlar mahsulidir. Insonning tafakkuri, dunyoqarashi, aql-idroki qancha keng bo'lsa, uning ijod namunalari ham shuncha sermazmun bo'ladi. Bu esa o'z navbatida pedagogika fanidagi "kreativ" tushunchasiga borib taqaladi va bu sohani chuqur o'rganishni talab qiladi.

Bugungi kunning eng dolzarb mavzusi kreativ ta'limgan texnologiyasi. Kreativlik (ingl. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarini ishlab chiqishda tayyor tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Insondagi kreativlik xususiyati uning aql, tafakkur, tushuncha, dunyoqarashi, fikrlash, his-tuyg'u, zehnning o'tkirligi kabi jarayonlarda o'z aksini topadi.

Kreativlik – muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi va o'zini ko'rsatadi. Kreativ insonni oladigan bo'lsak, unda uning iqtidori rivojlangan bo'ladi. Amerikalik psixolog olim Torrensni aytishicha kreativlik yoki kreativ fikrlaydigan shaxs har xil dolzarb muammolarni, ilmiy sohadagi qarashlarni, ko'p gapiradigan shularni yechimini topishga intilishi yoki muammolarni muhokama qilishini ifodalaydi.

Kreativ shaxs muammolarni oson hal qiladigan, yashash tarzini osonlashtiradigan va qulay yashash tarafdarlarini o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori darajada bo'lgan odam tushuniladi. Kreativ fikrlaydigan shaxs o'zining muammolarini bemalol hal qila oladigan yetuk shaxs deb hisoblanadi.

Kreativ fikrlash nafaqat o'qituvchi yoki o'quvchi balki, har bir shaxsga kerak tushunchadir. Pedagogning kreativ sifatlari haqida gaplashadigan bo'lsak, shaxsiy faoliyatidagi qiziqishlari, qobiliyatlarini, potensial quvvatini oshirib kasbiy faoliyatning samarali bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarda kreativ fikrlash dars jarayonida eski texnologiyalarni bir chetga surib zamonaviy metodlardan foydalanib, zamonaviy texnologiyalar bilan yangiliklar qilib, bir xil shaklda dars o'tmasdan har xil uslubda dars o'tish, tashabbuskor fikrlar bilan dars jarayonida hammani qiziqishini oshirib, dars ta'sirini yuqoriga ko'taradi.

Pedagogning kreativ sifatlari: bolalarni o'quv faoliyatini, ijobjiy sifatlarini rivojlantirish. Shu bilan birga mustaqil ravishda tarbiyani, bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Kreativ fikrlash uchun pedogoglar talabalik davrlaridan kasbiy faoliyatni rivojlantirib borishlari kerak. O'zini ustida ko'p ishlashi, o'zini ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishlari lozim. Chindan ham agarki hozirgi vaqtida dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximizga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana o'sha noyob meroslarni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rinn egallashimiz qiyin bo'ladi", - deydilar.

Darhaqiqat, hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari yaxshi o'rganish ular asnosida innovatsion loyihalarni yaratish bizning davlatimizni rivojlanishiga katta yordam beradi. Buning uchun biz o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviyatini yuksaltirishimiz, kreativ fikrlashga undashimiz, innovatsion muhitda dars olib borishimiz, albatta, yoshlarimizni kelajakda O'zbekiston jahon maydonida o'z o'rnini topishiga yordam beradi. O'qituvchining ta'lim - tarbiya jarayonida duch keladigan ko'p ziddiyatli vaziyatlar yoki muammoli vaziyatda mohirona chiqa bilishligi ham pedagogda kreativlik darajasi yuqoriligidan darak beradi. Bu o'qituvchining qobiliyatiga ham bog'liq. Qobiliyatlar jamlanmasi iste'dod deyiladi.

O'qituvchining qobiliyati qancha yuqoriligi ta'lim olayotgan o'quvchilarning tushunchalari, darsning sifati qay darajadaligi bilan bilib olish mumkin. Har qanday ko'nikmani shakkantirish mumkin bo'lganidek, kreativ fikrlashni ham rivojlantirish mumkin. Kreativlik ruhida tarbiyalashda pedagogning roli katta. Bunda dars jarayonida talabalarni o'z fikrini, g'oyalarini qo'rmasdan gapirishi va erkin bayon qilish, yangi g'oyalar ustida munozara va mulohazalar yuritishi va talabalarni dars jarayonida o'zini erkin his qilishi asosiy qismi hisoblanadi. Bu esa bo'lajak kadrlarimizni muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ fikrlashda hosil bo'ladigan qobiliyatlar:

- talabalarning har qanday sohada to'g'ri fikrlash qobiliyati;
- aqliy faoliyatni rivojlanishi, ya'ni aqlning charxlanib yaxshi ishlashi;
- muammoli vaziyatlarda to'g'ri fikrlay olishi;
- Shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi;
- tanlovnin mustaqil ravishda ikkilanmasdan qabul qila olishi.

1. Pedagoglarning ko'plarida "kreativlik" haqida tushunchaga ega emasligi;
2. Hozirda pedagoglar - yangiliklarni ilgari surish, ijodiy mahsulotlar yaratish, dars jarayoniga nostandard usullar bilan yondashishga intilmasligi, o'sha bitta qolipga tushib o'sha qolipdan chiqmasligi;

3. Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashmaslik;
4. O'z kasbiga ijodiy yondashmaslik;
5. Pedagog kasbiga muhabbat qo'ymasdan ishlashi;
6. Muammoli ma'ruza, amaliyotlarning yo'qligi;
7. Aqliy harakatlarni rejalashtirmaslik;
8. Ijodiy faollikni oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanmasligi;
9. Zamonaviy ta'lif tizimida o'qituvchilar muloqotining dialogik usullariga e'tibor qaratmasligi;
10. Muvaffaqiyatsiz urunishlarni tahlil qilmaslik.

Har bir shaxsda kreativlik tushunchasini shakllantirish kerak. Kreativlik so'zini ma'nosini bilmagan odamga kreativ fikrlashga yo'l bo'lsin. Avval so'zning ma'nosini chaqib, keyin shunday bo'lishga harakat qilishadi. Kadrlar, pedagoglar kasbini sevib, unga ijodiy yondashib, sidqidildan ishlashsa, ular kreativ g'oyalalar va kreativ fikrlasha boshlashadi. Dars jarayonlarini qiziqtirib har xil ko'rgazmalar yoki zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o'tish - bu dars samaradorligini oshirish bilan birga talabalarni kreativlikni shakllanishiga yordam beradi va fanga qiziqishini orttiradi. Talabalar zerikib qolishmaydilar. Shu bilan birga shaxsni o'zini-o'zi shakllanishi o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Psixologik muammolarni ham yengib o'tadilar. Hamkasblari bilan muloqotda bo'lib, fikr almashib, yangi texnologiyalarni yoki muammoli vaziyatlarni yechimini birga yoki jamoa, individual izlashga, ijodiy faoliyatga berilib ishlash imkonini beradi. Yana o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, vaziyatga tegishli muhitni muhokama qilishi, yaxshi o'ylangan qarorlar qabul qilishi bilan foydalidir. Kreativ ta'lif texnologiyasida, kreativ ta'lif jarayonini samarasini oshirish uchun har xil metodlardan foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ikromjonovna, J. S. (2023). umumiy o'rta ta'lif maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari.
2. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol.100 P
4. Shayxislamov, N. Z. (2020). Pxisolovingistikada assotsiativ metod asosida nutqning o'r-ganilishi. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar, 37- 42.
5. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.pdf
6. <http://www.genderi.org/ta-lim-texnologiyalari.html?page=80>

КАДРЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ТИЗИМИДА МАСОФАДАН ЎҚИТИШНИНГ СИФАТ БОШҚАРУВИ

Холмуродова Шохсанам Маматкарим қизи

Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва
мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини
ошириш институти таянч докторанти.
shoxsanam8893@gmail.com

Аннотация: Ҳозирги даврда инновацион технологияларнинг ривожланиши таълим жараёнларини янги босқичга олиб чиқмоқда. Ҳусусан, масофадан ўқитиш технологияларининг жорий этилиши кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимида муҳим ўрин эгалламоқда. Ушбу мақолада масофадан ўқитиш тизимининг келиб чиқиши тарихи, сифат бошқарувидаги муаммолари, ечимлари ва истиқболлари ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлари: масофавий таълим, платформа, дастурний таъминот, сунъий йўлдош, интерактив графика.

Аннотация: В современную эпоху развитие инновационных технологий выводит образовательные процессы на новый уровень. В частности, важную роль в системе переподготовки и повышения квалификации кадров играет внедрение дистанционных образовательных технологий. В статье рассматривается история зарождения системы дистанционного обучения, ее проблемы в управлении качеством, пути решения и перспективы.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, платформа, программное обеспечение, спутник, интерактивная графика.

Янги Ўзбекистон таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар миллий таълимни жаҳон андозаларига мослаштириш ва энг самарали ёндашувлардан фойдаланиш орқали сифатли кадрлар тайёрлашга қаратилган. Бу жараёнда инновацияларни жорий қилиш, халқаро тажрибани ўрганиш ва миллий қадриятларни сақлаган ҳолда таълим сифатини ошириш энг муҳим вазифа сифатида белгилаб қўйилган.

Бугунги кунда масофавий таълимни ташкил этувчи воситаларнинг аксарияти электрон дастурний таъминотлар ёрдамида амалга оширилмоқда. Ўқитиш дастурлари нафақат компьютерлар, балки сунъий йўлдошлар, видео телефонлар, интерактив графикалар, жавоб терминаллари ва бошқалардан фойдаланади.

Таъкидлаш керакки, масофавий ўқитиш келгусида таълимни ривожлантириш учун катта имкониятлар яратади. Бу масофадан туриб ўқитиш хизматлари бозорида талабнинг ортиши билан боғлиқ.

Масофадан ўқитиш – бу технологиялар ёрдамида педагог ва тингловчи ўртасидаги масофавий алоқани таъминлайдиган таълим усули бўлиб, у турли платформалар, дастурлар ва интернет орқали билим олиш имконини беради.

Масофавий таълимни ташкил этишдаги дастлабки уриниш 1728 йилда амалга оширилган. Бунда Бостон газетасида педагог Caleb Philippus томонидан ҳафталик почта

орқали юбориладиган дарслар орқали талабаларга таълим бериш эълон қилинган. Педагогнинг ушбу методи “Short hand” деб номланган.

АҚШдаги биринчи масофавий таълимга асосланган, юридик шахс сифатидаги сиртқи мактаб 1873 йилда ташкил этилган Уйда таълим олишни рағбатлантириш жамияти эди.

1890 йилдаги масофавий таълимга қаратилган уриниш Уилям Рейни Харпер каби педагогларнинг муқобил варианtlарни ўрнатишга қаратилган дастлабки саъй-ҳаракатларидан бири эди. 1894 йилда асос солинган Волсей Ҳалл, Оксфорд Буюк Британиядаги биринчи масофавий таълим коллекти эди. Лондон университети 1858 йилда ўзининг ҳукуқий асосланган таълим дастурини эълон қилиб, масофавий таълим даражаларини таклиф қилган биринчи университет бўлди.

Хорижий тажрибаларга қаралганда, масофавий таълимнинг асосий иштирокчилари га одатда талабалар, профессор-ўқитувчилар, модератор, тьютор, эдвайзер, фасилитаторлар, инвигилатор, ёрдамчи ходимлар ва маъмурлар киради, уларнинг ҳар бири алоҳида миҳим аҳамиятга эга. Талабаларнинг ўкув эҳтиёжларини қондириш ҳар бир самарали масофавий таълим дастурининг асосий мақсади ҳисобланади. Таълим мазмунидан қатъи назар, талабанинг асосий роли ўрганишdir. Аммо ҳар қандай масофавий таълимнинг муваффақияти, биринчи навбатда, унинг профессор-ўқитувчилари боғлиқ.

Масофавий ўқитиши талабалар ва педагогларга қулай вақтда ва жойда таълим олиш имкониятини беради. Тингловчилар ҳар хил ҳудудлардан дарсларга қатнашиши мумкин, бу эса географик чекловларни бартараф этади. Иш билан банд бўлганлар ёки бошқа мажбуриятларга эга бўлган шахслар учун ҳам қулай ҳисобланади.

Масофавий таълим иккита асосий тоифага бўлинади:

Синхрон ўқитиши — реал вақтда электрон шаклда ўқитиши. Бундай ўқитиши ташкил этиши воситаларига видеоконференция, чат, вебинар ва бошқа воситалар киради. Бу каби воситалар асосида ўқиш жараёни реал вақт режимида амалга оширилади.

Асинхрон ўқитиши — бунда ўқитиши ҳар бир тингловчининг ўзи учун қулай бўлган турли вақтларда мустақил ўқиш шаклида амалга оширилади. Бундай ўқитишида таълим муассасасидан узоқда бўлган тингловчилар мустақил равишда тегишли ўкув дастурлари бўйича ягона ўкув-методик материаллар асосида олиб борилади.

Масофавий ўқитиши тизими — масофавий ўқитиши шартлари асосида ташкил этиладиган ўқитиши тизими. Барча таълим тизимлари сингари масофавий ўқитиши тизими ўзининг таркибий мақсади, мазмуни, усуллари, воситалари ва ташкилий шаклларига эга.

Масофавий таълимда ўкув-методик ресурслар Ўзбекистон Республикаси давлат стандарти O'zDSt 36.2030 — “Электрон таълим” миллий тизимига киритиладиган электрон методик комплекслар ва бошқа таълим ресурсларига ягона талаблар”га мувофиқ бўлиши лозим.

Таълим жараёнида рақамли технологиялар орқали таълим сифатини оширишда видеодарслар, электрон китоблар, интерактив тестлар ва онлайн форумлар каби турли рақамли воситалардан фойдаланиш имконини беради. Виртуал лабораториялар ва симуляторлар орқали амалий кўникмаларни ривожлантириш ҳам мумкин касб этади.

Масофавий ўқитишида иқтисодий жиҳатдан фойдали томонларидан бири транспорт

ва яшаш харажатлари камайгани тингловчилар ва педагоглар учун қулаклини келитриб чиқаради. Тегишли дастурий таъминотлар орқали ҳар бир тингловчи ўқиши ва ўзи учун қулай бўлган мавзуларни танлаши мумкин. Бу ўқув материаллари орқали таълим самарадорлигини оширишга эришилади.

Масофавий таълим орқали дунёнингисталган бурчагидаги машҳур университетлар ва педагоглардан сабоқ олиш мумкин. Бу халқаро тажрибани ўрганиш ва маданий алоқаларни ривожлантириш учун кенг имкониятлар яратади. Масофавий ўқитиш ёшидан қатъи назар ҳар бир инсон учун билим олиш имконини беради. Касбий малака ошириш ҳамда янги кўникмаларни әгаллаш учун жуда қулай.

Шунга қарамасдан, масофавий таълимда бир қатор қийинчиликлар ҳам мавжуд. Жумладан, барқарор интернет алоқаси ва замонавий қурилмаларга эга бўлиш муҳим аҳамиятга эга. Онлайн таълим учун барқарор ва фойдаланишга қулай платформаларни танлаш муҳим. Масалан, Learning Management Systems (LMS) каби тизимлар самарали бошқарувни таъминлайди. Тингловчи ва педагоглар учун техник ёрдам хизмати ташкил этилиши зарур. Масофавий таълим самарадорлигини ошириш мақсадида технологик инфратузилмани ривожлантириш, педагогларни тайёрлаш ва талабаларни қўллаб-куватлаш муҳимдир. Шу билан биргаликда, анъанавий ва масофавий таълимни бирлаштирувчи гибрид моделларни жорий этиш ҳам муваффақиятли натижалар беради.

Масофавий таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методикалари ўқув жараёнини интерактив, самарали ва тингловчилар учун қизиқарли қилишга қаратилган. Бугунги кунда рақамли технологияларнинг кенг қўлланилиши ва инновацияларнинг татбиқ этилиши бу соҳада янги ёндашувлар яратишга имкон бермоқда. Бундан ташқари, масофавий таълим жараёнида ўқитиш замонавий методикаларини янгилаш зарур.

Масофавий таълимда кенг қўлланиладиган замонавий методикалар қаторида жонли вебинарлар ва онлайн конференциялар орқали ўқувчилар ва ўқитувчилар ўртасида реал вақтда мулоқот қилиш, савол-жавоб форматларини қўллаш, тестлар ва квизлар ўtkазиш, гурухли муҳокамалар ва онлайн форумлар орқали фикр алмашиш каби интерфаол методикалардан самарали фойдаланиш ўқув жараёнини сифатли ва қизиқарли қилишга ёрдам беради.

Шунинг учун масофадан ўқитиш тизимидағи сифатни яхшилаш учун қўйидаги самарали чораларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- зарурий дастурий воситаларни ни ривожлантиришда миллий ва халқаро стандартларга мос келадиган масофавий таълим платформаларини яратиш;
- педагогларни замонавий технологиялар ва масофавий таълим методлари бўйича ўқитиш;
- интерактив ва қизиқарли ўқув материалларини ишлаб чиқиш ва уларни доимий янгилаб боришда тингловчиларнинг фикр-мулоҳазаларини алоҳида эътибор қаратиш.

Кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимида масофадан ўқитишнинг сифати юқори бўлиши учун сифатли бошқарув тизимини йўлга қўйиш зарур. Замонавий технологияларни жорий этиш, педагоглар малакасини ошириш ва мониторинг механизмларини такомиллаштириш орқали ушбу тизимнинг самарадорлигини ошириш мумкин. Келажакда масофадан ўқитиш таълимнинг ажралмас қисми бўлишига ишонч комил.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев С.Х., Турғунов С.Т. Таълим муассасалари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари. // «Касб-хунар таълими» журнали, Т., 2006 йил, 1-сон.
2. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Ўқув қўлланма. – Т.: «Ворис», 3. 2006.
3. Ғуломов С.С.. Менежмент бошқарув санъати, назарияси ва амалиёти Тошкент 2003 йилл, 286 б.
4. Турғунов С.Т., Абдуллаев С.Х. Таълим муассасаларида бошқарув фаолиятини 4. лойиҳалаштириш. // «Халқ таълими» журнали, Т., 2008, 6-сон.

ПЕДАГОГНИНГ ЎЗ КАСБИНИНГ ЕТУК МУТАХАССИСИ СИФАТИДА КРЕАТИВ ЁНДАШИШ МАҲОРАТИ

Худайкулов Хол Джумаевич

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
“Педагогика ва умумий психология” кафедраси
профессори, педагогика фанлари доктори.*

xol.xudayqulov.51@mail.ru

Аннотация: Мақолада ўқитувчининг тинимсиз ўз устида ишлаши, ижодкор ва креатив ёндашув асосида янги бир технологияларни яратиши, изланиши, замон ва жамият талабларига мос билим бериш маҳорати ҳақида сўз юритиб, унда бўлажак педагогларни доимий изланишга, ўз шогирдлар билан самимий муомала ва мулоқотда бўлиши, адолатли ёндашиш ва баҳолаш хусусиятларига тўхталади.

Калит сўзлар: Ўқитувчи, устоз, шогирд, талаба ва ўқувчи, билим, кўнишка ва малакалар, технология, усул ва маҳорат муомала ва мулоқот, адолат, изланиш ва креативлик.

Аннотация: В статье говорится о постоянной работе учителя над собой, создании и поиске новых технологий, основанных на творческом и творческом подходе, умении передавать знания в соответствии с требованиями времени и общества, и призывает будущих педагогов постоянно поиск, иметь искреннее отношение и общение со своими студентами, а также справедливый подход и фокусируется на особенностях оценки.

Ключевые слова: Учитель, учитель, ученик, ученик и обучающийся, знания, умения и навыки, технология, метод и умение, общение и общение, справедливость, исследование и творчество.

Annotation: The article talks about the teacher's constant work on himself, the creation and search of new technologies based on a creative and creative approach, the skill

of imparting knowledge in accordance with the requirements of the time and society, in which he urges future pedagogues to constantly search, to have sincere treatment and communication with their students, to have a fair approach and focuses on evaluation features.

Key words: Teacher, teacher, apprentice, student and learner, knowledge, skills and abilities, technology, method and skill, communication and communication, justice, research and creativity.

Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиши туфайли барча таълим муассасалари олдига янги демократик давлатнинг фуқароларини шакллантиришдек мухим вазифани кўйди. Бу эса эркин фуқаролик жамиятини қуриш йўлидаги улкан ишларни, инсон таълим-тарбияси мазмунини янгилашга, унинг ўзлигини англашда, имкониятларни рўёбга чиқаришда, маънавий интеллектуал салоҳиятни ривожланишида янги шартшароитлар яратиб бериш имкониятини берди.

Бу эса ҳозирги вақтда барча таълим муассасаларида давр талабига жавоб берадиган ёш кадрларнинг фақат назарий билишларини эмас, балки буюк инсоний фазилатларга эга бўлган, муомалага кириша оладиган, педагогик технологияни яхши биладиган, ўз ишининг моҳир мутахассисларини тайёрлашга катта эътибор беришни талаб этади. Айниқса, ҳозирги даврнинг асосий талаби, бўлажак ўқитувчиларни юксак педагогик маҳорат билан, креатив ёндашиши ва янги педагогик технология кўникмаларини қўллай олиши, маданиятли шахс сифатида бошқаларга ибрат ҳамда намуна бўлиши асосий вазифа қилиб қўймоқда.

Хўш педагогик - креатив ёндашиш маҳорат тушунчаси ва мазмунига изоҳ берар эканмиз бу касб ўз моҳиятига кўра индивидуалдир. Ҳар бир педагогнинг ҳаётий ўрни ўз ишининг устаси бўлиши лозими. Уста (мастер) жуда илғор, билимдон ёки ўз ишини моҳирлик билан бажарувчи деб ифодаланади.

Маҳорат - бу алоҳида қудрат. Юқори ва кичик даражада уста бўлиш мумкин эмас. Маҳоратга эришиш ҳам, эришмаслик ҳам мумкин. Педагогик маҳоратга эришиш педагогнинг муайян креатив ёндашиши шахсий сифатлари билан амалга ошади. Педагогик маҳорат юксак даражада педагогик фаолиятнинг тараққий этишини, педагогик техникани эгаллашни, шунингдек, педагог шахсининг креатив ёндашиш, унинг тажрибаси, фуқаролик ва касбий мавқейини ифодалайди.

Ҳозирги тадқиқотларда педагогик креатив ёндашиш маҳоратнинг ўзига хослиги куйидаги категорияларда жамланади:

- Педагогик маҳорат;
- Педагогик ижод;
- Новаторлик;
- Касбий билимдонлик;
- Фаолият услуби;
- Инновацион фаолият;
- Педагогик технология;
- Маҳорат.

Ўқув тарбиявий ишлар жараёнида энг юксак натижаларга эришиб, фаолиятнинг юксак даражада баҳоланиши ва ҳар жиҳатдан тан олинишини истамайдиган педагог топилмаса керак. Бунга эришиш орзусининг ушалишини педагогик маҳорат деймиз. Хўш педагогик маҳорат нима? Унинг моҳияти нимадан иборат? Унга қандай эришса бўлади? Ҳозирги замон педагогика ва психология соҳасидаги мактабларда педагогик маҳорат тушунчасига нисбатан турлича изоҳларга дуч келамиз. Бу тушунча моҳиятининг аникроқ таърифи «Педагогик энциклопедия»да берилган. "Тарбия ва ўқитиш юқори даражага эришиши ва уни доимо такомиллаштириб бориш имкониятини таъминловчи санъат бўлиб, талабага меҳр қўйган ва ўз касбини севган ҳар бир педагогнинг қиласидиган ишидир. Ўз ишининг моҳир устаси бўлган педагог – бу юксак даражада маданиятли, ўз фанини чуқур биладиган, фаннинг ёки санъатнинг тегишли соҳаларини яхши таҳлил эта оладиган, тарбиялаш ва ўқитиш услубиётини мукаммал эгаллаган мутахассисдир"¹.

Бу таърифни яхши тушуниб, унинг маъно моҳиятини таҳлил этадиган бўлсак, ушбу таърифда педагогик маҳорат тушунчаси мазмунга кирадиган қуйидаги масалаларни ажратиш мумкин бўлади:

1. Умумий маданиятнинг юқори даражаси ҳамда билимдонлик ва ақл-заковатнинг юксак кўрсатгичи.
2. Ўзининг ўқитаётган фанига доир кенг ва чуқур билим соҳиби.
3. Педагогика, умумий ва педагогик психология каби фанлар соҳасидаги билимлар билан қуролланганлик, улардан ўқитиш ва тарбиялаш ишлари тажрибасида эркин ва усталик билан креатив ёндашиш ва ундан фойдалана билиш.
4. Ўқув-тарбиявий ишлари методикасини мукаммал эгалланлаш. Бу масалалар зарурий эҳтиёж ҳисобланади.

Педагогик маҳорат – туғма талант ёки наслдан – наслга ўтувчи хусусият эмас, балки изланиш, ижодий мөҳнат маҳсулидир, шунинг учун биз креатив ёндашиш ҳар қандай маҳорат асоси деб ҳисоблаймиз. Шунинг учун ҳам педагогик креатив ёндашиш маҳорати ҳамма ўқитувчилар учун стандарт, яъни бир қолипдаги иш усули эмас, балки у ҳар бир ўқитувчининг ўз устида тинмасдан ишлаши, ижодий мөҳнати жараёнида ташкил топадиган ва ривожланадиган мөҳнат маъсулидир. Бу жараёнда илғор ўқитувчининг педагогик маҳорати ва тажрибалари бошқа ўқитувчи ўрганиши, ундан ижодий фойдаланиши ва ўз фаолиятини илғор тажрибалар билан бойитиши зарур. Ўқитувчининг педагогик маҳорати, асосан, аудитория машғулотларида яққол кўринади.

Маҳорат – бу юқори ва доимо юксалиб борувчи тарбия ва ўқитиш санъатидан иборат. Педагог – ўз ишининг устаси, ўз фанини чуқур билувчи, фан ва санъатнинг мос соҳалари билан яхши таниш, амалда умумий ва ёшлар психологиясини яхши тушунувчи, ўқитиш ва тарбиялаш методикасини ҳар томонлама билувчи ҳамда юқори маданиятга эга бўлган мутахассисдир.

Педагогика назариясида ўқитувчи маҳоратини 2 хил тушуниш мумкин. Биринчидан, педагогик мөҳнатни тушуниш билан боғлиқ бўлса, иккинчидан тарбияда педагог шахси асосий ўрин тутади. Маҳоратни эгаллаш учун кўп нарсани билиш, тинимсиз креатив ёндашиши, унга амал қила билиши зарурдир. Ўқитувчининг муҳим фазилати – кишилар билан тез кириша олиши ва муомала маданиятининг юксаклигини ифодалайди. Чунки

¹ Худайқулов Х.Ж. Педагогик маҳорат асослари. -Т.: Навруз 2011 й.

Үқитувчига ҳамиша одамлар билан алоқа қилишга улар билан ишлашга тұғри келади.

Үқитувчи доим фаол, ижодкор шахс. Уйқувчиларнинг кундалиқ ҳәётини уюштирувчи одам.

Педагог – үйқувчиларга үрнак, үз орқасидан юришга үндай оладиган одам. Үқитувчига касбий жиҳатдан керакли хислатлардан бири бу сабр-тоқат ва дадиллик. Үқитувчининг ҳар қандай саросимага тушганини, ночорлигини үйқувчилар сезиши ва күриши зарур әмас. Бу борада А.С.Макаренко – “тормозсиз үқитувчи – бу бузук, ҳайдаб бўлмайдиган машина” – деб қайд қилган. Буни ҳамиша эсда тутиш керак, үз ҳаракати ва ахлоқини назорат қилиши лозим. Үқитувчи характеристика қалдан мөхрибонлик – үйқувчилар руҳий ҳолатини, уларнинг кайфиятини сезишга имконият берадиган ва вақтида ёрдамга келиш имкониятини берадиган ўзига хос барометр. Үз тарбияланувчиларининг бугунги кун келажаклари учун хавотирлик – бу педагогнинг табиий ўзининг шахсий масъулиятини англаш.

Үқитувчи – талабчан бўлиши шарт. Бу унинг муваффақиятли ишлашининг биринчи шарти. Дастрекки энг юксак талабларни үқитувчи ўзига тақдим қилиши керак, чунки ўзингда йўқ нарсани бирорлардан талаб қила олмайсан. Педагог талабчанлиги билан бирга оқилона тарбиячи ҳам бўлиши лозим.

Шахс ахлоқини характеристика қалдан белгилардан бири – масъулият. Үқитувчи масъулияти – масъулият тушунчасининг бутун мазмунини сақлагани ҳолда, үқитувчининг фаолияти ва таълим-тарбия жараёнининг аниқ вазифаларини ўз ичига олади. Үқитувчи шахс зиммасига бола шахсини ҳар томонлама камол топтириш масъулияти юкланди. Үқитувчи – үйқувчига чуқур назарий билим бериши, уни ҳаётга, меҳнатга тайёрлаши лозим. Шу билан бирга у үйқувчидаги мавжуд лаёқат ва қобилиятларни пайқаб, индивидуал муносабатда бўлиши, унда мавжуд бўлган ижобий-ахлоқий сифатларни авайлаб ўстириши даркор.

Шундай қилиб, педагогик одобга эга бўлган үқитувчи үйқувчилар орасида обрў қозонади. Үқитувчи қанчалик кўпроқ обрў қозонса, таълим ва тарбия моҳияттан шунчалик муваффақиятлироқ бўлади. Аксинча, үқитувчи обрўйи қанчалик паст бўлса, унинг болаларга таъсири шунча бўш ва үйқувчиларни вояга етказиш жараёни ҳам шунча заиф бўлади.

Талаб – тажрибада жуда кўп тарқалган услуб бўлиб, таълим-тарбия жараёнида педагогнинг тарбияланувчига шахсий муносабати намоён бўлиши йўли билан хатти-харакатларининг рағбатлантирилиши ёки тўхтатилишини таъминлайди. Талаб – педагогик таъсир кўрсатишнинг бошланғич услуби бўлиб, тарбияланувчиларда ўзига нисбатан масъулият ва талабчанликни ривожлантир-ишда алоҳида вазифани бажаради.

Истиқбол-таъсир кўрсатишнинг жуда таъсирчан услуби бўлиб, у болаларнинг хатти-харакатларини, улар олдига қўйилган мақсадлар, уларнинг шахсий интилишлари, қизиқишлирига айланади.

Рағбатлантириш ва жазолаш – үйқувчиларни хулқ-атворига кузатиш киритиш, яъни фойдали хатти-харакатларини қўшимча рағбатлантиришни ва тарбияланувчиларнинг номаълум хатти-харакатларини тўхтатишни таъминлайди.

Жамоатчилик фикри-тарбияланувчиларнинг ижтимоий фойдали фаолиятини

ғоят ҳар томонлама ва мунтазам рағбатлантириб боришни таъминлайди. Ўзаро фикр алмашиш билан таъсир кўрсатиш воситалари: ишонтириш, таъсир қилиш, ўзаро фикр алмашиш билан таъсир кўрсатиш.

Ишонтириш педагогик таъсир кўрсатиш услуби сифатида дарсларда ўқув ахбороти, ижодий сұхбатлар, мунозаралар шаклида қўлланилади, гуруҳ ва якка сұхбатлар, мунозаралар, сиёсий ахборотлар шаклида қўлланилади.

Таъсир қилдириш киши психикасига назоратсиз кириб, унинг фаолиятида хатти-ҳаракатлар, сабаблар, интилишлар билан амалга оширилади. Таъсир қилиш шундай бир психик таъсир кўрсатишни, киши онгини етарлича назоратсиз идрок этади.

а) педагогик вазиятларни таққослаш ва умумлаштириш, услубарини қўйиш;

б) ўқувчиларга якка индивидуал ҳолда муносабатда бўлиш, уларнинг мустақил ишларини ташкил этиш.

Педагог тарбия вазифаларини амалга ошираркан, ўқувчиларга кўрсатадиган таъсир тарбияланувчилар кўриб, эшитиб ва бажариб бораётган мазмунларнинг муайян даражада ўзгаришини тақозо қилади. Ҳар хил ўқитувчи ўқувчиларга турлича даражада хилма-хил таъсир кўрсатади. Муомаланинг ўзаро бирликдаги ҳаракати ва коммуникатив жиҳатдан ташқарида унинг перцептив жиҳати –мuloқot иштирокчиларининг ўзаро идрок этиши юзага чиқади. Муомала иштирокчилари ўз онгиди бир-бирларининг ички дунёсини қайта тиклашга, ҳис-туйғуларини, хулқ-авторининг сабабини, аҳамиятга молик объектларга нисбатан муносабатини фаҳмлаб етишга ҳаракат қилади.

Ўқитувчи ўқувчилар билан бўладиган мuloқotiда қўйидаги малакаларни эгаллаган бўлиши лозим: ташқи қиёфани назорат қилиш, нутқни эгаллаш, педагогик муносабат маданиятини эгаллаш, ташкилотчилик маҳорати, ўқув-тарбия жараёнини бошқариш услубарини эгаллаши лозим. Мулоқотда умуминсоний қадриятлар устуворлиги.

Шарқона муносабатда ота-онага ҳурмат билан қаралиши, оиласда отанинг ўрни алоҳида бўлганлиги, ота-онанинг гапини икки қилмаслик, ота-онанинг измидан чиқмаслик, шу билан бирга отага гап қайтариш, унга тик боқиш гуноҳ ҳисобланиши каби ҳолатларни кўришимиз мумкин. Ёки устозга ҳурмат билан қараш каби хислатлар ҳам катта тарбиявий аҳамият касб этади.

Педагогик муомалада психологик алоқа ўрнатиш алоҳида аҳамиятга эга, чунки талаба билан ўзаро муносабат, ҳурмат, ишонч негизида қурилади. Бунда ўқитувчи талабанинг ҳуқуқ ва мажбуриятининг мактабда, жамоада, оиласда бажарадиган роли нимадан иборат эканлигини эътибордан четга чиқармасдан улар билан мuloқot қилиш лозим.

Маҳоратли педагог мuloқot услубларидан тўғри фойдаланади: Ўқув тарбия жараёнида педагогик мuloқotни бажариш услублари. Психологияда раҳбарларнинг ўз жамоаси аъзолари билан муносабат техникаси таҳлил этилиб, турли типдаги ижтимоий-психологик портретлари ишлаб чиқилган. Раҳбарларнинг мuloқotни бошқариш услублари: авторитар, демократик, либерал услуб тарзида берилган.

Авторитар услуб. Ўқитувчи гурухнинг фаолият йўналишини шахсан ўзи белгилайди, ким-ким билан ўтиради, ким билан ишлайди ўқитувчи ўзи ҳал қилади. Бундай услубда иш юритувчи ўқитувчи ўқувчилар ташаббусига йўл бермайди.

Ҳамкорликнинг асосий шакли – буйруқ, кўрсатма, инструкция, огоҳлантириш.

Демократик услуг. Ўқитувчи фаолият мақсадини ҳар бир ўқувчи онгига етказишига, иш боришини ҳал этишга ҳаммани фаол иштирок этишга ундейди. Ўзининг вазифасини фақат назорат ва мувофиқлаштиришда эмас, балки тарбиялашда деб билади. Ҳар бир ўқувчи рағбатлантирилади, унда ўзига ишонч пайдо бўлади, ўз-ўзини бошқариш ривожланади. Демократик услугда бошқарувчи ўқитувчи болаларнинг индивидуал қобилият ва қизиқишлигини ҳисобга олиб, вазифаларни оптимал тарзда тақсимлашга ундейди. Фаоллик рағбатлантирилади, ташаббусни қувватлайди. Мулоқотнинг асосий шакли – илтимос, маслаҳат, ахборот тарзида бўлади.

Либерал услуг. Ўқитувчи жамоа фаолиятига арапашмасликка ҳаракат қиласи, фаоллик кўрсатмайди, маслаҳатларга формал қарайди, турли таъсирларга тез берилади.

Энг яхши услуг – демократик услуг. Миқдорий кўрсаткичлар авторитар услубдан кам бўлиши мумкин, лекин ишлаш иштиёқи раҳбар йўғида ҳам давом этади. Энг ёмон услуг – либерал услуг бўлиб, бунда иш кам бажарилади, сифат ёмон бўлади.

Раҳбар ўқитувчининг мулоқот самарадорлигини икки шахснинг қанчалик ўзаро бир бирини тушуниши ва сабр билан тинглашига боғлиқдир "Раҳбарнинг тинглаш маҳорати масаласини бугунги кунда ҳаётнинг ўзи ҳар қачонгидан ҳам долзарб вазифага айлантириб қўймоқда."² дейди психолог В. Каримова. Чунки тинглаётган одам маъноли, яхши диалогдан фақат яхши фойдали маълумот олади. Шунинг учун мулоқотда муҳим йўналишлардан бири одамларни фаол тинглашга, тинглаш маҳоратининг омилларидан ўринли фойдаланишга ўргатишдир. Маҳоратли раҳбар ўқитувчи булардан хабардор бўлиши лозим.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бугунги жамиятда яшаётган ҳар бир маҳоратли ўқитувчи албатта юқорида келтирилган фикрларга асосланиб иш тутса, албатта ўз мавқеийига ва салоҳиятига эга бўлган маҳоратли ўқитувчи сифатида ҳурмат ва иззатга лойиқ инсон бўлиши табиийдир. Бунинг учун ҳар бир ўз касбини севган инсон етук мутахассиси сифатида педагогик креатив ёндашиш маҳоратига эга бўлишни унутмаслиги лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюқ келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. — 488 б.
2. Ш.М.Мирзиёев ҳалқ таълими тизимини ривожлантириш педагогнинг малакасини ва жамиятда нуфузини ошириш ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган нутқи. 2019 23 август "Новости Узбекистана" Газета УЗ.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т., 1997.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т., 2008.
5. Алижон Каримжонов "Педагогик тизимни бошқариш" Тошкент-2008, Низомий номидаги ТДПУ. — Б 176.
6. Каримова В. Психология. — Т.: 2002, -Б.167.

² В. Каримова. Психология.- Т.: 2002, 167-бет.

7. Кайковус. Қобуснома. — Т., Ўқитувчи.2011 й.
8. Құдратов Т. Нұтқ маданияти асослари. — Т., 1993.
9. Очилов М.О., Очилова Н. Ўқитувчи одоби. — Т.: Ўқитувчи, 1997.
10. Шавкатов И. Педагогик маҳорат асослари. -Т.: Шарқ, 2009.
11. Худойқұлов Х.Ж. Педагогик маҳорат асослари. -Т.: Навruz. 2011 й.
12. Худойқұлов Х.Ж., Жамиятда муомала ва мулоқот одобини шакллантиришда ота-она, үқитувчи ва раҳбар масъуллиги. – Т., 2009.
13. Худойқұлов Х.Ж. Одоб – ахлоқ ва тарбия дурдонаси. – Т., Навruz, 2010 й.
14. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. – Т., Ўзбекистон, 2019 й.

MAMLAKATIMIZDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLAR ERKINLIGI VA FAOLIYATI

Xujaaxmedova Surayyo Xudaynazarovna

*Jizzax viloyati Paxtakor tumani 1-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi huquq fani o'qituvchisi
surayyohujaaxmedova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda nodavlat va notijorat tashkilotlari (NNT va NNT) shakllanishini nazorat qiluvchi tashkiliy-huquqiy asoslar o'rganiladi. Tadqiqot, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari duch kelayotgan sababiy o'zgarish va imkoniyatlarga, qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar va milliy davlat tizimidagi rolini oshirishga qaratilgan hukumat siyosatini hisobga olgan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), notijorat tashkilotlar (nodavlat notijorat tashkilotlari), huquqiy baza, tashkiliy asoslar, fuqarolik, Nizom, ro'yxatdan o'tish jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматриваются организационно-правовые основы, регулирующие формирование неправительственных и некоммерческих организаций (НПО и НГО) в нашей стране. Исследование также охватывает причинные изменения и возможности, с которыми сталкиваются НПО, принимая во внимание недавние законодательные изменения и политику правительства, направленную на повышение их роли в системе национального государства.

Ключевые слова: Неправительственные некоммерческие организации (НПО), некоммерческие организации (НГО), правовая база, организационные основы, гражданство, Устав, процесс регистрации.

Annotation: This article examines the organizational and legal frameworks that control the formation of non-governmental and non-profit organizations (NGOs and NGOs) in our country. The study also covers the causal changes and opportunities facing NGOs, taking into account recent legislative changes and government policies aimed at increasing their role in the nation-state system.

Keywords: Non-governmental non-profit organizations (NGOs), non-profit organizations (NGOs), legal framework, organizational framework, citizenship, Charter, registration process.

Kirish.

So'z yuritilayotgan mavzu rasmiy davlat muassasalardan mustaqil tarzda faoliyat yurituvchi, o'zlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va ekologik maqsadlariga mos ravishda lobbichilik, ishontirish orqali ish olib boruvchi va o'z sohasi uchun kerakli xodimlarni jalb qiluvchi nodavlat notijorat tashkilot sanaladi. Ular o'z daromadlarini xayriya qiladigan yoki a'zolik to'lovlarini ta'minlovchi notijorat tashkilotlardir. Nodavlat notijorat tashkilotlari palata, fond va uyushma nomi ostida faoliyat yuritadi. Jamg'armalar va uyushmalar jamiyatga foydali xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va fuqarolarga yordam berish maqsadida tashkil etilgan yuridik jamiyatlardir. Nodavlat va notijorat tashkilotlari (NNT va NNT) fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ijtimoiy muammolarni hal etish, taraqqiyotga ko'maklashish va demokratik jarayonlarni takomillashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda bu tashkilotlarning shakllanishi va faoliyatiga mamlakatning o'ziga xos huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng, nodavlat notijorat tashkilotlarini yaratish va faoliyat yuritishini qo'llab quvvatlovchi mustahkam huquqiy bazani yaratish, ularning fuqarolik faolligini oshirish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyatini e'tirof etish yo'lini boshladi. Ushbu maqola O'zbekistonda NNT va NNTlarning tashkil etilishiga asos bo'lgan tashkiliy va huquqiy asoslarni o'rganadi. U ushbu tashkilotlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan qoidalar bazasini tartibga solish muhitini va protsessual qadamlarni o'rganadi.

Bundan tashqari, u nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari duch keladigan muammolar va imkoniyatlarni, xususan, so'nggi qonunchilik islohotlari va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga qaratilgan hukumat siyosati nuqtayi nazaridan o'rnatadi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlarning shakllanishi va faoliyatiga yordam beruvchi tarkibiy va huquqiy mexanizmlar haqida har tomonlama tushuncha berish qobiliyatidadir. Ushbu maqola erishilgan yutuqlar va yaxshilashga muhtoj bo'lgan sohalarni ta'kidlab, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fuqarolik jamiyatni tashkilotlarining rolini oshirish bo'yicha olib borilayotgan muhokamalarga hissa qo'shishni maqsad qilgan. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy asoslari, birinchi navbatda, 1999-yilda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun orqali o'rnatilgan. Ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ushbu huquqiy qoidalarni tushunish O'zbekistondagi NNT va NNTlarning tashkiliy dinamikasini tushunish uchun juda muhimdir. Ya'nikim , maqolada ushbu tashkilotlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan tartibga soluvchi muhit, shu jumladan, Adliya vazirligi va boshqa tegishli davlat organlarining roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, u Nizomni ishlab chiqishdan tortib, ro'yxatdan o'tish jarayonigacha bo'lgan NNT yoki NNTni tashkil etishning amaliy jihatlarini ham ko'rib chiqadi. Maqolada huquqiy va protsessual jihatlarga qo'shimcha ravishda, O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kengroq konteksti ko'rib chiqiladi. Bu byurokratik to'siqlar va moliyaviy barqarorlik kabi ular duch keladigan muammolarni tahlil qilishni, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlik va texnologik yutuqlarni taqdim etish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u O'zbekistondagi fuqarolik jamiyatni tashkilotlarining o'sishi

va samaradorligini qo'llab-quvvatlash uchun tartibga solish muhitini qanday qilib yanada yaxshilash mumkinligi haqida tushuncha berishga intiladi.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini shakllantirishning huquqiy asoslari, birinchi navbatda, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun orqali o'matilgan. Asosiy qoidalar quyidagilar: tashkilotlarning turlari: qonunda notijorat tashkilotlarning turli shakllari, jumladan, jamoat birlashmalari, fondlar va muassasalar farqlanadi. Tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish: NNT yoki NNTni tuzish jarayoni nizom loyihasini tayyorlash, ta'sis qo'mitasini shakllantirish va Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tishni o'z ichiga oladi. Huquq va majburiyatlar: qonun nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga o'z maqsadlariga muvofiq faoliyat yuritish, mulk sotib olish va xayriyalar olish huquqini beradi, shu bilan birga milliy qonunlarga rioya qilish va shaffof moliyaviy hisobotlarni taqdim etish kabi majburiyatlarni ham yuklaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari usullar bo'yicha farqlanadi. Ba'zilari birinchi navbatda targ'ibot guruhlari, boshqalari esa dasturlar va tadbirlarni amalga oshiradilar. Oxfam qashshoqlikni bartaraf etish bilan shug'ullanib, muhtoj odamlarga oziq-ovqat va ichimlik suvi olish uchun asbob-uskunalar va kerakli yordamni taqdim etishi mumkin. Faktlarni aniqlash bo'yicha hujjatlar va advokatlik forumi (FFDA) inson huquqlari buzilishi qurbanlariga yuridik yordam ko'rsatishda yordam beradi. Afg'oniston axborot boshqaruvi xizmatlari boshqa tashkilotlar tomonidan joylarda amalga oshirilayotgan rivojlanish tadbirlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus texnik mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadi.

Boshqaruv texnikasi loyiha muvaffaqiyati uchun juda muhim hisoblanadi. [World Bank Criteria defining NGO (Wayback Machine saytida 21 June 2007 sanasida arxivlangan)] Operatsion nodavlat notijorat tashkilotlar mahalliy dasturlarni yaratish uchun moliyaviy resurslar, materiallar va ko'ngillilarni safarbar qilgan holda „loyihalar orqali to'g'ridan-to'g'ri kichik miqyosdagi o'zgarishlarga erishishga“ intiladi. Operatsion nodavlat notijorat tashkilotlar odatda ierarxik tuzilishga ega. Ularning shtab-kvartiralarida loyihalarni rejalashtiruvchi, byudjet mablag'ni hisoblovchi, hisob-kitoblarni yurituvchi hamda loyihalar bo'yicha operativ xodimlarga hisobot beradigan va ular bilan muloqot qiluvchi mutaxassislar ishlaydi. Ular ko'pincha xizmatlar ko'rsatish yoki atrof-muhit muammolari, favqulodda vaziyatlarda yordam va jamoat farovonligi bilan bog'liq hollarni o'rganadilar. Operatsion nodavlat notijorat tashkilotlari yordam ko'rsatish yoki rivojlantirish tashkilotlariga, xizmat ko'rsatish yoki ishtirok etish, diniy yoki dunyoviy, davlat yoki xususiy tashkilotlarga bo'linishi mumkin. Amaldagi nodavlat notijorat tashkilotlari hukumatga tegishli bo'lsa-da, ko'plari milliy yoki xalqarodir. Operatsion nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining belgilab beruvchi faoliyati loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi [Willetts Peter. *UNESCO Encyclopaedia of Life Support Systems*. City University London. 2001].

Tashkiliy jarayon O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkiloti yoki nodavlat notijorat tashkilotining shakllanishi bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi: Nizom loyihasini tayyorlash: ta'sischilar tashkilotning maqsadlari, boshqaruv tuzilmasi va operatsion tartib-qoidalarini belgilab beruvchi Nizom loyihasini ishlab chiqishi kerak. Ta'sis qo'mitasi ta'sis jarayonini nazorat qilish uchun kamida uch kishidan iborat ta'sis qo'mitasi tuziladi. Ro'yxatdan o'tish: tashkilot, Nizom, ta'sischilar ro'yxati va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etish orqali Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tishi kerak. Ro'yxatga olish jarayoni tashkilotning qonuniy talablarga javob berishi va shaffof ishlashini ta'minlaydi. O'zbekistondagi NNT va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun normativ-huquqiy muhitda fuqarolik jamiyatini

tashkilotlari uchun yanada qulay muhit yaratishga qaratilgan jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Qonunga kiritilgan so'nggi o'zgartishlar ro'yxatga olish tartib-taomillarini soddalashtirdi, byurokratik to'siqlarni kamaytirdi, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga katta avtonomiyalar berdi. Normativ muhit O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun me'yoriy-huquqiy muhit ularning o'sishi va jamiyatga qo'shan hissasini oshirish uchun rivojlangan. Ushbu muhitning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi: ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartiblari: qonunga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar ro'yxatga olish jarayonini soddalashtirdi, yangi tashkilotlar duch keladigan vaqt va byurokratik to'siqlarni qisqartirdi. Bunga elektron taqdim etish variantlari va hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha aniqroq ko'rsatmalar kiradi. Davlat nazorati va qo'llab-quvvatlashi: Adliya vazirligi va boshqa davlat organlari nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishda, ularning qonun talablariga rioya etilishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, hukumat ushbu tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini, masalan, soliq imtiyozlari va salohiyatni oshirish dasturlarini joriy qildi. Moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik: NNTlar va nodavlat notijorat tashkilotlari shaffof moliyaviy amaliyotni qo'llab Jamoatchilik ishtiroki va advokati: huquqiy baza NNT va nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat siyosatini muhokama qilishda ishtirok etishga va o'z vazifalariga taalluqli masalalarni himoya qilishga undaydi. Bu boshqaruv va rivojlanishga yanada inklyuziv va ishtirokchi yondashuvni kuchaytiradi. Qonunchilik bazasi O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlarini shakllantirish va faoliyat yuritish uchun mustahkam poydevor yaratса-da, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. So'nggi yillarda islohotlar sohasida qonun hujjatlariga asosan mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining saylovlarda faol ishtiroki bo'yicha yetarli asos va imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu imkoniyatlarni bilish va ulardan keng foydalanish, nafaqat saylovlarning demokratik ruhda o'tishiga, balki mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ham turki bo'ladi. Partiyalar - saylovlarning lokomotivi. Aynan ular orqali nomzodlar ko'rsatiladi, siyosiy raqobat muhiti yuzaga keltiriladi va turli tabaqalarning siyosiy qarashlari ifodalanadi. Partiyalar o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali siyosiy jarayonlarda ishtirok etadilar.

Xulosa. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini (NNT va NNT) tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari keng qamrovli huquqiy baza asosida mustahkam yo'lga qo'yilgan. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun hujjatlariga keyingi o'zgartishlar bilan bir qatorda ushbu tashkilotlarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritishning aniq tuzilmasini belgilab berdi. Ushbu huquqiy asos nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali, shaffof va o'z vazifalariga muvofiq faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini oshirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan muhim imkoniyatlar ham mavjud. Hukumatning fuqarolik jamiyatini e'tirof etishi va qo'llab quvvatlashi, jumladan, ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartib-qoidalari va moddiy rag'batlantirish ushbu tashkilotlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik moliyalashtirish, ekspertiza va ilg'or tajribalar uchun qimmatli imkoniyatlarni taqdim etadi, texnologik yutuqlar esa operatsion samaradorlikni oshirish va targ'ibot ishlarini yaxshilash imkonini beradi. O'zbekistonda NNT va NNT salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun maqsadli siyosat va tashabbuslar orqali mavjud muammolarni hal qilish muhim. Moliyaviy barqarorlikni oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va salohiyatni oshirish uchun kengroq resurslar bilan

ta'minlash bu yo'nalishdagi muhim qadamlardir. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlarda shaffoflik va hisobdorlik madaniyatini rivojlantirish manfaatdor tomonlar, jumladan, donorlar va keng jamoatchilik o'rtasida ishonchni oshiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish. Narimanov B.A. DSc avtoreferat. Toshkent-2023. 58-bet.
2. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/amendments-to-the-law-on-ngos>
3. <https://advice.uz/oz/document/2730>
4. Maktab darsligi va internet sayti orqali.

TA'LIM MUASSASALARIDA RAHBARLARNING MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Xurramov Anvar Vafokulovich,
*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi
anvarxurramov1984@gmail.com*

Annotatsiya: Boshqaruvda xodimlarning mas'uliyat va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchi pedagogik-psixologik jihatdan o'z mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilimlarga va ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs ekanligi, ta'lif muassasasi xodimi ta'lif jarayonida o'qitishning ilg'or shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsnii tarbiyalash nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mas'uliyat, pedagogik maqsad, ijodiy kayfiyat, rejalashtirish, ilhom, ijod, ishonch, rag'batlantirish.

Аннотация: Развитием навыков ответственности и гибкости у сотрудников в управлении занимается педагог – педагогически-психологически, обладающий специальными знаниями и образованием по своей специальности, богатый профессиональной подготовкой и высокими моральными качествами, работающий в образовательных учреждениях. Сотрудник образовательного учреждения умеет оптимально организовать передовые формы обучения в образовательном процессе, обогатить теорию воспитания всесторонне развитой личности различными новыми идеями.

Ключевые слова: Ответственность, педагогическая цель, творческий настрой, планирование, вдохновение, творчество, уверенность, поощрение.

Annotation: The development of responsibility and flexibility skills of employees in management is a teacher - pedagogically-psychologically, with special knowledge and

education in his specialty, rich in professional training and high moral qualities, working in educational institutions. Being a demonstrative person, the employee of the educational institution knows how to optimally organize advanced forms of teaching in the educational process, to enrich the theory of educating a well-rounded person with various new ideas.

Key words: Responsibility, pedagogical goal, creative mood, planning, inspiration, creativity, confidence, encouragement.

Mas'uliyat – ma'naviy, ijtimoiy va ma'muriy-huquqiy sohalarda keng qo'llaniladigan tushuncha. Ma'naviyat nuqtai-nazaridan yondashilganida burch; ijtimoiy ma'noda jamiyat va boshqalar oldidagi ma'naviy qarzdorlik. Ma'muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me'yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo'lishi. Huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma'noli kategoriya.

Mas'uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o'zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma'naviy-ahloqiy jihatni nuqtai-nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma'noda mas'uliyat tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xos ko'plab masalalarning murakkab majmuuni qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi. Har qanday odam o'zi uchun muhim biron bir maqsadga erishish yo'lida harakat qilish usulini tanlashda o'z tabiatiga ko'ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas'uliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat esa o'z-o'zini asrash va rivojlanish uchun muayyan ichki tartibni shakllantirib, o'z a'zolarining nomaqbul qilmishlarini amalda cheklashga majbur. Shunday qilib, odamlarning xulq-atvor me'yorlari bilan mas'uliyati uzviy aloqadadir. Bu holat jamiyatning barcha a'zolari bir-biri va jamiyat oldida ma'lum majburiyatlarni ongli yoki ongsiz ravishda qabul qilishi, shuningdek, zarur hollarda ularni ro'yobga chiqarishga tayyorligida namoyon bo'ladi. Tarixdan ma'lumki, hokimiyatning barcha bo'g'lnlari barqaror va mas'uliyatli bo'lmasa, jamiyat izchil rivojlanishi va taraqqiy etishi mumkin emas. Bu masala hozirgi dunyoda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning, o'qituvchi va pedagoglarning o'z xizmat vazifalariga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishda rahbarning samarali boshqaruvs usulidan foydalanishi muhim sanaladi. Qachonki muassasa rahbarining o'zi belgilangan va umume'tirof etilgan qoidalarga rioya qilgan taqdirdagina boshqaruvidagi xodimlaridan ham shuni kutsa bo'ladi. Bu jarayonda xodimlarga o'z kasbiga nisbatan qiziqish va qonuniy manfaatdorlik, o'z ishidan qoniqish hissini kuchaytirish lozim bo'ladi.

Ta'lif muassasasining maqsadiga erishishi – ta'lif jarayonida yuqori samaradorlikni ta'minlash xodim o'z xizmat vazifasini sidqidildan, tashabbuskorlik ko'rsatib bajarishiga bog'liq. Buning uchun xodimlar o'z xizmat vazifalariga haqiqatan qiziqishlari lozim bo'ladi.

Insonni muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlarga qiziqish (motiv) deb ataladi. Qiziqish insonga uning ehtiyojlarini qondirish uchun nima qilish va buni qanday qilish kerakligini belgilaydi.

Qiziqish jarayonini to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

1. Ehtiyojning paydo bo'lishi.
2. Ehtiyojni qondirish yo'llarini izlash.
3. Ehtiyojni qondirish uchun faoliyatga kirishish.
4. Ehtiyojning qondirilishi, moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirishga ega bo'lishi.

Ehtiyoj – insонning hayot kechirishi, shaxs va ijtimoiy guruhni rivojlantirish uchun obyektiv zarur narsalar. Ehtiyojlar 2 turga bo'linadi. Biologik va ijtimoiy ehtiyoj bir-biridan farq qiladi.

Biologik ehtiyoj – suv, havo, oziq-ovqatga, hayot kechirish uchun zarur boshqa narsalar – uy-joy, kiyim-kechak, ro'zg'or buyumlari, shuningdek, avlodni davom ettirishga ehtiyoj.

Ijtimoiy ehtiyoj – millat, ijtimoiy guruhga mansublikka, o'z shaxsini, erishgan muvaffaqiyatlarini rivojlantirish, o'z qobiliyatini namoyon etish, boshqalar tomonidan o'sish qobiliyatları e'tirof etilishiga ehtiyojdir.

Xodimning ehtiyojlarini qondirish hisobiga mehnatga qiziqtirishda inson, shaxs eng asosiy masala hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruvning bosh subyekti insondir. Ushbu yondashuvga muvofiq inson tashkilot uchun emas, balki tashkilot inson uchun zarurdir. Xodimlarni boshqarish strategiyasi, tuzilmasi va jarayoni xuddi ana shu xodimlar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Inson ko'pgina fanlar (falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot, pedagogika, tarix va boshqalar) tadqiqining obyekti hisoblanadi.

Xodimlarning o'z kasbiga mas'uliyatining oshirishning muhim yondashuvlaridan biri qiziqtirishdir. Qiziqtirish (motivatsiya) tushunchasi turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Boshqaruv nazariyasida bu o'zini va boshqalarni tashkilot maqsadiga erishishga qaratilgan muayyan faoliyatga qiziqtirish jarayonidir.

Psixologik nuqtai nazardan esa qiziqish xodim subyektiv faoliyati jarayoni, deb tushuniladi. Qiziqtirish jarayoni negizida qiziqishning moddiy, ijtimoiy-psixologik, ma'naviy, ijodiy va boshqa omillari yotadi. Qiziqtirish nazariyalarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- mohiyat bo'yicha qiziqtirish nazariysi;
- jarayon bo'yicha qiziqtirish nazariysi

Mohiyat bo'yicha qiziqtirish nazariyalarini ehtiyoj deb nomlanuvchi, insonlarni boshqacha emas, balki xuddi shunday harakat qilishga undaydigan ichki qiziqishlarni aniqlashga asoslangan. Ushbu guruhga Abraxam Maslou, Devid Mak-Klelland va Frederik Gertsberg, Skinner Bernard nazariyalarini taalluqlidir.

Ushbu ikki guruh nazariyalarini bir-birini istisno etmaydi, balki o'z muayyan qo'llanish sohalariga egalar. Ular mohiyatini chuqurroq anglash uchun asosiy tushunchalar – ehtiyoj va rag'batlantirishning mohiyatini anglash kerak bo'ladi. Ehtiyojlarni ushlab ko'rish yoki o'lchash mumkin emas. Ular to'g'risida insonlarning xatti-harakatlari orqali tasavvur hosil qilish mumkin. Ehtiyojlar faoliyat uchun qiziqish uyg'otadi. Insonlarning xatti-harakatlari va ular bu xatti-harakatlarini uyg'otuvchi qiziqishlarni turli modellarda keltirish mumkin.

Qiziqtirish nazariyasida rag'batlantirish – inson o'zi uchun qimmatli hisoblagan hamma narsa muhim hisoblanadi. Insonlarda qimmatilik tushunchasi turlicha, shuning

uchun rag'batlantirishni baholash ham ularda bir-birlariniidan farqlanadi. Rag'batlantirishning ikki turi mavjud:

Ichki rag'batlantirishni ishning o'zi beradi. Bunga mehnat jarayonidan qoniqish hosil qilish hissi, ko'zlangan natija yoki maqsadga erishish, mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglash va shu asosda o'z-o'zidan g'ururlanish kiradi. Ish jarayonida xodim o'z ehtiyojini o'zi kabilar, ya'ni boshqa kishilar bilan munosabatda bo'lish orqali qondiradi.

Tashqi rag'batlantirish korxona, tashkilot tomonidan beriladi. Ish haqi, martabaning yuqorilashuvi, hamkasblar, rahbarlar tomonidan bildiriladigan maqtovlar va e'tiroflar, qo'shimcha to'lovlar, qo'shimcha ta'tillar, xizmat avtomobili, mukofotlar – shular sirasiga kiradi.

Rag'bat insonga uning mehnat faoliyati natijalarini munosib baholash sifatida taklif etiladi. Inson ko'pgina rag'batlarni ularning mohiyatini anglab etmasdan, ya'ni beixtiyor qabul qiladi. Turli insonlarda aniq rag'batlarga munosabat bir xil emas. Ko'pgina tadqiqotlarda rag'batlar faoliyat uchun tashqi da'vat, qiziqish sabablari esa ichki da'vat deb ta'riflanadi. Shunday ekan rag'bat va qiziqish sabablarini, eng avvalo, ularning insonni faoliyat ko'rsatishiga undashi birlashtirib turadi. Biroq agar rag'bat manfaat (moddiy, ma'naviy, guruhiy, shaxsiy) orqali faoliyat ko'rsatishga undasa, qiziqish asosida esa ham manfaat (mukofotlash, lavozimda ko'tarilish), ham shaxsiy sabab (burch, qo'rqish, mas'uliyat hissi va hokazolar) yotadi. Shuning uchun qiziqish sabablari (motiv) rag'batga nisbatan kengroq ma'noga ega.

Rag'batlantirish chora-tadbirlari muayyan shaxslar ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi darkor. Xodimning ishga qiziqishini tegishli rag'batlantirish usuli orqali o'zgartirish mumkin. Rahbarlar uchun bu rag'batlantirishlar bir xil shaklda emas, balki xodimlarning shaxsiy ehtiyojlariga muvofiq ishlatalishi kerak, degan ma'noni anglatadi.

Hozirgi vaqtda personalga ma'muriyat tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berish tajribasi keng yoyilmoqda. Ular quyidagilardan iboratdir:

- xodim maqomi nufuzini belgilovchi;
- xodim ijtimoiy himoyalanganligini ko'rsatuvchi;
- bevosita bajarilgan ish va ishlab chiqarish vazifasi uchun belgilangan imtiyozlar. Mukofotlash tariqasida u yoki bu imtiyozni tanlash ma'muriyat vakolati hisoblanadi. Moddiy rag'batlantirish hamisha ham qiziqtirishning eng ta'sirchan vositasi bo'lib qolaveradi. Biroq personal farovonligi ko'tarilgan sari birgina uning o'zi yetarli bo'lmaydi. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, qiziqtirishning iqtisodiy uslublari kompaniya yoki firma tomonidan sezilarli darajada xarajatlarni talab etadi.

Salbiy rag'batlantirishlarni bartaraf etish uslublari deyilganda personal ishidagi salbiy holatlarni bartaraf etish tushuniladi. Bu salbiy rag'batlantirishlarga adolatsizlik, noplumunosabatlar, erkatoylilik (favoritizm) va hokazolar kiradi. Xodimlar o'zlariga adolatlumunosabatlarda bo'lishlarini xohlaydilar. Agar inson unga xuddi boshqalarga bo'lganidek munosabatda bo'linayotganligi, ular mehnati natijalari xuddi boshqalarniki kabi baholanayotganligini aniq his etib tursa, o'ziga adolatli munosabatda bo'layotganlarini anglaydi va bundan qanoat hosil qiladi.

Yuksak natijalarga erishganlarni adolatli taqdirlash favqulodda muhimdir. Xuddi shuningdek, ishda biror natijaga erisha olmagan bo'lsa ham o'zlarini mukofotga da'vogar

deb hisoblayotganlarning faoliyatini xolis baholash ham muhimdir.

Salbiy rag'batlantirishlarni bartaraf etishning quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Ish boshqaruvchilar muntazam ravishda ularga bo'y sunuvchilar o'zlariga nisbatan adolatli munosabatda bo'linmoqda deb hisoblashayotganlarini aniqlab turishlari kerak.

2. Xodimlarning umumiyligi ishga hissalarini o'lchash mezonlari hamda buning uchun tegishli mukofot darajasi hammaga ish boshlangunga qadar ma'lum bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar hammaga yaxshi tushunarli holda bayon etilishi darkor.

3. Menejerlar mukofotlarni yaxshi ishlayotgan xodimlar boshqalardan ko'proq manfaatdor bo'ladigan darajada taqsimlashga erishishlari lozim.

Ma'naviy rag'batlantirish uslublari hisoblangan ishdan qoniqish hosil qilish, yuksak mas'uliyat hissi, jamoa tomonidan xizmatlarni e'tirof etish qo'shimcha xarajatlar talab etmaydi. Yanada muhimi, insonlar hech vaqt maqtov eshitish, e'tibor va e'tirofdan charchamaydilar.

Ma'naviy rag'batlantirishda xodim xizmatlari e'tirof etilib, uni taqdirlashni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- sezilarli natijalarga erishgan xodim mehnatini e'tirof etish;
- mehnatda erishilgan yuksak natijalarga korxona jamoasi va rahbariyatining munosabatini namoyon etish;
- e'tirofga sazovor bo'lgan alohida xodimlar ish natijalarini ommalashtirish.

Ma'naviy rag'batlantirish xodimlarning samarali mehnati korxonaning o'zida ham, uning tashqarisida ham juda qadrlanishini ifoda etadi va ularni yanada samarali mehnat qilishga rag'batlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki rag'batlantirish quyidagi tamoyillari orqali xodimlarning mas'uliyatini yanada oshirish mumkin:

1. Rahbar samimiy va xushmuomala bo'lishi kerak. Personal rahbarning nosamimiyligini hamisha sezadi.

2. Mukofot xizmatga yarasha bo'lsa va mukofotlanayotganlar buni his etib tursa qiziqtirish omiliga ega bo'ladi. Mukofot adolatsiz berilsa yoki tarqatilsa bu mukofotning qadri tushadi.

3. Xodim qaysi ishni qachon yaxshi bajarganini bilishi kerak. Rahbar yaxshi bajarilgan ish uchun shaxsan o'zi xodimga minnatdorchilik bildirishi zarur. Bunda butun jamoa tomonidan bevosita shu xodimning yaxshi ish bajarganligini e'tirof etilishi ayniqsa muhimdir.

4. Xodim tomonidan erishilgan yutuqlar keng va yorqin targ'ib etilishi lozim.

5. Alohida xizmatlari uchun xodim eng yuqori bo'g'in rahbariyati tomonidan mukofotlanishi kerak.

6. Taqdirlashning turli shakllarini qo'llagan holda qabul qilingan qarolarning ma'naviy oqibatini baholay bilish kerak. Bir insonning mehnatini rag'batlantirish boshqasinkini e'tirof etmaslik demakdir. Shuning uchun menejerdan yetti o'ylab bir kesish talab qilinadi.

7. Rag'batlantirish dasturi eng yaxshi xodimni, korxona muvaffaqiyatiga eng sezilarli

hissa qo'shayotgan insonni alohida e'zozlashga qaratilishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent:. O'zbekiston nashriyoti, 2022.-416 bet.
2. Ричи Ш, Мартин П. Управление мотивацией. Учебное пособие.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 399 с.
3. Одегов Ю.Г. и другие. Мотивация персонала Ученое пособие. – М.: Альфа-Пресс, 2010. -640 с.
4. Жданкин Н.А. Мотивация персонала. Измерение и анализ. Учебно– практическое пособие.-М.:Финпресс, 2010.-272 с.
5. Кибанов А.Я. Экономика и социология труда. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2010. – 310 с.
6. Кибанов А.Я. Управление персоналом организации: актуальный технологии найма, адаптации и аттестации. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 368 с.
7. Мамадиёров.Н.Қ. Кадрлар тайёрлаш сифатини бошқариш моделлари Иқтисодиёт ва таълим. 2016. -№4. -57. -63б.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ERTAKLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Xusenova Zamira

Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
244-maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya. Komil inson ma'naviy-ruhiy olamini yuksaltirishda ertaklarchalik hech bir vosita samarali sanalmasa kerak. Ushbu maqolada ertaklarning bolalar tarbiyasidagi o'rni haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ertak, inson, ezgulik, barkamol avlod, folklor.

Абстрактный. В воспитании духовного и духовного мира совершенного человека ни одно сказочное средство не может считаться эффективным. В данной статье рассматривается роль сказок в воспитании детей.

Ключевые слова: воспитание, сказка, человек, добро, совершенное поколение, фольклор.

Abstract. In raising the spiritual and spiritual world of a perfect person, no fairy-tale tool can be considered effective. This article discusses the role of fairy tales in children's education.

Key words: education, fairy tale, human, goodness, perfect generation, folklore.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq xalqimizning o'zligini ifoda-laydigan, asrlar mobaynida sayqallanib, avlod-ajdodlarning qon-joniga singib ketgan ezgu

an'analarimizning tiklanishi o'ziga xos milliy taraqqiyotimizning yetakchi tamoyillaridan biriga aylanib bormoqda.

Binobarin, xalq og'zaki ijodining katta bo'lagini tashkil qiluvchi alla, ertak, doston, topishmoq, lapar, o'lan va boshqa ko'plab folklor janrlari barkamol avlod tarbiyasida yuqori ahamiyat kasb etib kelishi hech birimizga sir emas. Agar yuqorida sanab o'tilgan folklor janrlar nomiga e'tiborimizni qaratsak, ulardan har biri bizning bolalik davrimizdanoq ongu-shuurimizga singib ketganligini anglaymiz. Bugun har birimiz kundalik jonli muloqotda, so'zlashuv jarayonida goh bilib, goh bilmay ko'plab purhikmat naqlarni, ma'nosi kishini lol qoldiradigan matallarni, asrlar ardog'ida sayqallangan iboralar, maqollarni qo'llaymiz. Bunday hikmatga boy bobomeros qadriyatlarimiz zamirida ezgu g'oyalar har bir avlod kamolotiga xizmat qilgani singari bugungi kunda ham o'zining asl mohiyatini saqlab qolgan. Chaqaloq dunyoga kelgan ilk kundanoq nuroniy momolarimiz ezgulikka yo'g'rilgan aytim-olqishlar, allalar, qiziqmachoqlar, ovutmachoqlar orqali o'z mehrlarini dilbandlari qalbiga jo etishlarining boisi ham ana shunda. Zero, individdan to shaxs kamoloti davrigacha jasurlik, mardlik, vatanparvarlik kabi daxldorlik tuyg'ulari alla orqali farzand shuuriga singdirib boriladi. Milliy mentalitetimizning o'zagini tashkil etgan xalq badiiy tafakkuri Sharq xalqlari ma'naviyatining shakllanishi va taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etganligi inobatga olinsa, ta'kidlash mumkinki, oiladagi ilk pedagogik tarbiya aynan shu janrlar orqali bolalik davridan boshlab bizga badiiy-estetik saviyani oshirishda muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, bolaligimizda eshitgan ertaklarni umrimiz davomida yodda saqlaymiz. Ertaklar hamisha yosh qalb egalarini ezgulik sari chorlaydi. Har bir inson bolalikda eshitgan ertaklari zamirida ulg'ayadi, dunyoqarashi shakllanib, yaxshi va yomonni ertak obrazlari asosida dastlab farqlay boshlaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, farzandlarimizni tarbiyalashda ertaklarga murojaat qilamiz. Ularga o'zimizga yod bo'lib qolgan "Oltin tarvuz", "Ur to'qmoq", "Zumrad va Qimmat" kabi ertaklarni takror va takror aytib beramiz. Kichik yoshdagi bolalimizning sevimli ertaklaridan biri bo'lgan "Ur to'qmoq" ertagi-ga e'tibor qilinsa, uning syujetida "ochil dasturxon", "qaynar xumcha" bilan birga "ur to'qmoq" ham yondosh keltiriladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ertak qahramoni bo'lgan chol qilgan ezgu amali, ya'ni laylakni tuzoqdan qutqarganligi uchun laylak tomonidan "ochil dasturxon" va "qaynar xumcha" bilan taqdirlanadi. Ammo chol yo'lda kelayotib, soddaligi tufayli yolg'onchi bolalarga bu narsalarni boy berib qo'yadi, so'ngra "ur to'qmoq" yordamida bolalardan o'g'irlangan narsalarini qaytarib oladi. Ertakda "ur to'qmoq" yordamida yolg'onchi bolalarning jazolanishi voqealari qiziqarli hikoya qilingan.

Ertaklarning sehrli og'ushi farzandlarimizni rostgo'ylik, mehnatsevarlik, mehrimonlik, o'zidan katta, yoshi ulug'larga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishlik, do'stlarga, suygan yoriga sadoqat saqlash, xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy tuyg'ular egasi bo'lishga chorlaydi, ularga ota-onalarni e'zozlash, ilmli, hunarli, ziyrak bo'lish orqali kishi o'z maqsadiga va baxtiga yeta olishi mumkinligini uqtiradi. Masalan, "Rostgo'y bola", "Zumrad va Qimmat", "Aqli bog'bon", "Maymun va duradgor", "Eng yaxshi sovg'a", "Uch o'rtoq", "Kenja o'g'il", "Ilm afzal", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin", "Ziyrak uch yigit", "Ota vasiyati" kabi ko'plab ertaklar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning ezgu g'oyalari, o'ziga xos dunyoqarashi aks etgan ertaklarni farzandlarimizga aytib berish, o'qib berish, ularning o'zlarini ham ertaklarni o'qishga qiziqtirish orqali ularni yaxshi inson bo'lib yetishishlariga xizmat qilgan bo'lamiz.

Ertaklar kelajagimiz vorislari uchun tafakkuri boy ajdodlaridan munosib meros bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Salayeva M. O'zbek xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari // Xorazm folklori. 4-son. - Urganch, 2002. - B.84-86;
2. Yo'ldosheva D. Bolalar nutqida topishmoqlar // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2006.- 1-son. - B.82-84;
3. Abdujalilova Z, Aytimova S. Topishmoqlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati // Kasbiy ta'lif taraqqiyot yo'lida. -Toshkent, 2006.- 8-son. - B.72-74;
4. Jo'rayeva M. O'zbek xalq topishmoqlarining tarbiyaviy imkoniyatlari// Kasbiy ta'lif taraqqiyot yo'lida.- Toshkent. -8-son. - B.64-66;
5. Rasulova Z. Qadimgi turkiylarning mifologik tasavvurlari va uning ertak genezisidagi o'rni / "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika II an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 14-mart, 2022-yil, Urganch. -B.84-86;
6. Rasulova Z. "O'zbek xalq ertaklarining tadqiqi masalalari" // Til va adabiyot.uz. 2023. 14-son.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING SIFAT VA SAMARA-DORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM VAZIFALARI

*Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna
Oqoltin tumani 5-DMTT direktori*

Annotatsiya. Maktabgacha ta'limga bosqichi uzlusiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'limga olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish uchun amalga oshirish mumkin bo'lgan metodlar, jarayonlar, o'ziga xos holatlar tahlil etilgan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'limga bosqichi, samaradorlik, sifat, vazifa, metod, usul.

Maktabgacha ta'limga bosqichi vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'nnaviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirish, ularni muntazam ravishda ta'limga jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'limga sohasida, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda

Maktabgacha ta'limga bosqichi shaxsini sog'lam va yetuk qilib maktabga tayyorlash maqsasi

dini ko'zlaydi. Ta'lism tarbiya qancha erta boshlansa, uning samarasi shuncha erta namoyon bo'ladi, shuningdek, insonning butun hayot tarziga ijobjiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lism muassasalariga bolalar qamrovini kengaytirish, muassasalarni obodonlashtirish, ularning kirish qismidan tortib, yo'laklari, hattoki ekilgan gul, daraxtlari, guruh xonasidagi har bir jihoz bolani rivojlantirish uchun yo'naltirilganiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi tezkor davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlash, fikrini erkin ifodalashga o'rgatuvchi muhit yaratish, albatta, muassasaning samarali boshqaruviqa bevosita aloqador.

Maktabga borish - bola hayotidagi burilish davri. Shu sababli, kattalar ham, bolalar ham maktabga yaqinlashish zarurati bilan ko'rsatadigan tashvish tushunarli. Talaba, talaba pozitsiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning o'qishi majburiy, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatdir. U uchun u o'qituvchi, maktab, oila oldida mas'uldir. Talabaning hayoti barcha talabalar uchun bir xil bo'lgan qat'iy qoidalar tizimiga bo'ysunadi. Uning asosiy mazmuni barcha bolalar uchun umumiy bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishdir.

O'qituvchi va talaba o'rtasida juda o'ziga xos munosabatlar shakllanadi. O'qituvchi nafaqat bolaga hamdardlik uyg'otadigan yoki uyg'otmaydigan kattalar emas. U bolaga qo'yiladigan ijtimoiy talablarning rasmiy tashuvchisi. O'quvchining darsda olgan bahosi bolaga bo'lgan shaxsiy munosabatining ifodasi emas, balki uning bilimining ob'ektiv o'Ichovi, ta'lism vazifalarini bajarishi. Yomon bahoni itoat qilish yoki tavba qilish bilan to'ldirib bo'lmaydi. Sinfdagagi bolalarning munosabatlari o'yinda rivojlanayotgan munosabatlardan ham farq qiladi.

Bolaning tengdoshlar guruhidagi o'rnini belgilaydigan asosiy mezon o'qituvchining bahosi va o'qishdagi muvaffaqiyatidir. Shu bilan birga, majburiy faoliyatda birgalikda ishtirok etish umumiy javobgarlikka asoslangan munosabatlarning yangi turini vujudga keltiradi. Bilimlarni o'zlashtirish va qayta qurish, o'zini o'zgartirish yagona ta'lism maqsadiga aylanadi. Bilim va o'quv faoliyati nafaqat hozirgi vaqt uchun, balki kelajak uchun, kelajakda foydalanish uchun ham o'zlashtiriladi.

Bolalar maktabda olgan bilimlari ilmiy xarakterga ega. Agar ilgari boshlang'ich ta'lism fanlarning asoslarini tizimli ravishda o'zlashtirishga tayyorgarlik bosqichi bo'lgan bo'lsa, endi u birinchi sinfdan boshlanadigan bunday assimilyatsiyaning boshlang'ich bo'g'iniga aylanadi.

Bolalarning ta'lism faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli - bu vaqt bir daqiqagacha hisoblanadigan dars. Darsda barcha bolalar o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qilishlari, ularga qat'iy rioya qilishlari, chalg'imasliklari va ortiqcha ish bilan shug'ullanmasliklari kerak. Bu talablarning barchasi shaxsiyatning turli jihatlari, aqliy fazilatlari, bilim va ko'nikmalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Talaba ta'lism uchun mas'uliyatli bo'lishi, uning ijtimoiy ahamiyatini bilishi, maktab hayoti talablari va qoidalari bo'ysunishi kerak. Muvaffaqiyatli o'qish uchun u kognitiv qiziqishlarga ega bo'lishi, juda keng bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchiga o'rganish qobiliyatini tashkil etuvchi fazilatlar majmuasi mutlaqo kerak. Bu ta'lism vazifalarining ma'nosini, ularning amaliy mashg'ulotlardan farqini, harakatlarni bajarish usullarini bilish, o'zini tuta bilish va o'zini hurmat qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim jihat - bu bolaning ixtiyoriy rivojlanishining etarli darajasi. Har xil bolalar uchun bu daraja boshqacha bo'lib chiqadi, lekin etti yoshli oltita bolani ajratib turadigan o'ziga xos xususiyat - bu bolaga o'z xattiharakatlarini nazorat qilish imkoniyatini beradigan motivlarga bo'ysunish. birinchi sinfga kelib, maktab va o'qituvchining talablarini qabul qilish uchun umumiy mashg'ulotlarga jalb qilinadi.

Kognitiv faoliyatning o'zboshimchalikiga kelsak, u mакtabgacha yoshda shakllana boshlasa-da, u mакtabga kirguncha hali to'liq rivojlanmagan: bolaga ixtiyoriy e'tiborni uzoq vaqt ushlab turish, materialni eslab qolish qiyin. katta hajmli va boshqalar. Boshlang'ich mакtabda ta'lif bolalarning bu xususiyatlarini hisobga oladi va shunday tuzilganki, ularning bilim faoliyatining o'zboshimchaliklariga qo'yiladigan talablar asta sekin o'sib boradi, chunki ta'lif jarayonida u takomillashadi.

Bolaning mакtabga aqliy tayyorgarligi bir-biriga bog'liq bo'lган bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi. Birinchi sinfda o'qiyotgan bolaga atrofdagi dunyo haqida ma'lum ma'lumot kerak: obyektlar va ularning xususiyatlari, jonli va jonsiz tabiat hodisalari, odamlar, ularning ishlari va ijtimoiy hayotning boshqa jihatlari haqida. yaxshi va yomon nima", ya'ni. axloqiy me'yorlar haqida. Mакtabgacha yoshda shakllangan g'oyalarning to'g'riliqi, aniqligi va umumlashtirilishi - bu bilimning hajmi emas, balki uning sifati muhim.

Biz bilamizki, katta yoshdagagi mакtabgacha yoshdagagi bolaning majoziy tafakkuri umumlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish uchun juda boy imkoniyatlar beradi va yaxshi tashkil etilgan ta'lif bilan bolalar haqiqatning turli sohalari bilan bog'liq hodisalarning asosiy qonunlarini aks ettiruvchi g'oyalarni o'zlashtiradilar. Bunday fikrlar bolaning mакtabda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishiga yordam beradigan eng muhim yutuqdir. Agar mакtabgacha ta'lif natijasida bola turli fanlarni o'rganish predmeti bo'lib xizmat qiladigan hodisalarning sohalari va jihatlari bilan tanishsa, ularni ajrata boshlasa, tirikni tirikdan, o'simliklarni hayvonlardan ajrata boshlasa kifoya. , sun'iydan tabiiy, foydadan zararli. Har bir bilim sohasi bilan tizimli tanishish, ilmiy tushunchalar tizimlarini o'zlashtirish - kelajak masalasidir.

Mакtabgacha yoshdagagi bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagagi bolalarni mакtabga to'la-to'kis tayyorlashga, mакtabda beriladigan ta'lifni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Mакtabgacha ta'lif yoshidagi bolalar, asosan, mакtab ta'limga mакtabgacha ta'lif tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Mакtabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va mакtab ta'limga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nан rivojlantirish.

Mакtabgacha yoshdagagi bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari sog'lom va yetuk, mакtabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, "Mакtabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani mакtabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Mакtabga umumiyl tayyorgarlik bolaning mакtabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy,

estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharaoitlariga va o'quv materialining ongli egallahsha faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Umumiyl tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai-nazaridan 1 sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffakiyatli jamlaydi.

Bolani matabga maxsus ravishda tayyorligi matabda o'qishga umumiyl psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. MTTda bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallahsha tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni matabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlanga bo'lishi darkor. U yangi jiddyy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

Qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlashni rejalashtirish. Rejalashtirish – bu zarur shart-sharoit, foydalaniyotgan vosita, shakl va uslublarni ko'rsatgan holda, ta'lim-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma-ketligini oldindan belgilash jarayoni. Umuman, ta'lim-tarbiya ishining samaradorligi rejalashtirish qay darajada pishiq-puxta o'ylangani va amalga oshirilgani bilan belgilanadi. Bu turdag'i tayyorlash ham eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishning yangi zamонавији усулларидан unumli foydalaniib, topshiriqlar ijrosining muntazam nazorati natijasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni matab ta'limiga tayyorlashning sifat va samaradorligi oshib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent:Ilm ziyo, 2016.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
3. Mavru洛 A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiysi. – Toshkent:O'zbekiston, 2008.
4. "Илк қадам" давлат ўкув дастури. Тузувчилар: Грошева И.В., Евстафева Л.Г., Маҳмудова Д.Т., ва бошқалар. – Тошкент, 2018 йил.
5. The National Strategies Primary: Numbers and Patterns. December, 2009.
6. www.ziyonet.uz

TALABALARING TADQIQOT FAOLIYATINI QO'LLAB- QUVVATLASHDA RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARINING TUTGAN O'RNI

Xoshimov Sardorbek Nozimjon o'g'li
Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli vositalar va platformalar oliy ta'lif talabalarining tadqiqot faoliyatini yaxshilash va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. U turli xil raqamli resurslarni, jumladan, onlayn ma'lumotlar bazalarini, tadqiqot boshqaruvi dasturiy ta'minotini, hamkorlik vositalarini va ma'lumotlarni tahlil qilish platformalarini va ularning talabalar tadqiqotining samaradorligi, sifati va ko'lamiga ta'sirini o'rganadi.

